Belgining ortiqligi. Masalan, A.Obidjoning bir misra-qatordangina iborat “Ignabarg she'rlar”idan birida: “ Qo'li is-s-siq, qarashi sovuq.” Qarashi – nigohining qanchalik sovuqligini ifodalash uchun issiq so'zini qarshilantirish, uning tarkibidagi “s” harfini uchta yozish bilan ham belgi kuchaytirilmoqda, ham “s-s-s” – ilon tovushiga taqlid qilgandek, bir misragina she'nda chuqur ko'chma ma'nou anglatishga sabab bo'lmoqda.

Harakatning davomiyligi.

“Ichi yorug’,

Tomidan

O'tmaydi chakka.

Havas qildi chigirtka:

-Chir-r-roylikku ja!”[15.191] Bolalar uchun yozilgan “Guldor pufakcha” she'ridan olingan bu parchada “chiroylik” so'zidagi “r” tovushining uchta yozilishi bilan chigirtka tovushiga taqlid bo'lgan “chir” tasviriy so'ziga ishora qilinib, 3 ta “r” titroq tovushi ovozning davomiyligini ifodalamoqda.

“Guldor pufakcha” – 10 bandlik, bolalar uchun hazil she'r bo'lib, uning deyarli har bir misrasida turli poetik birliklarni kuzatish mumkin:

“Xo'kiz aytar:

- Uy emas,

Mo'-o"-jiza, qarang!

“E-ha, e-ha!” – der Eshak

Bo'lib hangu mang.[15.191]

Shuningdek she'nda qurbaqa tilidan - vaq, vaq-tim chatoq, qur-r-volardim men ham uy; mushuk tilidan – Px-x! deya; xo'roz tilidan – quq-quruq-ku bu; echki tilidan– E-e... Be-e...; kuchuk tilidan - Ir-r... Bir-r uyga kiray; qarg'a tilidan – qar-r... qar-r-shi bo'lmasang gar, ber-r-rayin, qag'-qag' kabi fonopoetik bo'yoqdor so'zlar qo'llanilgan. Muallif badiiy tasvir vositalariga kiruvchi intoq – nutqlantirish san'atini fonopoetik hodisalar bilan shunday muvaffaqiyatli qo'llaganki, she'rdagi hayvon va qushlarni o'z ovozida, inson (o'zbek) tilida so'zlatgan. Unli va undosh tovushlarni 2-3 tadan yozish, so'zlarni bo'g'lnarga bo'lib yozish kabi fonografik vositalar bilan kitobxonni beihtiyor xayvon va qushlar obraziga kirishga undaydi, badiiy zavq va emosional-ekspressivlik yuzaga keladi.

“To'tining talabalari” she'rida:

“To'tiqushga yalinishdi

Qarg'a, Cho'chqa, It, Mayna:

Odamlardek gapirishni

Bizga ham o'rgat, oshna.

To'ti dedi: - Men roziman,

Mushkul ishdir bu garchi.

Qani, aziz talabalar,

***“Ar-r-rabaliq”* denglar-chi.**

Qarg'a dedi: - Qar-r-rabaliq!

***“Ir-r-rabaliq”* dedi It.**

***“Xur-r-rabaliq”* dedi Cho'chqa,**

Mayna dedi: -Vit-vit-vit...” [15.] Muallif “arrabaliq” so'zidagi qo'sh undoshni yana bittaga ko'paytirib, turli hayvonlar ovoziga taqlid tovushlarni qo'shgan holda talaba-hayvonlarni o'z ovozida “odamlardek gapiriishi”ni o'quvchiga eshitirmoqni maqsad qilgan.

Ovoz kuchining pastligi.

“ Yo', yo'... Qo'rqmang, o'lmayman,

Ko'p deysiz-ku havasim...

Ix-x! Tugmamni yechvoring...

Qisiliyapti nafasim...

Oy-y... joni-i-m...” [15.31] “Kasal bola” she'rining oxirgi bandi bo'lgan ushbu parchada betob bolaning oyisiga past ovozda so'zlayotgani tasviri leksik va fonetik vositalar yordamida aniq ifodalangan. Nafasi qisilib, holdan toygan holatini tasvirlashda “ix-x” – ixragan tovushga taqlid, “oy-

Tushgim kelmas tulpordan.

Ko'rib dovrug' solganing

*Chiqsam bas **bi-i-r** xumordan..." [15.55]*

Bu misolda muallifning "Yosh shoirga" sarlavhali she'rining oxirgi misrasidan bo'lib, ustozning tulpor ustida shogirdi dovrug'idan faxrlanib, "bi-i-r" xumordan chiqayotgani tasviri "i" unlisining birdan oshiq yozilishi orqali yanada yorqinroq ifodalananib, belgi kuchaymoqda.

Shuningdek, badiiy matnda unlilarni birdan ortiq yozish usulidan qahramonning biror nimadan hayratlanishi, qo'rqishi, taajjubga tushishi, iltimos qiliish, qo'rqtish kabi holatlarini ifodalashda ham foydalilanadi. Masalan, qo'rqtish uchun:

"Vaqa-a! Vaqa-a! Birontang ham joyingdan qimirlama-a-a-a!" [16.25];

"Qo'rqma-a, hozir qornim to'-o'-q. Senlarni ochqaganimda yeyma-a-a-n.";

"Ha-a, qo'lga tushding-ku! Yeyma-a-n! Go'shtingni titvorama-a-n!"

Qo'rqish:

"Voy do-o-d!"

Endi quridi sho'rim,

Yordam bersang-chi, Bo'ri!" ;

"Endi senga tegmayma-a-n.

Dushmanlaringni yoyman xolo-o-s. Voy vaq v-a-a-q!"

Iltimos, yalinish ohangini kuchaytirish:

"O'tinib so'rayma-a-n, meni qo'yvo-o-r!";

"Rahming kelsi-i-n, iltimo-o-s!" [16.30]

Afsus, nadomat ohangini:

"Ichdim suvsar qonini,

Vijdonim qani?

Oldim kaptar jonini,

Vijdonim qani?

Qa-a-a-ni?" [16.13] Muallifning "Qorinbotir" she'riy dramasidan keltirilgan ushbu parcha asar qahramoni Shoir-Qoplonning o'z-o'zini malomat qilayotgan holatini, nutqining ohangini mohirona bayon qilmoqda. "Qa-a-a-ni" so'zidagi "a" unlisining uch karra takrorlanishi va "i" unlisining bir martagina yozilishi, qolaversa, "i" so'z oxiridagi qisqa unli bo'lgani uchun bu so'z-gap qanday ohangda o'qilishi, ijro etilishi kerakligi muallif tomonidan aniq ko'rsatib qo'yilganini ko'rish mumkin.

Ta'kidlash, kinoya ohangi:

"Assalomu alaykum, shohim!

Va alaykum assalo-o-m." [16.6]

" – Be-e! Askaring bari betasir.

Bu yoqmasa bo'laqol vazir!"

Mazkur fonografik usuldan badiiy matnda xitob, chaqirish, da'vat, tinglovchi e'tiborini jalg qilish kabi maqsadlarda ham foydalilishini kuzatish mumkin. Masalan:

"Mushtoqlaring kamaygan sayin,

Sog'inarsan kutishlarimni.

Itingga non tashlab atayin:

"Qoplonjo-o-o-n", deb o'tishlarimni." [15.22]

"Beh, Olapar!

Olapa-a-a-r!!! – deya

Izillaydi jovdirab har yon. [15.132]

"Quyonjo-o-n! Yordam beringla-a-r!" [16.2]

Unli tovushlarning birdan ortiq yozish bilan ma'lum bir unlining cho'ziqroq talaffuz etilishi ko'rsatilar ekan, bu cho'ziqlik stilistik jihatdan ahamiyatli hisoblanadi. Bunday tovush fonemaning stilistik varianti deb ataladi. O'zbek adabiy tilida unlilarning cho'ziq-qisqa talaffuzi fonologik jihatdan ahamiyatsiz hisoblanadi. Cho'ziqlik gapiruvchining his-hayajonini ko'rsatuvchi fonetik-stilistik belgidir." [13.37]

2.Undoshlarni birdan ortiq yozish. Aslida orfoepik me'yor bo'yicha bir undosh talaffuz qilinishi kerak bo'lgan so'zlar muayyan vaziyatlarda ekspressiya va estetik maqsad talabi bilan atayin qavatlab talaffuz qilinadi. "So'zlovchining ichki ruhiyati (sinqilish, xursandlik kabilalar) va maqsadini kitobxonga «aynan» yetkazish uchun yozuvchilar badiiy matnda bu holatni undoshlarni

ILMIY AXBOROT

O'zbek tilshunosligida fonografik vositalalar bo'yicha yirik hajmda tadqiqot olib borgan tilshunos olma G. Yaxshieva, fonografik uslubiyatga "talaffuzning uslubiy imkoniyat va xususiyatlarini yozma nutqda aks ettirish yo'l va usullarini, shuningdek, yozma nutqning grafik(imloviy) uslubiy imkoniyat va xususiyatlarini dialektik birlikda o'rganuvchi va o'rgatuvchi umumiy uslubiyatning bir bo'limidir" , deb izoh beradi.[14.30]

A.Haydarov matn bo'laklarini abzas bilan yozish, harflarni bosh va kichik yozish, turli kattalikda yozilgan harflarni ishlatalish, ayrim so'z va matn bo'laklarini kursiv bilan yozish, she'r qatorlarini pog'onalab yozish, she'r qatorlaridan birini tushirib qoldirish, uning o'rniga qator nuqtalar yozish, matnda turli tinish belgilaridan uslubiy maqsadda foydalanish kabilarni "sof grafik vositalar" deb nomlaydi. Grafik o'zgarishlar nafaqat talaffuzning o'ziga xos xususiyatlarini, balki urg'uli so'zlarni ta'kidlash, ta'kidning intensivligini ifodalash uchun ham ishlataladi.

Tilshunos olim M. Yo'ldoshev badiiy matning fonetik-fonologik xususiyatlarini lingvopoetik tahlilga tortishda badiiy matnda fonetik usullar bilan ta'minlanayotgan ekspressivlik – fonopoetik hodisalar sifatida 1.Alliteratsiya (undoshlar takrori) 2. Assonans (unlilar takrori) 3. Geminatsiya (undoshlarni qavatlash) 4. Unlilarni cho'zish 5. So'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish 6. Tovush orttirish 7. Tovush tushirish kabi fonetik hodisalarning ekspressivlikka aloqasi, ularning poetik aktuallashuvi masalasini nasriy va she'riy asarlardan keltirilgan misollar orqali dalillaydi.[3.27] Ushbu fikrlarga qo'shimcha tarzda 1.Tovush o'zgarishi hodisalari - assimilyatsiya, dissimilyatsiya 2. Evfoniya (tovushlar takrorining aralash tiplari) 3.Onomatopeya 4. Paronomaziya hodisalarining ham fonopoetik vositalalar qatoriga kiritish mumkin deb hisoblaymiz. Hamda ushbu fonopoetik vositalarning badiiy adabiyot tilida – she'riyat va nasr misolida, emosional-ekspressivlik va badiiylikni ta'minlovchi unsurlar sifatida tahlil etish mumkin.

Ushbu tadqiqotimizning ob'ekti bo'lgan A.Obidjon she'riyatida ham muallif qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo'lish, xafa bo'lish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching, kesatiq, olqish, so'roq, ta'kid, qoniqmaslik, norizolik, tilak-istik, qo'llab-quvvatlash kabi holatlarni aynan berishda yuqoridagi barcha fonopoetik vositalardan unumli foydalanganini ko'rish mumkin.

Ushbu maqolamizda muallifning fonografik usullardan foydalanish mahoratiga to'xtalmoqchimiz. Masalan, unli yoki undoshlarni birdan ortiq yozish usuli:

1.Unlilarni birdan ortiq yozish. Bunda unlini cho'zib talaffuz qilinganligi tushuniladi. Unlini cho'zib talaffuz qilish orqali qahramonning voqelikka munosabati oydinlashtiriladi. Ilmiy adabiyotlarda mazkur usul orqali belgining me'yordan kuchsiz yoki ortiq ekanligini ifodalashda foydalaniishi ta'kidlanadi.[8.43]

Belgining kuchsizligi. Anvar Obidjonning "Kayfiyat" she'rida:

"Nelar haqda kuylar chigirtka,
U ham ishqdan kuyganmi yohud?
O'tiribman **cho'mi-i-i-b** sukulga,

Aytolmasdan dardim men noshud."[15.22] Qahramonning dard bilan, chigirtka chirillashidan allalanib, sukulga cho'mishi tasviri "cho'mi-i-ib" so'zida unlilarni birdan ortiq yozilishi, cho'zib o'qilishi bilan yanada yorqinroq ifodalanoqda. She'lda unlilarning bitta yozish o'rniga 3 ta yozilishi she'r ritmining bo'zilishiga sabab bo'layotganday tuyulsa-da, aslida sokin ohangni hosil qilmoqda.

"*Bolalikda chaqnab qarog'im,*
"*Ona!*" – dedim yoygancha quloch,
"*Yorim!*" – dedim yigitlik chog'im,
"*Yurti-i-i-m...*" – dedim,

Qorga do'ngach soch." [15.41] Bu misolda ham unlilarning birdan oshiq yozilishi, "yurti-i-im" so'zidan keyin ko'p nuqtaning qo'yilishi hamda qahramonning kuchdan qolib, qarilik chog'idagi xitobi bo'lgani uchun tlaffuzdag'i kuchsizlik belgisini ifodalab kelmoqda.

Belgining ortiqligi.

"*Bu kech yedim tushimda*

Sutdek o-oppoq kulchan." [15.31] Bu misolda kulchaning oqligi sutga o'xshatilishi, sutdek oq emas, oppoq orttirma darajasining qo'llanilishi ustiga "o" unlisining birdan oshiq yozilishi bilan belgi kuchaytirilmoqda.

"*Menmi? E, men shunchaki*

Tilshunoslikda fonetik birliklar, fonetik hodisalar va ularning ekspressivlikka daxidorlik xususiyatlari ular ustida lingvopoetik tadqiqotlar olib borilmagan paytlarda ham o'rganilgan. Hozirda biz fonopoetikaning o'rganish ob'ekti doirasiga olgan fonetik birlik va fonetik hodisalar fonika va fonostilistika sohalari tomonidan o'rganilgan. Shunday ekan, ularni fonopoetika degan soha doirasiga olib lingvopoetik tomonidan o'rganilishida qanday farq bor, degan o'rinni savol tug'iladi.

Ma'lumki, fonetik stilistika ham tilning fonetik birliklari xos bo'lgan ekspressivlik xususiyatlarini o'rganadi, "ma'lum bir tildagi barcha fonetik vositalarning ekspressiv tomonlarini o'rganuvchi" sohadir.[5.75]

"Nutq tovushlaridagi emosionallik, ta'sirchanlik, talaffuzdagi jarangdorlik, eshitishdagi yoqimlilik, ularning badiiy qo'llanish qoidalari, estetik roli fonetik stilistikani o'rganish ob'ektidir".[6.88]

Fonostilistika, "tovushlarning matnlardagi stilistik ottenkalari va emosional-ekspressivlik xususiyatlarini" o'rganadi [7.7], o'z o'rnida fonika "nutq tovushlarining va tildagi boshqa fonetik vositalarning estetik va emosional vazifalarini o'rganadi"[9.123].

I.B.Golub «Hozirgi zamon rus tili stilistikasi» nomli asarida tilshunoslikning fonetik sathni o'rganuvchi bo'limlari xususida mulohaza yuritar ekan, fonika va fonostilistikani bir-biridan farqlaydi. "Shuningdek fonika deyilganda nutqni tovush jihatdan tashkil etish, ya'ni fonetik sathdagi til vositlarini ma'lum stilistik maqsadni ko'zlab tanlash va qo'llash tushuniladi. Fonika deyilganda tilning fonetik sathidagi stilistik ahamiyatga ega bo'lgan vositalar ham tushuniladi" tarzidagi fikrini qo'shimcha qiladi.[10.259]

O'zbek tilshunosligida fonostilistika sohasini chuqur o'rgangan tilshunos olim S.Karimov ham o'z tadqiqotlari natijasida haqiqatan fonika va fonostilistika o'rganish ob'ekti nuqtai nazaridan muayyan farqlarga ega ekanligini qayd etadi. Tilshunos olim, "fonostilistika umuman nutqning fonetik jihatdan shakllanishida ma'lum stilistik maqsadlar ko'zda tutilgan jihatlarni, shu bilan birgalikda, nutq tovushlarining funksional-stilistik differensiasiyasini, ya'ni uslublararo xoslanish va qo'llanish xususiyatlarini o'rgansa, fonika poetik va prozaik matnlarni tovush jihatdan tashkil etuvchi ritm, alliteratsiya, tovushga taqlid, rifma, assonans va, hatto, kulgini yoki satirik samaradorlikni hosil qilish maqsadida qilingan nostandard talaffuzlarni" ham o'rganishi haqida ta'kidlarkan, o'z o'rnida ularning "o'rtasiga «xitoy devori» qo'yish tarafdoi emasmiz. Payti kelib, ularning umumiyligi va xususiy jihatlariga aniqliklar kiritilar. Hozir esa, kuzatishlar fonostilistik tushunchasi atrofiga birlashishi, o'zbek tilidagi fonetik vositalar beradigan ekspressiv ma'nio ottenkalari va ularning ma'lum o'rinnlarda funksional chegaralanishi xususida mulohaza yuritish bilan chegaralanish yetarli bo'lar, deb o'ylaymiz." [4.15]

Darhaqiqat fonika va fonostilistikani umumiyligi va xususiy jihatlari ularning fonopoetika doirasida jamlanishi bilan birlashadi deb aytish mumkin.

Fonopoetikaning o'rganish ob'ekti haqidagi tadqiqotlar va uning doirasida fonostilistika va fonika sohalarining birlashuvi haqidagi fikrlar asosida fonopoetika terminiga, fonopoetika - fonetik hodisalar va tovush o'zgarishlarining badiiy-estetik vazifalari; fonetik usullar yordamida ekspressivlikning ta'minlanishi; poetik va prozaik matnlarni tovush jihatdan tashkil etuvchi ritm, alliteratsiya, tovushga taqlid, rifma, assonans va, hatto, kulgu, g'azab, kinoya, piching, qo'rquv va boshqalarni ifodalash yoki satirik samaradorlikni hosil qilish maqsadida qilingan nostandard talaffuzni aks ettiradigan badiiy nutqni o'rganadi, tarzida izoh berish mumkin deb o'ylaymiz.

Badiiy matnni fonopoetik tahlil qilishda muallif qo'llagan fonografik belgi va ishoralardan foydalanamiz. Og'zaki nutqdan farqli ravishda badiiy asarlarda ruhiy holatni yozuvda ifodalash o'ziga xos murakkablikni yuzaga chiqaradi. "Tovushlarni uslubiy qo'llash bilan bog'liq qonuniyatlarini yozuvda «aynan» ifodalash imkoniyati cheklangan. Biroq, talaffuz va bayon muvofiqligiga fonografik vositalar yordamida erishish mumkin»[3.27]. Fonografik vositalar ekspressiv vositalarning og'zaki nutqda intonasiya va urg'u orqali ifodalangan hissiyotlarni yozma shaklda ifodalashda qo'llanadigan vositalardir. Tilshunos olim A.Haydarov, "grafostilistik vositalardan foydalanish muallif strategiyasining imkoniyatlarini namoyish etishdir", deb ta'kidlaydi.[11.19-22]

Rus tilshunosi L.I.Eremina, "badiiy nutqda so'zlardagi unli va undosh harflarni qoidaga zid ravishda turli shakllarda yozish, bir o'rinda 'ir tinish belgisini birdan ortiq qo'llash, shuningdek, boshqa turli ishoraviy belgilardan foydalanish muhim uslubiy ahamiyatga" ega ekanligini ta'kidlaydi.[12.77]

KIRISH

Maqolada bugungi o'zbek tilshunosligida lingvopoetika tushunchasi, lingvopoetik tahlil tamoyillari va poetik aktuallashgan til birliklari sifatida fonetik birliklar va ularning badiiylikni taminlash vazifalari haqida so'z boradi. Badiiy tasvirda she'rning mazmuni, ritmiga mos holda ishlatilgan fonopoetik vositalar kitobxon hissiyotiga kuchli ta'sir qiladi. So'zda konnotativ ma'nno fonetik vositalar bilan ham darajalanib borish xususiyatiga ega. Ushbu maqolada badiiy matnda unli yoki undoshlarni birdan ortiq yozish, ya'ni fonografik usullardan foydalanish mahorati lingvopoetik tahliliga tortildi. Tadqiqot ob'ekti: A.Obidjonning she'riy asrlari matni. Tadqiqot predmeti: Badiiy asar matnidagi fonografik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari. Tadqiqot metodi: til sathlari birliklarining sistem-struktur tahlillari. Ushbu tadqiqotning ob'ekti bo'lgan A.Obidjon she'riyatida misolida muallifning fonografik usullardan foydalanish mahorati tadqiq qilindi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot ob'ekti: A.Obidjonning she'riy asrlari matni. Tadqiqot predmeti: Badiiy asar matnidagi fonografik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari. Tadqiqot metodi: til sathlari birliklarining sistem-struktur tahlillari.

Adabiyotlar sifatida M.Yo'ldoshevning "Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari", S.Karimov "O'zbek tilining fonetik stilistikasi", A.Obidjon "Saylanma:she'rlar", A.Obidjon "Qorinbotir" va boshqa lingvopoetik tahlil tamoyillari, fonetik sath birliklarining lingvopoetik tahliliga doir turli monografiya, maqolalar, tilshunoslik lug'atlaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Badiiy til keng qamrovli ob'ekt sifatida funksional darajalangan qismlarga – fragmentlarga bo'linish xususiyatiga ega. Biroq amalda ushbu ob'ektning fragmentlarini badiiy nutq tahliliga beriladi. Badiiy nutq keng qamrovli tushuncha bo'lib badiiy asar tili badiiy nutqning bir ko'rinishidir. U tilning ekspressiv vazifasini o'z ichiga olgani uchun til sistemasining barcha satx birliklarini qamrab oladi. Shundan kelib chiqib, lingvopoetika fonopoetika, leksopoetika, sintaktik poetika kabi turlarga bo'linadi. Lingvopoetikaning vazifikasi ushbu sohalarni alohida-alohida o'rganish va ularning o'zaro munosabatlarini ham yoritib berishdan iborat.

Jumladan fonetik-fonologik sathda bir xil tovushlar, bir xil bo'g'inlarning takrorlanib kelib, assonans(bir xil unlilar takrori), alliteratsiya(bir xil undoshlar takrori) hodisalarini yuzaga keltirishi hamda ta'sirchanlikni yuzaga keltiruvchi vosita sifatida hizmat qilishi o'rganiladi.

Fonopoetika bugungi kunda alohida tadqiqni talab etadigan sohalardan biri bo'lib qolmoqda. Fonopoetika lingvopoetik tadqiqotlarning ayrim qismi sifatida tekshirib o'tilsada, hali monografik planda tadqiq etilgan emas. Keyingi yillarda qilingan lingvopoetik tadqiqotlarning deyarli har birida qaysidir ma'noda fonopoetik tahlillar qilinganligini ko'rish mumkin. Bu esa fonopoetika lingvopoetik tadqiqotlarning uзвиy bir qismi hamda alohida tadqiqot sohasi ekanligiga dalolatdir.

Xalqaro miqyosda ham bu sohada hali yetarli darajada tadqiqotlar o'tkazilmagan. Fonopoetika haqida gap ketganda fonetik hodisalar hisoblangan alliteratsiya, assonans, geminasiya, tovush orttirish, tovush tushirish singari hodisalar va ularning badiiy matnda, asosan she'riy asarlarda badiiy ifoda, emosional-ekspressivlik ularshishi kabilar, rifma – qofiyalanishning poetik tomonlariga ko'proq ahamiyat berilgan.

Ifodalilikning fonetik vositalari sifatida I.R.Gal'perin quyidagilarni ko'rsatadi:
1.Onomatopeya; 2.Alliteratsiya; 3.Qofiya; 4.Ritm.[1.113]

Fonika (yunoncha tovush) - badiiy nutqning ovozli tashkil etilishi, shuningdek poetikaning tovush hodisalarini o'rganuvchi bo'limi. Fonika-evfoniyaning asosiy elementi tovush takrori bo'lib, tovush takrori xususiyatiga ko'ra quyidagi turlari mavjud: 1.Alliteratsiya (undoshlar takrori); 2. Assonans (unlilar takrori); 3.Anafora (so'z boshida tovush va tovush birliklarining takrori); 4.Epifora (so'z oxirida tovush va tovush birliklarining takrori); 5.Onomatopeya.[2.97]

O'zbek tilshunosligida lingvopoetik tadqiqotlar tamoyil va yo'nalishlarini monografik planda tadqiq etgan tilshunos olim M.Yo'ldoshev "Badiiy matn va uning lingvopoetik tadqiqi" asarida badiiy matning fonetik-fonologik xususiyatlari haqidagi fikr yuritarkan, "She'riyatda asosan, alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unlilar takrori), geminasiya (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan foydalaniladi. Nasrda unlilarni cho'zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish, tovush orttirish yoki tovush tushirish kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik" ta'minlanishi haqida ta'kidlaydi.[3.26]

FONETIK HODISALAR VA TOVUSH O'ZGARISHLARINING BADIY-ESTETIK
VAZIFALARI (ANVAR OBIDJON SHE'RİYATI MISOLIDA)

ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ ФОНЕТИЧЕСКИХ ЯВЛЕНИЙ И
ЗВУКОВЫХ ИЗМЕНЕНИЙ (НА ПРИМЕРЕ ПОЭЗИИ АНВАРА ОБИДЖАНА)

ARTISTIC AND AESTHETIC FUNCTIONS OF PHONETIC PHENOMENA AND SOUND
CHANGES (BY THE EXAMPLE OF ANVAR OBIDJAN POETRY)

Ortikova Nargizaxon Yoqubjonovna¹

¹Ortikova Nargizaxon Yoqubjonovna

– Farg'ona davlat universiteti, tadqiqotchi
Farg'ona tuman 63-o'ta matab ijodiy-madaniy
masalalar bo'yicha targ'ibotchi

Annotatsiya

Fonopoetika bugungi kunda lingvopoetik tadqiqotlarning bir qismi sifatida alohida tadqiqni talab etadigan sohalardan biridir. Keyingi yillarda qilingan lingvopoetik tadqiqotlarning deyarli har birida qaysidir ma'noda fonopoetik tahlillar qilinganligi fonopoetika lingvopoetik tadqiqotlarning uzbek bir qismi hamda alohida tadqiqot sohasi ekanligiga dalolatdir. Badiy tasvirda she'rning mazmuni, ritmiga mos holda ishlatilgan fonopoetik vositalar kitobxon hissiyotiga kuchli ta'sir qiladi. So'zda konnotativ ma'no fonetik vositalar bilan ham darajalanib borish xususiyatiga ega. Ushbu maqolada badiy matnda unli yoki undoshlarni birdan ortiq yozish, ya'ni fonografik usullardan foydalanish mahorati lingvopoetik tahliliga tortildi. Tadqiqot ob'ekti: A.Obidjonning she'riy asrlari matni. Tadqiqot predmeti: Badiy asar matnidagi fonografik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari. Tadqiqot metodi: til satxlari birliklarining sistem-struktur tahlillari. Ushbu tadqiqotning ob'ekti bo'lgan A.Obidjon she'riyatida misolida muallifning fonografik usullardan foydalanish mahorati tadqiq qilindi.

Аннотация
Фонопоэтика является одним из направлений, требующих специального изучения в рамках лингвопоэтических исследований. Тот факт, что практически каждое лингвопоэтическое исследование, проводимое в последние годы, в том или ином смысле включает в себя фонопоэтический анализ, свидетельствует о том, что фонопоэтика является составной частью лингвопоэтических исследований и отдельной областью исследований. Фонопоэтические средства, используемые в художественном образе в соответствии с содержанием и ритмом стихотворения, оказывают сильное воздействие на чувства читателя. Коннотативное значение слова имеет характеристику ступенчатости с помощью фонетических средств. В данной статье лингвопоэтическому анализу подвергся навык написания более одной гласной или согласной в художественном тексте, т. е. навык использования фонографических приемов. Объект исследования: текст поэтических эпох А. Абиджана. Предмет исследования: лингвопоэтические особенности фонографических единиц в тексте художественного произведения. Метод исследования: системно-структурный анализ единиц языкового уровня. На примере поэзии А. Абиджона, являющейся объектом настоящего исследования, исследовано умение автора использовать фонографические приемы.

Abstract

Phonopoetics is one of the areas requiring special study within the framework of linguistic and poetic research. The fact that almost every linguopoetical research conducted in recent years, in one sense or another, includes phonopoetical analysis, indicates that phonopoetics is an integral part of linguopoetical research and a separate area of research. The phonopoetic means used in the artistic image in accordance with the content and rhythm of the poem have a strong impact on the reader's feelings. The connotative meaning of the word has the characteristic of stepping with the help of phonetic means. In this article, the skill of writing more than one vowel or consonant in a literary text, that is, the skill of using phonographic techniques, was subjected to linguo-poetic analysis. Object of study: the text of the poetic eras of A. Abidjan. Subject of study: linguistic and poetic features of phonographic units in the text of a work of art. Research method: system-structural analysis of language level units. On the example of the poetry of A. Abidjon, which is the object of this study, the author's ability to use phonographic techniques is investigated.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, fonopoetika, fonografik vositalar, fonika, fonostylistika, evfoniya, alliteratsiya, assonans, onomatopeya, qofiya.

Ключевые слова: лингвопоэтика, фонопоэтика, фонографические средства, фонетика, фоностилистика, эвфония, аллитерация, ассонанс, звукоподражание, рифма.

Key words: linguopoetics, phonopoetics, phonographic tools, phonics, phonostylistics, euphony, alliteration, assonance, onomatopoeia, rhyme.

ILMIY AXBOROT

ham ishtirok etadi. Publisistik uslub shunday uslublardan bo'lib, o'zlashma qatlamga doir til birliklari birinchi o'rinda shu uslubda qo'llanishni boshlaydi. Qaysidir ma'noda yangi so'zning tilga o'rashib ketishi ham publisistik uslubda bo'ladi. Publisistik uslubning o'zlashtirilayotgan so'zlar bilan bo'ladigan munosabati haqida Y.Odilov quyidagilarni yozadi: "...Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, bank-moliya, ta'lim-tarbiya, tibbiyot va boshqa ko'plab sohalarga oid diller, menejment, konsalting, kredit, lizing, ipoteka, kollej, bakalavr, magistr, onlays, moderator, mediakonferensiya, mediamadaniyat, patronaj kabi o'zlashma va yasalmalar o'zbek tiliga publisistik matnlar orqali kirib kelgan, shu uslubda qayta-qayta qo'llanishi natijasida xalq tiliga kirib borib, uzuallik kasb etgan.

Demak, tilda kechayotgan leksik-semantic o'zgarishlar uning vazifaviy uslublarida, birinchi navbatda, publisistik uslubda aks etadi. Publisistik uslubga xos matnlar auditoriyasining kengligi hamda davriyiligi tufayli yangi o'zlashmalar, faollashgan so'z va sintaktik tuzilmalar tilda barqarorlashgan" [5, 37]. Ma'lum bo'lishicha, yangi so'zning keyingi qo'llanishi publisistik uslubdan boshlanadi, agar publisistik uslubda o'z o'rnnini topa olsa, keyin boshqa uslublarga ko'chib o'tadi. Publisistik uslub ma'lum ma'noda tajriba maydoni vazifasini bajaradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mazkur xildagi olinma so'zlarni tartibga solish kerak bo'ladi, chunki bu jarayonda o'zlashma so'zni shunday osongina qabul qilib qo'yish bilan ish bitmaydi. Tilshunoslar, jurnalistlar va boshqa fan sohalari vakillari har bir xorijiy so'zni matnga olib kirishdan avval "o'zbek tilida muqobili yo'qmikan?" degan o'y-fikrdan o'tishi kerak hamda birinchi navbatda, o'zbek tilidagi muqobilini izlash zarur bo'ladi. Tilshunoslikka doir ishlarda yangi davrga xos o'zlashma so'zlar hali ilmiy o'r ganilmagan. Tilshunoslarning vazifasi imkon qadar tilning ichki imkoniyatlarini ishga solib, o'zlashmalarning muqobillarini topib, xorijiy so'zlarni tartibga solish yuzasidan tavsiyalar berishdan iborat.

ADABIYOTLAR RO'YXARI

1. Mualliflar jamoasi. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981. – B.55. (1. A authors team. Lexicology of Uzbek language. – Tashkent: Science, 1981. – P.55.)
2. Shoniyozi K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. – Toshkent: Sharq, 2001. – B.189–190. (Shaniozov K. The formation process of the Uzbek nation. – Tashkent: Sharq, 2001. – P.189-190.)
3. Nurmonov A va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining I, II, III bosqich talabalari uchun darslik. Qayta ishlangan 3-nashri. – Toshkent: Ilm-ziyo, 2015. – B.206. (Nurmonov A and others. Modern Uzbek literary language. Textbook for I, II, III level students of academic lyceums and vocational colleges. Revised 3rd edition. – Tashkent: Ilm-Ziya, 2015. – P.206.)
4. Mahmudov N. So'z o'zlashtirishda me'yor va milliylik / Til tilsimi tadqiqi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2017. – B.153. (Mahmudov N. Norms and nationality in word acquisition / Linguistic research. – Tashkent: Mumtoz Soz, 2017. – P.153.)
5. Odilov Yo. Publitsistik matnlardagi lisoniy o'zgarishlar // Til va adabiyot ta'limi, 2017. – №8. – B.37. (Odilov yo. Liatic changes in public texts // Language and literature education, 2017 – №8. – P.37.)

va fors-tojik xalqlari bilan aloqalar tilimizning ancha oldingi bosqichlarida boshlangan. O'zbek tilining tarixiy davrlariga xos bo'lgan va bugun ham mayjud o'zlashma so'zlari haqida "O'zbek tili leksikologiyasi"ning o'zlashma qatlam so'zlariga bag'ishlangan qismida shunday deyiladi: "O'zbek tilida hozirda mavjud va qo'llanishda bo'lgan barcha so'zlar, grammatick vositalar bu tilning o'ziniki, uning o'z boyligidir. Ammo bu leksik boylik o'zbek tilida birdan yuzaga kelgan emas. O'zbek tili lug'at sostavi murakkab rivojlanish bosqichlarini boshdan kechirgan. Ilk davrlarda u turkiy qabila tillari va ba'zi qadimiylar chet tillarning ayrim leksik elementlarini o'zida birlashtirgan holatda bo'lgan bo'lsa, keyinchalik o'zbek tili lug'at sostaviga fors-tojik tilidan, arab tilidan, mo'g'ul va xitoy tillaridan so'zlar qabul qilingan" [1, 55].

Ma'lumki, o'zbek xalqi qadim davrlardan buyon tojik xalqi bilan yonma-yon, qo'shni bo'lib yashab keladi. Bu xalqlar bir-biri bilan azal-azaldan savdo-sotiq, ijtioiy-madaniy va boshqa sohalarda o'zaro hamkorlik qiladi. Qadimshunos olim Karim Shoniyofov bu haqda quyidagilarni yozadi: "IX-X asrlarda Markaziy Osiyo hududlarining etnik tarkibi bir tekisda bo'lmagan. Tilga olingan viloyatlar aholisining katta qismi turkiyabon xalqlar bo'lgan. Vohalarda turkiy xalqlar bilan yonma-yon, ko'p hollarda aralashib tojik xalqi ham yashagan[2, 189-190]". Shuning uchun ham o'zbek tilida tojikcha so'zlar, tojik tilida o'zbekcha yoki turkiycha so'zlar ko'plab uchraydi. Tadqiqotimiz davomida 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati"ni ko'rib chiqishimiz asnosida shuni aniqladiki, ushbu izohli lug'atdagi dil- va gul- komponentli so'zlar o'zbek tiliga fors-tojik tilidan qabul qilingan faol leksik birlikkordan ekanligi ma'lum bo'ldi. Mumtoz adabiy asarlarimiz orqali o'zlashgan ko'plab fors-tojikcha so'zlar hozirgi o'zbek tiliga ham yetib kelgan, shuningdek, aynan mumtoz adabiy asarlarimizda faol qo'llanganligi bilan ajralib turadi.

Bunga qo'shimcha qilib shuni keltirib o'tish lozimki, arablar istilosidan keyin Mavarounnahr va Xurosonda arab xalifaligiga xos tuzum, ish tartibi o'rnatildi. Buning natijasida hududiy bo'linish nomlari, lavozimlar nomi arabcha so'zlar bilan atala boshlangan. Masalan, viloyat, amir, umaro, vazir, muhtasib, muftiy, qozi, munshiy, devonbegi, amir almo'minin kabilar.

Ma'lumki, har bir tildagi so'zlarning o'ziga xos belgilari bo'ladi. Masalan, so'zlarning qator undoshlar bilan tugashi, odatda, fors-tojikcha so'zlarga xos xususiyatdir. Bu holatni daraxt, karaxt, barg, mard singari so'zlarda ko'rish mumkin. Umuman olganda, tojik tilidan so'z o'zlashtirish jarayonlari tilimizning qadimgi davrlardan boshlab davom etib kelgan.

A.Nurmonov va hammualliflari so'z o'zlashtirish jarayonining muqarrarligini quyidagicha ifodalaydi: "Dunyoda boshqa tillardan so'z olmasdan, faqat o'z ichki imkoniyatlari asosidagina rivojlanadigan birorta ham til yo'q. Bundan o'zbek tili ham mustasno emas. Faqat ma'lum zarurat tufayli yangi tushunchani ifodalovchi o'z tilimizning ichki imkoniyatlari asosida ifodalab bo'lmagandagina tashqi manbalarga murojaat qilish foydalidir" [3, 206].

N.Mahmudov so'z o'zlashtirish masalasining ushbu tomonini o'zining maqolasida shunday ifodalaydi: "Bugungi jadal globallashuv jarayonlarida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivoji misli ko'rilmagan ko'lamlarni qamragan bir davrda bir tildan boshqasiga so'z o'tmasligini tasavvur etishning o'zi mushkul. Turli davlatlar bir-biri bilan xilma-xil sohalarda "olish-berish" munosabatida bo'lar ekan, bu davlatlardagi tillar ham mazkur munosabatlardan chetda qolmaydi, tillar ham o'zaro "olish-berish" munosabatidan qochib qutulolmaydi. Bu bugungi dunyoning inkor etib bo'lmaydigan lisoniy-mantiqiy haqiqatlardandir" [4, 153].

So'z o'zlashtirish tabiiy jarayon bo'lishi bilan birga, har bir davlatda bu jarayon tartibga solinib, boshqarilib turishi ham kerak. Aks holda, keraksiz, modaga ergashib so'z qabul qilish boshlanib ketadi va jamiyat a'zolari tomonidan haqli e'tirozlarga sabab bo'ladi. Dunyodagi ko'plab davlatlarda til masalasining mana shu tomonini tartibga solib turadigan muassasa va tashkilotlar tashkil etilgan, alohida qonun-qoidalar ishlab chiqilgan. Masalan, Isroilning Irvit tili akademiyasi, Fransiyaning "Tubon" qonunlari shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasida Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktyabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeい va nufuzini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etilgan. Davlat tilini rivojlantirish departamenti qoshida esa o'zlashma terminlarni tartibga solish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadigan Atamalar komissiyasi tuzilgan.

Aslini olib qaraganda, so'z o'zlashtirish jarayoni shunchaki bir so'zni boshqa xalq tilidan olib kirishgina emas, balki so'z o'zlashtirish natijasida yangi tushuncha ham o'zlashishi demakdir.

So'z o'zlashtirish muammosi til uslublari bilan ham bog'liqidir. Til uslublarining ayrimlari hamisha so'z o'zlashtirish jarayonlariga duch keladi. Bu jarayonda o'zlashma so'z ham, chet so'z

SO'Z O'ZLASHTIRISH HODISASI TALQINI VA UNING TIL LUG'AT TARKIBI BOYISHIDAGI O'RNI

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ФЕНОМЕНА СЛОВООБРАЗОВАНИЯ И ЕГО РОЛЬ В ОБОГАЩЕНИИ СЛОВАРНОГО ЗАПАСА ЯЗЫКА

INTERPRETATION OF THE PHENOMENON OF WORD ACQUISITION AND ITS ROLE IN THE ENRICHMENT OF LANGUAGE VOCABULARY

**Ehsanova Muqaddamxon Ibrohimovna¹, Salimova Nigina Bahtiyorovna²,
Yulchiyeva Mubinabonu Alinazar qizi³**

¹**Ehsanova Muqaddamxon Ibrohimovna**

– KIUF o'qituvchisi

²**Salimova Nigina Bahtiyorovna,**

– KIUF o'qituvchisi

³**Yulchiyeva Mubinabonu Alinazar qizi**

– Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya

Maqolada so'z o'zlashirish hodisasining til leksikasini boyitishdagi o'rni haqida fikr yuritilgan. O'zlashmalarning arab, fors-tojik, rus va boshqa tillardan o'tganligi, qanday omillar orqali kirib kelganligi haqida fikrlar bayon etilgan. Atoqli olimlarning so'z o'zlashtirish haqidagi fikrlariga munosabat bildirilgan. So'z o'zlashtirish jarayonining til uslublari bilan aloqasi tahlilga tortilgan. O'zlashma so'zlarning xususiyatlari orqali xalqimizning boshqa tillar egalari bo'lgan xalqlar bilan hamkorlik aloqalarining chuqur kechganligini ko'rsatib berilgan. O'zbek tili lug'at tarkiga fors-tojik tilidan, arab, rus tilidan tashqari mo'g'ul va xitoy tillaridan ham so'zlar qabul qilingani aytib o'tilgan. Shuningdek, qaysi davrda, qanday omillar orqali so'z o'zlashganligi atroficha yoritilgan. Har bir tildagi so'zlarning o'ziga xos belgilari mavjud ekanligi misollar orqali qayd etilgan.

Аннотация

В статье обсуждается роль словообразования в обогащении словарного запаса языка. Высказываются мнения о переносе заимствований из арабского, персидско-таджикского, русского и других языков и через какие факторы они поступили. Высказываются мнения известных ученых о словообразовании. Анализируется взаимосвязь между процессом усвоения слов и языковыми стилями. Через свойства родных слов показано, что сотрудничество нашего народа с народами других языков глубоко. Было отмечено, что в словарь узбекского языка включены также слова из персидско-таджикского, арабского, русского, монгольского и китайского языков. Также подробно освещено, в какой период и благодаря каким факторам слово было приобретено. На примерах отмечено, что слова в каждом языке имеют свои знаки.

Abstract

The article discusses the role of word acquisition in enriching the language lexicon. Opinions are expressed about the transfer of the borrowings from Arabic, Persian-Tajik, Russian and other languages, and through what factors they entered. Opinions of famous scientists about word acquisition are expressed. The relationship between the word acquisition process and language styles is analyzed. Through the properties of native words, it is shown that the cooperation of our people with the peoples of other languages is deep. It was mentioned that words from the Persian-Tajik language, Arabic, Russian, Mongolian and Chinese were also included in the Uzbek language dictionary. Also, in what period and through what factors the word was acquired, it is covered in detail. It is noted through examples that words in each language have their own signs.

Kalit so'zlar: o'zlashma so'zlar, til uslublari, so'z o'zlashtirish, uzuallik, leksika.

Ключевые слова: заимствованные слова, языковые стили, словоупотребление, единство, лексика.

Key words: borrowed words, language styles, word acquisition, unity, lexicon.

KIRISH

Turkiy tillar o'zining uzoq asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida o'ziga qarindosh tillardan ham, qarindosh bo'limgan boshqa til oilalariga mansub tillardan ham so'zlarni o'zlashtirgan. O'z navbatida, turkiy tillardan bir-biriga hamda boshqa til oilasiga kiradigan tillarga ham bir qancha so'zlar olingan.

ADABIYOT TAHLILI VA METODLAR

Agar o'zbek tiliga kirib kelgan so'zlarning o'zlashish manbalari – manba tillarini aniqlashtiradigan bo'lsak, avvalo, o'zlashmalarning ko'pchiligi arab, fors-tojik, rus, ingliz va boshqa tillar o'tganligi ma'lum bo'ladi.

O'zlashma so'zlarning bunday xususiyati xalqimizning mazkur tillar egalari bo'lgan xalqlar bilan hamkorlik aloqalarining chuqur kechganligini ko'rsatib beradi. Shuni unutmaslik kerakki, arab

рекомендации. Например: 1) научиться основам спасательных и неотложных аварийно-восстановительных работ; 2) своевременно реагировать на действия по сигналам оповещения гражданской обороны о внешней угрозе; 3) обязательное знание правил поведения и действий при некоторых стихийных бедствиях и производственных авариях; 4) систематическое практиковать приемы и способы выполнения спасательных работ во внеаудиторных занятиях и др.

На наш взгляд, важны также методические рекомендации не только по спасательным работам, но и эвакуация населения в мирное (или военное) время. Например: 1) важно правильно и своевременно организовать и запланировать эвакуацию населения; 2) с большой ответственностью обеспечить эвакуационные мероприятия; 3) обеспечить укрытие населения в защитных сооружениях и научить правильно пользоваться ими и т.д.

Материалы аудиторных занятий, такие как «Возможные чрезвычайные ситуации на территории Республики Узбекистан», «Правила поведения населения в очагах поражения», «Оповещение населения о военной угрозе или об угрозе военного нападения», «Спасательные и неотложные аварийно-восстановительные работы в очагах поражения», «Классификация средств защиты», «Правила пользования средствами индивидуальной защиты», «Санитарная обработка людей. Обезвреживание одежды и средств защиты» и др., планируются для активного и широкого внедрения в практику работы учебных заведений, в том числе и вузов.

Считаем, что разработка методических рекомендаций позволит ознакомить студентов о правилах и действиях, которые могут быть необходимы в их жизненной практике и они смогут оказать своевременную помощь при чрезвычайных ситуациях, спасти жизни людям, правильно использовать знания по санитарной помощи тем, кто может будет нуждаться при таких неожиданных чрезвычайных ситуациях.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Илясова З. Ҳаёт ҳавфсизлиги асослари. Фуқаро муҳофазаси институти. – Тошкент: 2001. (Ilyasova Z. Basics of life safety. Institute of Civil Protection. - Tashkent: 2001.)
2. Алтунин А.Т. Гражданской обороны. – М.: Воениздат, 1982. (Altunin A.T. Civil Defence. - Moscow: Voenizdat, 1982.)
3. Фалеева М.И. Учения и тренировки по гражданской обороне и предупреждению чрезвычайных ситуаций. - Москва: Институт риска и безопасности, 2003. (Faleyeva M.I. Civil Defence and Emergency Prevention Exercises and Training. - Moscow: Institute for Risk and Security, 2003.)
4. Тожиев М, Нематов И, Илхомов. Фавқулодда вазият ва фуқаро муҳофазаси. - Тошкент: Иқтисод-молия, 2002. (Tojiev M, Nematov I, Ilhomov. Emergency situation and civil protection. - Tashkent: Iqtisod-moliya, 2002.)
5. Убайдуллаев Ш., Норбоев А., Зиёева М., Ортиков М., Йўлдошев У., Ортиков О. Чакиравга қадар бошлангич тайёргарлик. - Тошкент: 2007. (Ubaidullaev Sh., Norboev A., Ziyoeva M., Ortikov M., Yoldoshev U., Ortikov O. Initial training before the draft. - Tashkent: 2007.)
6. Акимов Н.И. Қишлоқ ҳўжалик ишлаб чиқариш объектларида фуқаролар муҳофазаси. – Тошкент: Мехнат, 1983. (Akimov N.I. Protection of citizens in agricultural production facilities. - Tashkent: Labor, 1983.)
7. Фавқулодда вазиятлар ва муҳофазаси институти – 2001. (Emergency situations and protective measures. - T.: Civil Protection Institute - 2001.)
8. Нигматов И., Тожиев М. Фавқулодда вазиятлар ва фуқаро муҳофазаси. - Тошкент: Иқтисод молия, 2011. (Nigmatov I., Tojiev M. Emergency situations and civil protection. - Tashkent: Economy and Finance, 2011.)
9. Козмин Н.Д., Туйчиев Х.И. Аҳолини ялпи қирғин қурулларидан ҳимоя қилиш воситалари ва усуллар. Узбекистон – Тошкент: 1977. (Kozmin N.D., Tuychiev Kh.I. Means and methods of protecting the population from mass extermination. Uzbekistan - Tashkent: 1977.)
10. Крючок Н.А. Методические рекомендации по обучению работающего населения в области гражданской обороны и защиты от чрезвычайных ситуаций природного и техногенного характера: пособие для специально уполномоченного на решение задач в области гражданской обороны объекта. - М.: Институт риска и безопасности, 2005. (Kruchok N.A. Methodological recommendations for training the working population in civil defence and protection from emergencies of natural and man-made character: a manual for specially authorized to solve problems in the field of civil defence of an object. - Moscow: Institute for Risk and Safety, 2005.)
11. Пучков В.А. Гражданской обороны. – М.: МЧС России, 2014. (Puchkov V.A. Civil Defence. - Moscow: Russian Ministry of Emergency Situations, 2014.)
12. Гласстон С., Долан Ф. Характеристики ядерного оружия. - The Effects of Nuclear Weapon. – М: Воениздат. 1977. (Glasston S., Dolan F. Characteristics of Nuclear Weapons. - The Effects of Nuclear Weapon. - M: Voenizdat. 1977.)
13. Иойрыш А.И. О чём звенит колокол. – М.: Политиздат, 1991. (Ioirish A.I. About what the bell tolls. - Moscow: Politizdat, 1991.)
14. Мамаджанов А.М. Гражданская защита. // Учебно-методическое пособие. – Фергана, 2019. Mamadjanov A.M. Civil Protection. // Training manual. - Fergana, 2019.)

ILMIY AXBOROT

полученные знания, совершенствовать умения и навыки по гражданской защите объектов народного хозяйства при чрезвычайных ситуациях и в выбранной им профессиональной деятельности, а также формировать у студенческой молодёжи чувства патриотизма, стойкости и уверенности в своих силах во время чрезвычайных ситуаций.

Обзор литературы по теме исследования

Дисциплина «Гражданская защита» занимает важное место в программе подготовки специалистов по военному делу, невоенизированному формированию гражданской защиты, так как тесно связана со многими проблемами инженерии, геологией, географией, социологии, народного хозяйства, педагогики, психологии, этики, культуры поведения и др. В связи с чем большое внимание обращается теоретическим концепциям и вопросам различных вызовов стихии, чрезвычайным ситуациям и угрозам современных технологий. В исследовании уделено особое внимание научным изысканиям и научным произведениям специалистов по гражданской защите, чрезвычайным ситуациям таких, как Фалеевой М.И., Пучкова В.А., Тожиева М., Нигматова И., Нематова И., Убайдуллаева Ш., Норбоева А., Зиёевой М., Ортикова М., Йўлдошева У., Ортикова О. и др. В частности, нами скрупулённо проанализирована концепция исследователя Илясова З. об основах безопасности жизни людей [1], а также учёного Алтунина А.Т. о гражданской обороне [2]. Кроме того важно отметить, что современная гражданская защита базируется на мощном современном арсенале исследований, накопленных классиками как военного дела, та и невоенизированного формирования гражданской защиты, специалистов по чрезвычайным ситуациям. В настоящем исследовании, в целях всестороннего изучения вопросов по тематике данной работы, мы опирались на современные научные труды зарубежных учёных, Гласстон С., Долан Ф., Иойрыш А.И., которые обращались к исследуемой нами проблематике.

Методы исследования

В исследовании применяются следующие методы: метод электронного опроса, метод анализа научных источников по гражданской защите, метод описания и комментирования.

Теоретической и методологической основой исследования являются труды известных учёных, исследователей, видных военных деятелей, чья профессия связана непосредственно с гражданской защитой и чрезвычайными ситуациями.

Анализ и обсуждение результатов

В процессе изучения гражданской защиты ставятся основные цели и задачи дисциплины по изучению основ гражданской защиты, силы и средства по ликвидации чрезвычайных ситуаций, возможные чрезвычайные ситуации на территории страны, действия населения и силы гражданской защиты при чрезвычайных ситуациях; иметь представление об общих устройствах инженерных сооружений, их предназначении и применении, современных оружиях массового поражения и их поражающих факторах, защиты от них; знание назначения и устройства средств индивидуальной защиты; уметь правильно ориентироваться и действовать при чрезвычайных ситуациях, умело использовать коллективные и индивидуальные средства защиты, применять наиболее эффективные методы и приемы во время обучения и воспитания военнослужащих и учащейся молодёжи по гражданской защите о возможных чрезвычайных ситуациях.

Выводы и предложения

Считаем, что изучение основ невоенизированного формирования гражданской защиты явится хорошим подспорьем в работе студентов, так как в процессе обучения ставятся вопросы знакомства с возможными чрезвычайными ситуациями на территории страны, с последствиями аварий, приемами и способами выполнения спасательных работ, особенностями правил поведения населения в очагах поражения, при некоторых стихийных бедствиях и производственных авариях и т.д.

По-нашему мнению, в этом плане полезна разработка методических рекомендаций для учащейся молодёжи различных учебных заведений, в том числе вузов, тем, что они в своей жизни могут столкнуться со спасательными и неотложными аварийно-восстановительными работами в очагах чрезвычайных ситуаций: радиоактивного и бактериологического загрязнений, землетрясения, наводнения, снежных заносов и др. В связи с чем нами разработаны и представлены студентам следующие методические

ТА'LIM MUASSASALARIDA FUQAROLIY MUHOFAZA DARSLARINI O'TKAZISH BO'YICHA METODIK TAVSIYALAR

МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ПРОВЕДЕНИЮ ЗАНЯТИЙ ГРАЖДАНСКОЙ ЗАЩИТЫ ОБЪЕКТОВ НАРОДНОГО ХОЗЯЙСТВА

GUIDELINES FOR CIVIL PROTECTION CLASSES IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Мамаджанов Алишер Муратович¹

¹Мамаджанов Алишер Муратович

– начальник цикла специальной подготовки
факультета военного обучения Ферганского
государственного университета

Аннотация

Настоящая статья посвящена разработке методических рекомендаций по обучению студентов факультета военного обучения основам гражданской защиты в Республике Узбекистан, совершенствование их знаний по вопросам по чрезвычайным ситуациям, основным этапам его развития; ликвидации возможных чрезвычайных ситуаций на территории Республики на примере конкретных чрезвычайных ситуаций; обучение современным видам оружия массового поражения и их поражающим факторам и защиты от них, а также воспитание у студенческой молодежи патриотизма, стойкости и уверенности в своих силах, в условиях чрезвычайных ситуаций, формирование у студенческой молодёжи глубоких знаний, умений и навыков по гражданской защите.

Annotation

Ushbu maqola harbiy ta'lif fakulteti talabalariga O'zbekiston Respublikasida fuqaro muhofazasi asoslarini o'rgatish, ularning favqulodda vaziyatlar masalalari, uni rivojlantirishning asosiy bosqichlari bo'yicha bilimlarini oshirishga bag'ishlangan; alohida favqulodda vaziyatlar misolida respublika hududida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish; ommaviy qirg'in qurollarining zamonaviy turlari va ularning zarar etkazuvchi omillari va ulardan himoyalanishga o'rgatish, shuningdek, talaba yoshlarni vatanparvarlik, favqulodda vaziyatlarda chidamlilik va o'ziga ishonch ruvida tarbiyalash, talaba yoshlarda fuqaro muhofazasi bo'yicha chuqur bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Abstract

This article is devoted to teaching military training students the basics of civil protection in the Republic of Uzbekistan, improving their knowledge of emergencies, the main stages of its development; elimination of possible emergencies on the territory of the Republic, using the example of specific emergencies; training in modern types of weapons of mass destruction and their effects and protection against them, as well as fostering in students patriotism, resilience and confidence in their abilities, in emergency situations, and the development of students' profound knowledge, skills and abilities in civil defence.

Ключевые слова: факультет, студенты, методические рекомендации, обучение, военный, основы, гражданская защита, умения и навыки, совершенствование, чрезвычайные ситуации, формирование глубоких знаний, воспитание, патриотизм, стойкость

Kalit so'zlar: professor-o'qituvchilar, uslubiy ko'rsatmalar, talabalar, o'quv, harbiy, asoslar, fuqaro muhofazasi, malaka oshirish, takomillashtirish, favqulodda vaziyatlar, chuqur bilim, tarbiya, vatanparvarlik, chidamlilikni shakllantirish

Key words: faculty, students, guidelines, training, military, fundamentals, civil protection, skills, improvement, emergencies, building in-depth knowledge, education, patriotism, resilience

ВВЕДЕНИЕ

В Республике Узбекистан создана целостная нормативно-правовая база по вопросам защиты населения, включающая законы «О защите населения и территорий от чрезвычайных ситуаций природного и техногенного характера», «О гражданской защите», «О радиационной безопасности», «О безопасности гидротехнических сооружений», «О спасательной службе и статусе спасателя» и ряд важных постановлений о гражданской защите. Поэтапно сформирована отвечающая современным вызовам и угрозам Государственная система предупреждения и действий в чрезвычайных ситуациях (ГСЧС), в рамках которой определены задачи входящим в ее состав министерствам и ведомствам, хокимиятам областей, городов и районов.

Дисциплина “Гражданская защита” проводится для студентов факультета военного обучения. Важной задачей обучения является вооружение студентов знаниями по гражданской защите, обучение будущих специалистов уместно и умело применять

ILMIY AXBOROT

Safar davomida Hoji Muin "Marvaj ul-islom", "Ravnaq ul-islom" kabi jamiyatlarning "yolg'uz tumtarqli ismlar"idan boshqa e'tirof etadigan biron ta xayrli ishlari yo'qligini ta'kidlar ekan, ular nomlariga yarasha musulmonlarni taraqqiy ettirmoqchi bo'lsalar, "muntazam maktablar ochsunlar, so'ngra eski madrasalardan foydasiz homiylarni chiqarib, alarning o'rnidagi keraklik ilm va fanlarni kirdizsunlar va bu yo'l bilan musulmonlarni maorifday bahrai ob etib, jaholatdan qutqarsunlar" [1;72], - deydi.

Safar davomida Hoji Muin millatimiz vakillarining befarqligi qiyinaydi, u afsus va nadomat bilan shitob tezligida o'zgarib borayotgan "zamong'a yaraturg'on bilgi va ongimiz yo'q edi, hurriyat ne'matlarindan keraginchada istifoda qilolmay turamiz", - deya afsuslanadi.

Hoji Muin o'z safarnomasining boshidanoq ustozi Behbudiy an'anasi qo'llab ("Padarkush"dagi boy obrazini eslang) o'z taqdiriga, atrof-olamda bo'layotgan o'zgarishlarga loqayd qaraydigan millatdoshlarini ramziy ma'noda uyquli holatda tasvirlaydiki, bu ayni Kattaqo'rg'on sayohatida ko'rgan, o'zi shohid bo'lgan, millat taraqqiysini orqaga tortayotgan vaziyat va bunday vaziyatning boshida turgan mas'ullarga o'ziga xos ishoradir.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Rus olimi V.M.Guminskiyning: "Asosan bilish va o'rganishdan tashqari, qo'shimcha ravishda safarnomalar estetik, siyosiy, publisistik, falsafiy va yana boshqa bir vazifalarni ilgari surishi mumkin" [6;314], – degan fikrlarini eslash joiz. Chunki biz tahlilga tortgan "Kattaqo'rg'on xotiralari" qatida o'quvchi intellektini boyitadigan ma'lumotlar ayni paytda rus olimi sanagan bir qator: estetik, siyosiy, falsafiy mushohadalarga yo'l ochib, safarnoma janrining boshqa bir qator vazifalarini ham yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Birgina Hoji Muinning "Kattaqo'rg'on xotiralari" nomli safarnomasi orqali jadid adabiyoti vakillarining sayohatnomalari o'ziga xos jihatlariga ega ekanligiga amin bo'ldik. Solishtirish, qiyoslash jadid safarnomalarining tayanch usuli bo'lib, ularda faktografik va analitik yondashuv yonma-yon, parallel olib borilgan. Jadid safarnomalari o'zigacha bo'lgan safarnomalarining janrxususiyatlarini, an'analarini ham mazmunan, ham shaklan boyitilgan. Shu bois jadid safarnomalarida olamga, real borliqqa munosabat masalasida muallif-sayyohning istilochilik xarakteri o'zgarayotgan jamiyat fonida yaqqol ko'zga tashlandi. Dunyoxabardonlik millat yuksalishining bir omili ekanligini yaxshi bilgan ma'rifatparvar sayyoohlар safarda ko'rgankechirganlari, taassurotlarini ibrat sifatida bitib, ijtimoiy-ma'rifiy, publisistik, badiiy-estetik, falsafiy, siyosiy maqsadlarni o'z oldiga qo'ygan sayohatnomalar yaratdilar.

ADABIYOTLAR

1. Hoji Muin. Tanlangan asarlar. – T.: Ma'naviyat, 2005. – 256 b. (Haji Muin. Selected works. - T.: Ma'naviyat, 2005. - 256 p.)
2. N.Karimov va boshqalar. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – T.: O'qituvchi, 1999. – 544 b. (N. Karimov and others. History of 20th century Uzbek literature. - T.: Teacher, 1999. - 544 p.)
3. I.G`afurov. Mangu latofat. –T.: Sharq, 2008. – 460 b. (I. Gafurov. It's a blessing. - T.: Sharq, 2008. - 460 p.)
4. M.Behbudiy. Tanlangan asarlar. –T.: Ma'naviyat, 2006. – 277 b. (M. Behbudi. Selected works. - T.: Ma'naviyat, 2006. - 277 p.)
5. Azizov M. Erk va ma'rifatchun berdi borini // <https://www.qashqadaryozg.uz/read/erk-va-ma-rifatchun-berdi-borini>. (Azizov M. Erk and enlightenment gave everything// <https://www.qashqadaryozg.uz/read/erk-va-ma-rifatchun-berdi-borini>.)
6. Gumin'skiy V.M. Puteshestviye // Literaturniy ensiklopedicheskiy slovar. – M.: Sov. Ensiklopediya, 1987. – 416 st. (Guminsky V.M. Puteshestviye // Literary encyclopedic dictionary. - M.: Sov. Encyclopedia, 1987. - 416 p.)
7. Skibina O.M. Tvorchestvo V.L.Kigna-Dedlova: Problematika i poetika spetsial'nost 10.01.01. – Russkaya literatura. Dissertatsiya na soiskaniye uchonoy stepeni doktora filologicheskikh nauk. Moskovskiy pedagogicheskiy gosudarstvenny universitet. Moskva – 2003. –376 st. (Skibina O.M. Creativity of V.L. - Russian literature. Dissertation on the competition of the academic tape doctor of philological sciences. Moscow Pedagogical State University. Moscow - 2003. -376 p.)

taqqoslar ekan, moddiy-ma'naviy meros, urf-odat va an'ana, qolaversa, sodir bo'lajak har qanday voqelik ustidan o'zgacha xulosalarga ega bo'la boshlaydi.

Hoji Muin safarnomasida ham asosan, jadid ijodkor nigohini his qilamiz, jadid muallif qalami yo'naltirilgan sohalar, muammolar ham o'quvchi uchun yangilik emas. Ammo Hoji Muin safarnomasida o'quvchining diqqatini jalb qiladigan shunday haqli e'tirof borki, bu o'n yildan beri Kattaqo'rg`onda hokim bo'lib yerli aholiga hamisha insof va adolat doirasida muomala qilib kelgan va shu sababli ham o'n birinchi marta saylovda Kattaqo'rg`on shahar dumasiga raislikka saylangan rus polkovnigi Royas haqidagi ma'lumotdir.

Shahar dumasiga o'tkazilgan saylov tafsilotlariga qiziqqan Hoji Muin saylovda xotin-qizlar ishtirokiga ijozat berilmaganiga e'tiroz bildirib: "... xotinlar ham inson bolalari edi, ularning ham bu saylovda ishtirok etmoqqa haqlari bor" [1;70], - deydi. Ayni paytda polkovnik Royas haqidagi xabarni eshitib mamnun bo'ladi, bu mamnunlikning sababini shunday izohlaydi: "Men 6 yil burun Kattaqo'rg`onga muallim bo'lib borg`onimdan boshlab shul hokimning qoshig`a kirgan edim. Hokim (polkovnik Royas - H.N.) mening kimligimni, nima uchun kelganligimni so'rab javobni olg`ondan so'ng shu mazmunda nasihat va ta'llimot bergenligi hanuz esimda bor: "Eshitamanki, Samarcandda mullo Abdulqodir degan bir muallif usuli jadid maktabi ochib bolalarni yaxshi o'qitmoqda ekan. Siz ham o'shal muallim kabi bolalarni yaxshi o'qutingiz. Bolalarg`a shunday muomala qilingizki, ular ham sizdan qo'rqsunlar va ham sizni sevsunlar". Men umrimda bir rus og`zindan shunday to'g`ri va xayrixohona so'zlarni birinchi daf'a eshitganim sababli nihoyatda shodlong`on va ruhlong`on edim" [1;71], - deydi.

Millatimiz tarixi sahifalaridan "Biz yerli aholini 50 yil mobaynida taraqqiyotdan, maktabdan va rus hayotidan chetda tutib keldik" [2;14] deb g`ururlangan general-gubernator Kuropatkin, shovinistlikda undan qolishmaydigan Chernayev, Skobelev, Kaufman singari chor Rossiyasi amaldorlarining o'zbek xalqi oldidagi "xizmatlarini" yaxshi bilamiz. Ammo Hoji Muinning rus polkovnigi Royas haqidagi ma'lumotlari "Sayohatnomalar... eng ishonchli tarix yoki to'g`riqo`i, tarixlarning eng ishonchlisidir... Bu guvohliklar bizning o'z tariximizni tanishimizda cheksiz bir qimmat va ahamiyatga ega" [3;42], - degan fikrning haqligini tasdiqlaydi.

Rus amaldorining shaxsini xolislik bilan baholagan Hoji Muin mahalliy boylarimizning himmatsizligidan ozorlanadi: "Qimorimiz ham Kattaqo'rg`onga yaqinlashibdir. Narsalarni yig`ib bo'lib, vagun trizasindan boshimni chiqarib ushbu yil yomg`irsizlikdan ekin bo'lmag`on yerlarga qaramoq ila barobar turli fikrlarg`a cho'mib ketdim. Zotan yomg`ir ko'b yoqqon yillarda ham Turkistonning ekinlarindan hosil bo'lg`on donlar o'z aholisig`a zo'rg`a yetishur edi. Bu yil yomg`ursizlikdan ekinlarning barakasi uchub, o'lkamiz qimmatchilik ustinda qahatchilikka ham duchor bo'ldi. Bu jihatdan qashshoq va kambag`allar, beva va bechoralarning tirikchiligi nihoyatda og`irlashdi... Boy va qashshoq, tabiiy, har o'lka va har millatda bor. Mutamaddun millatlar orasidan boyları ko'p bo'lib, qashshoqlari ozdur. Ammo bizlarning yarim madaniy bo'lg`onimiz uchun boylarimizg`a nisbatan qashshoqlarimiz nihoyat ko'pdur. Bizlar bilan madaniy millat orasidan ko'ngilni achitaturg`on yana ayirma shuki, ular o'z qashshoqlarini kichiklikdan boshlab tarbiyat qilarlar, o'qutarlar, odam qilarlar. Va bu yo'l bilan o'z faqirlik tomirini qurutalar" [1;69], - deb yozadi muallif.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Hoji Muin Kattaqo'rg`onda yerli aholi uchun yangi muktab ochilmaganligidan ba'zi kishilar o'z bolalarini tatarlarning muntazam muktablariga berishlariga majbur bo'layotganini afsus bilan qayd etadi. "Qiroatxonasini ham borib ko'rdim. 60-70 qadar musulmoniy, mundan ortiqroq ruscha turli risola va kitoblari va 10-15 turli musulmoniy va rusiy majmualari bor ekan. Ammo bu narsalarni o'qiyaturg`on kishi yo'q deyarlik darajada oz ko'rindir. Sabab bo'lsa... ma'lum..." [1;72].

Hoji Muin Kattaqo'rg`ondagi bo'm-bo'sh qiroatxonaning ahvolini Samarcanddagisi bilan solishtir ekan xalqimizning faoliyatsizligidan, loqaydligidan ko'ngli og'riyi: "Samarcandda katta bir shaharning qiroatxonai islomiyasi o'n yildan beri davom etib, o'zining kundalik mutolaachisini hanuz o'n nafarg`a yetkura olmag`onda Kattaqo'rg`on qiroatxonasi o'z mutolaachilarini nechuk ko'paytirsun?" [1;72], - deydi kinoya bilan muallif.

Hoji Muin bu holatning bosh sababini ilmsizlikda, millatning "fikri ochilg`on" farzandlari juda kamsonlik ekanligida deb biladi va buning echimini "Har yerda qiroatxonadan burun muktablar ochilsun, fikri ochiq mutolaachilar yetishdurulsun. Undan keyin qiroatxona ochmoqqa ehtiyoj tushar" [1;72], - deb belgilaydi.

ILMIY AXBOROT

Behbudiyning “Qasdi safar” (1914), Abdulla Avloniyning “Afg'on sayohati”, Cho'ponning “Vayronalar orasidan” (Andijon–O'sh–Jalolobod) (1924) kabilar yaratildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).

Safarnomalar tarxi-tuzilishiga e'tibor bersak, ma'rifatparvar ijodkorlar: Furqat, Muqimiy an'analaridan farqli holatda jadid adiblari o'z safarnomalarini nasriy yo'lida yaratganliklarini ko'ramiz. Negaki bu yo'l ularga sayohatlari davomida xalq turmushining turli jabhalariga chuqurroq kirib borish, hayotiy muammolarga teranroq nazar tashlash, ularni o'rganish, tadqiq va tahlil etish, munosabat va xulosa bildirish, o'z nuqtai nazarini, pozitsiyasini namoyon etish kabi imkoniyatlarni berdi.

Millatning billurlanishiga xizmat qilgan jadid safarnomalarining mualliflaridan biri Behbudiy o'zining “Qasdi safar”ida: “Dengiz oynadek shaffof va sokin, havo latif, yalg'uz ostimizda suvu ustimizda Buxorodur”, – deb taassurotlarini bo'lishar ekan, “Yerdagilarni Sizga musaxxar qildim – Ollohnning amri ila marokibi baqriya dengizga joriy bo'lur” mazmunidagi oyatlar mulohaza qilinur” [4:69], –deya Qur'oni karimda safar borasida tayin etilgan oyatlarni eslatadi. Tarixchi jurnalist bu haqda shunday mulohazalarini bildirgan edi: “1914-yilning 19-mayida Behbudiy yana bir bor arab mamlakatlariga sayohatga jo'naydi. Safardan olgan taassurotlarini o'z jurnali – “Oyna”da “Qasdi safar” sarlavhasi ostida berib boradi. Adabiyotshunoslar “xotiralar”ni adabiyotimizdag'i an'anaviy tarixiy-memuar janrining XX asr boshidagi o'ziga xos namunasi deb ta'rifladilar. “Xotiralar”dagi ma'rifiy ruh, iztirobga to'la fikr-mulohazalar o'quvchini befarq qoldirmaydi. Behbudiy qalbini o'rtagan bu dard erk va ma'rifikat edi” [5].

O'tgan asr boshidagi jadidchilik harakatida faol ishtirok etgan ma'rifatparvarlar orasida Behbudiyning sadoqatli shogirdlaridan Hoji Muinning ham o'z o'rni bor. Millat taraqqiysi uchun kurashgan Hoji Muin o'qituvchilik qildi, she'rlar bitdi, pyesalar yozdi, hajviyalar yaratdi. Hoji Muinning adabiy merosidan hajman kichik bo'lsa-da, ammo mazmun-mohiyatiga ko'ra salmoqli “Kattaqo'rg'on xotiralari” deb nomlangan safarnomaning ham o'ren olganligi e'tiborga loyiq.

Jahon adabiyotida biror mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiyligi, siyosiy, madaniy va ma'naviy hayotini o'rganib unga munosabat bildirish, o'rni bilan tanqidiy fikrlar aytish uchun muallifga xorijlik sayyoh obrazni kelishi soha lug'atida ko'plab qayd etilgan. “Yo'l ocherki, sayohatnomani janri tipologiyasining shakllanishida yana bir muhim jihatni ta'kidlash lozimki, XIX asr deyarli (safarnoma, esse, ocherk, memuarlar bitta umumiy nom bilan ataluvchi belletristikaga mansub adabiy asarlar hisoblanadi, izoh bizniki – N.H.) barcha rus belletristlari o'z sayohatnomalariga yengil, feleton shaklini berish uchun sayohatlari davomida o'zlariga hamroh-yo'l dosh “tanlaydilar”. Ular vagonda tasodifiy uchrashib qolgan suhabatdosh yoki oldindan tanish muxbir yoki “bilgich odam” va hokazo bo'lishi mumkin. Odatga ko'ra, suhabatdoshlardan biri xorijga birinchi chiqishi bo'lsa, yana biri tajribali sayohatchi, yana biri bizning chegaralarga birinchi qadamini qo'yayotgan bo'lsa, birlari o'sha yurtlarda tug'ilgan. Ana shu holatda dialog yuzaga keladi, fikrlar almashinadi, qarashlar, nuqtai nazarlar to'qnashadi, ayrim konfliktlilik – bayon hayotiy, bellitristiklik kasb etadi. Dialoglar asosiy chiziq bo'ylab harakatlanmaydi, “savol-javob berdi” shartisiz, ular dramaturglik shaklida beriladi. Shu tariqa sahna yuzaga keladi” [7:124], – deydi rus adabiyotshunosi Olga Skibina.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Adabiyotning bir qadar muhim vazifalari borki, ularni safarnomalar misolida ham o'ziga xos tarzda talqin qilish imkonlari paydo bo'ladi. Demak, safarnomalarning ham xuddi adabiyotda, to'g'rirog'i, badiiy adabiyotda bo'lgani kabi tarbiyaviy, estetik va ma'rifiy vazifalari ham mavjud.

Sayohatnomalar shunisi bilan ahamiyatlici, ular real voqealarga asoslanadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, o'qilishidanoq undan jo'shqin hayot nafasi ufurib turadi. Tasavvurimizda tasvirlarni jonlantirish uchun ko'p ham qiyalmaydi, negaki aslicha tasvirlash orqali barchasiga erishib qo'ya qoladi. Undagi birdan bir to'g'riso'zlik va qanday bo'lsa, shundayligicha tasvirni namoyon etishdagi xayriyohlik hissini o'rniqa qo'ya bilsa bas. Yozuvchi-sayyoh o'z ko'zi bilan ko'rgan-kechirgan, his etgan vogeliklarga shaxsiy munosabatini bildiradi. Sevinch va qayg'usi, hatto qo'rquvi ham ro'yrost ifodalananadi.

Odatda har bir sayyoh o'zi ko'zlagan maqsad ila safarga chiqqan bo'lib, “topshiriq”larni ado etish asnosida kunlik, haftalik, ba'zan oylik hisobotlarni yozib boradi. Notanish hududning dastlab ko'zga ko'rinarli jihatlari, so'ngra sinchkovlik nazari ila boshqa tomonlarini o'rganib boradi. Bunda sayyoh o'z dunyoqarashi va mentalitetidan kelib chiqib, o'zining kelgan muhiti bilan solishtirib,

HOJI MUINNING “KATTAQO‘RG‘ON XOTIRALARI” SAFARNOMASI

САФАРНАМЕ ХАДЖИ МУИНА «ВОСПОМИНАНИЯ О КАТТАКУРГОНЕ»

TRAVELOGUE OF HADJI MUIN "MEMORY OF KATTAKURGON"

Ne'matova Hulkar Abdulbakiyevna¹

¹Ne'matova Hulkar Abdulbakiyevna

– Jizzax davlat pedagogika universiteti O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotation

Maqolada millat taraqqiysi uchun kurashgan Hoji Muinning “Kattaqo‘rg‘on xotiralari” deb nomlangan safarnomasining o‘ziga xos jihatlari, kitobxonning diqqatini jalb qiladigan ma‘lumotlar, xususan, Hoji Muinning Kattaqo‘rg‘on sayohatida ko‘rgan, o‘zi shohid bo‘lgan voqeqliklar, millat taraqqiysini orqaga tortayotgan vaziyatlar va ularning har biriga muallifning subyektiv bahosi haqidagi fikrlar tahlilga tortilgan. Shuningdek, jadid safarnomalarida ma‘rifatparvarlik g‘oyalarining qiyosiy va solishtirish usulida tartib qilinganligi, jadid safarnomalarida muallif sayohat mavzusini o‘z ijodiy niyatiga ko‘ra badiiy usul sifatida qo’llaganligi xususida fikr yuritilgan.

Annotation

В статье рассматриваются особенности путеводителя Хаджи Муина, боровшегося за развитие нации, под названием «Воспоминания о Каттакургане», сведения, привлекающие внимание читателя, в частности, реалии, которые Хаджи Мuin видел и свидетелем которых был во время своего поездка в Каттакурган, в том числе состояние опустевшего читального зала в Каттакургане, содержащего прогресс нации, анализируются ситуации и мнения о субъективной оценке автором каждой из них. Также считается, что идеи просвещения в современных сафарномах выстроены в сравнительно-сопоставительном методе, и что автор использовал тему путешествия как художественный прием по своему творческому замыслу в современных сафарномах.

Abstract

The article discusses the features of the guidebook of Hadji Muin, who fought for the development of the nation, called "Memories of Kattakurgan", information that attracts the reader's attention, in particular, the realities that Hadji Muin saw and witnessed during his trip to Kattakurgan, including the state of the empty reading room in Kattakurgan, holding back the progress of the nation, the situations and opinions on the author's subjective assessment of each of them are analyzed. It is also believed that the ideas of enlightenment in modern travelogues are built in a comparative method, and that the author used the theme of travel as an artistic device according to his creative concept in modern travelogues.

Kalit so‘zlar: shahar dumasi, jadid maktabi, qiroatxona, muallim, hajviya, millat tarixi.

Ключевые слова: городская дума, школа Джадидов, читальня, учитель, комедия, история нации.

Key words: City Duma, modern school, reading room, teacher, comedy, nation history.

KIRISH

Dunyodan xabardorlik millat billurlanishining bir omili ekanligini yaxshi bilgan ma‘rifatparvar sayyoqlar tomonidan ko‘z bilan ko‘rilgan yo‘l taassurotlari, safardagi kechmishlar ong bilan idrok etilib qalbga, qalbdan esa qog‘ozga ko‘chdi. Shu tariqa ijtimoiy-ma‘rifiy maqsad bilan bir qatorda, publitsistik, badiiy-estetik, falsafiy, siyosiy maqsadlarni o‘z oldiga qo‘ygan bir qator sayohatnomalar vujudga keldi.

Umumtaraqqiyotdan uzilib qolish, o‘z qobig`iga o‘ralib yashash oqibatini yaxshi bilgan ma‘rifatparvar jadidlar dunyoxabardorlikning o‘zlikni teran tushunib etishning, o‘z-o‘zini isloh qilishning asosi ekanligini anglab yetdilar. Adabiyotshunos olim, O‘zbekiston Qahramoni Ibrohim G`afurov bu davrni bir so‘z bilan “billurlashish”, ya’ni millatning billurlanishi deb atadi, jumladan, u shunday yozadi: “billurlashish” bizda ertaroq, XX asr boshlarida kurtaklangan va g‘oyatda tezlashgan edi... Bizda millatni anglash milliy tuyg`ularining kuchli tanqididan boshlandi. Millat tanqidi bilan maydonga chiqqan ziyoralarimizning hammasi dunyo mamlakatlarini ko‘rib keldilar. Jahonda borayotgan shiddatli o‘zgarishlardan xabardor bo‘ldilar. O‘z hollari va ahvollariga nazar soldilar... Bir millatning ahvoli boshqa millat ahvoliga qiyoslanganda yaxshi bilinadi... Solishtirilganda, ma‘rifat yuzasidan, oriflik, xabardorlik va hayot tarzining darajasi yuzasidan solishtirildi” [3.10]. Shuning natijasida XX asrning birinchi choragida ham jadid adiblarimiz tomonidan aniq belgilangan yo‘nalish bo‘yicha amalga oshirilgan safar xotiralari: Mahmudxo‘ja

ILMIY AXBOROT

распространение, вошедшие в периферию языковой системы ("focus-free", "дилерствовать", "пейджфон" "hip-hop", "киллерский" и др.). Неологизмы наиболее близки узуальным словам. в языковую систему 2) индивидуально-авторские неологизмы, использованные в художественной литературе в целях наибольшей художественной выразительности. Обычно эти неологизмы стилистически окрашены: "Мир поворачивается к комедии, т.е. к комическому зубодробительному экшну": 3) потенциальные слова, которые занимают промежуточное положение между узуальными и индивидуально-авторскими неологизмами. В отличие от узуальных неологизмов, они имеют речевой характер, обычно не выходят за пределы разового употребления, в них отсутствует эмоциональная окрашенность, образуются они по продуктивным словообразовательным моделям [2]. При описании 1 и 2 групп автор также отступает от признака "словообразовательная производность".

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

На наш взгляд, употребление термина "потенциальное слово", которое закрепилось в исследованиях по окказиональному словообразованию, не совсем удачно: оно должно быть, по логике, противопоставлено "реальному" слову. Однако потенциальным называют слово, которое уже образовано, т.е. реально.

Одноразово использованные в русской фразе англицизмы (или их дериваты) воспринимаются как окказиональные и отражают обильное "вхождение" англо-американских элементов в современное русскоязычное общение.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Итак, в статье понятие "иноязычный окказионализм" суммирует такие признаки, как неосвоенность (неузуальность), использование "на случай / по случаю", нестандартность внешней формы (которая обеспечивает экспрессивность единицы). Об индивидуальном авторстве (как это характерно

для окказионального слова в его традиционном понимании) мы здесь не говорим, так как в рамках нашей темы одна и та же англоязычная единица в пределах русского текста - окказиональна, а для английской речи - узуальна. Окказиональные англицизмы мы противопоставляем освоенным (то есть заимствованиям в узком понимании), границы между этими явлениями подвижны, они определяются степенью освоенности англоязычного элемента в русской речи.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. М., 2000.
2. Кирилина А.В. Глобализация и судьбы языков // Литературная газета. 2012. № 5. 8–14 февр.
3. Щербакова А.В. Тенденции экономии и точности в современном немецком письменном языке. Тамбов, 2001.
4. Земская Е.А. Современный русский язык. Словообразование. М., 1973.
5. Апорт. 2000.06.08
6. Искусство Кино.1998.3
7. Апорт.2000.01.05.

Основной причиной появления неологизмов является потребность в новой лексике: **киллер, шоп-тур, ток-шоу, хот-дог, андеррайтер, сайенс, фикишин** и др. Это касается и многочисленных производных от англизмов на русской почве, например, **продюсер – продюсировать, отпродюсировать: продюсерский –продюсерски** и т.д.

".. Во-вторых, я чисто продюсерски видела, что тут может быть коммерческий успех" [6].

Среди неологизмов, заимствованных из других языков, мы выделяем следующие группы, беря за основу временной критерий: 1) недавно заимствованные слова или вновь созданные на их почве (риэлтор (-ство), дистрибутор (-ствовать), биг маг, промоушн); новые сложные слова и устойчивые сочетания, включающие в качестве хотя бы одного из элементов чужое слово, ранее существовавшее в данном языке (ток-шоу, секс шоп, брейн-ринг, рэп-клуб); 2) новые значения ранее существовавших в языке исконных или заимствованных слов ("интервью" в значении "собеседование при приеме на работу", "резюме" в значении "краткий послужной список"). Например: "Первый Всероссийский Банк Данных Профессиональных Резюме", "Другими словами, в резюме стоит включать описание именно тех аспектов Вашего опыта, которые значимы..." [5];

ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР

Вновь созданные или недавно заимствованные слова называются лексическими неологизмами, а новые значения ранее существовавших в языке слов - семантическими неологизмами [3].

1. Среди новых заимствованных слов можно выделить окказиональные неологизмы, употребленные лишь один раз, на случай, имеющие авторский характер для удовлетворения потребности в стилистической окрашенности и выразительности речи. В своем исследовании мы расширяем понятие окказиональное слово, которое сложилось в работах В.А. Земской А.Г. Лыкова В.В. Лопатина, и др., и предполагало авторскую принадлежность. Мы отвлекаемся от этого признака, признавая все другие признаки, предложенные Е.А. Земской. В нашем понимании окказионализм - относительное понятие: для русской речи - окказиональное, в английском языке - узуальное; его главное свойство - принадлежность речи (неузуальность), разовость ("на случай"). Поэтому в нашей работе окказионализм англоязычного происхождения противопоставлен освоенному англизму (заимствованию). Но границы между ними нежесткие, так как освоенность может проявляться по-разному.

По определению Е.А. Земской, окказиональными словами можно считать "встречающиеся в речи индивидуальные новообразования, присущие только данному контексту, они возникают в результате действия различных способов номинации, среди которых ведущее место принадлежит созданию формально новой номинативной единицы. Окказиональное слово всегда производно и представляет собой элемент речи, заведомо нарушающий "языковой стандарт" необычностью формы и/или содержания, вследствие чего "единственность" "неповторимость" окказионализма рассматривается как неотъемлемое свойство самой природы этого типа новообразований" [4, с. 125].

Для еще не освоенного в русском языке англизизма (окказионализма). Также необязательным признаком является и словообразовательная производность, которую особо подчеркивает А.В. Щербакова [3]. Англоязычный окказионализм, в нашем понимании, это и непроизводное слово (иншуэрэнс - страховка), и производное: а) в языке-источнике (супер-пупер); б) в языке рецепторе (хот-доггер), и устойчивое словосочетание (таф гайз – крутые парни), и даже целая фраза как иноязычное вкрапление в русский текст.

Популярная в молодежных кругах писательница А.В. Кирилина часто использует в своей прозе англизмы-окказионализмы для экспрессивизации речи: "...из-за угла вышли на перекресток несколько мужчин среднего возраста, эдакие таф гайз (tough-guys - крутые парни)" [2]. В редких случаях такие окказиональные заимствования переходят. В разряд общеупотребительных слов, однако в конце минувшего века этот процесс включения в речь "случайных" англизмов очень распространен в связи с возрастающей ролью английского языка в обществе и увеличения числа билингвов: "Его боятся после того, как он уже начистил рожи самых страшных таф-гаев лиги в свой первый сезон" [7]

А.В. Кирилина выделила три основные группы неологизмов: 1) узуальные неологизмы - слова, возникшие в ответ на языковую потребность, получившие более или менее широкое

ANGLITIZMLARNING MEDIA MAYONDAGI FAOLIYAT XUSUSIYATLARI

ОСОБЕННОСТИ ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ АНГЛИЦИЗМОВ В МЕДИАПРОСТРАНСТВЕ

FEATURES OF THE FUNCTIONING OF ANGLICISMS IN THE MEDIA SPACE

Турсунова Майя Эркиновна¹

Турсунова Майя Эркиновна

– преподаватель кафедры русской филологии,
Ферганский государственный университет.

Annotatsiya

Media makonining lug'atiga kiritilganda, anglikizmlar, boshqa xorijiy so'zlar kabi, integrativ o'zgarishlarga uchraydi. Qabul qiluvchi tilda so'zning keyingi muvaffaqiyatli ishlashi uchun, birinchi navbatda, u imlo, orfoeziya va morfologiya qoidalariga muvofiq moslashtiriladi. Ushbu tadqiqotda biz anglikizmlarning rus media makoniga o'tish davridagi fonetik va grafik rivojlanishini ko'rib chiqmaymiz. Buning sababi, media makonining lug'atidagi aksariyat qarzlar inglizcha talaffuz va imloni saqlab qoladi. Shu munosabat bilan, maqolada ingliz tilidagi lug'atning morfologik assimilyatsiyasiga, shuningdek, media makonining lug'atiga xos bo'lgan rus tilining so'z yasalish paradigmasiga kiritilishiga alohida e'tibor qaratilgan

Аннотация

При заимствовании в лексику медиапространства англицизмы, как и другие иностранные слова, подвергаются интегративным изменениям. Для дальнейшего успешного функционирования слова в принимающем языке в первую очередь происходит его адаптация в соответствии с правилами орфографии, орфоэзии и морфологии. В данном исследовании мы не рассматриваем фонетическое и графическое освоение англицизмов при их переходе в русское медиапространство. Это связано с тем, что большинство заимствований в лексике медиапространства сохраняет свое англоязычное произношение и написание. В связи с чем, в статье особое внимание уделяется морфологическому усвоению англоязычной лексики, а также её включению в словообразовательную парадигму русского языка, типичную для лексики медиапространства.

Abstract

When borrowed into the vocabulary of the media space, anglicisms, like other foreign words, undergo integrative changes. For the further successful functioning of the word in the receiving language, first of all, it is adapted in accordance with the rules of spelling, orthoepy and morphology. In this study, we do not consider the phonetic and graphic development of anglicisms during their transition to the Russian media space. This is due to the fact that most borrowings in the vocabulary of the media space retain their English pronunciation and spelling. In this connection, the article pays special attention to the morphological assimilation of English vocabulary, as well as its inclusion in the word-formation paradigm of the Russian language, typical for the vocabulary of the media space

Kalit so'zlar: integratsiya, media makon, oraliq so'z, mahalliy so'z, potentsial so'z, nutqiy ifodalar, semantik neologizmlar, anglikizmlar, ekspressivlik, oraliq anglitsizmlar.

Ключевые слова: интеграция, медиапространство, окказиональное слово, языковой стандарт, потенциальное слово, экспрессивизация речи, семантические неологизмы, англицизмы, экспрессивность, окказиональные англицизмы.

Key words: integration, media space, occasional word, locale, potential word, speech expressions, semantic neologisms, anglicisms, expressiveness, occasional anglicisms.

ВВЕДЕНИЕ

Морфологическая интеграция заимствованных слов в приобретении ими грамматических значений, свойственных русскому языку и возможности изменяться по правилам русской морфологии.

Для имен существительных английского происхождения характерно приобретение категорий рода и числа, формально маркируемое наличием при них артикля или детерминатива.

В лексике медиапространства употреблении англицизмов возможны расхождения в роде по сравнению с лексикой литературного слова.

Среди англицизмов, заимствуемые в современный русский язык, встречаются как собственно неологизмы, так и окказиональные слова, которые характеризуются разовым и конкретно-речевым употреблением «на случай».

nemis tilida yangiliklar, filmlar, spektakllar, kundalik suhabatlar yoki hikoyalari orqali real audiolarni tinglash orqali va ular yuzasidan topshiriqlar bajarishlari kerak.

XULOSALAR

Yuqorida qayd etilgan dalillardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, talabalarning tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlanitishga to'sqinlik qiladigan omillarni:

- Ma'ruzachi yoki so'zlovchi bilan bog'liq bo'lgan omil nutq tezligini, turli urg'uni, qisqartirilgan shaklni, talaffuz, ikkilanish, pauzalarni;

- O'qituvchi bilan bog'liq omillar: so'rash, mustahkamlash, o'zgartirish, tushuntirish, darsni, o'quv jarayonini tashkil qilish va guruh yoki individual diqqatni jamlash kabi asosiy o'qitish omillari;

- Tinglovchi bilan bog'liq bo'lgan omil - bu asosiy bilimning yetishmasligi, mavzuni yaxshi bilmaslik, grammatikaning yetishmasligi, lingvistik bilimlarning yetishmasligi, tinglash strategiyasining yetishmasligi, psixologik holat, jismoniy muammo va vazifalar;

- Atrof- muhit, shovqin, sifatsiz uskunalarni ishlatish kabi omillar bartaraf etish kerak. Bu omillar nemis tilini o'zlashtirayotgan talabalarga nafaqat tinglab tushunish, balki barcha til ko'nikmalarini o'zlashtirishga salbiy ta'sir qiladi.

Tinglash tilni o'zlashtirish uchun rag'batlantiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladigan va talabalarni og'zaki muloqotda o'zaro aloqada bo'lishiga yordam beradigan eshitish vositasini ta'minlaydi, shunday ekan o'quv xonalarida tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishga oid osondan murakkabga yo'naltirilgan interfaol topshiriqlardan iborat mashg`ulotlar o'tkazish, nemis tilini o'rgatish jarayonida yuzaga keladigan tinglab tushunish muammolarini hal qilishga va minimallashtirishga harakat qilish talabalarning til bilishga bo'lgan munosabatlari va qiziqishlarni ortishiga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Гальскова Н.Д. Современная методика обучения иностранным языкам / Н.Д. Гальскова // Учебное пособие. – М.: Акти-глосса, 2000, 345 с. (Galskova N.D. Modern methods of teaching foreign languages / N.D. Galskova // Textbook. - M: Akti-glossa, 2000, 275)
2. Пассов Е.И., Программа-концепция коммуникативного иноязычного образования, Развитие индивидуальности в диалоге культур, М, Просвещение, 2000, 158-172. (Passov E.I., Program-concept of communicative foreign language education, Development of individuality in the dialogue of cultures, M, Education, 2000, 158-172.)
3. Kourimská M., Kettnerová D.; Sprechen, Lesen, Diskutieren; Leda; Praha; 2002, 453.
4. Röche J.; Fremdsprachenerwerb - Fremdsprachendidaktik; UTB basics – A.Francke
5. Solovova E.N. Chet tillarni o'qitish metodikasi: Ma'ruzalarning asosiy kursi, M., Ta'llim, 2002. – 239b. (Solovova E.N. Methodology of teaching foreign languages: The main course of lectures, M., Education, 2002. P.239)
6. Zimnyaya I.A. Chet tillarni o'qitishning psixologik jihatlari, M., 1978. – 471b. (Zimnyaya I.A. Psychological aspects of teaching foreign languages, M., 1978. p. 471)

Rasm 1



1-rasmdan ko'riniб turibdiki, audiodagi dinamikaga bog'liq omillar yuqori darajada baholanadi. Respondentlarning fikricha, nutqning tez sur'ati ularning tinglab tushunishiga xalaqit beradigan birinchi raqamli omil hisoblanadi. Darhaqiqat, barcha ishtirokchilar ma'ruzachilar tez gapiradigan og'zaki matnlarni tushunish qiyinligini aytishadi. Yetkazib berish tezligidan tashqari, ma'ruzachilarning noaniq talaffuzi va narsalarni takrorlab ikkilanishlari tinglab tushunish muammolarining jiddiy manbalari hisoblanadi. So'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, ishtirokchilarning 29,4% dan ortig'i talaffuz tezligi, 23,5 % i noaniq talaffuzi tufayli tinglagan matnni tushuna olmaydi.

So'rvonoma natijalariga asoslanib, tinglab tushunish muammolarini hal qilish uchun tinglash laboratoriyasi, kompakt disklar, CD-pleerlar va o'quv xonalari ham o'rganish, ham tinglash qobiliyatini o'rgatish sifatiga ta'sir qiluvchi muhim omillardan bo'lganligi sababli ular bartaraf etilishi lozim. So'rvonoma natijalari shuni ko'rsatadiki, qo'llaniladigan tinglash materiallari juda qiyin va shuning uchun o'qituvchilarga ushbu materiallarni talabalarning yoshi, turli xil qiziqishlari, o'rganish uslublari va qobiliyatlariga moslashtirishi kerak. Xususan, 2-kurs talabalar uchun avvalo o'qituvchilar nutq tezligi sekinroq bo'lgan audio yozuvlarni tanlashlari kerak, talabalar ancha malakaliroq bo'lgandagina, ularning qiyinchilik darajasini oshirish mumkin. Bundan tashqari ushbu so'rvonomadan ma'lum bo'lishicha, lug'at boyligining yetarli emasligi tushunish muammolari yuzaga kelishida asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun tinglashdan oldin o'qituvchilar talabalarni audio yozuvdagi mavzuga oid kalit so'zlar bilan tanishtirishlari kerak. Buning ko'plab usullari mavjud, ya`ni talabalarning tinglash kontekstida ishlatalidigan yangi so'zlarning ma'nosini taxmin qilishni so'rash orqali lug'at manbalarini faollashtirish tinglash jarayonida ularda notonashi so'zlar bilan bog`liq muammolarni oldini olishga yordam beradi.

O'qituvchilar tinglashdan oldin tinglash matnining mazmuni haqidagi asosiy bilimlarni faollashtirishlari kerak. Ular o'z talabalarini tinglamoqchi bo'lgan mavzu bo'yicha avval bilganlarini muhokama qilishga, shuningdek, tinglash matnida nima eshitishlari mumkinligini bashorat qilishga undashlari, shunda talabalar tinglashdan oldin mavzu bilan ko'proq qiziqib, ijobjiy natijalarga erishadilar [8,471].

Nemis tili bo'yicha 2-kurs matematika yo'nalishi talabalarining ko'pchiligiga tinglash strategiyasi va tinglash mahoratini o'rgatish juda muhim, ular odatda tinglab tushunish vazifalarini bajarishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Talabalarni nemis tili mashg`ulotlari davomida topshiriqlar, turli mashqlarni bajarishni talab qilishdan oldin ularga tinglash ko'nikmasi strategiyasi va texnikasini o'rgatish uchun ko'proq vaqt ajratish maqsadga muvofiqdir.

Va nihoyat, talaffuz, nutq, urg'u, jargon va iboralar, grammatik tuzilmalarni o'z ichiga olgan nemis tili lingvistik bilimlarini bilmaslik, tinglab tushunishdagi muammolarning yetakchi sabablaridandir. Shu sababli, talabalar o'z darajalariga mos keladigan nemis tilida qo'shiqlar,

qilishga bag'ishlangan. Chet tilida muloqot qilishni o'rganish amaliy va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda hal qilinadigan muhim vazifadir. Bizning fikrimizga ko'ra, bu chet tilini yaxshiroq o'zlashtirishni kafolatlaydigan kommunikativ yondashuvga yo'naltirilgan uslublardan biridir, chunki faqat muloqot sharoitida til o'zining tabiiy funksiyasida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Chet tillarini o'qitish sohasidagi ko'plab tilshunoslar, metodistlar tinglash ko'nikmasini chet tilini o'rganishda asosiy mahorat deb bilishadi va bu nutq, to'g'ri talaffuzni o'rgatishning asosi ekanligiga haqli ravishda ishonishadi. Kommunikativ faoliyatning to'rt turi orasida tinglash ustuvorligini tan olgan olimlar uni o'qitishning eng yaxshi, samarali usullarini topishga harakat qilmoqdalar. Shunday qilib, J. S. Noblitt, Morli, E.N.Solovova, N. V. Eluxina, I. A. Zimnyaya, A. S. Luri kabi olimlar tinglash ko'nikmasini bo'yicha tadqiqotlar qilib, bu ko'nikmani izchil o'rganganlar.

Nemis tili mashg'ulotlarida 2- kurs matematika yo'nalishi talabalarning xorijiy tillarni o'zlashtirish muammolarni aniqlash hamda tinglab tushinish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida mashg'ulotlaridan oldin tanlangan eksperimental va nazorat guruhlari bilan birinchi semestrning boshida so'rovnama o'tkazildi. So'rovnama savollari nemis tilida tinglab tushunish ko'nikamsi bo'yicha edi. Ushbu so'rovnama 2- kurs talabalari ega bo'lishi kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalarini tekshirish maqsadida tanlandi. So'rovnama savollar va umumiy ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ushbu tajriba sinovda ishlatilgan vosita so'rovnomadir. Anketa talabalarning tinglab tushunish qobiliyatlarining til o'zlashtirishda roli haqidagi tasavvurlari, shuningdek, talabalarning mashg'ulotlar davomida tinglash orqali chet tilini o'rganishda yuzaga keladigan qiyinchiliklari haqida ma'lumot olish uchun ishlatiladi. So'rovnama tinglab tushunishga ta'sir qiluvchi omillar bo'yicha bir necha adabiyotlarni ko'rib chiqgandan so'ng ishlab chiqilgan. So'rovnama talabalarning umumiyligi til o'rganish tajribasi, tinglash ko'nikmalarining ahamiyati va ularning nemis tilini tinglash malakasini o'z-o'zini baholashi haqida ma'lumot to'plash uchun ishlatiladigan savollardan iborat. So'rovnomada (jadval 1) 1 dan 5 gacha bo'lgan Likert tipidagi shkala qo'llanildi. Beshta javob varianti: nie, selten, manchmal, meistens und immerdan iborat. Savollarga 1 dan 5 gacha tanlash orqali muammoga qanchalik tez-tez duch kelishlarini ko'rsatish so'raladi.

Jadval I**Faktoren im Zusammenhang mit den Lautsprechern**

No		nie	selten	manchmal	meistens	immer
	Ich finde es schwierig, die Bedeutung von Wörtern zu verstehen, die nicht klar ausgesprochen werden.					
	Es fällt mir schwer, natürliche Sprache zu verstehen, die voller Zögern und Pausen ist.					
	Ich finde es schwierig, gut zu verstehen, wenn Sprecher zu schnell sprechen.					
	Ich finde es schwierig zu verstehen, wenn Sprecher unterschiedliche Akzente verwenden.					
	Ich finde es schwierig, Audiotext zu verstehen, wenn der Sprecher nicht lange genug pausiert.					
	Es fällt mir schwer, aufgenommenes Material zu verstehen, wenn ich etwas nicht wiederholen kann					

TIL O'RGANISHDA TINGLASHNING AHAMIYATI VA TINGLAB TUSHINISH MUAMMOLARI: TIL O'RGANUVCHILAR TAJRIBASI

ВАЖНОСТЬ АУДИРОВАНИЯ В ИЗУЧЕНИИ ЯЗЫКА И ПРОБЛЕМЫ АУДИРОВАНИЯ: ОПЫТ ИЗУЧАЮЩИХ ЯЗЫК

IMPORTANCE OF LISTENING IN LANGUAGE LEARNING AND LISTENING COMPREHENSION PROBLEMS: THE EXPERIENCE OF LANGUAGE LEARNERS

Eshmuradov Urol Xujanovich¹

¹Eshmuradov Urol Xujanovich,

– Qarshi davlat universiteti, Fakultetlararo Nemis tili kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya

Tinglash kundalik hayotda ham, akademik kontekstda ham insonlar bilan samarali muloqot qilish uchun muhim rol o'yinaydi. Muloqot va kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish uchun tinglash muhimligiga qaramay, ko'p yillar davomida til o'rgatish dasturlarida unga yetarlicha e'tibor berilmagan. Tinglashni o'rganish bo'yicha juda ko'p turli nuqtai nazarlar mavjud bo'lsa-da, har bir nuqtai nazarning muvaffaqiyati til o'rganuvchilar duch keladigan muhim muammolarni hal qilish va minimallashtirishga bog'liq. Ushbu maqola nemis tilini chet tili sifatida o'rganishda tinglab tushunish ko'nikmasining roli va ahamiyati bilan bog'liq tushunchalar va muammolarni o'rganishga qaratilgan

Аннотация

Умение слушать играет важную роль в эффективном общении с людьми как в повседневной жизни, так и в учебном контексте. Несмотря на важность аудирования для развития коммуникативных и когнитивных навыков, на протяжении многих лет ему не уделялось должного внимания в программах обучения языку. Хотя существует множество различных точек зрения на то, как научиться слушать, успех каждой точки зрения зависит от решения и минимизации критических проблем, с которыми сталкиваются изучающие язык. Эта статья направлена на изучение концепций и вопросов, связанных с ролью и важностью навыков понимания на слух в изучении немецкого языка как иностранного.

Abstract

The ability to listen plays an important role in effective communication with people both in everyday life and in the educational context. Despite the importance of listening for the development of communication and cognitive skills, for many years it was not given due attention in language training programs. Although there are many different points of view on how to learn to listen, the success of each point of view depends on solving and minimizing the critical problems faced by language learners. This article aims to explore concepts and issues related to the role and importance of listening comprehension skills in learning German as a foreign language.

Kalit so'zlar: tinglab tushinish, omil, nutq tezligi, talaffuz, ko'nikma

Ключевые слова: аудирование, фактор, скорость речи, произношение, умение.

Key words: listening, factor, speech speed, pronunciation, skill.

KIRISH

Tinglab tushinish - muloqotning asosi, har qanday og'zaki muloqotni o'zlashtirish tinglab tushinish ko'nikmasidan boshlanadi. Bu idrok etilgan tovushlarni farqlash, ularni semantik birikmalarga birlashtirish, tinglash paytida ularni xotirada saqlash, ehtimollik prognozini amalga oshirish va aloqa holatidan kelib chiqib, idrok etilgan tovush zanjirini tushunish qobiliyatidan iborat.

Gapirish va tinglash og'zaki nutqning o'zaro bog'liq bo'lgan ikki muhim ko'mikmalari hisoblanadi. Tinglash nafaqat xabarni qabul qilish, balki ichki nutqda eshitilgan ma'lumotga javob berishga tayyorgarlikdir. Shunday qilib, ta'liming boshlang'ich bosqichlarida tinglab tushunish ko'nikmasi nemis tilini o'rganuvchi talabalar uchun til o'rganishda muhim rol o'yinaydi. Tinglab tushinish ko'nikmasini rivojlantirish nemis tili o'rganuvchilar uchun ham maqsad, ham kuchli o'rganish vositasidir. Bu o'rganilayotgan tilning tovush tomonini, uning fonemik tarkibi: ritm, urg'u, ohang va intonatsiyasini o'zlashtirishga imkon beradi. 2- bosqich talabalarini tinglash orqali tilning leksik va uning grammatik xususiyatlarini o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladilar.

Tinglash real vaqt rejimida amalga oshirilishi kerak, so'zlovchi tomonidan bildirilgan fikr va aytilyayotgan gapni tez tushunish va bu ma'lumotni tezda qayta ishlab javob berish ba'zi til o'rganuvchi talabalar uchun juda qiyin va stressli faoliyat bo'lishi mumkin [1,275]. Ushbu maqola nemis tili darslarida tinglashni o'rgatishning ba'zi kognitiv va muammoli jihatlarini o'rganish va tahlil

qanday ketma-ketlikda loyihalash va amalga oshirishga, samarali o'quv mashg`ulotlar tashkil etishga undaydi [7,174].

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu yondashuv ta`lim jarayoniga ijobjiy ta'sir qiladi, chunki hikoya orqali taqdim etilgan mazmun talabalarga shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish va mustahkamlashga yordam beradi, hikoya qilish va tinglash orqali ular ijtimoiy dunyo haqida chuqurroq fikr yuritishga, xulosalar qilishga harakat qilishadi. Bundan tashqari, ta'lim muhitida hikoya qilish usulini qo'llash talabalarni ijtimoiy muammolar haqida tanqidiy va chuqur fikrlashga jalb qilish orqali ongini oshiradi. Bu jarayon ularning o'gzaki nutqi va mulohazalariga ta'sir ijobjiy qiladi, ularga o'zлari va o'qituvchilari о'tasida do'stona munosabatlarni о'rnatishga yordam beradi, shu bilan birga talabalarda individual qarashlar rivojlanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Harmer, J., 2001, The Practice of English Language Teaching, third edition, London, Improving Speaking Skills Through Instruction in Oral Classroom Participation, Tsou, W., 2005, Volume 38, Issue 1, pages 46–55.
2. Cooper, P. (1993) when stories come to school telling writing and performing stories. New York, teachers and writers collaborative. Longman.
3. Mario Rinvolucri, Storytelling: the language teacher's oldest technique / British Council Teaching English - Режим доступа <https://www.teachingenglish.org.uk/article/story-telling-language> (дата обращения 16.02.2023).
4. Peck,J. Using Storytelling to Promote Language and Literacy Development. The Reading Teacher. Vol. 43, No. 2, Teachers' Choices Best New Children's Books (Nov., 1989), pp. 138-141 Published by: Wile.
5. Эрдниева, Э. В. Storytelling как средство формирования коммуникативной компетенции бакалавров гуманитарного профиля / Эрдниева Э. В. // Научные исследования: от теории к практике: материалы III междунар. науч.-практ. конф. — Чебоксары, 2015. — Т. 1. — С. 298–300. (Erdnieva, E. V. Storytelling as a means of forming the communicative competence of bachelors in the humanities / Erdnieva E. V. // Scientific research: from theory to practice: materials of the III Intern. scientific-practical. conf. Cheboksary, 2015. Vol. 1, pp. 298–300.)
6. Ермолаева, Ж. Е. Сторителлинг как педагогическая техника конструирования учебных задач в вузе // КиберЛенинка. — Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/storitelling-k> (дата обращения: 16.02.2023). (Ermolaeva, Zh. E. Storytelling as a pedagogical technique for designing educational tasks at a university // CyberLeninka. — Access mode: <https://cyberleninka.ru/article/n/storitelling-> (date of access: 02/16/2023)
7. Badalova, L. (2022). Development of the cognitive interest of students in teaching a foreign language at a technical university. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 174–176. Retrieved from <http://conferenceseries.info/index.php/online/article/view/79>
8. Badalova Luiza Kholmamatovna. (2022). Formation of Intercultural Competence in Teaching the Translation of Economic Texts. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 6, 14–19. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/801>
9. Badalova Luiza Kholmamatovna. (2022). Formation of Intercultural Competence in Teaching the Translation of Economic Texts. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 6, 14–19. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/801>
10. Badalova, L. (2019). Accelerating Education, Individualization and Classification based on Developing Innovative Methods. Eastern European Scientific Journal, (1). <http://journale.auris-verlag.de/index.php/EESJ/article/viewFile/1041/1210>

ILMIY AXBOROT

sifatida ularning yoshi va kontseptual darajasi, ularning ehtiyojlari va qiziqishlari, til bilish darajasi va oldingi tilni o'rganish tajribasi kabi talaba xususiyatlarini hisobga oladi. Harmer nutqni o'rgatishda asosiy e'tibor haqiqiy til materialidan foydalanishga qaratilishi kerakligini taklif qildi. Shu sababli, xorijiy tillarni o'qitish nazariyalari bo'yicha samarali nutq so'zlash tilni o'rganishda boshqa ko'nikmalar kabi asosiy hisoblanadi [1, 46-55].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bir qator tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, til o'rganish strategiyasi sifatida hikoya qilish (storytelling) usulini qo'llaydigan ta'lim jarayonlari, mashg'ulotlarda tahsil olayotgan talabalar o'zlarining til ko'nikmalarini rivojlantirish bilan bog'liq yutuqlar haqida xabar berishadi. Bunga tegishli tadqiqot 1989 yilda Jeki Pek tomonidan til va savodxonlikni rivojlantirish uchun hikoyalardan foydalanishdir. Ushbu tadqiqotda hikoya qilish (storytelling) qanday qilib ifodali til rivojlanishi, yozma va og'zaki nutq rivojlatirishi ko'rsatilgan. Pek hikoya qilish yodlangan senariyni taqdim etish emas, balki u kelib chiqqan o'ziga xos an'anuning barcha lazzati va tili bilan tabiiy tarzda hikoya qilingan hikoyadir deb ta'kidlaydi. Pek (1989) hikoya qilish usuli orqali talabalarga ikkita alohida holatda hikoya qilish usulidan foydalanishni taklif qiladi:

- Birinchi holat - o'qituvchi hikoyachi sifatida, bu holda talabalar tanqidiy tinglashni rivojlanadirilar.
- Keyingi holat - talabaning hikoyachi sifatida, bunda talabalarning og'zaki va yozma nutqini rivojlanish imkoniyatini beradi [4,138-141].

Xorijiy tillarni o'qitish va talabalar og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantiirish, ularning ingliz tilida erkin muloqot qilishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar tashkil etish maqsadida darslarda hikoya qilish metodidan foydalanib, uning qanchalik samaradorligi va talabalar nutqini o'stirshda ta'siri sinov darslarini tashkil etish orqali o'rganildi. Mashg'ulotlar davomida kitoblar, internet resurslari, rasmlar vizual va turli xil tarqatma materiallardan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ushbu qismda eksperimental darslar jarayonida hikoyalardan foydalanish talabalar nutqining rivojlanishiga ta'sir qilishi mumkinligini aniqlash uchun o'qituvchi turli mashg'ulotlarni qanday rejalashtirganligi, loyihalashtirgani va amalga oshirganligi haqida qisqa va aniq tushuntirish berishga qaratilgan. Bundan maqsad talabalarni hikoya qilish (storytelling) yondashuvi bilan tanishtirish va ingliz hikoyalarini tarjimasiz tinglab tushunish va og'zaki nutqda qo'llash muammolarni yengillashtirish edi.

Har bir mashg'ulot jarayonida hikoya qilish: pre-storytelling, while-storytelling and after-storytelling bosqichlari qo'llanilgan edi. Birinchi mashg'ulotni tanishtirishdan oldin talabalarning umumiy bilimlarini aniqlandi. Keyin o'qituvchi hikoyani tanishtirish maqsadida pre-speaking topshiriqlarini berdi. Ushbu jarayon tanlangan kitobni taqdim etish va talabalardan kitobning nomi va muqovasidagi rasmlarga ko'ra nima haqida bo'lishini so'rashdan boshlandi.

So'ng o'qituvchi tomonidan imo-ishoralar, ovoz proektsiyasi va ko'z bilan aloqa (eye-contact) qilishdan foydalangan holda hikoyani baland ovozda aytib berildi. Talabalarga yetarlicha ma'lumot berish, tushunishni tekshirish uchun har bir voqeя bo'yicha savollar berish va talabalarning diqqatini hikoyaga qaratish; bir vaqtning o'zida o'qituvchi talabalarni hikoya mazmuni bilan tanishtirish uchun kitobdagи rasmlarni ko'rsatildi.

Hikoyaning oxirida har bir talabadan hikoyaning qisqa qismlarini eslatib, keyin qayta aytib berish yoki eslatib o'tish so'raldi, bu usul orqali ular butun auditoriya tomonidan aytilgan hikoyani yaxlit qurishga erishdilar, talabalar yangi qahramonlar, vaziyatlar va harakatlarni ingliz tilida ayrim grammatik xatolar bilan bo'lsada tanishtirishga harakat qildilar. Shunday qilib, o'quv jarayonida kommunikativ qobiliyatni rivojlantirish uchun hikoya qilish usuli talabalarning ingliz tilini rivojlantirishga yordam beradigan turli xil topshiriqlar va vositalarni taqdim etadi. Hikoyalar til o'rganuvchi uchun til tajribasida mukammal vosita bo'lishi mumkin bo'lgan kuchli motivatsiyani uzatadi. Shu sabablarga ko'ra, ingliz tilini chet tili sifatida o'rganishda hikoyalar va hikoya qilish usuli muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, talabalar uchun o'quv jarayoni osonlashadi, chunki ular har bir topshiriqda hikoya qilish usulidan foydalangan holda kommunikativ listening – speaking/reading-writing ko'nikmalarni muntazam rivojlantirib boradilar.

Chet tililarni o'qitishda ushbu yondashuvdan foydalanish o'qituvchilarni talabalar yoshi, bilim darajasi va qobiliyatlarini inobatga olib pre-/while/post topshiriqlarni qanday ishlab chiqishga, ularni

INGLIZ TILINI CHET TILI SIFATIDA O'RGATISHDA STORYTELLING YONDASHUVINING AHAMIYATI

РОЛЬ СТОРИТЕЛЛИНГОВОГО ПОДХОДА В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ

THE ROLE OF THE STORYTELLING APPROACH IN TEACHING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE

Badalova Luiza Xolmamatovna¹

¹Badalova Luiza Xolmamatovna

– Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Chet tillar kafedrasiga katta o'qituvchisi

Annotation

Til murakkab psixologik jarayon bo'lib, uni tafakkur yoki idrokdan alohida baholash va rivojlantirish mumkin emas. Butun dunyo o'qituvchilari va psixologlari hikoya qilish (storytelling) uslubiga katta qiziqish bildiradilar, zero o'quv materialni hikoya tarzida taqdim etish til o'rganuvchilarning diqqat-e'tibori va tanqidiy fikrlashlarini rivojlantiradi, shu bilan birga madaniy tarbiya darajasini oshiradi. Qiziqarli va hayajonli hikoya sifatida taqdim etilgan o'quv materiali shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirishga yordam beradi, har bir talabada tasavvurining o'ziga xosligini namoyish etadi, faoliyat va ijodkorlikni namoyish etishga imkon beradi. Ushbu maqolada ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatishda storytelling yondashuvining ahamiyati muhokama qilinadi.

Annotation

Язык — это сложный психологический процесс, который нельзя оценивать и развивать отдельно от мышления или восприятия. Педагоги и психологи всего мира очень интересуются методом сторителлинга, ведь подача материала в виде рассказа развивает внимание и критическое мышление изучающих языки, и в то же время повышает уровень культурного образования. Учебный материал, представленный в виде интересного и увлекательного рассказа, способствует развитию личностных качеств, показывает уникальность воображения каждого ученика, позволяет проявлять активность и творческие способности. В данной статье рассматривается роль сторителлингового подхода в обучении английскому языку как иностранному.

Abstract

Language is a complex psychological process that cannot be evaluated and developed separately from thought or perception. Teachers and psychologists all over the world are very interested in the storytelling method, because the presentation of the material in the form of a story develops the attention and critical thinking of language learners, and at the same time increases the level of cultural education. Educational material presented as an interesting and exciting story helps to develop personal characteristics, shows the uniqueness of imagination in each student, allows to be active and show creativity. This article discusses the role of the storytelling approach in teaching English as a foreign language.

Kalit so'zlar: hikoya qilish usuli, kommunikativ kompetentsiya, gapirish ko'nikmasi, tanqidiy fikrlash.

Ключевые слова: метод повествования, коммуникативная компетенция, навык говорения, критическое мышление.

Key words: storytelling method, communicative competence, speaking skill, critical thinking

KIRISH

Hozirgi kunda ingliz tili globallashuv va dunyo miyosida madaniy, iqtisodiy va siyosiy iste'molda hukmoni davlatlar tomonidan so'zlashayotganligi sababli eng muhim global til hisoblanadi. Haqiqatda tilni o'zlashtirish, nutq mahorati qiyin mahorat hisoblanadi. O'qitish va o'quv jarayonidagi kuzatuvlarga asoslanib, ingliz tilida gapirishni o'rganishda ko'plab to'siqlarga duch keladigan talabalar hali ham ko'p. Ular gapirishni boshlash, to'g'ri jumlalar tuzish, doimiy suhbatni davom ettirish, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, hatto his-tuyg'ularini, g'oyalarini va fikrlarini ifoda etishda qynaladilar. Shuning uchun o'quv mashg'ulotlari davomida ingliz tilidan real muhitda foydalanishni ochib beradigan va shu bilan talabalarning motivatsiyasi va til ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradigan usullarni joriy etish muhimdir. Tilning real kontekstida kommunikativ ko'nikmalarni yaxshilash uchun qo'llaniladigan usullardan biri hikoya qilish (storytelling) usulidir. Storytelling usuli ingliz tili o'qituvchilari uchun o'quv jarayonida keng ko'lamlı texnika va yondashuvlarni taqdim etish uchun kuchli vositaga aylanib ulgurgan; bu usul har bir mashg'ulot davomida to'rtta kommunikativ ko'nikmani o'z ichiga oladi va har bir faoliyatda deyarli ikkita kommunikativ ko'nikmalarni birlashtiradi. Hikoya talabaga yo'naltirilgan (student-centred) usul

ILMIY AXBOROT

To'g'ridan-to'g'ri nomsziz "o'lim" ma'nolari, g'ayritabiyy kuchlardan qo'rqib allegorik burilishlardan foydalanish va boshqalar): jemanden deckt die Kuhle Erde- kimdir nam tuproqda uxlendi; jemanden unter die Erde bringen-kimnidir qabrga qo'yemoq; wieder zu Erde werden - yana tuproqqa aylanmoq, yerga kirmoq; in den Himmel auffahren - osmonga ko'tarilish; um Himmels willen - Xudo uchun! Himmel (Gott) behute! - Xudo saqlas! ach du lieber Himmel! - Voy Hudoyim! Grosser Himmel! - katta osmon! Samoviy kuchlar! va boshqalarni ifodalab keladi.

Frazeologik birliklarni o'rganish shuni ko'ssatadiki, o'zbek va nemis tillarida osmon va yer dunyo tushunchalari, bir tomordan, bir butunlikni tashkil qiladi (der Himmel und die Erde in Bewegung setzen - osmon va yer, dunyon aylantirish) va boshqa tomongan, ular bir-biriga antonimlik xususiyatiga egadir:

yer insonning yerdagi haqiqiy hayot bilan bog'liq bo'lib, bu yerda ehtiyyotkorlik va tirishqoqlik talab etiladi. Osmon bu o'rinda ilohiy borliq, illyuziya va orzular bilan bog'liq. "der Himmel – die Erde", "osmon – yer" qarama-qarshiliqi jismoniy ("baland"–"past", "uzoq"– "yaqin") va ma'naviy xususiyatlarni bildiradi, bu diniy tomoni borligi bilan bog'liq tushunchalar deb aytishimiz mumkin.

Osmon va yer osti dunyosini qarama-qarshi ma'noda ifodalovchi frazeologik birliklarning mavjudligi yerni "oltin o'rtacha", borliqning o'ziga xos markazi sifatida talqin qilishga imkon beradi: die Holle auf Erden haben - do'zaxdagidek yashamoq; den Himmel auf Erden versprechen-yerdagi jannatni va'da qilmoq.

Barqaror birikmalarning miqdoriy ustunligi nemis tilidagi "die Erde" komponentli frazeologik birliklar yer ustidagi "der Himmel" komponenti insonning yuksak ideallar timsoli sifatida samoviy sohalarga doimiy intilishi, "yerlik" bilan bog'liq kundalik hayotdan uzoqlashish istagi natijasidir. O'zbek tilidagi manbalarda "osmon" va "yer" tushunchalarini ifodalovchi taxminan teng miqdordagi frazeologik birliklar mavjud bo'lib, ular o'zbek xalqining qishloq xo'jaligi va uning bergen hosillariga uzoq vaqt davomida qaram ekanligi natijasi sifatida talqin qilinishi mumkin.

XULOSA

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, turli nashrlarda to'planayotgan, chop etilayotgan frazeologizmlarning juda ham ko'p qismi faqat adabiy tilda shug'ullanuvchi doira vakillari va gumanitar ma'lumotga ega bo'lgan odamlarga ma'lum bo'lib, boshqa ona tilida so'zlashuvchi oddiy shaxslar tomonidan deyarli foydalanilmaydi. Biroq, iboralar passiv, foniyl bilimlarning bir qismi bo'lib, milliy psixologiya, falsafa, madaniyat va mentalitet haqida muhim ma'lumot manbai bo'lib kelayotganligini ko'rishimiz mumkin. O'zbek tilida "Osmon", nemis tilida "der Himmel", o'zbek tilida "Yer", nemis tilida "die Erde" haqidagi iboralarni qo'llanilish sohasidagi turli ma'nolarini o'quvchilar uchun har ikki tilda ham ko'proq o'rganib borishlari maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G. Drosdowski DUDEN- Deutsches Universalwörterbuch.Mannheim-1989. B.708, 446.
2. А.Мадвалиев таҳрири остида. Ўзбек тилининг изоҳли луғати [Толковый словарь узбекского языка] Тошкент нашри Б.146.
3. Кривалева О.В. концепты «небо» и «земля» в русской и немецкой языковых картинах мира Уфа 2008, С. 18.
4. <https://burido.ru/641-frazeologizmy-s>.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbek tilidagi "osmon" tushunchasi ma'lum bir ma'noda harakatni baholashga xizmat qiluvchi birikmalarda amalga oshiriladi (osmon tutun bo'ladi, osmonni bulut qopladi, tiniq osmonda yulduzlar charaqlab turibdi, dudi osmonga chiqmoq, fig'oni osmonga chiqmoq, oyog'ini osmondan keltirmoq, osmonda yurmoq, osmondan kelmoq, osmondan olib gapirmoq, osmondan osilib tushmoq) [2:146].

O'zbek tilida "Osmon", nemis tilida "der Himmel" tushunchalari frazeologizm birliklarda quyidagi tushuncha va ma'nolarni o'zida aks ettiradi degan xulosani belgilab beradi [3]:

1. Falak deb talqin qilinadi (eher stürzt der Himmel ein-osmon yerga tushadi).

2. Jannat – Xudo, farishtalar, najot topgan ruhlar va oliv saodatga erishish maskani (wie im Himmel leben - jannatdagidek yashamoq; den Himmel offen sehen - osmonni ochiq ko'rmoq, juda baxtli bo'lmoq, amalga oshishiga erishmoq, barcha istaklardan baxtli bo'lmoq).

3. Diniy yondoshilganda "der Himmel" va "Osmon" tushunchalari "o'lim" tushunchasi bilan bog'langan (in den Himmel auffahren - osmonga ko'tarilmoq).

4. Osmon mutlaq baxtning markazi, orzular va illyuziyalar olami sifatida qabul qilinadi (aus began Himmeln fallen - aus allen Himmeln stürzen - osmondan yerga tushmoq).

5. Osmon haqiqat va adolat ramzi sifatida talqin qilinadi (Es schreit zum Himmel! - Bu osmonga faryod qiladi!, die Heiligen vom Himmel herunter schwören - barcha azizlar bilan qasamyod qilmoq).

6. Jannatga erishib bo'lmaydigan narsa [das Blaue vom Himmel versprechen - osmondan oyni va'da qilmoq].

7. Kutilmaganda sodir bo'ladigan hodisalar samoviy hodisalar bilan bog'liq (wie ein Blitz aus heiterem Himmel - musaffo osmonni taqdim qilmoq).

8. "Osmon" va "Himmel" leksemalari g'ayritabiyy kuchlarni bildiruvchi so'zlarning evfemistik o'rnini bosuvchi sifatida ham ishlatiladi.

("oh" du lieber Himmel! - ("oh" ey aziz jannat!).

Grofier Himmel! - Buyuk jannat!).

O'zbek va nemis tillaridagi frazeologik sur'atlarda tasvirlangan yer haqidagi asosiy tushunchalar ko'p ma'noga ega bo'lib, bu quyidagi bir necha jamlanmalarni o'zida aks ettiradi [3]:

1. Inson organlarining jismoniy o'limi (in der kuhlen Erde liegen - zax tuproqda yotmoq).

2. Yerdagi hayot, "bu nur" (den Himmel auf Erden haben - yer ustida jannat bo'lsin).

3. Saqlash, yopish, berkitish, qopqoq (jemanden ware am liebsten in den Erdboden versunken - kimdir yerga botishni yaxshi ko'radi).

4. Qo'llash-yordamlashish, tayanch (kein Bein auf die Erde kriegen - bir oyog'ini yerga qo'yib bo'lmaydi;).

5. Davlat, aniq bir hudud, va'da qilingan joy; (soweit die Erde reicht - yerning so'nggi chekkasigacha).

6. Yer insonlarning tushunchasida sog'lom fikr, ob'yektiv jarayon (auf der Erde bleiben - yer yuzida qolmoq, yer bilan bog'lanmoq).

7. O'zbek tilda "Yer" va nemis tilida "die Erde" nomlari kutilmagan holda, juda ham tez, yo'q joydan paydo bo'ladigan jarayon yoki narsalar to'g'risida ham frazeologik birliklarda ifodalanadi (wie aus der Erde gewachsen - xuddi yerdan o'sib chiqqandek).

8. Dunyo tillarining lug'atdagi anglatgan ma'nosida yer mehnat (ko'p hollarda qishloq xo'jaligi), kuchli faoliyat (yerni qazish; yerga o'tirish, aksariyat hollarda kundalik faoliyattdagi dehqonchilik bilan band bo'lishi ifodalangan [4]).

Yuqoridagi misollarni qiyosiy tahlil qilganimizda „Osmon“, „Himmel“ va „Yer“, „Erde“ ma'nolari ikki halqning bir xil tushunchalariga ma'no jihatidan juda ham mos kelishini guvohi bo'lishimiz mumkin. Har ikkala tilda ham ular „Yer“ „O'lim“ tushunchasi ifodalab keladi, ammo ular ifodalanish sohasiga qarab, bildirgan ma'nosining ba'zi qismlarida mazmunan farq qilishi mumkin. Osmonga qarashlilik ijobjiy xususiyat bo'lib, xursandchilik, mammunlik, xushchaqchaqlik mazmunlari sifatida qabul qilinadi, chunki diniy tomongan tana yerga, inson ruhi esa osmonga qarashlilik mazmuni ekanligini bildiradi.

Qiyosiy ko'rيلayotgan mazmunlarni ibora darajasida nutqqa aylantirilganda tilshunoslik tomonidan amalga oshirilishini belgilaydi. Bu esa alohida leksemalarni ma'lum ma'no va kontekstlarda foydalanish mumkin emasligi bilan bog'liq. Shunday hollarda "Osmon", "der Himmel" va "Yer", "die Erde" leksik birliklari iboralarda sinonim almashtirish vazifasini bajaradi.

OSMON VA YER TUSHUNCHALARINING QIYOSIY SEMANTIK TADQIQI**СРАВНИТЕЛЬНОЕ СЕМАНТИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ПОНЯТИЙ НЕБО И ЗЕМЛЯ****A COMPARATIVE SEMANTIC STUDY OF THE CONCEPTS OF HEAVEN AND EARTH****Mamarasulov Akmaljon Mamatojiyevich¹****¹Mamarasulov Akmaljon Mamatojiyevich**

– Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada "Osmon", "Yer", tushunchalari ishtirok etgan iboralar qiyosiy o'rganilib, milliy qarashlarni o'zida aks ettiruvchi madaniyat va dunyoqarashning o'ziga xos ma'nolari, ikki til mentaliteti va hayot tamoyillaridagi o'xshashlik va farqlar haqida umumiy xulosalar kontekstlarda qo'llangan mazmun-mohiyati misollar yordamida keltirib o'tilgan.

Аннотация

В статье сравнительно исследуются выражения и пословицы с участием понятий «Небо», «Земля», специфические значения культуры и мировоззрения, отражающие национальные взгляды, сходство в менталитете и жизненных принципах двух языков, а общие выводы о различиях делаются на примерах контента, используемого в контекстах.

Abstract

In the article, the expressions and proverbs involving the concepts of "Heaven", "Earth" are comparatively studied, the specific meanings of the culture and worldview reflecting the national views, the similarities in the mentality and life principles of the two languages, and general conclusions about the differences are drawn using examples of the content used in the contexts.

Kalit so'zlar: xalqning turmush-tarzi, frazeologizm birlik tushunchasi, ma'no ifodalash, ijobiy va salbiy, komponentl o'rganish, axloqiy va ijtimoiy, qarama-qarshi ma'no, tarixiy asoslangan birliklar, rivojlanish, paydo bo'lish, o'xshashlik va farqlar.

Ключевые слова: быт народа, единство фразеологизма, концепт пословицы, выражение значения, положительное и отрицательное, компонент обучения, нравственное и социальное, противоположное значение, исторически обусловленные единицы, развитие, возникновение лишь, сходство и различие.

Key words: people's way of life, phraseologism unity, concept of proverb, expression of meaning, positive and negative, component learning, moral and social, opposite meaning, historically based units, development, emergence lish, similarities and differences.

KIRISH

Har bir tilda narsa va buyumlarga qo'yilgan nom bilan ataladi. Shu sababli insonlar bir-biri bilan muloqatga kirishganda har bir narsani o'z nomini nutqi orqali tushuntirishga kirishadi. "Osmon" kosmonimi haqida fikr yuritilganda birinchi navbatda xayolimizda osmonda joylashgan quyosh, yulduz, oy hamda "Yer" so'zi haqida fikr bildirilganda tuproq va yer yuzida joylashgan barcha narsalar haqida tushunchalarga ega bo'lamiz. Bu otlar insonlarning kundalik faoliyatida juda ham muhim o'rinn egallaydi. Bunday so'zlarni o'zbek va nemis tillarida o'rganish ikki xalqning turmush-tarzi, madaniyati, kundalik muomalada ifodalovchi tushuncha va urf-odatlarini o'zida jamlagan bir qancha frazeologizmlarni o'rganilgan taddiqotlar asosida qiyosiy ilmiy tahlil qilish hozirgi tilshunoslikda dolzarb masalalardan biri deb hisoblaymiz.

NATIJA VA MUHOKAMA

O'zbek tilida "Osmon", nemis tilida "der Himmel", o'zbek tilida "Yer", nemis tilida "die Erde" tushunchalari ishtirok etgan iboralar qiyosiy o'rganilganda odamlar o'tasidagi munosabatlar vaqtida vujudga keladigan ko'nikma hamda tushunchalarning muhim ekanligini ifodalaydi [1:708, 446].

Frazeologizm birliklarlarni o'rganib chiqish milliy qarashlarni o'zida aks ettiruvchi madaniyat va dunyoqarashning o'ziga xos ma'nolari, ikki til mentaliteti va hayot tamoyillaridagi o'xshashlik va farqlar haqida umumiy xulosalarga kelish imkonini beradi. Asrdan asrga o'tib kelayotgan xuddi shunday frazeologik birliklar tarixiy asoslangan birliklar bo'lib, ya'ni tilshunoslik rivojlanishining ma'lum davrlarida paydo bo'lgan qarashlarini o'zida aks ettiradi.

Bundan tashqari, bir qator o'zbek va nemis tillaridagi frazeologik birliklari diniy qarashlar ta'sirida paydo bo'lgan g'oyalar asosida shakllangan bo'lib, xalq axloqiy me'yorlarining yakuniy to'xtamga kelishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

uchun juda muhim vosita hisoblanadi. Zero, tarjima jarayonida tarjima usullaridan foydalanish juda muhim, tarjima usullari tarjima sifatini oshirish va asliyat tilidan tarjima qilinayotgan tarjimaning asl ma'no-mazmunini saqlab qolish uchun yordam beradi. Tarjima sohasida ish olib borayotgan har bir tarjimonning tarjima turlari va tarjima usullaridan xabardor bo'lishlari juda muhim sanaladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. G'ofurov I., O.Mo'minov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi. "Tafakkur bo'stoni" nashriyoti. – Toshkent, 2012. – B.117
2. Саломов F. Таржима санъати. Мақолалар тўплами. – Т.: "Фан", 1993. – Б.88
3. Саломов F. Таржима ташвишлари. Faфур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. – Т., 1973. – B.116
4. Рэй Брэдбери, "Марсга хужум". "Янги аср авлоди", – 2016 йил. – Б.304
5. Termiz Davlat Universiteti o'qituvchisi, Akademiya NTM rahbari, tarjimon, ilmiy izlanuvchi Solijonov Juraali Kamoljonovich. Tarjimashunoslik fanidan ma'ruza matnlari. – Т., 2018. – B.28
6. Solijonov J.K. "Tarjimonlarga tavsiyalar 1-5-qismilar". – Т., 2016. – B. 35
7. Ray Bradbury. The Martian Chronicles. Voyager, An imprint of Harper Collins Publishers, London Bridge Street, London SE1 9GF Cover layout design © HarperCollins, Publishers 2014, P.304
8. Р. Д. Брэдбери. «Марсианские хроники». © Издание на русском языке, оформление. ООО «Издательство «Эксмо», 2013 Ст. 304
9. Usmonova, Z. (2022). СТИВЕН КИНГНИНГ "ЎЛИК МИНТАҚА"("DEAD ZONE") АСАРИДА «THE LAUGHING TIGER» ("СМЕЮЩИЙСЯ ТИГР") ОБРАЗ ТАЛҚИНИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ ([buxdu.Uz](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/6364)), 12(12). http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/6364
10. Usmonova Zarina Habibovna. (2022). TRUTH AND FAIRNESS IN "THE DEAD ZONE" BY STEVEN KING'S. Open Access Repository, 8(1), 77–80. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/ZH3MJ>
11. Toshnazarovna, E. M. (2022). ALLUSIONS TO HISTORICAL CHARACTERS AND EVENTS IN THE NOVEL BELLEFLEUR BY JOYCE CAROL OATES. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMYJURNALI, 2(1), 274-277. <http://sciencebox.uz/index.php/jars/article/view/861>
12. Erkinovna, Y. F. Negative Politeness. Journal of Critical Reviews, 7(6), 1249-1255. <https://media.neliti.com/media/publications/344146-negative-politeness-c55f7abc.pdf>.
13. Yuldasheva Feruza Erkinovna. (2021). POLITENESS MARKERS IN SPOKEN LANGUAGE. Euro-Asia Conferences, 37–40. Retrieved from <http://papers.euroasiaconference.com/index.php/eac/article/view/528>.
14. Sanjar Saliyevich Kurbanov, Mohigul Ramazonovna Saparova BADIY ASAR JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA QARG'ISH ANGLATUVCHI DISFEMIZMLARNING PERSONAJLAR NUTQIDA BERILISHI // Academic research in educational sciences. 2021. №4. <https://cyberleninka.ru/article/n/badiy-asar-jozibadorligini-oshirishda-qarg-ish-anglatuvchi-disfemizmlarning-personajlar-nutqida-berilishi>

ILMIY AXBOROT

*etganimiz Mars sayyorasini ham mana shu odamlar allaqachon boshiga yetib bo'lganini alohida uqtiradi. Bu esa Yerdagи har bir odamni chuqurroq o'ylashga, hushyor bo'lishga da'vat etadi.*²⁰

Tarjimon asarni tarjima qilar ekan, asliyat ruhini, tasvirini saqlashda nechog'lik saqlab qolganini biz, albatta, har uch tilidagi shu asar namunasini qiyoslab ko'ramiz. Birgina Rey Bredberi asar boshida tasvirlab bergen "Rocket summer" rus tilidagi tarjimasida "Рокетное лето" o'zbek tilidagi bilvosita tarjimada ("Raketa yozi") aynan voqealar ramziy tus olgan, Mars sayyorasida bo'lib o'tgan xayoliy, fantastik lavhalar o'rinni olgan.

Tarjimon Amir Fayzulla ushbu fantastik asarni tarjima qilar ekan, shu o'rinda adekvat tarjimadan foydalangani, bu tur tarjima – (rus tilida "адекватное", o'zbekchada "tenglashtirish", "teng,to'la mos keladigan", "bir-biriga mutanosib" ma'nolarini anglatadi (tarjimaning asliyatga mos kelishi nazarda tutiladi) ya'ni aynan o'xshagan tarjima tushiniladi. Uning asosiy xususiyati shundaki, asl nusxani to'liq aks ettiruvchi, unga muvofiq va u bilan tenglashadigan tarjima adekvat tarjima deyiladi.²¹ Boshqa manbalarda bu haqida turlicha fikr-mulohazalar mavjud. "Adaptatsiyali tarjima-(lot.adaptatio; yengillashtirish,soddalashtirish)asliyatdagi asar yoki boshqa matnning asosan syujet chiziqlariga urg'u berib,uning ma'no va uslubiy jihatlarini e'tirofdan qochirish orqali soddalashtirilgan holda amalga oshirilgan tarjima."²² Amir Fayzulla Rey Bredberining "Marsga hujum" asarini rus tilidan bilvosita tarjima qilar ekan, asar boshidagi qismlarida o'zbek tilidagi bilvosita tarjimasini tahlilga tortar ekanmiz, unda ba'zi so'zlar adekvat tarjima, ba'zi o'rinnarda esa kalka usulidan foydalanilganini guvohi bo'lamiz. Asl nusxada: "Rocket summer. The words passed among the people in the open air, airing houses. Rocket summer. The warm desert air changing the frost patterns on the windows, erasing the art work. The skis and sleds suddenly useless. The snow, falling from the cold sky upon the town, turned to a hot rain before it touched the ground."²³ Bevosita rus tilidagi tarjimasida tarjimon tarjimaning kalka usulidan foydalangan, kalka usulida so'z yoki so'z birikmasini harfma-harf (hijjalab) tarjima qilish bilan o'girish anglashiladi. Uning quyidagi turlari bor: 1.Leksik kalka-tarjima tilida asliyatdagi qoidalar bo'yicha yasalgan so'z. 2.Sematik kalka-so'zning chet tilidagi ma'nosini ta'siri bilan paydo bo'lgan ifodasi.3.Frazeologik kalka-chet tilidagi birikmani qismlarga bo'lib hijjalab (harfma –harf) tarjima qilish. Shunda rus tilidagi bevosita tarjimada: "Ракетное лето. Из уст в уста с ветром из дома в открытый дом – два слова: Ракетное лето. Жаркий, как дыхание пустыни, воздух переиначивал морозные узоры на окнах, спазывал хрупкие кружева. Лыжи и санки вдруг стали не нужны. Снег, падавший на городок с холодного неба, превращался в горячий дождь, не долетев до земли."²⁴ Tarjimon rus tilidagi asar tarjimasida frazeologik kalka turidan foydalangan bo'lib, "The words passed among the people in the open air, airing houses." gapi tarjimada "Из уст в уста с ветром из дома в открытый дом – два слова" birliliklar asal tili va asar tarjima qilingan til madaniyati bilan bog'liq frazeologik birliliklar bilan tarjima qilingan. Bilvosita o'zbek tilidagi tarjimasida esa, "Ракета ёзи. Оғиздан-оғизга, уйдан-уйга шу икки сўз кўчиб юрар эди: Ракета ёзи. Худди чўл нафасидек қайноқ ҳаво деразалардаги муз нақшларни эритиб юборди, улар ўрнида нафис каштапар сузилиб кўринди. Чанғи ва конкилар бирдан керак бўлмай қолди. Аёзли осмондан тепалик устига кўнаётган қор ергача келмай, ҳаюдаёқ қайноқ ёмғирга айланмоқда эди."²⁵ bunda tarjimon rus tilidagi muqobiliga murojaat qilib, leksik kalkadan foydalangan, so'zma-so'z tarjima qilib, ayrim o'rinnarda o'zbek tilidagi lingvomadaniy tus ham bergen, bu esa o'zbek kitobxoniga aynan o'sha so'z yoki ibora tushunarli bo'lishi va tushunishi uchun qulaylik yaratish edi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shu aytish mumkinki, tarjimon va asliyatdagi asarning tarjima jarayonida qayta tug'ilishi, shuningdek, tarjimonning tarjima turlari va usullaridan foydalanishi tarjima jarayoni

²⁰ Рэй Брэдбери, "Марсга хужум". "Янги аср авлоди", – 2016 йил. – Б.2

²¹ Termiz Davlat Universiteti o'qituvchisi, Akademiya NTM rahbari,tarjimon,ilmiy izlanuvchi Solijonov Juraali Kamoljonovich.Tarjimashunoslik fanidan ma'ruza matnlari. – Т.,2018. – В.28

²² J.K.Solijonov "Tarjimonlarga tavsiyalar 1-5-qismlar". – Т., 2016. – В. 35

²³ Ray Bradbury. The Martian Chronicles. Voyager, An imprint of HarperCollinsPublishers, London Bridge Street, London SE1 9GF Cover layout design © HarperCollins, Publishers 2014, P.4

²⁴ Р. Д. Брэдбери. «Марсианские хроники». © Издание на русском языке, оформление. ООО «Издательство «Эксмо», 2013Ст. 6

²⁵ Рэй Брэдбери, "Марсга хужум". "Янги аср авлоди", 2016 йил, Б.3

haqidagi benihoya oqil so'zi yoddan chiqmasligi kerakka o'xshaydi.”¹⁵ Shu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, asarni boshqa tilga o'giruvchi xuddi yozuvchi kabi narsa-hodisalar, inson ruhiyati to'g'risida keng tasavvurlar va fantaziya qobiliyatiga ega bo'lgandagina, qobiliyat teran bilimlar bilan quvvatlangandagina uning ijodi ishonchli, tushunarli, yuksak badiiy ifodaviylik va ta'sirchanlik kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Xususan, tarjimon oldida turgan vazifa hayot haqidagi bilimlarning chalaligi va jo'nlligi, asliyat asari va uni yaratgan adibning tarjimayi holi, ijodiyoti, badiiy uslubi ijodiy-xayotiy qarashlarini tugal o'rganmaslik va bilmaslik, asliyat asari atrofidagi fikr-mulohazalar, bahslardan bexabarlik – hech shubhasizki, “tarjimaning umumiyy badiiy sifat darajasiga qattiq salbiy ta'sir ko'rsatadi”.¹⁶ Tarjima haqida fikr borarkan, biror manba yo'qli, unda tarjimaning asl nusxaga nomuvofiqligi tilga olinmagan bo'lsin. Bu haqda mashhur o'zbek tarjimon G'aybull Salomov shunday degan: “Tarjimon ko'pincha “qoidasiz o'yinda qatnashganlikda”, “Hijjalab o'tirganlikda”, “asl nusxaning faqat ruhini berishga intilganlikda”, “ko'r-ko'rona nusxa ko'chirganlikda” ayblanib, ming ta'na dashnomga giriftor qilinadi.”¹⁷ Shuning uchun ham bu nozik va juda mashaqqatli jarayon. Har qanday mohir tarjimon tarjimaga kirishmasdan burun tarjima qilinadigan asarni har tomonlama o'rganish, uning lug'ati va badiiy xususiyatlari ustida oldindan ish olib borish, asarning ichki tuzilishi, obrazlari, qahramonlar harakat qilayotgan ijtimoiy-tarixiy muhit, badiiy tasvir vositalari, uslubi haqida o'ziga xos material, ma'lumotnomalar tuzish tarjimaning muvaffaqiyatli chiqishiga zamin yaratadi. Yozuvchi yangi asar yozish uchun qanday izchillik bilan material yig'sa, tarjimon-yozuvchi ham shunday material to'playdi, asar va uning muallifi haqida o'z ma'lumotnoma daftарini yaratadi. Ushbu muhim xususiyatlarni o'rganib turib, tarjimaning maqsadi bu kitobxonning saviyasi va didi, matn turi kabi qator masalalar muhokama kun tartibiga qo'yilmagan. Nazariy asosning ishlanmaganligi tarjima jarayoniga turlicha yondashishni keltirib chiqargan.¹⁸ Bu, o'z navbatida, qator tarjima turlarining vujudga kelishiga sabab bo'lganki, ularning ayrimlari “ijodiy-ilmiy, ba'zilari illatli”¹⁹ deb tan olinadi.

Aslida asarni bir tildan ikkinchi tilga muqobil bir maqomda o'tkazish tarjimondan chuqr bilim, katta mahorat, og'ir mehnat talab qiladi. Shu o'rinda masalaning ikkinchi tomoni ham bor. Bu keng kitobxonlar ommasining estetik didi, saviyasi, yuksak madaniy, intelektual talab va ehtiyojlari, aqliy taraqqiyot darajasini, bir so'z bilan aytganda, hisobga olishdir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ko'rinib turibdiki, tarjimaning tili va uslubi kitobxon hamda zamon talablariga to'la javob berishi dolzarb, shu tufayli so'z ustalari, goh orginal asar, goh tarjima bo'lsin, o'z asarlarining tili va uslubiga doim sayqal berib boradilar. Masalan, mahoratlari tarjimonlarimizdan biri Amir Fayzulla bilvosita tarjimasiga mansub Rey Bredberining “Marsga hujum” asari aynan fantastik xayolot, kosmik dunyo, aql bovar qilmaydigan lavhalar bilan sug'orilgan. Tarjima asardagi ayrim terminlar asliyatdan uncha farq qilmasada, ayrim tarjima xususiyatlaridan lingvo-madaniy va lingvo-psixologik muvofiq va nomuvofiqlikni ko'ramiz.

Biz yuqorida ta'kidlab o'tgan fantastik asar benihoya aql bovar qilmaydigan lavhalarga, voqeа-hodisalarga, shuningdek, olis sayyora – Marsga sayohatni tasvirlaydi. Tahlilga tortish jarayonida nafaqat fantastik asarning aslini, balki ruschadan bilvosita tarjimasida tarjimonning mahorati, uslubi, usuli kabi masalalar yoritildi. Shu o'rinda tarjimon Amir Fayzulla asar xususiyati haqida gapirar ekan, u shunday deydi: “Rey Bredberi quvvai zehni bilan olis-olis galaktikalarga xuddi fazogirlarday “sayohat” qiladi va mo'jizaviy taassurotlarini jahon ahli bilan baham ko'radi.

Muallifning fantastika vositasida bunday g'aroyib “sayohat”lari zamirida ulkan majoziy ma'no yotadi — u Yerdagи hayot, xususan ona tabiatga munosabat allaqachon izdan chiqqanligini alam, o'kinch va zaharxandalik bilan ifoda etadi. Hatto biz shaffof marsliklar istiqomat qiladi deb tasavvur

¹⁵ I.G'ofurov,O.Mo'minov,N.Qambarov. Tarjima nazariyasi. “Tafakkur bo'stoni” nashriyoti. – Toshkent, 2012. – B.116

¹⁶ I.G'ofurov,O.Mo'minov,N.Qambarov. Tarjima nazariyasi. “Tafakkur bo'stoni” nashriyoti. – Toshkent, 2012. – B.117

¹⁷ F.Саломов. Таржима санъати. Мақолалар тўплами. – Т.: “Фан”, 1993. – Б.88

¹⁸ Usmonova Zarina Habibovna. (2022). TRUTH AND FAIRNESS IN “THE DEAD ZONE” BY STEVEN KING'S. Open Access Repository, 8(1), 77 80. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/ZH3MJ>

¹⁹ Саломов F. Таржима ташвишлари. Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. – Т., 1973. – B.116

**REY BREDBERINING “MARSGA HUJUM” (“THE MARTIAN CHRONICLES”) ASARI
BILVOSITA TARJIMASIDA TARJIMA USULLARI VA O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**СПОСОБЫ ПЕРЕВОДА И ОСОБЕННОСТИ КОСВЕННОГО ПЕРЕВОДА
«МАРСИАНСКИЕ ХРОНИКИ» (“THE MARTIAN CHRONICLES”) РЭЯ БРЭДБЕРИ**

**TRANSLATION METHODS AND FEATURES OF INDIRECT TRANSLATION IN "THE
MARTIAN CHRONICLES" BY RAY BRADBURY**

Usmonova Zarina Habibovna¹

¹Usmonova Zarina Habibovna

– Buxoro davlat universiteti, katta o‘qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqola tarjimaning o‘ziga xos xususiyatlari, shakllarining nazariy asoslari, turlari va ularning tarjimon tomonidan asar tarjimasida turlicha foydalanilishi, shuningdek, bu jarayonda asar tarjimasining asliyat mazmun-mohiyatini buzmaslik uchun tarjimonning o‘ziga xos uslubiga bag’ishlanadi. Jumladan, Fantastik asarlar tarjimasi nafaqat adabiy, lingvistik, madaniy xususiyatlarni qamrab oladi, balki ular tarjim ajarayonida sohaviy termonologik muhitni yaratadi. Rey Bredberining “Marsga hujum” asari bilvosita tarjimasi shunday asarlar sirasiga kiradi.

Аннотация

Данная статья посвящена уникальным особенностям перевода, теоретическому обоснованию его форм, видов и различному их использованию переводчиком при переводе произведения, а также собственному стилю переводчика, чтобы не нарушать оригинального содержания произведения. перевод произведения в этом процессе. В частности, перевод фантастических произведений охватывает не только литературоведческие, языковые, культурологические особенности, но и создает полевую терминологическую среду в процессе их перевода. Одной из таких работ является непрямой перевод «Марсианские хроники» Рэя Брэдбери.

Abstract

This article is devoted to the unique features of translation, the theoretical substantiation of its forms, types and their various use by the translator when translating a work, as well as the translator’s own style so as not to violate the original content of the work. translation of the work in this process. In particular, the translation of fantastic works covers not only literary, linguistic, cultural features, but also creates a field terminological environment in the process of their translation. One such work is an indirect translation of Ray Bradbury’s “The Martians Chronicles”.

Kalit so‘zlar: kalka, adekvat, tarjimon, leksik birlik, grammatik transformatsiya, uslub, tasviriy ifoda, asliyat, muqobil, kalkalash, obrazli tarjima.

Ключевые слова: калька, адекватный, переводчик, лексическая единица, грамматическая трансформация, стиль, образное выражение, оригинальность, альтернатива, калькирование, образный перевод.

Key words: kalka, adequate, translator, lexical unit, grammatical transformation, style, figurative expression, originality, alternative, doing kalka, figurative translation.

KIRISH

Taraqqiyot tushunchasi nafaqat moddiy hayotimizda, balki ma’naviy dunyomizda, adabiy sohalarda ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Jumladan, tarjima va tarjimashunoslik sohasi bundan mustasno emas. Bu sohani ham o‘z egalari, ustalari, ro‘yobga chiqaruvchi ijrochilar bor. Bu jarayon vakillari nafaqat tarjima amaliyotini amalga oshiradilar, balki yozuvchi kabi asarni idrok etadilar, qayta yaratadilar. Shuning uchun bu amaliyot murakkab hisoblanadi. Biz bilamizki, tarjima amaliyoti paydo bo‘libdiki, asliyatni ona tiliga qanday o‘girish lozim - so‘zma-so‘zmi yoki erkin tarzdam - degan masala tarjimonlar oldida ko‘ndalang turgan muammo sanaladi. Ayrim shaxslar, masalan, XX asrning boshlarida ijod qilgan san’atkorlar, so‘zma-so‘z tarjimani yoqlab chiqqanlari holda, amaliy faoliyatlarida shu usuldan ko‘proq foydalaniib kelgan bo‘lsalar, ko‘pchilik ijodkorlar erkin tarjimani afzal ko‘rib, san’atkor asliyatning harfini emas, ruhi, so‘zini emas, mazmunini, shaklini emas, unda mujassamlashgan axborotni bera bilishi kerak degan nuqtai nazarni olg‘a surganlar. Ammo masalani nazariy hal qilish lozimligi hech kimning xayoliga kelmagan. Bunda tarjimon ulushi qanday ahamiyat kasb etadi degan savol hammani qiyaydi. “Tarjimon xuddi talantli yozuvchi kabi katta hayot tajribalariga ega bo‘lganidagina, uning tarjimadagi so‘zi yozuvchi so‘zidek tiniq, shirali, aniq-ravshan chiqadi. Bunda Navoiyning o‘scha mashhur “ravshan alfoz va ochuq ado”

beriladigan grammatik, uslubiy (sinonim, antonim, omonim, ijobiliy/salbiy bo'yoqdorligi) va havola etuvchi qaydlardir. Ular qisqartma shaklida beriladi.		
Bosh so'z o'zi mansub bo'lgan (asosiy) so'z turkumidan boshqa turkumga oid ma'noga ham ega bo'lsa, qaysi ma'nosiga (yoki ma'nolari) bilan qaysi so'z turkumiga oidligi qayd etiladi.	+	+
So'zning muayyan shakli shu shaklga xos ma'no va vazifasidan tashqari lug'aviy ma'no ham kasb etgan bo'lsa, har ikki holat grammatik belgi bilan qayd etiladi.	+	+
Bosh so'z bir ma'noli bo'lsa, lug'at maqolasi shu ma'nosiga tuziladi. Ko'p ma'noli bo'lsa, har bir ma'nosiga, ma'lum tartibda, to'q qora rangli arab raqami bilan alohida-alohida qayd etiladi (Raqamdan keyin nuqta qo'yilmaydi).	+	+
Izohlanuvchi birliklar (bosh so'z va turg'un iboralar) ma'nosini (ma'nolarini) belgilash va qayd etish lug'at tuzish ishining eng asosiy, lug'at maqolasining doimiy qismlaridan biri hisoblanadi.	+	+
Lug'at maqolasining eng asosiy qismi (komponenti) izohlanuvchi birlik ma'nosini (ma'nolari)ga beriladigan izohdir.	+	+
Lug'at maqolasining so'nggi komponenti izohlanuvchi birlik ma'nosini izohidan keyin beriladigan illyustrativ misol (misollaridir).	+	+
Bosh so'zning har biriga illyustratsiya manbasidan olingan chastotasi berilgan.	-	+

Izohli-kombinator lug'at 5 asosiy xususiyati bilan xarakterlanadi: faol (passiv emas); universal (ixtisoslashtirilmagan); ensiklopedik; nazariy; izohlovchi va tizimli [Мельчук 1984:75].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, izohli-kombinator lug'atlar quyidagi maqsadlarda foydalilaniladi:

1. Kompyuter dasturlarini yaratish va kompyuter lingvistikasida tabiiy til matnlarini qayta ishlash, sintez va analiz qilish maqsadida zurur axborotlar bilan ta'minlash uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.
2. Tabiiy tilning nazariyasi, metatilning semantikasini rivojlantirish, so'zning semantik va sintaktik xususiyatlari, frazeologiyaning tavsiflash kabi masalalarga oydinlik kiritadi.
3. Tillarni o'qtish, nutq madaniyati, leksikografiya sohalarining ravnaqida ko'mak beradi. O'quv lug'atlari, tezaurus va darsliklar yaratilishida manba vazifasini bajaradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий ўзлигимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли (Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганлигининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутк) // "Халқ сўзи" газетаси. – Тошкент, 2019. – № 218. – В. 2. // (Mirziyoyev Sh. M. The symbol of our national identity and independent statehood (speech at the ceremony dedicated to the thirtieth anniversary of the state language status of the Uzbek language) // "Khalk sozi" newspaper. - Tashkent, 2019. – № 218. – P. 2.)
2. Липгарт А.А. Основы лингвопоэтики. – М.: URSS, 2016, -C.20-23. // (Lipgart A.A. Fundamentals of linguopoetics. – M.: URSS, 2016, – P. 20-23)
3. Влаватская М.В. Лексикографическая интерпретация сочетаемости слов (Модель построения русско-английского учебного комбинаторного словаря): Автореф. дисс. канд.фил.наук. – Барнаул, 2004. – С. 24. // (Vlavatskaya M.V. Lexicographic interpretation of the combination of words (Model for constructing a Russian-English educational combinatorial dictionary): Abstract of the thesis. diss. Candidate of Phil.Sci. - Barnaul, 2004. – P. 24.)
4. Мельчук И.А., Жолковский А.К. Толково-комбинаторный словарь современного русского языка. – Вена, 1984. – С.70. // (Melchuk I.A., Zholkovsky A.K. Explanatory-combinatorial dictionary of the modern Russian language. - Vienna, 1984. – P.70.)

ILMIY AXBOROT

kombinator, izohli-muvofiqlashtirish (только-ко-сочетаемостный) lug'ati, valentlik va distributsiya lug'ati, distributiv-transformatsion lug'at, so'z birikmasi, semantik va leksik muvofiqlik lug'ati, kollokatsiya lug'ati va boshqalar. Barcha lug'atlarda uchta asosiy kategoriya urg'u beriladi: sintaktik, leksik-semantik, leksik-sintaktik. So'z muvofiqligi 7 usul yordamida tavsiflanadi: 1) leksik qatorlar; 2) gap; 3) so'z birikmasi va gap; 4) formulalar; 5) so'zlar bloki; 6) bosh so'zning mavzuviy guruhi; 7) leksik vazifaning vositasi [Задорожнева 2007: 70-74].

Mazkur holatlarni inobatga olib, kombinator leksikografiya tamoyillari ishlab chiqilishi, o'zbek lug'atchiliga dunyo tilshunosligining eng yangi yutuqlarini zudlik bilan tatbiq etish va amaliyotda bundan samarali foydalanish sira kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarimizdan biriga aylanadi.

Izohli – kombinator lug'at – tabiiy tildagi fikrni ifoda etishning barcha vositalarini to'liq tizimlashtirishga imkon beradi. Masalan, *Havoning harorati pasayishi bilan sabzavotlarning hosildorligi kamaydi* misolini tahlil qilib ko'ramiz. Birgina mazkur fikrni bir necha xil variantlarda ifodalash mumkin:

- 1) Havoning sovishi hosildorlikning kamayishiga sabab bo'ldi.
- 2) Hosildorlikning kamayishiga havo haroratining pasayishi sabab bo'ldi.
- 3) Hosildorlik havo harorati sababli kamaydi.
- 4) Sovish hosildorlikning pasayishiga olib keldi.
- 5) Hosildorlikning pasayishi sovish natijasida yuzaga keldi.
- 6) Havo haroratining sovishi natijasida ekinlar kamaydi.

Tabiiy tildagi fikrni sun'iy tilga o'tkazish uchun har bir til birligini izohlash zarur: *sovish* – havo haroratining pasayishi; *hosildorlik* – ekin maydonlaridan olingan mahsulot hajmi kabi. Bunday izoh yetarli emas. Har bir birlik har tomonlama izohlanishi lozim. Shuni ham ta'kidlash lozimki, so'zlarning sinonimik qatorlari ham inobatga olinadi. Haroratning pasayishi hosildorlikning pasayishiga olib keldi, misolidagi so'zlarning leksik-semantik birikuvi va sintaktik aloqadorligi xususiyatlarini ham sinchkovlik bilan tavsiflash kerak.

An'anaviy leksikografiyada ikki tip lug'atlar keng qo'llaniladi: biri lingistik, ya'ni tushunchalarning izohini, ensiklopedik – ilmiy nuqtayi nazardan narsa, buyum, jarayon, dalil va turli mavhum tushunchalarning izohini tavsiflaydigan lug'at. Ammo so'nggi yigirma yilda tilshunoslik, semiotika, mantiq, texnik va boshqa fanlarning rivojlanishi so'zlarning to'g'ri ishlatalishi ko'p jihatdan til birliklarini guruhlarga bo'lish va u qaysi vazifalarda aks ettirish bilan belgilanishini anglashga olib keladi. Lug'atda «realiyalar», «nutqiy etiket» va boshqa madaniy, assotsiativ xususiyatlar ham qamrab olinadi.

Shu bilan birga, izohli kombinator lug'at va boshqa faol lug'atlar orasida muhim farq bor:

Lug'atlar oldiga qo'yiladigan tamoyillar	Izohli lug'at	Kombinator-izohli lug'at
Lug'at unga kiritilgan lug'aviy birliklar va ularga tuzilgan lug'at maqolalaridan tashkil topgan. Lug'aviy birlik deganda, odatda, lug'atga kiritilgan va lug'at maqolasi tuziladigan so'z (bosh so'z) tushuniladi.	+	+
Lug'atga kiritilgan so'zlar alifbo tartibida beriladi va ular, odatda, lug'atning so'zligi deb qaraladi.	+	+
Umumiste'moldagi, chegaralangan leksikaga oid so'zlar kiritiladi, talablarga mos kelmaydigan (javob bermaydigan) so'zlar va so'z shakllari, shuningdek, qisqartmalar (XDP, IIB kabi), atoqli otlar izohlanuvchi birlik (bosh so'z) sifatida lug'atga kiritiladi.	+	-
Bosh so'zlar (mustaqil so'zlar) nol shaklda (bosh shaklda) beriladi. Faqat xalq, qabila, elat nomlari, shuningdek, ayrim terminlar ko'plik shaklda beriladi.	+	-
Lug'at maqolasining etimologik ma'lumotdan keyingi qismi bosh so'zga, uning ma'nosi oldidan	+	+

metafora, tasviriy ifoda (perifraza)lar, iboralar (frazeolagizmlar), paremiologik birliklar (maqol va matallar), hikmatli so'z (aforizmlar)larda aniqlik va obyektivlikni ta'minlash;

- 5) matnni avtomatik qayta ishlash (avtomatik tarjima, avtomatik tahrir) kabi muammolarni hal qilish;
- 6) o'quv jarayonini kompyuterlashtirish;
- 7) o'zbek mashina fondini yaratish orqali tabiiy tillarning jahon axborot uslubini rivojlantirish kabi muammolarni yechishda yordam berdi.

Ma'lumki, **kombinator leksikografiya** - tilshunoslikning nazariy va amaliy qismi, nazariy va amaliy leksikografik masalalarni o'rganish, so'zlarning kombinatorial-sintagmatik xususiyatlarini sharhlash va kombinator tipidagi lug'atlarni yaratish prinsiplarini o'rganadi [Влавацкая 2004: 10]. Ikki tilli kombinator lug'at kataloglarida turli xil tillarning so'zlar taqsimlanishlarni o'rnatishdan tashqari, ona tilida bo'lmagan tilni o'qitish texnologiyasi va metodologiyasini takomillashtirish juda muhimdir. Demak, izohli-kombinator lug'atlarning boshqa izohli lug'atlardan farqli tomonlari quyidagi jihatlari bilan ahamiyatlidir: u yoki bu fikrni bayon etishda tabiiy tilning leksik funksiyasi inobatga olinadi. Matnlarni sintez va analiz qilish, formal tavsifni yagona prinsip asosida namoyon qilishga qaratiladi.

Yaqin vaqtgacha rus tilshunosligida yagona faol, mukammal izohli lug'atning asosiysi D.N.Ushakov va S.I.Ojegovlarning taniqli lug'atlari edi. Sinonimik, frazeologik, so'z yasalishi (uyasi), mafkuraviy, analogik va boshqa tipidagi passiv lug'atlar mutaxassislarga moslashtirib yaratilgan. Shu bilan birga, faol lug'atda hal qilingan, berilgan fikrni ifoda etishning barcha (sinonimik qatorlari, birikish va munosabatga kiritish) vositalari to'liq tizimlashtirilmagan edi.

Jahon tilshunosligida A.K.Jolkovskiy, I.A.Melchuk, Z.M.Shalyapina, Yu.D.Apresyan, Ye.E.Razlogova kabi olimlar tomonidan yaratilgan lug'atlar kombinator leksikografiyaning jiddiy yutug'i sifatida e'tirof etilishga loyiqdir:

Izohli kombinator lug'at - har qanday tilning to'liq tavsifining ajralmas qismi bo'lib, "mazmun – matn" tipidagi lingvistik modellar nazariyasi doirasida amalga oshiriladi. Tabiiy til yaratuvchi sifatida berilgan bir necha ma'noga mos keladigan tabiiy til matnlarda birgina ifodalanuvchi (ya'ni, bir-biriga onomim) va bir necha ifodalanuvchiga mos keladigan birgina ma'no (bir-biriga sinonim) sifatida taqdim etadi.

«Mazmun↔matn» modelida 4 darajadagi til birlarining ifodalanishi taqdim etiladi: semantik, sintaktik, morfologik, fonetik-orfografik [Мельчук 1984: 70].

Mazmun↔matn o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ko'p bosqichli «tarjima» jarayonining semantik axboroti sifatida, ya'ni **SEMANTIK TASAVVUR** – tasvirning bir darajadan boshqasiga o'tishi, tegishli mazmunni yuzaga kelgunga qadar axborotning almashinishi (yoki teskari holat: berilgan matnni «tarjima» jarayoni sifatida, yoki fonetik axborot, ya'ni **FONETIK TASAVVUR** – tasvirning bir darajadan boshqasiga o'tishi, tegishli mazmunni yuzaga kelgunga qadar axborotning almashinishi) nazarda tutiladi. «Mazmun↔matn» modelida yuqoridaq o'tish jarayonni amalga oshirish, tilning har bir so'zi, sathi, qirralarini va o'ziga xos xususiyatlarini qamrab oladigan yangi tip lug'atlarning yuzaga kelishiga turki bo'ldi. Aniqroq qilib aytganda, bu tip lug'atda so'zning boshqa so'zlar bilan o'zaro semantik bog'lanishi va sintagmatik munosabati yoriltiladi. **«Mazmun↔matn»** modelining tarkibiy qismi leksika paradigmatic birlik va sintagmatik aspekt sifatida matnda so'zlarning bog'lanish qonuniyatlariga asoslangan. Mazkur nazariya tabiiy tilning tavsifi sifatida insonning mazmundan matnga («so'zlashish» yoki matn yaratish) va matndan mazmunga («tushunish» yoki matnni qayta tushunish) o'tishini ta'minlaydigan model hisoblanadi, uning o'rtasidagi ↔ ramziy belgi mazmun bilan matnning chambarchas bog'liqligi va birisiz ikkinchisi mavjud emasligini anglatadi. Nazariya ko'pdarajali tilning modeli sifatida matndagi mazmunni anglash uchun har bir daraja (sath)ning elementlari orqali o'z aksini topadi. Jumladan, fonologik daraja matnning shakliy, dastlabki bosqichi sanalsa, semantik daraja matnning mazmuniy, tashqi morfologik va ichki morfologik daraja, ichki sintaktik va tashqi sintaktik daraja hisoblanadi. Matndagi mazmunni anglash uchun har bir daraja o'z xususiyatidan kelib chiqib mazmunga ta'sir qiladi (M: baland tepalik – baland martaba).

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, tovush, so'z, so'z birikmasi va gap tarkibidagi elementlarning kombinatsiyasi kombinator leksikologiya va leksikografiya sohasining ajralib chiqishiga zamin bo'ldi. Kombinator leksikografiyaning nazariy masalalari jahon tilshunosligida ishlab chiqilgan va bir necha bo'limlardan iborat ekanligi keltirilgan [Влавацкая 2004: 10]. Soha terminologiyasidagi terminlarning turli xilligi va bir-biri bilan bog'liqligi lingvistlar tomonidan muvofiqlikning turli terminda qo'llanilishiga sabab bo'lgan: kombinator, izohli-

ILMIY AXBOROT

kombinator lug'atichiligi nazariyasini shakllantirish, uning ilmiy – lingvistik, sotsiolingvistik, lingvokognitiv asoslarini ishlab chiqish, kombinator lug'atlarini yaratish tamoyillarini aniqlashtirish, bugungi zamonaviy lingvistik va metodik talablarga javob beradigan kombinator lug'atlarini yaratish talablarini qo'yemoqda.

Xususan, hozirda o'zbek tilshunosligida keng qamrovda olib borilayotgan sistem-struktur tadqiqotlar natijasida kombinator lug'atlar yaratish uchun zamin paydo bo'ldi. Afsuski, bu borada o'zbek tilshunosligida hali sanoqli ishlargina amalga oshirilgan. Bu tadqiqotlarning fan taraqqiyotidagi hozirgi darajasi lisoniy hodisalarning nazariy, amaliy muammolarini turli usul va vositalar yordamida tadqiq etish talabidan kelib chiqib amalga oshirilganligini ta'kidlash joiz. Shu tarzda o'zbek tilshunosligida keng qamrovli sistem-struktur tadqiqotlar yuzaga kela boshladi va buning natijasida turli tip lug'atlar, kompyuter dasturlarning lingvistik ta'minot yaratish uchun zamin paydo bo'ldi, tilshunoslар zimmasiga bir qator vazifalar yukladi:

1. Ishlab chiqarishning barcha sohalarida avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi joriy etilgan. Mamlakatimizning barqaror iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishida fan va texnikaning, innovatsion texnologiyalarning ahamiyati tobora ortib borayotganligi buning dalilidir.

2. Ilmiy texnika inqilobi tabiat, jamiyat va insoniyat faoliyatining hamma sohalarida namoyon bo'lmoqda. Jalon fani taraqqiyotida bir-biridan birmuncha uzoq bo'lgan fan sohalari – tilshunoslik, falsafa va kibernetika kesishib, yangicha ontologik qarashlarni yuzaga keltirmoqda. Ilm-fanning rivojlanishi va barcha sohalarning kompyuterlashuvi natijasida o'zbek tili birliklariga avtomatik ishlov berish, tarjima qilish dasturlari uchun so'zlarning birikish kombinatsiyasini aniqlash zaruriyati paydo bo'lmoqda.

3. Hozirgi zamonda ilm-fan, texnikaning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi, «Davlat tili haqida»gi Qonunning amaliyotga joriy etilishi, respublikamizda jahon infrastrukturasidagi bir qancha sohalarning rivojlantirilishi natijasida tilimizda yangicha atamalar, leksemalar paydo bo'lmoqda. Bu esa tilshunoslар oldiga barcha sohalar bo'yicha zamonaviy lug'atlar: chastotali, ters, elektron (tezaurus), kombinator lug'atlar yaratish, sohalarga oid ma'lumotlarni avtomatlashtirish, ularni kompyuter xotirasiga joylab, qayta ishlov berishdek muhim vazifalarni yuklamoqda.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi korporativ informatsion tizimini takomillashtirish va uni axborotlar bilan doimiy ta'minlanishini tashkil etish to'g'risida»gi 2004-yil 3-noyabrdagi 258-sonli qarori elektron ta'lim tizimini yo'nga qo'yish uchun katta istiqbol ochmoqda. Ana shu talablardan kelib chiqqan holda elektron darslik, qo'llanmalar yaratish zarurati paydo bo'lmoqda.

5. Hozirgi davrda inson muammoasi, uning aqliy faoliyati, tili, individual va jamoa faoliyati, aniq bir til tashuvchisi sifatidagi o'rni kabi antroposentrik muammolarni o'rganishga qiziqish ortib bormoqda.

Mazkur vazifalar kombinator lingvistikaning rivojiga turtki beradi. "Sun'iy intellekt" tadqiqot yo'naliшining bir qismi hisoblangan kombinator lingvistika, sun'iy intellekt va intellektual tizimning maxsus atamalari XX asrning 60-yillardan boshlab shakllana boshladi. XX asr o'talariga kelib fantexnikaning rivoji tilshunoslikda turli yo'naliшlarni yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

This article talks about the phraseologisms appear as a whole or on the basis of the use of a specific word in a figurative sense, therefore, they are considered stable combinations of the language, unlike free syntactic units of speech, they are not among the lexical units of the language, like words. there is talk of taking over. Also, the article discusses phraseological expressions and their semantic properties, methods and methods of studying phraseological units, although phraseological units express a single meaning, but phraseologically they differ from lexical meaning, phraseological units are semantically different from words. , due to the fact that it appears in the language, these interconnected words are essentially equal to a compound or a sentence, and the phraseological meaning that can be understood from such a compound or a sentence as a whole does not mean that it is a syntactic unit , but it is said that it leads to being considered as a semantic unit.

Kalit so'zlar: frazema, frazeologik birikma, frazeologik butunlik, sintaktik tahlil, kategorial belgi, , frazeologik chatishma, frazeologik qo'shilma, nominativ frazemalar, kommunikativ frazemalar, frazeologik polisemiya, frazeologik sinonimiya, frazeologik antonimiya, frazeologik omonimiya va paronimiya.

Ключевые слова: словосочетание, фразеологическое сочетание, фразеологическое целое, синтаксический анализ, категориальный признак, фразеологическое сочетание, фразеологический состав, номинативные словосочетания, коммуникативные словосочетания, фразеологическая полисемия, фразеологическая синонимия, фразеологическая антонимия, фразеологическая омонимия и паронимия.

Key words: phrase, phraseological combination, phraseological whole, syntactic analysis, categorical sign, phraseological combination, phraseological compound, nominative phrasemes, communicative phrasemes, phraseological polysemy, phraseological synonymy, phraseological antonymy, phraseological homonymy and paronymy.

KIRISH

Frazeologik birliklar til egasi bo'lgan xalqning ma'naviy madaniyati, urf-odati, kasbi, yashash tarzi, o'tmishi, intilishi, voqelikka munosabati bilan uzviy bog'liqidir. Uzoq muddatli taraqqiyot mahsuli hisoblangan frazeologik birliklar jamiyat tajribasini aks ettirib, uni bir avloddan ikkinchisiga yetkazadi. Jahon tilshunosligida frazeologik birliklarni o'rGANISH bo'yicha katta ishlar amalga

ILMIY AXBOROT

yuzaga keladigan ma'noviy munosabatlar qarama-qarshiligidagi suyanadi va to'siqsizlik munosabatini keltirib chiqaradi. U o'z tadqiqot ishi bo'yicha ma'lumotlar yig'ish jarayonida to'siqsizlik semasi ko'proq ot (уступка, уступительность, соглашательство), sifat (уступительный, уступчивый), fe'l (уступать, уступить, соглашаться, сдаваться, покориться) va ravish (уступив, уступая) doirasiga xos ekanligiga amin bo'ladi, yordamchi so'z turkumlaridagi to'siqsizlik munosabatini olti guruhga bo'lgan holda ko'rib chiqadi. Shu bilan birga, G.A.Musatova o'z ishida R.M.Teremova tasnifiga asoslanib ish ko'rishni ma'qullaydi va to'siqsizlik maydonining yadrosi (markazi) sifatida aniq to'siqsizlik mikromaydoni ko'riliшини, taxminiy to'siqsizlik mikromaydoni markazga (ya'ni, yadroga) yaqinroq o'rın egallashini, kushaytirilgan to'siqsizlik mazmunidagi mikromaydon esa periferiyadan joy olishi kerakligini ta'kidlaydi. Har bir mikromaydonni o'z navbatida markaz va dominantaga bo'lib guruhlaydi [6;8-12].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

To'siqsizlik muammosi yuzasidan maydonga kelgan sintaksis va nazariy semantika sohasiga oid ishlarni shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin: birinchi guruh olimlar to'siqsizlikning asosiy birliklarini sabab-oqibat semantikasi asosida izohlovchilar sifatida, ikkinchi guruh olimlar to'siqsizlik kategoriyasini shart mazmuni asosida izohlovchilar sifatida farqlanishi mumkin.

Dastlabki guruh olimlarning ishlarida to'siqsizlik birliklarining ma'nosi kauzallik va inkorning hosilalari sifatida tahlil qilinadi. Ikkinchi guruh olimlarning talqiniga ko'ra, to'siqsizlik munosabatlari shart munosabatlari bilan yaqinlashtiriladi.

Shuningdek, to'siqsizlik munosabatinining o'ziga xos xususiyatlariga aloqador ishlar sirasiga G.Berzina, N.Bulax, S.Rubsova, N.Chernikova kabi olimlarning tadqiqot ishlarini kiritish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, jahon tilshunosligida to'siqsizlik munosabati XX asrdan boshlab lingvistik tushuncha sifatida o'rganila boshlangan. Bir qancha olimlar tomonidan to'siqsizlik ma'nosining turli qirralari ochib berilgan, ularning ba'zilari mazkur ma'noni sabab-natija, ba'zilari to'siqsizlik-shart, yana boshqalari to'siqsizlik-zidlik kategoriyasi sifatida o'rgansalar, ba'zilari aniq, taxminiy, kuchaytirilgan to'siqsizlik vaziyatiga bo'lib ko'rsatganlar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Апресян В.Ю. Уступительность как системаобразующий смысл// Вопросы языкоznания. 2006, №2. (Apresyan V.Y. Compliance as a system-forming meaning/ Questions of linguistics. 2006, No. 2.)
2. Апресян В.Ю. Уступительность. Механизмы образования и взаимодействия сложных значений в языке – М.: Языки славянской культуры, 2015. (Apresyan V.Y. Compliance. Mechanisms of formation and interaction of complex meanings in language – M.: Languages of Slavic culture, 2015.)
3. Грамматика русского языка. Т.2. Синтаксис. Ч. 2. – М., 1954. (Grammar of the Russian language. Vol. 2. Syntax. Part 2. – M., 1954.)
4. Лаврова О.А. Функционально-семантическое поле уступительности в современном русском литературном языке : Дис... канд. филол. наук : 10.02.01. – СПб., 1997. (Lavrova O.A. The functional and semantic field of compliance in the modern Russian literary language: Dis... Candidate of Philology: 10.02.01. – St. Petersburg, 1997.)
5. Ломоносов М.В.Краткое руководство к красноречию//М.В.Ломоносов. Полн.собр.соch Труды по филологии. Т.7. – М.: – Л. 1952. (Lomonosov M.V. A brief guide to eloquence //M.V.Lomonosov. Complete collection. soch Trudy po filologii. Vol.7. – M.: – L. 1952.)
6. Мусатова Г.А. Семантика уступки: Автoref. канд. дисс. филол наук. – М.: 2008. (Musatova G.A. Semantics of assignment: Abstract of the cand. diss. philol of Sciences. – M.: 2008.)
7. Rasulova A. The studing barrier connection in the world linguistics.. Thematic journal of Education, Vol-7-Issue P 38-42
8. Rasulova A Linguistic Features Of The Conditional Field In Uzbek Language The American Journal of Social Science and Education Innovations (ISSN – 2689-100x) April 22, 2021. Pages: 104-110
9. Rasulova A. As for the units that represent the conditional relationship. ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal Vol. 11, Issue 3, March 2021
10. Rasulova A. Learning a concessive attitude at the grammatical level. EPRA international journal of multidisciplinary research (ijmr) 2020 432-434
11. Расулова А. К вопросу выражения уступительных отношений в текстах на узбекском языке. ELMİ İŞ beynelxalq elmi jurnal. Bakı – 2021. B. 37-40 (Rasulova A. On the question of the expression of concessionary relations in texts in the Uzbek language. ELMİ İŞ beynelxalq elmi jurnal. Bakı – 2021. B. 37-40)
12. Теремова Р.М. Семантика уступительности и ее выражение в современном русском литературном языке. – Ленинград, 1986. – С. 70-73.(Teremova P.M. Semantics of compliance and its expression in the modern Russian literary language. –Leningrad, 1986. – pp. 70-73)

keltirgan to'rt misoldan ikkitasida to'siqsizlikni bildiruvchi vositalar uchraydi, qolgan ikkitasida «to'siqsizlik yoki iqror bo'lish» ma'nosi matnga nisbatan olingan [5;275].

XX asrga kelib to'siqsizlik lingvistik tushuncha sifatida e'tirof etila boshlandi. Bu fransuz tilshunosligida, xususan, Morel asarlarida ko'rindi. Unda to'siqsizlik munosabati aslida bir-biridan farqlanuvchi ikki voqeanning yaqinlashuvidan iborat bo'lgan ziddiyat sifatida belgilangan. Bu konsepsiya to'siqsizlik munosabatining ma'lum bir til birliklari – leksemalar va konstruksiyalar asosida ifodalanishini ko'zda tutadi. Shuningdek, «rus tili grammatikasi»da to'siqsizlikka shunga o'xshash ta'rif berilgan bo'lib, unda to'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplar va to'siqsizlik bog'lovchilari nazarda tutiladi: «Qo'shma gaplarda bosh gap ergash gapdan kutilayotgan natijaga qarama-qarshi aytيلayotgan voqeа haqidagi ma'lumotni o'zida saqlaydi» [3;337]. To'siqsizlikni bildiruvchi gaplarni ba'zi tadqiqotchilar sabab ergash gaplar qatoriga qo'shsalar, boshqalari shart ergash gaplarning ko'rinishlari, deb hisoblaydilar, uchinchi guruh tadqiqotchilar esa to'siqsiz va zid munosabatli gaplarning o'xshashligini ta'kidlaydilar.

To'siqsiz sintaktik qurilmalar bog'lanish va ergashish elementlarini o'zida aks ettiradi. Bunday gaplar bog'langan va ergash gapli qo'shma gaplar sifatida o'zaro almashinib qo'llanishi ham mumkin.

To'siqsizlik kategoriyasini yoritgan boshqa olimlardan farqli ravishda R.M.Teremova to'siqsizlik munosabatini (vaziyatini) uch xil daraja asosida ko'rib chiqadi:

1. Aniq-to'siqsizlik vaziyati. To'siqsizlik komponenti aniq (real) voqeа-hodisani aks ettirgan to'siq bo'limgan asosni o'zida saqlaydi. Boshqacha aytganda, to'siqsizlik kutilgan ish-harakatga nisbatan aniq natijani o'zida saqlagan holda yuzaga chiqadi. Bunday gaplar ergash gapli qo'shma gaplarda ko'proq uchraydi.

2. Taxminiy to'siqsizlik vaziyati. To'siqsizlik komponenti to'siq bo'lsa ham, natija bermaydigan asosni faraz qilingan voqeа-hodisa sifatida, shuningdek, voqeа-hodisaning natijasiga qaramay yuz beradigan shart sifatida ko'rsatadi.

3. Kuchaytirilgan to'siqsizlik vaziyati. To'siqsizlik komponenti kuchaytirish semasini, shuningdek, yuqori darajadagi belgi, harakat yoki holatning namoyon bo'lish ko'rsatkichini o'zida saqlaydi.

R.M.Teremovaning fikricha, natjalarni qarama-qarshi qo'yish orqali ikki tomonlama munosabat – to'siqsizlik va natija munosabati yuzaga keladi va shu holat yuqoridagi uch xil vaziyatni keltirib chiqaradi.

To'siqsizlik maydoni haqida so'z yuritar ekan, T.M.Teremova bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar yordamida ifodalangan to'siqsiz ma'noli gaplarni alternativ to'siqsizlikni ko'rsatuvchi vositalar nomi ostida baholaydi va ularni shartli ravishda to'siqsizlik maydonining taxminiy to'siqsizlik vaziyatiga kiritishni ma'qul ko'radi. Uning fikricha, taxminiy to'siqsizlik vaziyatida bo'lishi mumkin bo'lgan voqeа-hodisaning taxminiyligi ikki martagacha kamayadi. Alternativ to'siqsizlik ma'nosi ikki qarama-qarshi voqeanning ziddiyatiga asoslanadi: to'siqsizlikni bildiruvchi qismga va voqeа-hodisaning natijasiga [12;70-73].

O.A.Lavrova esa o'z ishida to'siqsizlik munosabatining rus adabiy tilidagi semantikasini kommunikativ-funksional yondashuv asosida ko'rib chiqqan. «To'siqsizlik, – deydi u, – murakkab semantik-sintaktik kategoriya bo'lib, u belgi, harakat, holat orasidagi qarama-qarshi (teskari) shartlanganlik munosabati asosida til vositalari yordamida aks etadi. To'siqsizlik munosabati ikki xil qarama-qarshilik asosiga quriladi: bir tomonidan to'siqsizlikni o'zida aks ettirgan sabab yoki shart kutilmagan, shartlanmagan natijaga qarama-qarshi qo'yiladi, boshqa tomonidan, bu kutilmagan natija kutilgan (shartlangan) natijaga qarama-qarshi turadi va bir vaqtning o'zida uni inkor etadi» [4;235].

V.Y.Apresyan o'z tadqiqot ishida to'siqsizlik bildiruvchi leksik birliklar, shuningdek, ularning mantiqiy funksiyasi talqiniga e'tibor qaratgan. Shu bilan birga, to'siqsizlikning sabab, shart, qarama-qarshilik kabi ma'nolar bilan munosabatini ham ko'rib chiqadi. V.Y.Apresyan ilgari surgan to'siqsizlik ifodalovchi leksemalar «odatda» va «tabiiy ravishda» fikrlariga tayanib ko'rsatilgan. «To'siqsizlik ifodalovchi leksemalar, – deydi u, – so'zlovchi nuqtayi nazariga ko'ra, dunyo tuzilishi tamoyillari buzilgan holatlarda qo'llaniladi» [2;285]. Bundan tashqari, olim o'z tadqiqot ishida zidlov bog'lovchilari va to'siqsizlik ma'nosini ifodalovchi ko'makchilar haqida hamda ularning munosabati to'g'risida ham fikrlarini keltirib o'tadi.

G.A.Musatova to'siqsizlik semasi haqida olib borgan ilmiy ishida to'siqsizlik munosabatining sabab-natija va zid munosabatlar asosiga qurilganini ta'kidlaydi. Kutilgan va aniq natija asosida

TO'SIQSIZLIK MUNOSABATINING JAHON TILSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI**ИЗУЧЕНИЕ ОТНОШЕНИЯ УСТУПИТЕЛЬНОСТИ В МИРОВОЙ ЛИНГВИСТИКЕ****STUDY OF CONCESSION IN WORLD LINGVISTICS****Rasulova Azizaxon Muydinovna¹****¹Rasulova Azizaxon Muydinovna**– Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori**Annotatsiya**

Berilgan maqolada keyingi yillarda jahon tilshunosligida yaratilgan lingvistik maydon xususidagi qarashlar tahlili, maydon sifatida qaraluvchi hodisalar talqini to'siqsizlik munosabati, jahon tilshunosligida uning o'rganilishi, dunyo olimlari tomonidan mazkur munosabatning ifodalanishi bo'yicha qilingan tadqiqotlar haqida fikr yuritiladi. Aniq to'siqsizlik, taxminiy to'siqsizlik, kuchaytirilgan to'siqsizlikning R.M.Teremova tadqiqotlarida yoritilishi berilgan, shuningdek, O.A.Lavrova, V.Y.Apresyan, G.A.Musatova tadqiqotlariga ham murojaat qilinadi. Ishda yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ishlari tahlil qilingan, to'siqsizlik ma'nosining ilmiy asarlarda berilishi, to'siqsizlik haqidagi fikrlar xulosalangan.

Аннотация

В данной статье проводится анализ взглядов на языковой поле, сложившихся в последние годы в мировой лингвистике, интерпретация явлений, рассматриваемых как поле. Обсуждается установка уступительности, ее изучение в мировой лингвистике, исследования мировых ученых по выражению этой установки. Точная уступительность, приблизительная уступительность и повышенная уступительность объясняются в исследованиях Р.М.Теремовой, а также упоминаются исследования О.А.Лавровой, В.Ю.Апресяна, Г.А.Мусатовой. В работе были проанализированы труды вышеупомянутых ученых, дано значение уступительности в научных трудах, а также обобщены мнения о уступительности.

Abstract

The given article discusses the analysis of viyews on the linguistic field created in resent years in world linguistics, the interpretation of phenomena considered as a field, the relation of non-obstacle, studing in world linguistics, and the researches made by world scientists on the expression of this relation. Exact unobstructedness, approximate unobstructedness, and enhanced unobstructedness are explained in the researches of R.M. Teremova, and the researches of O.A. Lavrova, V.Y. Apresyan, G.A. Musatova are also referred to. In the work, the works of the above-mentioned scientists were analyzed, the meaning of non-obstacles was given in scientific works, and opinions about non-obstacles were summarized.

Kalit so'zlar: maydon, to'siqsizlik, sema, ziddiyat, aniq-to'siqsizlik, taxminiy to'siqsizlik, kuchaytirilgan to'siqsizlik, mikromaydon, to'siqsizlik maydoni.

Ключевые слова: поле, уступительность, сема, противоречие, точная уступительность, приблизительная уступительность, повышенная уступительность, микрополе, поле уступительности.

Key words: field, concession, seme, contradiction, exact concession, approximate concession, increased concession, microfield, concession field.

KIRISH

Jahon tilshunosligida so'nggi yillarda yaratilgan lingvistik maydon xususidagi qarashlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maydon sifatida qaraluvchi hodisalarning turli-tuman tarzdagi talqinlari mavjud. Bu ishlarning har birida sememalarning bir arxisemaga umumlashishi, turli integral semalar ostida guruhlanishi va differensial semalar bilan o'ziga xoslanishi izchil holda tadqiq etilgan. To'siqsizlik munosabatini bildiruvchi birliklarni maydon asosida tadqiq etish uning lingvistik xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

«To'siqsizlik» termini lotin grammatikasida ham ishlatilgan bo'lib, XIX asrgacha notiqlik an'anasisiga yaqin bo'lganligi, qandaydir ma'no yoki ma'nolar yig'indisi sifatida emas, balki notiqlik shakli sifatida izohlanganligi ko'rsatilgan. Didro o'z ensiklopediyasida lotin grammatikasidagi fikrlardan kelib chiqib, to'siqsizlikka quyidagicha ta'rif bergan: «To'siqsizlik o'zining haqligiga ishongan notiqning ustunlikni qo'lga olish maqsadida yoki uni to'xtatib qolishi mumkin bo'lgan keraksiz qarshiliklarning oldini olish uchun muxolif (opponent)ning fikriga qisman roziliginini ko'rsatuvchi nutq shaklidir» [1;86].

To'siqsizlik haqidagi fikrlar M.V.Lomonosov ishlarida ham uchraydi. Shu bilan birga, to'siqsizlik notiqlikning bir ko'rinishi sifatida har doim ham to'siqsizlik bildiruvchi bog'lovchilar, ko'makchilar va shu kabi leksik yoki grammatik vositalar orqali ifodalanmagan. M.V.Lomonosov

2. Donovan, Michael. GENERAL PROHIBITION: A NEW TYPE OF ENGLISH IMPERATIVES. University of Pennsylvania Working Papers in Linguistics.2018.
[Donovan, Maykl. UMUMIY TAQIQ: INGLIZ IMPERATIVLARINING YANGI TURI. Pensilvaniya universiteti tilshunoslik bo'yicha ishchi maqolalari.2018]
3. Hudson Richard. "GERUND WITHOUT PHRASE STRUCTURE. NATURAL LANGUAGE AND LINGUISTIC THEORY. 21:579–615. 2003. [Hudson Richard. "FRAZEMA TUZILISHISIZ GERUNDLAR. TABIIY TI VA LINGVISTIK NAZARIYA. 21:579–615. 2003 yil]
4. Huddleston Rodney and Geoffrey Pullum. THE CAMBRIDGE GRAMMAR OF THE ENGLISH LANGUAGE. Cambridge University Press. 2002. [Xaddlston Rodni va Jefri Pullum. IINGLIZ TILINING KEMBRIDJ GRAMMATIKASI. Kembrij universiteti matbuoti. 2002 yil.]
5. Searle, John R. "A CLASSIFICATION OF ILLICOCTIONARY ACTS." Language in Society, pp. 1-23. Xrakovski, 1976. [Searle, Jon R. "ILOKUTSION AKTLAR TASNIFI". Jamiyatdagi til nashri, 1-23-betlar. Xrakovskiy, 1976 yil.]
6. Zanuttini Raffaella." NEGATION AND CLASUAL STRUCTURE: A COMPARATIVE STUDY OF ROMAN LANGUAGES". Oxford University Press.1997. [Zanuttini Raffaella". INKOR VA KLAZUAL TUZILMALAR: ROMAN TILLARINI QIYOSIY O'RGANISH". Oksford universiteti nashriyoti.1997]

ILMIY AXBOROT

alohida buyruq kelishiklari bo'lmaydi, balki uning o'rniga to be, indikativ yoki infinitiv fe'l shakllari bilan bir xil bo'lgan imperativlar mavjud. Bular **surrogat imperativlardir**.¹³ Bunday imperativlar vaqt o'rnini bosuvchi buyruq gaplarda bo'ladi, lekin to'g'ridan to'g'ri buyruq mayli bilan ifodalangan ta'qiqlovchi buyruqlarda emas. Agar inkor va zamon o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjud bo'lsa, u holda bu bog'liqlik inkor va haqiqiy imperativ o'rtasidagi munosabatda aks etishini kuzatishimiz mumkin. Buni biz umumiy ta'qiqlovchilar va zamon predikatlarini olgan ta'qiq ma'nosiga ega bo'lgan gaplar misolida ko'rib chiqamiz.

Searlening fikricha umumiy taqiqlovchilar ko'rsatma beruvchi nutq aktidir. Umumiy taqiqlovchilarda zamon predikatining mavjud emasligi yo'naltiruvchilik bilan bog'liqidir.¹⁴ Zamon predikati mavjud bo'lganda, ta'qiq kimga yo'naltirilganligini anglash mushkul. Masalan:

- a) *No smoking in the room is allowed!*
- b) *No jumping on the deck is permitted!*
- c) *No visitors after 10p.m are acceptable.*

Yuqoridagi jumlalar 1-misolda berilgan jumlalar bilan deyarli bir xil, ammo "ruxsat berilgan"(is allowed yoki sinonimlari) predikati qo'shilgan. 2-misoldagi taqiqlarning har biri mos ravishda 1-misoldagi variantlari (No smoking in the room! No jumping on the deck!) bilan taxminan bir xil ma'noga ega. Biroq, ikkala variantdagi jumlalari o'rtasida sezilarli pragmatik farq bor. Birinchi misoldagi gaplar so'zlovchi tomonidan qo'shimcha to'g'ridan to'g'ri ta'qiq ma'nosiga ega. Shu tariqa, "No smoking in the room!" to'g'ridan to'g'ri buyruq bo'lib, ma'ruzachi dunyoning manzarasi to'g'risidagi bilimlarni shunchaki kontekstda yetkazyapti. Ikkinci misoldagi ko'rsatmalardagi indikativ kontekstga to'liq mos keladi va harakat taqiqlanganligi haqidagi ma'lumotni kim tomonidan aniq ko'rsatmagan holda befarqliq bilan yetkazadi. Birinchi misoldagi gaplar bayonotga emas, taqiqlovchilarga qo'shimcha ko'rsatma kuchini qo'llab-quvvatlovchi dalillardir, lekin ikkinchi misoldagi jumlalar taqiqlovchilarni emas, balki bayonotlarni bekor qilish imkoniyatidan kelib chiqadi. Umumiy taqiqlarni bekor qilish mumkin emas, chunki quyidagi misollarda ko'rsatiladigan shakllaridan farqli ravishda ular yo'naltiruvchi nutq aktlaridir:

- a) *No jumping on the deck is allowed, but we're going to do it anyway.*
- b) *No jumping on the deck! But we're going to do it anyway.*

3b misolda buyruq mayli mavjud va u yaqqol ifodalangan. Lekin 3a misolda buyruq mayli yo'q va bu misollarda mayllar taqiqlash kimga yo'naltirilganiga ko'ra farqlanadi. Bu farqning o'zagi shundan iboratki, b misoldagi gapning taqiqlovchi qismida zamon predikatning yo'qligi imperative mayl mazmuni qo'shilgan semantik kuch tufayli to'g'ridan to'g'ri buyruq sifatida o'qishga undaydi. Bunday holat darak gap hisoblangan 3a misolda sodir bo'lmaydi. Shunday ekan 3b misolda buyruq kayfiyati 3a misoldagi jumladan ko'ra kuchliroq. Chunki unda buyruq mayli mavjud va u yaqqol ko'rinish turadi. Umumiy qilib aytganda zamon predikatining mavjudligi gapni buyruq maylidan shunchaki darak gapga aylantiradi va bunday gaplarda taqiq ma'nosi kamayadi. Biroq shuni unutmaslik kerakki, ikkala holatda ham harakat taqiqlanyapti.

XULOSA

Biz taqiqlash kategoriyasida aynan umumiy taqiqlovchining ishlatalishiga va ularning boshqa taqiqlash shakllaridan leksik jihatdan qanday farq qilishiga e'tibor beryapmiz. Yuqoridagi misollar va barcha tahilllardan kelib chiqib biz quyidagi xulosaga keldik:

- ingliz tilidagi taqiqlovchilar kategoriyasiga mansub strukturalar o'zbek tilida darak gaplar, inkor imperativlari va majhul nisbatdagi gaplar orqali ifodalaniishi mumkin;
- Umumiy taqiqlovchilar o'tgan zamon qo'shimchalari bilan mos kelmaydi;
- Umumiy taqiqlovchilarga to'g'ridan to'g'ri ijobjiy qarama-qarshilik yo'q;
- Umumiy taqiqlovchilarga zamon predikati qo'shilsa, taqiq ma'nosi kuchsizlanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kobilova, N. S. (2016). LITERARY INTERPRETATION OF SOCIAL PSYCHOLOGY IN THE NOVEL "MARTIN EDEN". World science, 4(3 (7)), 52- <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=25619815> [Qobilova, N. S. (2016). "MARTIN EDEN" ROMANIDA IJTIMOIY PSIXOLOGIYANING ADABIY SHARHI. Jahon fani, 4(3 (7)), 52- [https://www.elibrary.ru/item.asp?id=25619815\]](https://www.elibrary.ru/item.asp?id=25619815)

¹³ Huddleston Rodney and Geoffrey Pullum. The Cambridge Grammar of the English Language. Cambridge University Press. 2002.

¹⁴ Searle, John R. "A classification of illocutionary acts." Language in Society, pp. 1-23. Xrakovski, 1976.

ingliz va roman-german tillar oilasiga mansub bo'lgan tillarda taqiqlashning ma'nosini ifodalovchi vositalarni tahlil qilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Inkor qilish orqali taqiqlashning so'nggi tipologik tadqiqotlari sintaksisning ayrim parametrlarini o'z ichiga oladi va inkor qilingan gaplarning asosiy sintaktik tuzilishida isbotlanishi mumkin bo'lgan parametrik o'zgarishlarga qaratilgan. Biz imperativlarga oid adabiyotlardan "taqiqlovchi" atamasini tanladik, va uni qo'shimcha ravishda quyida ko'rsatilgan konstruktsiyalarga qo'lladik. Ingliz tili va o'zbek tilida turli shakldagi taqiqlovchi konstruktsiyalar mavjud bo'lib, ularning aksariyatini odatda ommaviy belgilar yoki e'loularda ko'rish mumkin. Masalan, inkor buyruqlari sanalmish "Chekmang", "Gapirmang", ingliz tilidagi "Don't go out!" va hokazolar. Biroq, **umumiyyatqilovchilar** deb ataladigan yangi atamalar ham mavjud. Masalan:

- a) *No smoking in the room!*
- b) *No jumping on the deck!*
- c) *No visitors after 10 p.m!*

Ushbu konstruktsiyalarning inkor buyruqlardan (masalan, "Chekmang!") farqi shundaki, ular buyruq morfologiyanini olmaydilar, 2- shaxs va zamon shaklidagi bosh fe'lga ega emaslar. Asosiy fe'lning yetishmasligi yuqorida misollarda aniq ko'rindi. Bu yerda "tashrif buyuruvchilar"ga faoliyat sirtda ifodalangan hech qanday ochiq fe'l siz taqiqlangan. Bundan tashqari, inkor umumiyyatqilovchilar bilan qabul qilinadigan shakl salbiy imperativlardagi "no" dan farqli ravishda "not" dir. Bu shuni ko'rsatadiki, umumiyyatqilovchilar bilan qabul qilinadigan shakl salbiy imperativlardagi "no" shunchaki tarkibiy inkorning misoli emas, chunki ingliz tilidagi tarkibiy inkor shakl "not"dir.¹⁰

Searle **direktiva**(ko'rsatmalar)larni "so'zlovchining tinglovchini biror narsa qilishga undashga urinishlari" deb ta'riflaydi va shuning uchun salbiy ko'rsatmalar aksincha, tinglovchini biror narsa qilmaslikka urinishdir.

Yuqorida misollar kabi umumiyyatqilovchilarning talqini shundan iboratki, ular ushbu nutq kontekstidagi shaxslarning bir qismidan farqli o'laroq, nutq kontekstidagi hamma uchun qo'llaniladi.

Bu faqat tinglovchiga tegishli bo'lgan standart imperativlardan farq qiladi. Umumiyyatqilovchilar majburiy ravishda universal manzilga ega bo'lib ko'rindi.

Masalan:

- "Hech kim divanga sakrashi mumkin emas"*
- yoki "Hech kim divanga sakramaydi!"*

Zannutini "umumiyyatqilovchi" atamasini bir nechta ilmiy asarlarida kiritgan. Huddleston va Pullum ham asarlarida "fe'l siz ko'rsatmalar" atamasini yuqorida misollar yordamida eslatib o'tadi. Ammo ikkala olim ham strukturasiga oid tahlillar taqdim etmaydi, shunchaki "fe'l siz ko'rsatmalar"ning mavjudligini eslatib o'tadi. Seiss esa (2008) bosh ot sifatida gerundiylar bilan ifodalanadigan umumiyyatqilovchilarning mavjudligini ta'kidlaydi.¹¹ Masalan:

No swimming!

No jumping!

Olima ularni "No+ DET-ing" tipidagi gerundiylar deb ataydi, lekin "No + oddiy ot" kabi taqiqlovchilar mavjudligini rad etadi. Masalan:

"No sharks!"

"No tigers!"

Hudson, shuningdek, "No + gerund clause" deb ataladigan hodisaning mavjudligini eslatib o'tadi va gerundiylar uchun aralash nominal va og'zaki xususiyatlar haqida bahs yuritadi. Ushbu holatlarning har birida ularni tahlil qilishda asosiy e'tibor gerundiylarning qo'llanilishidir.¹²

Buyruqlar (taqiqlovchi buyruqlar) va zamon predikatlari ayrim tillarda zamon bo'imasligi mumkin bo'lgan konstruktsiyalardir. Imperativda zamon bor yoki yo'qligini aniqlash uchun haqiqiy buyruq va surrogat buyruqni farqlash kerak (Rivero 1994). **Haqiqiy imperativlar** boshqa har qanday og'zaki paradigmadan farq qiladigan fleksiyalar yordamida ifodalanadi. Biroq ba'zi tillarda

¹⁰ Donovan, Michael. General Prohibition: A New Type of English Imperative. University of Pennsylvania Working Papers in Linguistics.2018

¹¹ Zanuttini Raffaella." Negation and Clausal Structure: A Comparative Study of Romance Languages". Oxford University Press.1997

¹² Hudson Richard. "Gerunds without phrase structure. Natural Language and Linguistic Theory. 21:579–615. 2003.

UMUMIY TAQIQLOVCHILAR VA ULARNING KOMPONENTLARI

ОБЩИЙ ЗАПРЕТ И ЕГО СОСТАВЛЯЮЩИЕ

GENERAL PROHIBITION AND ITS COMPONENTS

Qobilova Nargiza Sulaymonovna¹, Hojiyeva Marjona To‘lqinovna²

¹Qobilova Nargiza Sulaymonovna

– Buxoro davlat univesiteti, ingliz tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi, Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

²Hojiyeva Marjona To‘lqinovna

– Buxoro davlat univesiteti, Ingliz tilshunosligi kafedrasi magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada taqiqlash kategoriyalariga oid umumiyy taqiqlovchilar ning ingliz tilida ifodalanishi, ularning inkor buyruqlaridan farqlari haqida ma’lumot berilgan. Maqolada umumiyy taqiqlovchilar transformatsion va qiyoslash metodlaridan foydalangan holda tahlil qilingan. Zamonaviy ingliz tili foydalanuvchilari maqolada berilgan taqiqlash ma’nosini bildiruvchi imperativlar orasidagi ma’no farqlari, umumiyy taqiqlovchilar va ularning zamon predikatlari bilan birga qo’llanilganda ma’no farqlari kabi tahlillardan foydali ma’lumot sifatida foydalanishlari mumkin.

Аннотация

В этой статье представлена информация об англоязычном выражении общих запретов, относящихся к категориям запретов, и их отличиях от приказов об отказе. В статье общие ингибиторы проанализированы с использованием трансформационных и сравнительных методов. Современные англоязычные пользователи могут счесть полезной информацию приведенный в статье анализ различий в значении между императивами, обозначающими значение запрета, и различиями в значении, когда они используются вместе с общеупотребительными запретительными наклонениями и их временными сказуемыми.

Abstract

This article provides information on the English language expression of general prohibitions relating to categories of prohibitions and how they differ from negative orders. In the article common prohibitions are analyzed using transformational and comparative methods. Modern English-speaking users may find the article’s analysis of the differences in meaning between the imperatives denoting the meaning of a prohibition and the differences in meaning when used in conjunction with the common prohibitive moods and their tense predicates useful.

Kalit so‘zlar: umumiyy taqiqlovchilar, direktivalar, inkor imperativlari, haqiqiy imperativlar, surrogat imperativlar, fe’lsiz ko’rsatmalar.

Ключевые слова: общий запрет, директивы, отрицательные императивы, реальные императивы, суррогатные императивы, невербальные директивы.

Key words: general prohibition, directives, negative imperatives, real imperatives, surrogate imperatives, non-verbal directives.

KIRISH

Olimlar dunyo tillarida taqiqlashning tipologik tadqiqotlari salbiy morfemalarning og’zaki affikslar, erkin morfemalar yoki hatto fe’l shakllari sifatida paydo bo‘lishi mumkinligini aniqladilar. Ushbu tadqiqotlar qimmatli ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan bo’sada, ularning mazmuni tavsifiy bo‘lib qolmoqda va taqiqlashga oid nazariy ma’lumotlar bilan cheklangan. Ingliz tilida taqiqlovchilar turli xil bo‘lishi mumkin va taqiqlash turli xil ko’rinishida ifodalanadi. O’zbek tilida esa taqiqlovchi deb ataladigan kategoriya mavjud emas. Ammo taqiqlash ma’nosini bildiruvchi strukturalar turli xil ko’rinishlarda namoyon bo’ladi. Biz maqolamizda ingliz tilidagi umumiyy taqiqlovchilar zamon predikatlari bilan qanday qo’llanilishi, ingliz tilidagi taqiqlovchilar kategoriyasiga mansub strukturalar o‘zbek tilida darak gaplar, inkor imperativlari va majhul nisbatdagi gaplar orqali ifodalanishi mumkinligini aniqladik. Tadqiqotimizning maqsadi taqiqlash ma’nosini turli strukturalarda, xususan umumiyy taqiqlovchilar ko’rinishida qanday darajada o’zgarib borishini aniqlashdir.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODLAR.

Maqolada Michael Donovan, Richard Hudson, Rodney Huddleston, John Searle va Rafaella Zannuttini kabi tilshunos olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari va maqolalaridan foydalanildi. M.Donovan umumiyy taqiqlovchilarining tuzilishlari haqida fikrlar yuritgan bo’lsa, R.Hudson taqiqlash ma’nosining gerundiylar vositasida ifodalanishi aqida fikrlar yuritgan. Shuningdek, R.Zannuttini

Nomemalarning o'rganilishida bir nomemaning boshqalari bilan bo'lgan o'xshashlik-farqlilik darajasini o'rganish nutqiy faoliyat tadqiqotlari uchun ahamiyatlidir. Zero, nomemalardagi struktur o'xshashliklar tinglovchi uchun ularni farqlash qiyinchiligini keltirib chiqaradi. Xususan, ona va opa, ona va o'g'il juftliklaridagi farqliliklar har xil darajadadir. Belgi maqomidagi paronim nomemalar semiotika va nutq madaniyati jihatlardan atroflicha tadqiq etilishi lozim.

Fonemalarning kuchli va kuchsiz oppozitsiyasi pozitsiyalari, turlarini aniqlash har bir milliy til fonemalarining o' ziga xos fonologik-fonetik qiymatlarini bilish imkoniyatini beradi.

Leksik nomema (ifodalovchi) o'rganilayotganda unga aloqador semema (ifodalanmish) orasida motivatsiya bor-yo'qligi, uning shartli-shartsiz ekanligi aniqlanadi.

Leksik nomemalar tuzilishiga ko'ra sodda (sodda tub, sodda yasama) va qo'shma turlarga ajraladi. Belgi qo'lllovchi (so'zlovchi) tejamkorlik qonuniga amal qilib, barcha turdag'i nomemalarni ixchamroq, qulayroq, ta'sirchanroq aytishga harakat qiladi. Bular ham o'rganishga molik masaladir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, leksik nomemalar o'rganilayotganda, ularning fonetik variantlaridan semantik differentsiatsiya (tub//tup → tub va tup; art // arch → art va arch) va leksikalizatsiya (kelintushdi), grammaticalizatsiya (avval o'yla... – to'ydan avval) kabilarga e'tibor berilishi lozim. Nomema tadqiqida unga necha semema to'g'ri kelishi va har bir semema – nomema munosabatidagi farqliklarga diqqat qilinadi. Belgi vazifasini bajaruvchi har bir nomemani o'rganishda uning tuzilishiga, belgi qo'llashning qaysi omillari (o'ng'aylik, eshituvchiga qadar bo'lgan masofa, kuchli-kuchsizlik, aniqlik, ta'sirchanlik kabi) hisobga olinganligi aniqlanadi. Ikkinchini tomondan, har bir fonemaning nomema shakkantirish imkoniyatlari o'rganiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. - Toshkent: O'qituvchi, 1992. – Б. 19 (1. Абдуразизов А. Фонология и морфонология узбекского языка. - Ташкент: Учитель, 1992. - Б. 19.)
2. Mahmudov A. O'zbek adabiy tilida so'zlarning fonetik strukturası // O'zbek tili va adabiyoti, 1984, 2-son. – В 33-41.9 (2. Махмудов А. Фонетический строй слов в узбекском литературном языке // Узбекский язык и литература, 1984, вып.2. - Б 33-41.)
3. Rakhimova, Maftuna. "ASSOCIATION PHENOMENON AND SIGN." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.12 (2022): 1761-1764. (3. Рахимова, Мафтуна. «АССОЦИАЦИЯ ЯВЛЕНИЯ И ЗНАКА». Международный журнал междисциплинарных исследований Galaxy 10.12 (2022): 1761-1764.)
4. Rakhimova Maftuna Odilovna, & Bazarov Oybek Odilovich. (2023). LINGUOSEMIOTIC STUDY OF UZBEK FOLK PROVERBS. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 9(1), 236–237. (4. Рахимова Мафтуна Одиловна, Базаров Ойбек Одилович. (2023). ЛИНГВОСЕМИОТИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦ. *JournalNX - многопрофильный рецензируемый журнал*, 9 (1), 236–237.)

ILMIY AXBOROT

kabi nomemalar aniqlanib, bu nomemalarning belgi sifatida nutqiy qo'llanishidagi akustik xususiyatlari, o'z ifodalananmishiga munosabatlari belgilanadi. Bu tarzdagi tadqiqotlarning nafaqat fonologiya-fonetika, belgishunoslik, balki so'zlarni kompyuterlashtirish uchun ham ahamiyati kattadir.

So'z ifodalovchisi yoki nomemasi haqida fikr yuritilar ekan, yana bir masalaga e'tibor berilishi lozim. Hozirga qadar bo'lgan fonetikaga oid adabiyotlarda fonetik o'zgarishlar sabablariga katta e'tibor berilmadi. Fonetik o'zgarish so'z ifodalovchi (nomema)si tarkibida bo'layotgan tovush hodisasidir. Bu hodisani tavsiflashda nomemaning belgi ekanligi, so'zlovchining bu belgini qo'llashdagi o'ziga xos holatlaridan kelib chiqmoq kerak. Boshqacha aytganda, fonetik o'zgarish tahlili nomemani qo'llovchi (so'zlovchi) va qabul qiluvchi (tinglovchi) omili bilan bog'liq holda olib borilmog'i lozim. Ma'lumki, inson faoliyatiga xos xususiyatlardan biri tejamkorlikdir. Ayrim fonetik o'zgarishlar nutqiy faoliyatning shu tomoni bilan bog'liq. Bunga nomema qo'llashdagi tovush tushirish hodisasi misol bo'la oladi. Masalan, go'sht, do'st kabi so'zlardagi oxirgi t tovushining tushirilishi; biroq, bilan so'zlarida i tovushining qisqartirilishi yoki kuchsizlantirilishi (reduksiyaga uchrashi) kabilardir. Bunda so'zlovchi talaffuz mehnatini tejaydi, chunki bu so'zlarning t va i tovushlari aytilmasa ham, nomemaning qolgan qismlari o'z ifodalananmishlari haqida xabar bera oladi. Shuningdek, maktab, e'zoz, barg so'zlaridagi jarangli undoshlarning jarangsizlashtirilishi ham nomemalar qo'llanishidagi o'ng'aylikka intilish, "ortiqcha" talaffuzdan qisman qutilishga harakat qilinishidir. Zero, maktab so'zi oxiridagi b tovushida ham shovqin, ham ovoz (jarang) bor. So'zlovchi shovqinli va ovozli b o'rniya shovqinli (jarangsiz) p ni aytib qo'ya qoladi. Chunki maktab so'zning makta... qismi aytlishi bilan ifodalanan mish ma'lum bo'ladi, shundan so'ng b yoki p ekanligining ahamiyati bo'lmaydi. Natijada, b va p tovushlari variantlar maqomiga ega bo'lib qoladi. Xullas, bir tovushning boshqasiga almashtirilishi, bo'g'in va tovushlar tushirilishi nomema-belgi qo'llashdagi so'zlovchi faoliyati bilan aloqador ekstralengvistik hodisalarga bog'liq. Tovush orttirilish hodisasining ham o'ziga xos sabablari bor. Masalan, uchinchi shaxs kishilik olmoshi u ga kelishiklar qo'shilganda, u va kelishik affaksi orasida n tovushi orttirilishi hodisasini olaylik: u+dan → undan. Ushbu holatda "nutq jarayonida yo'q kishiga ishora" ma'nosi bir unli (u) dan iborat so'z bilan ifodalangan. Chiqish ma'nosi esa -dan fonetik struktura (sonema)ga ega. O'zbek tilining urg'u qonuniyatiga ko'ra u+dan so'z shaklda urg'u oxirgi bo'ginga tushishi lozim. Bu holatda so'zning eng muhim, ya'ni leksik ma'no ifodalovchi qismi bir unlidan iborat bo'lganligi, urg'usiz(ikkinchidarajali urg'uli) bo'g'inni tashkil etganligi sababli o'ta qisqa, bilinar-bilinmas aytlishi lozim bo'lib qoladi. Buning natijasida tinglovchi bu so'zning leksik ma'nosini aniq tushunib olishga qiynalari edi. Buni oldindan hisobga olgan so'zlovchi asosiy leksik ma'no ifodalovchi u- o'zak asosni aniq talaffuz etish va tinglovchiga ravshan yetkazish chorasini izlaydi. Shu maqsadda so'zlovchi u - o'zak qismni unga n undoshini qo'shib (orttirib), un bo'g'inini hosil qiladi va shu bo'g'in tarkibidagi u o'zakni cho'ziqroq, aniq aytish imkoniga ega bo' ladi. Shu yo'l bilan udan tarkibidagi u ni urg'uli -dan bo'g'in ta'siridagi qisqa aytlishdan saqlab qoladi. Demak, uchinchi shaxs u olmoshiga -dan kelishigi oldidan n undoshining orttirilishi so'zning leksik ma'no ifodalovchi qismini, uning ma'nosini tinglovchiga aniq yetkazish yo'lidagi fonetik tadbirdir. Shunday qilib, har bir tovush orttirilishining o'ziga xos sababi borki, bu shaxs (so'zlovchi, tinglovchi) omili bilan bog'liq.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

So'z ifodalovchisi yoki nomemasining tarkibiy o'zgarishlari talqinida uning nutqdagi boshqa so'z ifodalovchilari bilan bog'lanishini, sintaktikani ham unutmaslik kerak. So'z nomemalari nutq (matn)da bir-birlariga turli darajalarda qo'shib, jipslashtirib yoki ajratib talaffuz etilishi va bu jarayon ham har bir nomemaning ichki tuzilishiga ta'sir etishi mumkin. Demak, nomemalarning nutqdagi sintagmatik munosabatlari va bu bilan bog'liq fonetik o'zgarishlar belgi (nomema) qo'llanishi nuqtai nazaridan ham o'rganilishi lozim bo'lgan masaladir. Shuning uchun F. de Sossyur o'z davrida so'zning cho'ziligi, chiziqsimonligini o'rganish lingvistika, uning semiotik jihatini anglashda katta ahamiyatga ega ekanligini ko'satib o'tgan edi.

Omonim va polisemantik nomemalar leksik nomemalar tizimida alohida o'ringa ega. Bunday turdagи nomemalarni o'rganishda ularning belgi sifatida qo'llanish jarayonida qanday talaffuz (fonetik) farqliklar mavjudligi, har bir omonim, polisemantik nomema uchun necha leksik ma'no (semema) to'g'ri kelishi, sememalarning distributsiyasi (qo'llanish kontekstlari) kabilarni hisobga olish lozim.

O'ZBEK TILIDA LEKSIK NOMEMALAR

ЛЕКСИЧЕСКИЕ НОМЕМЫ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

LEXICAL NOMEMES IN UZBEK LANGUAGE

Rahimova Maftuna Odilovna¹

¹Rahimova Maftuna Odilovna

– QDPI filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek tilidagi so'zlar nomemasining o'rganilish usullari va ahamiyati haqida fikrlar berilgan. Har bir milliy, xususan, o'zbek tili so'zlarini ifodalovchi (nomema)larining tuzilish xususiyatlarini o'rganish hozirgi dolzarb muammolardan biri ekanligi aniq misollar asosida ta'kidlangan. Nomemalarni o'rganish bo'yicha bir nechta tavsiyalar berilgan.

Аннотация

В данной статье приведены мнения о методах и важности изучения произношения слов в узбекском языке. На конкретных примерах подчеркивается, что изучение структурных особенностей слов каждого национального, в частности, узбекского языка, является одной из актуальных проблем современности. Существует несколько рекомендаций по изучению существительных.

Abstract

In this article, opinions are given about the methods and importance of studying the pronunciation of words in the Uzbek language. It is emphasized on the basis of specific examples that the study of the structural features of each national, in particular, Uzbek language words, is one of the current urgent problems. There are several recommendations for studying nouns.

Kalit so'zlar: Leksema, semema, nomema, undosh, unli, fonetik tuzilish, fonetik hodisalar.

Ключевые слова: лексема, семема, номема, согласная, гласная, фонетическая структура, фонетические явления.

Key words: lexeme, sememe, nomeme, consonant, vowel, phonetic structure, phonetic phenomena.

KIRISH

So'z ifodalovchisi yoki nomemasi yasalishining eng muhim qurilish materiali bu undosh tovushlardir. Ong taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda tushunchalar miqdorining uzlusiz oshib borishi o'z-o'zidan tushunchalarning "tutqichi", farqlab ko'rsatuvchisi, belgisi bo'lgan so'zlar tovush tomonlarining ham miqdoran ko'p bo'lishini talab etar edi. Unli tovushlar miqdorining ozligi, ularning bir-biri bilan bog'lana olmasligi (turli kombinatsiyalarga kirisha olmasligi) bu tovushlar yordamida nomemalar hosil qilish imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Yangidan yangi tushuncha (ma'no)larning uzlusiz ravishda ko'payib borishi kishilardan boshqa tip (tur)dagi tovushlarni ham vujudga keltirish zaruriyatini keltirib chiqardi. Bu esa odamlardan unli tovushlar hosil qilinadigan bo'g'iz, tomoq, og'iz bo'shilig'idan boshqa artikulyatsiya o'rinalarini ishga solish, shuningdek, nutq organlari yordamida turli-tuman to'siqlar hosil qilish, har bir nutq organi holatidan ko'proq foydalanish kabi usullar topishni taqozo etar edi. Ana shunga javoban bo'g'iz, til, lab, burun kabi o'rinalardan foydalanish, tilni qattiq, yumshoq tanglaylargacha, tishga tekkizish (jipslash) kabi usullar yordamida katta miqdordagi undosh tovushlar hosil qilindi. Vujudga keltirilgan sonor, jarangli, jarangsiz undosh tovushlar va unlilar o'zaro bog'lanib, ko'p miqdordagi nomemalarni shakllantirdi. Undoshlardagi sonorlik, jaranglilik, jarangsizlik kabi akustik sifatlar leksik akustik belgilarning o'zaro farqlanishiga samarali xizmat qildi. Unli+undosh, undosh+undosh kabi sintagmatik bog'lanishlarning turli variantlari katta miqdordagi nomemalar miqdorining vujudga kelishiga asos bo'ldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Har bir milliy, xususan, o'zbek tili so'zlarini ifodalovchi (nomema)larining tuzilish xususiyatlarini o'rganish hozirgi dolzarb muammodir. Zero, bundan, avvalo, fonetika va fonologiyamiz katta foya ko'radi. Bunga sabab belgi maqomidagi nomemalar tizimini o'rganish davomida o'zbek tilining, avvalo, adabiy tilimiz so'zlarining fonematik strukturasi to'liq tadqiq etiladi. Bunda mavjud so'zlarimizdan har birining necha fonemadan iborat ekanligi, har bir fonemaning qaysi pozitsiyalarda necha marta qo'llanilganligi, fonologik kuchli-kuchsiz o'rinalar, fonemaning shu asosdagi fonologik qiymatlari aniqlanadi. Ikkinchi tomondan, bir tovushli, ikki tovushli

ILMIY AXBOROT

vazifa bajarib, ko'chma ma'noda qo'llanadi hamda fikrning ta'sir doirasini kengaytiradi. Bir so'z bilan ularni fikrni ta'sirchan, bo'yoqdir qilib ifodalovchi qudratli vositalar, deyish o'rinnlidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rasulova, Azizaxon Muydinovna; Xusanova Ma'rifat Axmadjonovna. POETIK NUTQDA SINONIMLARDAN FOYDALANISH MAHORATI. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATIONAL AND SOCIAL SCIENCES. ORIENS_Volume 2_ISSUE 10-2.2022 807-811. (Rasulova, Azizakhon Muydinovna; Khusanova Marifat Akhmadjonovna. THE SKILL OF USING SYNONYMS IN POETIC SPEECH. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATIONAL AND SOCIAL SCIENCES. ORIENS_Volume 2_ISSUE 10-2.2022 807-811).
2. KHUSANOVA M & KHUSANOVA M. ROLE OF OCCASSIONAL UNITS IN FARIDA AFRUZ'S IDIOSTYLE. Thematics Journal of Education Impact Factor (UIF-2020):7.528 Impact Factor (IFS-2020):7.433: <https://doi.org/10.5281/zenodo.6467338>, P-63-69 12.04.2022.
3. Xusanova, M.A. The use of archaism in the works of Farida Afroz. International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 04, volume 96 published April 20, 2021. Soi: <http://s-o-i.org/1.1TAS-04-96-51> Doi <https://dx.doi.org/10.15863/TAS> Scopus ASCC:1208.
4. Xusanova, M.A. The use of expressive phonetic means in farida afroz s works. International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 09, volume 101, published September 28, 2021.Soi: <http://s-o-i.org/1.1TAS-09-101-81> Doi <https://dx.doi.org/10.15863/TAS> ScopusASCC:1200.
5. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiyada madaniy kod tushunchasi va talqini // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2019. –№3.
6. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3 jildlik. 1-jild. Toshkent: Akademnashr, 2012.
7. Маслова В.А. Духовный код с позиции лингвокультурологии: единица сакрального и светского // Метафизика. – М., 2016. – №4. – С. 79.
8. Телия В.Н. Большой фразеологический словарь русского языка. – М., 2006.
9. Ковшова М. Л. Лингвокультурологический метод во фразеологии. Коды культуры. Издю 2-е. – М. : Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2013.
10. Рапай К. Культурный код. Как мы живем, что покупаем и почему. – М.: Юнайтед Пресс, 2010. – 168 с.
11. Свирипо О.А. Метафора как код культуры: Дис. ...канд. филос. наук. – Ростов н/Д, 2002. – 162 с.
12. Tosheva D. Zoonim komponentli maqollarning lingvoturkologik xususiyatlari: Filol, fan. bo'yicha falsafa dok. diss. – Toshkent, 2017.
13. Usmonov F. O'zbek tilidagi o'xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi / Filol. fan. bo'yicha falsafa dok. diss. – Andijon, 2019.
14. Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 3 jildlik. I jild. –Toshkent, 2003.
15. Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 3 jildlik. II jild. –Toshkent, 2003.
16. Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 3 jildlik. III jild. –Toshkent, 2003.
17. Husanova M.A, Husanova M.A. ROLE OF OCCASSIONAL UNITS IN FARIDA AFRUZ'S IDIOSTYLE/ Thematic Journal of Education Impact Factor(UIF-2020):7.528 Impact Factor(ISF-2020):7.433 12.04.2022. –5.63-69
18. Xusanova M.A. Poetik asarda ritorik so'roq gaplarning ekspressiv imkoniyati/ Xorazm Ma'mun akademiyasi,, 2022-5/4. –B.165-167.
19. Saliyeva Z.I. Konzeptualnaya znachimost sentensiy v angliyskom i uzbekskom yazikax.Avtoref dis..., kan. filol. nauk – Tashkent, 2010.
20. Ibragimova R.S.Fransuz va o'zbek tillarida ayol konseptining lingvokognitiv tadqiqi. Filol.fan.nom....diss. avtoref. –Toshkent, 2012.
21. Maxmudov N. Tilning mukammal tadqiqiy yullarini izlab... // «O'zbek tili va adabiyoti», Toshkent, 2012, № 5.
22. Rozikova, G. Z., & Yusupova, S. T. (2021). METAPHOR AS A LINGUOCULTUROLOGICAL PHENOMENON. Theoretical & Applied Science, (12), 1086-1088.

moddiy ifodalovchilari belgi hisoblanadi” [2,57]. Tadqiqotlarda madaniyat kodlari olam lisoniy manzarasining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida e’tirof qilinadi. D.Xudoyberganova madaniyat kodini insoniyatning arxetipik tasavvurlariga muvofiq keluvchi, o’zida olam haqidagi tasavvurlarni namoyon etuvchi tushunchalar va ularning lisoniy shakllari sifatida ta’riflaydi [1,15]. Madaniy axborotni tashishda madaniy kodlar kalit vazifasini bajaradi. Demak, bundan kelib chiqib aytish mumkinki, madaniy kod milliy-madaniy urf-odat, qadriyat va me’yorlarni o’zida shartli ravishda aks ettiradigan ramziy belgi hisoblanadi. Lingvokulturologik tadqiqotlarda madaniyat kodlarining turlari sifatida somatik kod, makoniq kod, temporal kod, predmetli kod, biomorf kod, ma’naviy kod, antromorf kod, fazoviq kod, urushga doir kod, tibbiy kod, me’moriy kod, sport kodi, geometrik kod, gastronomik kod, kiyim-kechak kodi, mifologik kod, teomorf kod, rang-tus kodi kabilar qayd etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shuni aytish mumkinki, eng keng tarqalgan kod turlaridan biri bu somatik (inson tana a’zosi bilan bevosita bog’liq bo’lgan) koddir. Masalan: “bosh” so’zi –bosh ko’tarmoq, boshi qotmoq, boshida yong’oq chaqmoq, boshi berk ko’chaga kirmoq, boshdan kechirmoq, bosh olib ketmoq, boshiga tushmoq, boshdan o’tkazmoq, boshiga urmoq, boshini aylantirmoq, bosh bo’lmoq, boshini ikki qilmoq; “ko’z” so’zi – ko’zi tushmoq, ko’z olaytirmoq, ko’z yummoq, ko’z tashlamoq, ko’z ilg’amas, ko’zi ochiq, ko’z ostiga olmoq, ko’z ko’rib qulqoq eshitmagan, ko’zi olma termoq, ko’zi kosasidan chiqmoq; “qo’l” so’zi – qo’l ko’tarmoq, qo’l bermoq, qo’l siltamoq, qo’li uzun, qo’li shirin, qo’li kalta, qo’lidan kelmoq, qo’lga tushmoq, qo’l qovushtirib o’tirmoq, qo’ldan boy bermoq, qo’lga olmoq; “oyoq” so’zi – oyoq osti bo’lmoq, oyoq ostidan narini ko’rmaslik, oyoq osti qilmoq, oyog’i bilan ko’rsatmoq, oyoq tiramoq, oyog’iga bolta urmoq, oyog’iga bosh urmoq, ikki oyog’ini bir etikka tiqmoq, oyog’idan chalmoq; “qulqoq” so’zi qulog’i qomatga kelmoq, qulog’iga tanbur chalmoq, qulog’iga quymoq, ko’z-qulqoq bo’lmoq, qulog’i tom bitmoq; “yuz” so’zi – yuzi chidamaslik, yuziga oyoq qo’ymoq, yuziga solmoq, yuz o’girmoq, yuzi yorug’, yuzi yerga qaramoq, yuzi shuvut bo’lmoq, yuz ko’rmas bo’lmoq kabi birikmalarda inson tana a’zolari turli semalarda qo’llanmoqda. Barchasi uchun umumiy xususiyat bu – ularning har biri inson tanasi a’zosi ekanligi. Ammo ular ibora tarkibida ko’chma ma’noda qo’llanib, turli ma’no nozikligini anglatadi. Shukur Xolmirzayev hikoyalarda “bosh” somatik kodi tahliliga e’tibor qaratamiz: “boshdan oyoq” – sinchiklab. *Notanish odam menga qaradi-yu, boshdan oyoq ko’z yogurtirib chiqdi* [10,3]; “boshi osmonga yetmoq” – qattiq quvonmoq. *Ismat, haqiqatan ham, katta mukofot olgandek boshi osmonga yetadi* [10,25]; “boshiga ko’tarmoq” – I. shovqin solmoq, So’ng tumshug’ini osmonga cho’zib, hovlini boshiga ko’tarib uvladi [10,29]; II. E’zozlamoq. *Ular meni boshiga ko’tarishadi... Yolg’iz qizlariman* [10,176]; “boshini ham qilmoq” – uyalmoq. *Sobirova opa bu gaplardan ta’sirlanib, boshini ham qilib qoldi* [10,45]; “boshiga tushmoq” – boshidan o’tkazmoq, hayotida sodir bo’lmoq. *Beixtiyor o’zining bu ahvoli bir kunmas-bir kun tengqur dugonalari boshiga tushishini o’yladi* [10,51]; “bosh tortmoq” – qabul qilmaslik, bajarmaslik. *Qarorni bajarishdan bosh tortgan, deyishadi* [10,70]; “bosh olib ketmoq” – butunlay tark etib ketmoq. *Shunda Inod bosh olib ketib, qayerda ham yashashi mumkinligi haqida o’ylab qoldi* [10,71]; “boshiga urmoq” – kerak qilmaslik. *Maktabni boshingizga urasizmi?* [10,78]; “bosh qotrimoq” – o’ylamoq ... g’ayritabiyl manzaralar va hayvonlar qiziqtirar, ularni qanday qilib suratga tushirish haqida bosh qotirar edi... [10,79]; “boshdan chiqarmoq” – unutmoq. *Bu xayolni boshingizdan chiqaring* [10,81]; “boshi aylanmoq” – bahuzur bo’lmoq. Qarasam, *boshim aylanib, dumalab ketadiganday bo’laman* [10,83]; “boshidan uchmoq” – xayolidan ko’tarilmoq. *“Bu yovvoyi meni yemoqchi”, deb o’ylagan o’yim boshimdan uchdi* [10,89]; “bosh qo’ymoq” – botmoq. *Quyosh osmonni aylanib, ufqqa bosh qo’ya boshlaganda yo’lovchilar Sanjar tog’ining ortidagi Oqzov ostida eshaklardan tushishar edi* [10,96]; “bosh qotrimoq” – keraksiz narsaga o’ylanmoq. *E, kampir, boshimni qotirma* [10,106]; “bosh qilmoq” – rahbar qilmoq. *O’n ming odamga bosh qilib qo’yibdi meni davlat, bilasanmi, shuni* [10,108]; “boshida qolmoq” – o’ziga buyurmoq. *Topgan pulingiz boshingizda qolsin!* [10,112]; “boshidan kechirmoq” – guvoh bo’lmoq. *So’ng nuqul urush davrida boshidan kechirganlarini hikoya qiladigan bo’ldi* [10,160]; “bosh bo’lmoq” – boshqarmoq, tashkillamoq. *Hosila to’yda bosh bo’lgan magazin direktoridan iltimos qilib, erini ham qo’shni non do’koniga ishga oldirdi* [10,218]; “boshini aylantirmoq” – yolg’onlar bilan aldamoq. *Birpasda shunday qizning boshini aylantirib tashlading-a!* [10,228].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, iboralar xalqning hayotiy tajribasi, donishmandligi natijasida maydonga keladi. Iboralarning shakllanishida inson tana a’zolari bilan bog’liq bo’lgan kodlar muhim

SOMATIK KODLAR TADQIQIGA DOIR

ОБ ИССЛЕДОВАНИИ СОМАТИЧЕСКИХ КОДОВ

ON THE STUDY OF SOMATIC CODS

Xusanova Ma'rifat Axmadjonovna¹, Xusanova Mashxura Axmadjonovna²

¹Xusanova Ma'rifat Axmadjonovna

– Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.

²Xusanova Mashxura Axmadjonovna

– Farg'ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya

Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishi sifatida lingvokulturologiyaning asosiy diqqat e'tibori madaniy kodlarni o'rganishga qaratiladi. Madaniy kodlar – ma'lum bir xalqning milliy-madaniy qiyofasini oshishda kalit vazifasini bajaradi. Quyida somatik kod va u ifodalagan ma'noning o'rganilishi hamda ularning asosiy xususiyatlari tahlil qilinadi.

Аннотация

В качестве современного направления лингвистики основное внимание лингвокультурологии уделяется изучению культурных кодов. Культурные коды-служат ключом к повышению национально-культурного имиджа конкретного народа. Ниже приводится анализ изучения соматического кода и значения, которое он представляет, а также их основных характеристик.

Abstract

The modern direction of linguistics in quality, the main attention of linguoculturology is paid to the study of cultural codes. Cultural codes-act as the key in increasing the national-cultural image of a particular people. The following will analyze the study of the somatic code and the meaning it represents, as well as their main characteristics.

Kalit so'zlar: olamning lisoniy manzarasi, linvokulturologiya, milliy qiyofa, ibora, frazeologik birliklar, madaniyat kodlari, somatik kod, "bosh" so'zi.

Ключевые слова: языковая картина мира, лингвокультурология, национальный образ, словосочетание, фразеологизмы, коды культуры, соматический код, слово "голова".

Key words: linguistic picture of the universe, linvoculturology, national image, phrase, phraseological units, cultural codes, somatic code, the word "head".

KIRISH

Dunyoning barcha millatlari o'z milliy qiyofasini, milliy an'analarini tashqi ko'rinishi, xulq-atvori, yurish-turishi va eng asosiysi, tili orqali o'zida mujassam etadi. Shu ma'noda inson ana shu milliylikni o'zida aks ettiruvchi muayyan madaniyat, til, tarix, adabiyotga aloqador bo'ladi. Til ijtimoiy hodisa ekanligi bilan bir qatorda madaniyat belgisi hamdir. Ma'lumki, qadimdan insonlar, xalqlar, mamlakatlar o'zaro iqtisodiy-siyosiy, madaniy aloqada bo'lib kelganlar. Bugungi kunda ham xuddi shunday siyosiy-madaniy, ilmiy aloqalar, xalqaro-madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Ya'ni tillarning o'zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o'ziga xos ko'rinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o'tasidagi alohida spetsifik yo'nalishi va predmetiga ega bo'lgan yangi soha – lingvomadaniyatshunoslikning shakllanishida turtki bo'ldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbek tilshunosligida lingvokulturologik tadqiqotlar ham talaygina. Xususan, Z.I.Saliyeva nomzodlik dissertasiyasida o'zbek va ingliz tillarining milliy-madaniy xususiyatlari tahlili [15, 90], R.S.Ibragimova nomzodlik dissertasiyasida esa o'zbek va fransuz tillarida ayol konseptining ifodalanishishi haqida [16,90] tadqiqotlar olib borganlar. Shuningdek, N.Mahmudov o'zining "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab" [17,10] nomli maqolasida lingvokulturologiya, xususan, kognitiv tilshunoslik mohiyatini ochib berdi.

Lingvomadaniyatshunoslik fanga lingvomadaniy birlik, lingvomadaniyat, lingvomadaniy hamjamiyat, milliy-madaniy konnotatsiya, madaniy sema, pretsident birliklar, madaniy kod, lisoniy ong, olamning lisoniy manzarasi kabi bir qator yangi tushunchalar olib kirdi. Ular qatorida madaniyat kodlari tushunchasi alohida ahamiyatga ega. Ma'lumki, kod va belgi tushunchalari semiotika (belgilari haqidagi fan)ning asosiy obyekti hisoblanadi. "Sotsial axborotning har qanday

Abdulla Qodiriy shaxsi, faoliyati va boy merosini falsafiy tadqiq etish orqaligina buyuk geniying ilg'or ijtimoiy-falsafiy, diniy-tasavvufiy va badiiy-estetik g'oyalari milliy g'oya va mafkura asoslarini yaratish, milliy o'zligimizni anglash va milliy taraqqiyotimizda muhim manba ekanligini to'laroq anglash mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. B. Karimov. Jadidlar. Abdulla Qodiriy. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022, 3-b. (B. Karimov. Jadids. Abdullah Kadiri. - T.: Youth Publishing House, 2022, 3-p.)
2. M. Qo'shjonov. Armon (xotiralar). – T.: Sharq, 164-b.(M. Koshjanov. Armon (memories). - t.: Sharq, 164-p.)
3. M. Qo'shjonov. Qodiriy erksizlik qurboni. T.: Fan, 1992. 56-b.(M. Koshjanov. Kadyri is a victim of impurity. T.: Science, 1992. 56-p.)
4. R.K. Balandin. Vernadskiy: jizn, misl, bessmertie. – Moskva, 1988. S.48.(R.K. Balandin. Vernadskiy: Life. Thought. Immortality. - Moscow, 1988. P.48)
5. U. Normatov. Qodiriy mo"jizasi. (Mas'ul muharrir B. Karimov) – T.: O'zbekiston, 2010, 195-b. (U. Normatov. Kadyri Miracle. (Respective Editor B. Karimov) - T. Uzbekistan, 2010, 195-p.)
6. G.V.F. Gegel. Estetika. V 4-x tomax. Tom 1, str. 294. (G.V/F.Gegel. Aesthetics. In 4 volumes. I. Page 294.)
7. N.V. Goncharenko. Geniy v iskusstve i nauke. M. 1994. Str. 295. (N.V. Goncharenko. Genius in art and science. M., "Art", 1991. P.295.)
8. O'sha manba. Str. 410.(That source. Str. 410)
9. O'sha manba. Str. 217.(That source. Str. 217)
10. Ibrohim G'afurov. Qodiriy siymosi. // Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. I. – T.: Info Capital Group. 2017. 5-bet. (Ibrahim Gafurov. The image of Kadyri. // Abdulla Kadiri. Days spent. I. - T.: Info Capital Group. 2017. Page 5)
11. Abdulla Qodiriy. Adibni xotirlab. V. – T.: 2017. 33-bet. (Abdullah Qadiri. Remember the writer. V. - T.: 2017. Page 33.)
12. Abdulla Qodiriy. Diyori bakr. III. – T.: 2017. 125-bet. (Abdullah Qadiri. The old is a lot of Bakr. III. - T.: 2017. Page 125.)
13. O'sha manba. 125, 127-betlar. (That source. 125, 127 Page)
14. N.V. Goncharenko. Geniy v iskusstve i nauke. – M.: Iskusstvo, 1991, str-202. (N.V. Goncharenko. Genius in art and science. M., "Art", 1991. P.202.)
15. Ibrohim G'afurov. Qodiriy siymosi. (So'z boshi). // Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. I. – T.: 2017. 9-bet. (Ibrahim Gafurov. The image of Kadyri. (The beginning of the word). // Abdulla Qadiri. Days spent. I. - T.: 2017. Page 9.)
16. S. Mirvaliyev. O'zbek romani. Janr manbalari va uning tashkil topishi. – T.: Fan, 1969. 102 – bet. (S. Mirvaliyev. Uzbek novel. GenR sources and its formation. - T.: Science, 1969. 102 – Page)
17. O'sha manba.103-104 – betlar. (That source.103-104 - pages.)
18. I. Mirzayev. Abdulla Qodiriyning ijodiy evolyutsiyasi. – T.: Fan, 1977. 143-bet. (Mirzayev. Abdulla Qadiri's creative evolution is the creative evolution. - T.: Science, 1977. page 143.)
19. N.V. Goncharenko. Geniy v iskusstve i nauke. – M.: Iskusstvo, 1991, str-207. (N.V. Goncharenko. Genius in art and science. M., "Art", 1991. P.207.)
20. L.N.Tolstoy. Krug chteniya. V 2-x tomax. – M.: 1908 r. (L. N. Tolstoy. Reading circle. In 2 volumes. - M.: 1908)
21. Oybek. Asarlar. O'n tomlik. 9-t. – T.: Fan. 1974. 341-bet. (Oybek. Works. Ten roofs. 9-t. - T.: Science. 1974. page 341.)
22. Abdulla Qodiriy. Adibni xotirlab. V. – T.: 2017. 218-bet. (Abdullah Qodiri. Remember the writer. V. - T.: 2017. Page 218.)
23. Abdulla Qodiriy. Adibni xotirlab. V. – T.: 2017. 235-bet. (Abdullah Qodiri. Remember the writer. V. - T.: 2017. Page 235.)
24. Guliston jurnali. 1974. 4-soni. 19-bet. (Gulistan magazine. 1974. No. 4. Page 19.)
25. E. G. Arasli. Djurdji Zeydan i arabskiy istoricheskiy roman. M.: 1967. Str. 47 (E.G. Arasli. Jurdji Zeidan and Arab historical novel. M.: 1967. P. 47.)
26. A. Pechchei. Chelovecheskiye kachestva. 1980. Str.282. (A. Pechchei. Human qualities. 1980. P.282.)
27. N.V. Goncharenko. Geniy v iskusstve i nauke. M., "Iskusstvo", 1991. C.208. (N.V. Goncharenko. Genius in art and science. M., "Art", 1991. P.208.)

ILMIY AXBOROT

Kattalarni maxsus chaqirishdan maqsad bo'lishi kerak: biron mushkulni oson qilish, obro' orttirish, martaba ta'ma etish... Meni kattalar bitqazib beradigan mushkul ishim yo'q: obro', martabaga ham muhtoj emasman" [22].

Abdulla Qodiri kambag'alparvar, do'stlariga sadoqatli, mehr-oqibatli, saxiy va muruvvatli ziysi edi. Habibulla Qodiri 1933 yilda butun mamlakatda hukm surgan ocharchilik va qimmatchilik yillari va otasining oljanob insoniy fazilatlari haqida shunday deb yozgan edi: "Bog'imiz, dehqonchiligimiz, sigir-buzog'imiz borligi uchun biz bir muncha durust yashar edik. Buning ustiga, shu 1933 yilda taqsimot do'koniga yozuvchi, professor, san'atkor, injener kabi mutaxassislar uchun ochilgan maxsus do'konga a'zo qilingan edik. Dadam esa ko'pincha "Obid ketmon" qissasini yozish, lug'at tuzish va bog' ishlari bilan band edilar. Ba'zan men bilan qop orqalab, "Chuqur qishloq"dagi o'tog'i Mahmud Sariqning tegirmonda jo'xori tortib chiqar edilar. Oyim bechora ertadan kechgacha taom tayyorlar, jo'xori unidan hamir qorib, ichiga qovoq qo'shib, tandirda zog'ora non yopar, kuniga 1-2 marta taom pishirib, mahallamizdag'i ochlarga berar edilar. Dadam Rashid aka degan keksa kishini Qudratilla ismli o'g'li bilan ko'chadan yetaklab kelib: "Bu kishi eski tanishim, bechora qiyalib qolibdi, yaxshi kunlar kelguncha bizda yashab tursinlar deb, shiyponimizdan joy qilib berdilar. Yetti jonli bir qo'shnimiz ochlikdan yoppasiga shabko'r bo'lib, uydan chiqolmay qolgan edilar, yana Rahimberdi amakimning ahvoli ham yomon edi. Onam har kuni ovqat pishirib, ularni boqqan edilar. Dadamning o'zları ham ozib-to'zib ketgan edilar" [23].

Abdulla Qodiri yahon romanchiligidagi tutgan o'rni va roliga xolis bahoni mashhur rus sharqshunosi Ye. E. Bertels berdi: "Jahon adabiyotida uslub jihatdan farqlanadigan beshta romanchilik maktabi ko'zga tashlanib turadi. Ular ingliz, frantsuz, nemis, rus, hind romanchilik maktabidir. Endilikda oltinchi romanchilik maktabi yaratildi. Bu maktabni yaratgan Abdulla Qodiri (Julqunboy) bo'ldi" [24].

Faqat geniylargina o'zi mansub bo'lgan va butun ongli hayoti, mehr-muhabbatini bag'ishlagan, opichlab voyaga yetkazgan xalqni jahonga tanita oladi. Abdulla Qodiri ana shunday buyuk daho edi.

E.G.Araslining yozishicha, arab tarixchisi va adibi J. Zaydon arab tilida Qohirada chop etilgan besh jiddlik "Musulmon madaniyati tarixi" asariga yozgan so'zboshisida nima sababdan tarixiy romanlar yozishga alohida e'tibor berayotganligining sabablarini quyidagicha izohlagan: "Fan hali o'zining bolalik davrida qolib ketayotgan bizning mamlakatimizda (Misrda) sof tarixning o'zini o'qitish keng kitobxonlar ommasi uchun qiyindir. Shu sababli biz kishilarni kitob o'qishga jalb etish uchun shunday uslublarni qo'llashga majburmiz. Roman janri bu maqsadni amalga oshirishda eng yaxshi vositadir" [25]. Bizningcha, ana shu g'oya Abdulla Qodiri yahon tarixiy romanlar yaratishga undagan. Buyuk italyan mutafakkiri A. Pechchei ta'biri bilan aytganda, "g'oya harakatga keltirgan shaxsni hech narsa to'xtata olmaydi" [26].

Biroq Abdulla Qodiri tarixiy roman yaratishda Turkistonning butun tarixini emas, balki "mavzuni... yaqin o'tkan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo'lg'an keyingi "xon zamonlari"... ning xijriy 1264 (1848 milodiy) yildan hijriy 1277 (milodiy 1861 y.) yilgacha bo'lgan o'n uch yillik tarixini haqqoniy yaratish jarayonida o'z niyatini amalga oshirdi: o'rta asrchilikning chirkin odatlari sof va samimiy muhabbatga, shaxs erkinligiga, ijtimoiy taraqqiyotga qarshi ekanligini yaqqol va ishonarli qilib ko'rsatdi. Bu bilan buyuk adib faqat shaxsgina go'zallik, ezgulik va haqiqat uchun kurashga qodir ekanligini, zararli odatlarning butun fojiasini his etmay va unga qarshi ilm-ma'rifat bilan kurashmay turib, Vatan ozodligi va mustaqilligiga erishib bo'lmaydi, degan g'oyani ilgari surdi.

XULOSA

Abdulla Qodiri butun ongli hayoti, aql-zakovati va noyob iste'dodi bilan XX asr boshlarida ro'y bergen buyuk inqilobi o'zgarishlar jarayoniga qo'shildi. Geniylarga xos o'tkir zehn, botiniy qalb bilan Turkistonning mustaqillik va ozodlik yo'li shaxs erkinligida, dunyoviy ilm-fan ravnraqi va muqaddas diniy qadriyatlarni keng targ'ib qilishda, Vatan uchun, xalq uchun sidqidildan xizmat qilishda, milliy o'zlikni anglashda ekanligini chuqur angladi. "Geniy shuning uchun geniyki, u o'zigacha bo'lgan ilmiy merosga yakun yasabgina qolmaydi, balki ularni chuqur umumlashtirish asosida yangi bilimlar beradi. ...Geniy g'oyalari sistemasini bog'lovchi rishta bo'libgina qolmay, olg'a tomon rivojlanuvchi fikrning o'ziga xos bosqichini ifodalaydi" [27]. Abdulla Qodiri yahon Markaziy Osiyo xalqlarining badiiy-estetik, ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy-siyosiy tafakkuri rivojiga ko'rsatgan ta'sirini hazrat Alisher Navoiyning geniysi bilan qiyoslanishi to'g'ri, adolatli va haqqoniyidir.

Hozirgi zamon Jahon falsafasi allaqachon muhabbat inson axloqiy kamolotining tayanchi va muhim mezoni ekanligini e'tirof etgan. Jamiyat hamma zamonlarda ham ahli xos va ommaga bo'lingan. Ilmsiz, savodsiz avomning muhabbat haqidagi tushuncha va tasavvuri o'zi singari nochor, qashshoq va ojizdir. Xos ahli Ollohg'a bo'lgan muhabbat, sof va samimiy insoniy muhabbatgina insonni buyuk yaratuvchan faoliyatida qudratli stimul ekanligini teran anglaganlar. So'fiylarning Ollohni eng go'zal Yor, eng sadoqatli va vafodor Do'st sifatida tasavvur etishlari aslo bejiz emasdir.

Bola shaxsi, o'smir shaxsi shakllansagina unda go'zallik, ezunglik va haqiqat to'g'risidagi orzu va idealga erishish istagi paydo bo'ladi. Muhabbat pokiza qalblarnigina o'ziga makon qiladi. Real ijtimoiy hayotda shaxslar juda kam bo'lgani singari haqiqiy, pok va samimiy muhabbat ham juda oz kishilarga nasib etadi. Biroq ana shu ozchilikni tashkil etuvchi elitar qatlam vakillarining muhabbatni hamisha baxtsiz yakun topadi. O'zing sevgan, hayoting, butun borlig'ingning ma'nosiga aylangan Ma'shuqa vasliga yetisha olmaslik barcha buyuk daholarning qismatidir. Biroq baxtsiz muhabbat shaxsni harakatga, favqulodda faollikkunda undar ekan, nom-nishonsiz yo'qlikka maxkum bo'lmaydi, balki bu muhabbat sevimli Yor mansub bo'lgan xalqqa, Vatanga va butun insoniyatga ko'chadi. Barcha buyuk shaxslar, geniyalar, avliyolar, payg'ambarlar muhabbat ahllaridir. Xos ahli e'tirof etadigan, qadrhaydigan chin ilohiy va ramziy insoniy muhabbat oshiqning qalbida olijanob va yuksak axloqiy fazilat va noyob qobiliyatlarni har jihatdan tarbiyalab, kamol toptiradi. Hazrat Navoiyning: "Ishq bo'lmasa, ikki jahon bo'lmasun, ikki jahon demaki, jon bo'lmasun", deyishi aslo bejiz emas. Aslida muhabbatning sehri, kuch-qudratini, uning quvonch va iztiroblarini so'z bilan ifoda etib bo'lmaydi. Abdulla Qodiriyning o'zi ana shunday muhabbat o'tida toblangan, so'fiylar ta'biri bilan aytganda, muhabbat olovida erib, oltinga aylangan buyuk shaxs edi. Otabek va Kumushning muhabbatni naqadar sirli va ilohiy ekanligi bilan kitobxonda havas va hayrat hissini uyg'otadi. A. Qodiriyn nazarida muhabbat ahlining go'zal ahloqiy madaniyatigina turli ijtimoiy tabaqalar o'rtaсидаги ziddiyatlarni oqilona hal etishga imkon beradi. Ana shu muhabbatgina yurtga, Vatanga ko'chadi. Muhabbatning ziddi nafrat, milliy begonalashuv, parokandalik, zulm va jaholatdir.

Abdulla Qodiri buyuk donishmand edi. Lev Tolstoyning ta'lim berishicha, donishmand kishilarda uch xislat yarq etib ko'zga tashlanadi: birinchisi, boshqalarga bergen maslahatlariga, avvalo, o'zlar amal qiladilar; ikkinchisi, atrofidagi odamlarning kamchilik va nuqsonlariga sabr-toqatli bo'ladir, o'shalarga o'xshamaslikka intiladilar; uchinchisi, hech qachon haqiqatga qarshi bormaydilar [20].

Buyuk shaxslar o'z vatandoshlari, zamondoshlaridan ancha o'zib ketadilar. Ehtimol, shu boisdan ham ular o'z zamondoshlari tomonidan turli malomatlarga giriftor bo'ladilar. Xudoning yo'liga kirgan so'fiy (darvish)lar bunday hollarda odamlarni, jamiatni vaqtincha tark etib, uzlatga (dashtu biyobonlar, sahrolar, tog'u toshlarga) chiqib ketadilar. So'ng ular ma'lum vaqtidan keyin uni inkor etgan yurtdoshlari bag'riga avliyo, geniy sifati bilan qaytadilar. Keyingi yuz yil ichida O'zbekistonda shakllangan va har doim hukmron mafkura tomonida turib, buyuk adibga ta'nayu malomatlar qilgan o'zbek adabiyotshunoslari, tarixchilari, faylasuflarining Abdulla Qodiriyni tanishlari, tushunishlari va uning geniy ekanligini anglashlari uchun rosa yuz yil zarur bo'ldi.

Yangi O'zbekiston, nihoyat, olamga, ijtimoiy hayotga, buyuk ajododlarimiz shaxsi va merosiga yangicha nigoh, samimiyat va pok muhabbat bilan qaray boshladi: milliy o'zlikni anglash shaxs erkinligi, zulm va jaholatdan ozod bo'lishning mohiyatini bilishdan boshlanishini e'tirof eta boshladi.

Abdulla Qodiri shaxsi noyob, betakror va beqiyos edi. Uni yaqindan bilgan buyuk ijodkor Oybekning yozishicha, "Abdulla Qodiri... sirdan qaraganda bosiq, kamgap ko'rinar, chunki har bir so'zni taroziga solib ko'rар, og'ziga kelgan har bir so'zni ayta bermas, sekin va gapi xuddi o'ziga xalal berayotganday yoqinqiramay gap boshlardi. U aqliy mehnat kishilariga har mahal ham nasib bo'lavermaydigan darajada jismoniy mehnatga o'ch kishi edi. Qodiriyning mehnatga o'chligi – dehqondan chiqqanligida bo'lsa kerak. O'zi ham xuddi dehqonlarday tinim bilmasdan qattiq mehnat qilar edi" [21].

Abdulla Qodiri hech qachon amaldor, mansabdor bo'lishga intilmagan. Habibulla Qodiriyning yozishicha, buvisi Josiyat bibi o'g'li Abdullaning Yo'Idosh Oxunboboev, Akmal Ikromov, Fayzulla Xo'jaevlar bilan yaqin ekanligini nazarda tutib, nega ularni ham boshqa mashhur kishilar (olimlar, yozuvchilar) qatori boqqa mehmonga taklif qilmasligi sababini so'raganida, u shunday degan: "Ular menga o'rtoq emaslar-da, oyi. O'rtoqlar chaqirilmasa ham o'zlar kelaverishadi.

ILMIY AXBOROT

A.Qodiriy bolaligidayoq nihoyatda sinchkov, o'tkir zehnli, kamgap, mulohazali, o'ychan va kuzatuvchan edi: mahalla-guzardagi eski maktab, rus-tuzem maktabida ham doimo tengdoshlari ichida peshqadam edi. Rus-tuzem maktabida rus tili grammatikasi, adabiyotidan dars bergen domlasi Pudovkindan ilk bor buyuk rus yozuvchisi Lev Tolstoy, Anton Chexov, Nikolay Gogolning asarlari, badiiy mahoratlari haqidagi hikoyalarni maroq bilan tingladi. Ayniqsa, Pudovkining Lev Tolstoy "Xojimurod" qissasini yozib tugatganidan so'ng yozgan "Tarixiy narsalar yozayotganimda, men eng mayda tafsilotlarigacha vogelikka sodiq bo'lishni sevaman", - so'zları katta va unutilmas saboq bo'ldi. Habibulla Qodiriy otasi haqidagi xotiralarida oila davrasida A.Qodiriy Lev Tolstoy juda ko'p tushlariga kirganligini so'zlaganini qayd etgan edi.

Abdulla Qodiriy shaxsining eng noyob va qimmatli jihat - uning imon-e'tiqodda sobitligida, diniy va tasavvufiy ta'llimotlarga bo'lgan sadoqatida edi. Qodiriy mehnatkashlar hukumatining dinsizlik, xudosizlikka qarshi siyosati puch va asossiz ekanligini qalban his etgan, Ollohga bo'lgan imon va ibodatini tark etmagan, lekin ayni vaqtida dunyoviy ilm-fansiz qoloqlik va qashshoqlikdan, jaholat va mutaassiblikdan xalos bo'lish mumkin emasligini ham chuqr angagan, bolsheviklar partiyasiga a'zo bo'lishni istamagan. Barcha romanlarining bosh qahramonlari imon-e'tiqodli, millatparvar va taraqqiyatparvar shaxslar ekanligi ham bejiz emas edi. Qodiriy milliy ozodlik uchun kurashda tarixiy ongning naqadar muhim ekanligini anglashda misrlik mashhur yozuvchi J. Zaydonning ta'siri haqida: "Meni roman yozishga havaslantirgan Misr fuzalosidan ustoz Jo'rji Zaydondir" [16], - deb yozgan edi.

S. Mirvalievning ta'kidlashicha, J. Zaydon G'arbiy Yevropa adabiyotidan, V. Skott, V. Gyugo singari G'arb yozuvchilarining ijodidan oziqlangan. A. Qodiriy G'arb tarixiy romanchiligi sirlarini J. Zaydon orqali o'rgandi. Bundan tashqari, u R. Tagorning juda ko'p proza asarlarini bilgan va ularning ayrimlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. A Qodiriyning arab va fors tillarini mukammal bilishi Sharq adabiyoti yutuqlarini o'zlashtirishida juda qo'l kelgan [17].

A.Qodiriy buyuk san'atkor-yozuvchigina emas, balki ijodkor-nazariyotchi ham edi. Adabiyotshunos Ibrohim Mirzayevga ko'ra, "A. Qodiriyning ...o'zbek hajvchiliginin tarixiy taraqqiyotiga va nazariy masalalariga bag'ishlangan maqolalarini ilmiy sistemaga ega bo'lgan qarashlar deyish mumkin. Satirada ham, romanchilikda ham A. Qodiriyning amaliy faoliyati bilan nazariy qarashlari o'tasida ajoyib bir uyg'unlik yuzaga keladi" [18].

Geniy shuning uchun geniyki, u o'zigacha bo'lgan ilmiy merosga yakun yasabgina qolmaydi, balki ularni chuqr umumlashtirish asosida yangi bilimlar beradi. Geniy boshqalar tomonidan qilingan ishlarni yakunlashi mumkin. Biroq, uning asosiy roli chegara bilmaydigan, tarixiy davrlarni bog'lovchi tayanch g'oyalarni yaratishdir. Geniy g'oyalar sistemasini bog'lovchi rishta bo'libgina qolmay, olg'a tomon rivojlanuvchi fikrning o'ziga xos bosqichini ifodalaydi [19].

A.Qodiriy jadidchilik g'oyalarini to'la qo'llab-quvvatlabgina qolmay, uni yangi mazmun va g'oya bilan boyitib, yuqori bosqichga ko'tardi. Agar jadidchilarning barcha buyuk namoyandalari avom xalqning hayotga, turmushga bo'lgan qarashlarini o'zgartirish uchun xalq teatrlarini rivojlantirishga, jadid maktablari tashkil etishga, sarmoyador, milliy boy va savdogarlarni yangi maktablar qurishga da'vet etgan bo'lsalar, Abdulla Qodiriy jadid ijodkorlaridan farqli ravishda Misrlik mashhur adib va tarixchi Jo'rji Zaydon izidan borib, tarixiy romanlar yaratish va tarixning ma'nosi, mantig'ini, avvalo, jamiyatning taqdirini belgilaydigan ilm ahli, sarmoyador, mansabdorlarni tarix ijodkori sifatida haqqoniy va go'zal shaklda ko'rsatish orqaligina mamlakatni mustamlaka zulmi, qoloqlik, qashshoqlik va jaholatdan ozod qilish mumkin, degan g'oyani ilgari surdi.

A.Qodiriy Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li izidan borib, marksizmning sinfiy kurash g'oyasiga butunlay qarshi edi. Oila va jamiyat, shaxs va davlat munosabatlarini tahlil qilishda Sharq va G'arb mutafakkirlarining ilg'or falsafiy qarashlarini ijodiy rivojltirdi. U marksizmga zid ravishda ijtimoiy taraqqiyotda elitar qatlamning yetakchi, belgilovchi rol o'ynashini e'tirof qilar ekan, Turkistonning mustamlaka zulmi ostida ezilishining bosh sababi hukmron elitar qatlamning oila va ijtimoiy birdamligi uchun hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan umumbashariy Muhabbat hissini shakllantirish, shaxs erkinligini himoya qilish orqaligina yagona Vatan – Turkiston ozodligi, uning porloq kelajagi uchun zamin yaratish mumkin, deb hisoblaydi.

Buyuk adib asarlarining bosh qahramonlari (mulkdorlar, olimlar, imon-e'tiqodli ziyorilar, siyosat ahli) avvalo, ayolga mehr-shafqatlari, Vatan taqdiri uchun mas'ul kishilar sifatida tasvirlanishi zaminida ozodlik, mustaqillik va baxtli hayot barpo etish uchun shaxs erkinligi g'oyasini ilgari surilishi buyuk mo'jiza va noyob kashfiyat edi.

bergan uch revolyutsiya, Qo'qon muhtoriyatining bolsheviklar tomonidan tor-mor etilishi, jadidchilik g'oyalari, Turkiston xalqlarining milliy mustaqillik harakatlari – ana shularning hammasi juda muhim rol o'ynadi.

"Ozodlik jasoratni talab etadi – erkin fikrni hamma eshitadigan qilib aytish – jasur shaxslarning alohida imtiyozidir. Ko'p yozuvchi va olimlar xavf-xatar o'tib ketganidan so'ng haqiqatni kechikib aytadilar, endi esa hech narsani o'zgartirib bo'lmaydi. Geniylar haqiqatni o'z vaqtida aytadilar va ular juda ozchilikni tashkil etadilar. Juda ko'p rassom, yozuvchi va olimlar illatlarni qattiq tanqid qilishni va e兹gulikni rag'batlantirishni biladilar. Geniy ulardan farqli ravishda yaxshilik va yomonlikning tabiatini chuqur ochadi va ularning kelajakdag'i oqibatlarini ko'rsatadi" [8].

Shu narsa shubhasizki, fan, san'atda erkin izlanish, qarashlar xilma xilligi va fikrlarning ochiq kurashi, barcha yangilik va originallikning davlat tomonidan ham moddiy, ham ma'naviy rag'batlantirilishi, ijodi faoliyatga chuqur hurmat bilan qaralishi jamiyat o'z rivojlanishining muayyan bosqichida g'oyat muhim deb hisoblaydigan faoliyat sferasida buyuk iste'dodlarni yaratish uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltiradi.

Irsiy qobiliyat, qulay sharoit, zarur madaniy-ma'rifiy muhit (ustozlar, maslakdoshlar va h.o.) aniq maqsadga qaratilgan ijodiy mehnat, qulay vaqt va yana boshqa ko'plab omillar uyg'unlashgan sharoitdagina geniylar dunyoga keladi. "Hech qanday idora, ilmiy jamoa, ijodiy uyushma, hatto ular orasida geniylar bo'lsa ham: "Yangi geniylar yaratilsin!" – degan farmoyishni bera olmaydi. Faqat jamiyat va tarixgina ana shunday alohida imtiyozga – geniylarni yaratish, qadrlash va e'zozlash imkoniyatiga egadir" [9].

Irsiy qobiliyat, ijtimoiy muhit, davr talablarining ayni bir vaqtida mutanosib bo'lishi – geniying dunyoga kelishidagi noyob hodisadir. Taniqli adabiyotshunos Ibrohim G'afurovning yozishicha, Abdulla Qodiriyning otasi "Qodirmuhammad bobo davrining g'oyatda jo'mard kishilaridan edi. O'smirlik va yigitlik chog'larida boshidan ko'p kechmishlarni o'tkazgandi. Toshkent beklarining eng atovli sarbozlaridan bo'lib yetishgandi. Beklar eng mushkul, uquv va idrok, dovyuraklik talab qiladigan ish-yumushlarni unga ishonishardi, o'tdan-suvdan har doim omon chiqadigan yigit edi. Favqulodda azamat odam bo'lganligiga yorqin bir misol: u Abdullani yetmish ikki yoshga kirgan chog'ida ko'rgandi" [10].

Qodirmuhammad bobosi haqida Habibulla Qodiri: "Bobom badjahl, oilaga qattiqqo'l bo'lganlar. Lekin o'qish-ilmn ni qadrlaganlar. "O'zimni xatim yo'q-da, bo'lmasa hammangni barmog'imda o'ynatardim", - deb o'z omiliklaridan o'kinganlar, bolalarining o'qishiga sira to'sqinlik qilmaganlar. U shunchalik zolim, mehnatga ayovsiz bo'lsa ham, bolalar mакtabga boraman, saboq qilaman desa, ishdan ozod qilardi" [11].

A.Qodiri otasi haqida: "Otam... 1923-yillari tug'ilib, alhol (hozir – 1922 yil) 99-100 yoshlaridadir. Ruslar istilosini vaqtli (1865 y.)da 42 yoshida bo'lib, Toshkandni ruslardan mudofaa qilg'an qahramonlarning biridir.

...Shundoq qilub, qirq yillab musulmon xonlari zamonini, elli yillab Rusiya chori istibdodini va endi besh yillabdirki mehnatkashlar hokimiyatini ko'radir" [12], - deb yozdi.

Shubhasiz, Abdulla Qodiriyning millatparvar, erkparvar ijodkor shaxs sifatida shakllanishida otasining ta'siri juda kuchli bo'lgan. Bu haqda: "Otam Rusiya chori hukumatini sira tilamaydir. Chunki uning elli yillik istibdodini o'zi istiqlol (kutib olgan) etgan. Bu kungi mehnatkashlar hokimiyatiga ham uncha do'st emas".

Qodirmuhammad bobo: "...Xudoning xohlagani-da, kofirning qo'lida qolib ketdik... O'zimizda g'ayrat yo'q. Agar yurt bir og'izga tupurib, yarog' topolmag'anda ham qora kaltak (olomon urush) bo'lib chiqsa, isni-bisga qo'ymas edi. Qadimgi zamonning yigitlaridan shu kunda ham bo'lganchi, ey-ha, o'rusingga yo'l bo'lsin" [13], - der edilar.

Taniqli faylasuf N. V. Goncharenkoning ta'kidlashicha, "geniylarni qulay iqlim yoki baxtli tasodif emas, balki jamiyat yaratadi. Biroq u geniylarni insoniyatga har doim va har qanday vaqtida bera olmaydi. Geniy jamiyat uchun kerak bo'lishi, unga tarixiy talab bo'lishi kerak" [14].

Abdulla Qodiri XX asrning 10-yillardan boshlab, jadidlarning gazeta va jurnallarida chop etilgan maqolalarni qunt bilan o'rgana boshladi. "Yosh Qodiriya adabiyotga havasni uch najib zot – Tavallo, Komi, Miskin uyg'otishgan, uning ilk mashqlarini ko'rishgan, yo'l-yo'riqlar ko'rsatishgan va hatto matbuot dunyosiga olib kirishgan, Behbudiy, Munavvarqori hazratlari, Ubaydulla Asadullaxonjaev, Avloniy va boshqa taniqli kishilar o'zlarining nashrlari bilan tanishtirishgan edi. U, ayniqsa, Behbudiyning maqolalariga oshufta bo'ldi. "Padarkush"ning hayajonlari ta'sirida bir hafta o'tirib, birinchi dramasi "Baxtsiz kuyov"ni yozdi" [15].

ILMIY AXBOROT

Abdulla Qodiriyning o'zbek romanchiligining asoschisi sifatidagi mahorati, buyuk va beqiyos iste'dod egasi ekanligi unga yaqin zamondosh bo'lgan buyuk iste'dod egalari: Sadriddin Ayniy, Muxtor Avezov, Oybek, Izzat Sulton va hozirgi zamon adiblari: Odil Yoqubov, Abdulla Qahhor, Shukrullo, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, O'tkir Xoshimov, Xayriddin Sultonov singari adiblar tomonidan yuksak baholangan. Qizig'i shundaki, Abdulla Qodiriyning eng ashaddiy tanqidchilar bo'lgan, hukmron siyosat va mafkura zug'umi ostida buyuk ijodkorni "xalq dushmani" sifatida qoralaganlarning barchasi – M. Sheverdindan boshlab to hozirgi zamon adabiy tanqidchilarigacha Abdulla Qodiriyning noyob iste'dod egasi ekanligini e'tirof etganlari holda "qissadan hissa" chiqarishda uni "mayda burjua manfaatlarini himoya qilishda" aybladilar.

Abdulla Qodiri yahon fani, madaniyati va adabiyoti tarixida o'chmas iz qoldirgan geniylar qismatini takrorladi. U millatparvar, taraqqiyatparvar ijodkor, XX asrda ro'y bergan buyuk inqilobiy o'zgarishlar dunyoga keltirgan geniy sifatida avval inkor etildi, chunki u boshqa ijodkorlarga aslo o'xshamas edi. Bu haqda M. Qo'shjonov: "Abdulla Qodiriyning tarixiy qismati shunday bo'ldiki, qariyb ellik yil davomida uni biz jadidizmda ayblab keldik" [3], – deb yozdi.

G'arb tadqiqotchilari ta'kidlaganlaridek, "Haqiqiy geniy faqat talantli bo'lib tug'ilibgina qolmaydi. Uni faqat irsiyat, shaxsiy va ijtimoiy muhit va sharoitgina yaratmaydi. U o'zini o'zi yaratadi. U o'zining kim ekanligi haqida emas, balki qanday bo'lishi kerakligi haqida o'ylay boshlaydi. O'zini tushuna boshlashi bilan tug'ilganida berilgan qobiliyatidan qoniqish hosil qilmaydi. Uni ko'pincha bo'ysunishga, oqimga qarab oqishga, "barcha aqli odamlar singari bo'lishiga" majbur etuvchi atrof-muhit qoniqtirmaydi. U vaziyatning quli bo'lishni, moslashuvchi bo'lishni xohlamaydi" [4]. Bu misralar to'laligicha Abdulla Qodiri shaxsiga ham tegishlidir.

Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida qiyoslash, analiz va sintez, ilmiy xolislik, kreativlik usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Jahonga mashhur olimlar ijodkor shaxs, iste'dod va geniy tushunchalarini bir-biridan farqlaydilar. Abdulla Qodiri ijodining tadqiqotchilari hozirgacha uni ijodkor shaxs va buyuk iste'dod egasi sifatida tadqiq etdilar.

Yangi O'zbekistonda shakllanayotgan yangicha dunyoqarash va ilmiy tadqiqot metodologiyasi Abdulla Qodiri shaxsi va ijodiga keng falsafiy aspektida yondashish imkonini beradi. Shu o'rinda taniqli adabiyotshunos Umarali Normatovning Abdulla Qodiriyning XX asrda turkiy xalqlar, Sharq xalqlarining dunyoqarashi, badiiy-estetik ideallari rivojidagi o'rni va rolini belgilashda ilgari surgan quyidagi fikri e'tiborga loyiqdirdi: "O'tkan kunlar"da... xilma xil ijtimoiy, ma'naviy muammolar ko'tarilgan. Ular ichida eng muhimi, yurtning, millatning taqdiri, mustaqilligi masalasidir. "O'tkan kunlar" romaniga qadar ham, asar yozilgan paytda va undan keyin ham hech kim o'tgan asrda millat taqdiri uchun hayot-mamot ahamiyatiga molik tarixiy hodisalarini, o'ikaning mustaqillikdan mahrum bo'lib, mustamlakachilar oldida taslim bo'lishiga olib kelgan omillarni Qodiriychalik chuqur, xolis, ta'sirchan badiiy tahlil etgan asar yarata olgani yo'q! Mana, "O'tkan kunlar"da romanga xos tafakkurni ta'min etgan omil!

Qodiriyning ijodiy kashfiyoti shundaki, u "O'tkan kunlar" orqali yangi davr adabiyotining bir necha g'oyaviy-badiiy vazifalarini mohirona hal etib berdi. Asarda XIX asr rus va Yevropa realistik romanchiligiga xos barcha muhim xususiyatlarni topish mumkin. Eng muhimi, bu xususiyatlar har qanday taqlidlardan, zo'rma-zo'rliklardan xoli ravishda milliy zaminda milliy tafakkurga xos tarzda namoyon bo'lgan" [5].

Tadqiqotchilar geniyni talant (iste'dod)dan farqlaydigan quyidagi uch belgini ko'rsatadilar. Birinchidan, geniy ijodining originalligi va uning novatorligi; geniy ilgari tadqiq etilmagan sohalarda ijod qiladi, olamga mutlaqo qimmatli yangilikni taqdim etadi. Ikkinchidan, "geniy haqiqiy badiiy asarni yaratishda eng umumiy qobiliyatga, bitmas-tuganmas energiya (g'ayrat-shijoat)ga ega bo'lib, bu qobiliyatni muttasil rivojlantiradi" [6]. Uchinchidan, geniy har doim, hamisha geniydir, iste'dod esa davr, zamon talablariga javob beruvchidir. Talant to'liq takomilga erishishi uchun umumiy qobiliyatni talab etadiki, bu qobiliyat faqat geniyya xosdir [7].

Geniy ayni vaqtda ijodkor shaxs va buyuk iste'dod egasidir. Ijodkor shaxsning dunyoga kelishi, shubhasiz, o'zgargan yangi tarixiy davr ehtiyojlari bilan, iste'dodning rivojlanishi esa hozirgacha yaratilgan butun ilmiy, falsafiy, badiiy, diniy va h.o. merosni tanqidiy o'zlashtirish, umumlashtirish, nihoyat, ilm-fan, san'at rivojida yangi davrni boshlab berishdir. Abdulla Qodiri shaxsi va iste'dodining kamol topishida XX asr boshlarida Rossiya juda qisqa muddatda ro'y

ABDULLA QODIRIY – XX ASR GENIYSI**АБДУЛЛА КАДИРИ – ГЕНИЙ ХХ ВЕКА****ABDULLAH KADIRI - THE GENIUS OF THE XX CENTURY****Qosimov Kozimjon Isoqovich¹****¹Qosimov Kozimjon Isoqovich**

– O'zbekiston milliy universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqola buyuk o'zbek mutafakkiri va adibi Abdulla Qodiriyning ijodkor shaxs, iste'dodli ijodkor va XX asr geniysi sifatidagi noyob qirralarini ochishga hamda geniy sifatida shakllanishining tabiiy-irsyi, ijtimoiy-madaniy va siyosiy-tarixiy shart-sharoitlarini o'rghanishga bag'ishlangan. Shuningdek, "geniy" fenomenining tahibili ham maqolaning markaziy qismini tashkil etadi.

Аннотация

В статье исследуется личность и творчества великого узбекского мыслителя и писателя Абдуллы Кадири как гений XX века; так же делается попытка обосновать естественно-генетическое, общественно-культурные, историко-политические предпосылки формирования личности мыслителя как гений. Также анализ феномена «гениальность» является центральной частью статьи.

Abstract

The article explores the personality and creativity of the great Uzbek thinker and writer Abdulli Kadiri as a genius of the twentieth century; an attempt is also made to substantiate the natural genetic, socio-cultural, historical and political prerequisites for the formation of the thinker's personality as a genius. Also, the analysis of the phenomenon of "genius" is the central part of the article.

Kalit so'zlar: Shaxs, ijodkor shaxs, talant, geniy, tabiiy-irsiy omillar, ijtimoiy-siyosiy omillar, madaniy omillar, muhabbat, elitar qatlam, shaxs erkinligi, ijodkor davrlar, milliy mustaqillik, milliy g'oya, globallashuv, milliy o'zlikni anglash.

Ключевые слова: личность, творческая личность, талант, гений, естественно-генетические факторы, общественно-политические, культурные предпосылки, любовь, элитарный слой, свобода личности, творческие периоды, национальное самосознание, глобализация, национальная идея.

Key words: personality, creative person, talent, genius, natural genetic factors, socio-political, cultural background, love, elite layer, individual freedom, creative periods, national self-consciousness, globalization, national idea.

KIRISH

Jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotining globallashuv nomini olgan hozirgi bosqichida rivojlangan G'arb mamlakatlarining ilm-fan, madaniyat, texnika, demokratiya sohasida erishgan yutuqlari mustaqil taraqqiyot yo'liga qadam qo'ygan, ijtimoiy hayotning barcha sohalarini modernizatsiya qilishga alohida e'tibor berayotgan O'zbekiston singari mamlakatlar tomonidan zo'r berib o'rghanayotgan sharoitda milliy o'zlikni anglash, milliy g'oya va mafkura asoslarini yaratishda buyuk adib va mutafakkir Abdulla Qodiriyni hozirgi zamon geniysi sifatida o'rghanish dolzarb va muhimdir.

O'zbekiston Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Buyuk adib, o'zbek romanchilik maktabining asoschisi Abdulla Qodiriy dahosi bilan yaratilgan yetuk asarlar milliy o'zligimizni anglashda bugun ham beqiyos ahamiyat kasb etmoqda" [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

So'nggi yuz yil mobaynida Abdulla Qodiriy shaxsi, asarlarining ijtimoiy, badiiy-estetik mohiyati masalalari respublikamizning taniqli adabiyotshunos olimlari, faylasuflari, tarixchilar tomonidan o'rGANildi. Taniqli adabiyotshunoslar: Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, Matyoqib Qo'shjonov, Ibrohim G'afurov, Sobir Mirvaliyev, Bahodir Karim, Azim Rahimov, Yo'ldosh Solijonov, Omonulla Madayev singari o'nlab tadqiqotchilarning ishlari salmoqli va mahsuldar bo'lganligini ta'kidlash joizdir. Biroq Abdulla Qodiriyning shaxsi va ijodi barcha jadidlarning ilmiy-badiiy merosini biryoqlama markscha metodologiya nuqtai nazaridan o'rghanish samarasiz bo'libgina qolmay, xato va zararli deb hisoblandi.

Milliy mustaqillik yillardagina Abdulla Qodiriy shaxsi va merosini ilmiy asosda tadqiq etish, unga munosib baho berish, ilg'or g'oya va badiiy-estetik g'oyalarni ijodiy rivojlantirish imkoniyati vujudga keldi. Xuddi shu o'rinda taniqli adabiyotshunos va qodiriyshunos Matyoqib Qo'shjonovning quyidagi armon va istaklarini keltirish o'rinnlidir: "Qani edi biror mo'jiza ro'y bersayu qirqdan ko'proq kitoblarimni saralab, totalitar mafkura unsurlaridan tozalab, qayta yozib, nashr qilsam, men his qilayotgan armonning miqdori ancha kam bo'larmidi?!" [2].

ILMIY AXBOROT

Ikkinchi turkum subyektiv modallik bo'lib, u so'zlovchining aytilayotgan narsaga, ya'ni gap mazmuniga munosabatini ifodalaydi. "Subyektiv modallikning semantik doirasi Obyektiv modallikning semantik doirasiga qaraganda kengroqdir." Subyektiv modallik kategoriyasi mazmunining tarkibiy qismlari bo'lgan qiymatlar kelib chiqishi jihatidan har xildir. Subyektiv modallikning semantik asosini baholash tushunchalari, jumladan, nafaqat xabarning mantiqiy ma'nolarini, balki turli xil hissiy reaktsiyalarini ham tashkil qiladi [4].

"Modallik" tushunchasi nutq, baholash, bilish, fikr yuritish uslubini qamrab oluvchi juda keng kategoriyadir. Ya'ni modallik nafaqat turli shakllarning modal baholovchi qadriyatlariga, balki o'quvchida paydo bo'ladigan his-tuyg'ularga ham asoslanadi. Bu bir-biri bilan chambarchas bog'langan va turli lingvistik vositalar orqali uzatiladigan emotSIONALLIK va ekspressivlikni anglatadi. Baholashning kontseptual kategoriyalari va semantik nutq xususiyatlari majmuasi nolingvistik voqelik bilan bog'liq bo'lganligi sababli, obyektiv va subyektiv modallikni o'rganish uchun "baholash", "ekspressivlik" va "emosionallik" tushunchalarini batafsilroq o'rganish kerak bo'ladi.

XULOSA

Shunday qilib, zamonaviy jamiyatda "modus" va "modallik" tushunchalari o'rtasida aniq chegara yo'qligini aytishimiz mumkin. Ushbu tushunchalar bir jarayonning tarkibiy qismlari bo'lib, ularni o'rganish bir necha asrlar davom etidi va nazariyalarning formulalari har safar to'ldiriladi va o'zgartiriladi. "Modus" va "modallik" tushunchalari eng kam ma'no aniqligiga ega, chunki bu tushunchalarning metodologiyasi bir necha asrlar davomida o'rganilgan, ammo hozirgacha ushbu semantik kategoriyalarni tushuntiruvchi yagona tushuncha olinmagan. "Modus" va "modallik" atamalariga aniqlik kiritish uchun ulardan fanda ongli va to'liq foydalanishni tahlil qilish kerak, bundan tashqari, "modus" va "modallik" tushunchalarining ishlashini ta'minlash uchun bir xil ildizning boshqa atamalarini ko'rib chiqish, bu atamalarning ba'zi bir boshlang'ich semantik asoslарини aniqlash kerak bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Гетьман, З. А. Модальность как общетекстовая категория // Вестник. Московского университета. – 2017. – №2. – С. 23-34.
- Зененко, Н. В. Понятие категории модальности в структуре языка // Вестник. Лингвистика в публицистике. – 2019. – № 17. – С. 106-112.
- Wierzbicka, A. The semantics of modality. // Journal of General Linguistics. – 2015. – Vol. 21, No. 8. – P. 26
- Calbert, J. P. Modality and Case English Grammar. – London: Boutland, 2012. – P. 42-49.
- Бондаренко, В. Н. Различные виды модальных значений и их выражение в языке. – М.: Маяк, 2010. – С. 135-141.

NATIJALAR

Modal operatorlarning xilma-xilligi juda ko'p bo'lib, ular atletik, epistemik, deontik, mantiqiy, vaqtinchalik, aksilogik, induktiv, o'zgarishlar modalligi sinflariga bo'linadi, shuningdek tashqi va ichki modallikni ajratadi. Hozirgi vaqtida "modus" va "modallik" tushunchalarini tarixiy sharoitda qo'llash targ'ib qilinmayapti, chunki refleksli sinonimik modul mavjud bo'limganligi uchun ham zamonaviy tilshunoslikda borliqning yaxlitligi haqidagi tafakkurning ojizligi, modal tafakkur an'analarining uzluksizligi to'g'risida g'oyalar mavjud emas. Shunisi qiyinki, borliq haqidagi ta'limotning axloqiy assoslarga ega bo'lishi va ayni paytda nafaqat "modus" atamasi bilan ishlashi mumkinlidigidir[3].

Ushbu maqolada muhokama qilinadigan asosiy atamalar o'zaro bog'liq, ammo "modallik" atamasi "modus" dan shakllanadigan boshlang'ich elementdir. Umumiyl Tilshunoslikda modallik tushunchasidan foydalanish odatiy holdir, chunki u aniq grammatik ma'noga ega bo'lib, tilning grammatik, leksik va sintaktik darajasida turli modal birliklar tomonidan amalga oshiriladi.

Modallik mavzusiga bag'ishlangan ko'plab ilmiy maqolalar mavjud, ammo bu kontseptsiyaning mohiyatini to'liq tushunish uchun qadimiyroq manbalarni ko'rib chiqish kerak. "Modus" va "modallik" tushunchalari barcha gumanitar fanlarda qo'llaniladi. Shunga qaramay, ularning semantik invariantini aniqlashga urinishlar hali amalga oshirilmagan. Ushbu tushunchalarning ilmiy nutqda qo'llanilishi tahibili shuni ko'rsatadiki, ularning uslubiy salohiyati hozirgi kunga qadar ochib berilmagan, chunki modallikning asl mohiyati haqidagi g'oya to'liq ishlab chiqilmagan.

Modusning uchta toifasini ajratib ko'rsatish odatiy holdir: modusning aktualizatsiya kategoriyasi xabarning voqealikka munosabatini ifodalaydi; modusning kvalifikatsiya kategoriyasi so'zlovchining voqealar va ular haqidagi ma'lumotlarga munosabatini ifodalaydi; modusning sotsial kategoriyasi - so'zlovchining suhbatdoshga munosabatining ifodasi: norasmiy yoki rasmiy. So'zlovchining suhbatdoshga munosabatiga qarab tenglik, "yuqoridan pastga", "pastdan yuqoriga" kabi holatlar farqlanadi.

Modusning aktualizatsiya kategoriyasiga quyidagilar o'z ichiga oladi:

Modallikning voqealikning haqiqatligiga qarab:

- reallik/noreallik modalligi.

Muvofiqlik yoki nomuvofiqlik modalligi quyidagi semantik turlarga bo'linadi:

- zarurat va majburiyat modalligi (debitativ modallik);
- mumkinlik va imkonsizlik modalligi (potentsial modallik);
- faraz qilingan (gipotetik) modallik;
- rag'batlantiruvchi (imperativ) modallik;
- niyat modalligi (qasddan foydalanish modalligi);
- istak-xohish (optiv) modallik.

Modusning kvalifikatsiya kategoriyasiga quyidagilar kiradi:

- avtorizatsiya - bu axborotning xabar manbalari nuqtai nazaridan kvalifikatsiyasi;
- qat'iylik - bu uning ishonchlilik darjasini bo'yicha ma'lumotlarning kvalifikatsiyasi.

- baholash - so'zlovchining pozitiv mazmunga ijobiy yoki salbiy munosabatini ifodalash; muayyan parametrler bo'yicha vaziyatni, shaxsni, mavzuni umumiy baholash [5].

MUHOKAMA

Aristotel davridan boshlab ma'lum tushunchani so'z yordamida ifodalash usuli sifatida modus tushunchasini o'rganishga alohida ahamiyat berilgan. Tilshunoslarning keyingi tadqiqotlarida bu tushuncha turdosh ma'nolarga ega bo'lib, o'z mohiyatini kengaytirdi.

Mantiqda modallik xususiyatlarini tavsiflovchi asosiy nazariya Kant nazariyasi hisoblanadi. U modallik qat'iy, apodiktik va muammoli hukmlardan iborat deb hisoblagan. Ko'plab tilshunoslar, tilshunoslar va filologlar "modallik" va "modus" tushunchalari bilan qiziq boshlaganlaridan so'ng, bu nazariya grammatikada fundamental bo'lib qoldi.

Zamonaviy jamiyatda V.V.Vinogradovning tadqiqotlari modallik kategoriyasini modal ma'noning ikki turiga bo'lish imkonini berdi: modallikning obyektiv ma'nosi va modallikning subyektiv ma'nosi.

Obyektiv modallik-bu gapning majburiy xususiyati bo'lib, u so'z mazmunining so'zlovchiga bog'liq bo'limgan haqiqatga bo'lgan munosabatining ifodasi sifatida tushuniladi. Obyektiv modallik qiyomatiga haqiqat qiymati kiradi (haqiqiy/haqiqiy emas).

MODUS KATEGORIYASINING MODALLILIKNI O'RGANISHDAGI AHAMIYATI**ВАЖНОСТЬ КАТЕГОРИИ МОДУСА В ИЗУЧЕНИИ МОДАЛЬНОСТИ****THE IMPORTANCE OF THE MODUS CATEGORY IN THE STUDY OF MODALITY****Yunusaliyev Boburxon To'lqinjon o'g'li¹****¹Yunusaliyev Boburxon To'lqinjon o'g'li**

– Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada modusning turli kategoriyalari va ularning modallik tushunchasini o'rganish uchun anglatadigan ma'nolari muhokama qilinadi. Qayd etilishicha, «modus» kategoriyasi «modallik» kategoriyasidan anche kengroqdir. Bu modusning uch toifaga bo'linganligi bilan bog'liq: aktualizatsiya, kvalifikatsiya va sotsial. Modallik esa, o'z navbatida, modusning aktualizatsiya toifasiga kiradi.

Аннотация

В этой статье обсуждаются различные категории модусов и их значения для изучения концепции модальности. Отмечается, что категория «модус» значительно шире категории «модальность». Это связано с тем, что модус делится на три категории: актуализация, квалификация и социальная. А модальность, в свою очередь, подпадает под категорию актуализации модуса.

Abstract

This article discusses the different categories of Modus and their meanings to study the concept of modality. It is noted that the category "modus" is much wider than the category "modality". This is due to the fact that modus is divided into three categories: actualization, qualification and social. The modality, on the other hand, belongs to the actualization category of the modus.

Kalit so'zlar: modus, modallik kategoriyasi, obyektiv/subyektiv modallik, mualif modalligi, modal qiymatlar.

Ключевые слова: модус, категория модальности, объективная/субъективная модальность, авторская модальность, модальные значения.

Key words: modus, modality category, objective/subjective modality, author's modality, modal values.

KIRISH

Tilshunos Charlz Balli nutq nazariyasini ishlab chiqishda gapni ikkita alohida elementga bo'lish mumkinligini ta'kidladi. Birinchi element - asosiy mazmun (diktum) va ikkinchi element - taqdim etilgan faktlarning individual bahosi (modus). Lotin tilidan chiqqan atamalar, diktum va modus, oxir-oqibat tilshunoslikda hukmnинг obyektiv va subyektiv qismini bildirish uchun ishlatila boshlandi. Til tizimida o'rganilayotgan obyektni izchil aniqlash umumiyl tushunish uchun juda muhimdir [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu izlanishlarning asosiy vazifasi "modus" va "modallik" kabi tushunchalarni tavsiflash, modus kategoriyalarini batafsilroq tavsiflash va ularning modallikni tavsiflash jarayonida ahamiyatini aniqlashdir. Agar "modus" tushunchasi haqida gapiradigan bo'lsak, u birinchi navbatda hukmnинг tarkibiy aspektini amalga oshirish uchun javobgar bo'lgan vositadir. "Modallik" - semantik-sintaktik sohaning ishlashi uchun mas'ul bo'lgan semantik kategoriya. Bu kategoriyalarning ikkalasi ham murakkab va ularning tabiatini ko'p qirrali, shuning uchun grammatic nazariyada ko'plab talqinlar mavjud. V. Z. Panfilov o'z tadqiqotida shunday ta'kidlagan edi: "Ehtimol, modallik kategoriyasi haqida juda ko'p turli va qarama-qarshi qarashlar bildirilgan alohida ma'nolarning lingvistik tabiatini va tarkibi haqida boshqa kategoriya yo'qdir". Modallik ifodanining mantiqiy shakli bo'lgani uchun modallik mantiqda o'z aksini topadi. Hukm qilishning universal formulasi mavjud va ular quyidagicha ifodalanadi: predikat va hukmnинг subyekti. Bu yerda subyekt - asosiy hukmnинг predmeti, predikat esa hukm predmeti haqidagi fikrlardir. Ya'ni, birinchi va ikkinchi o'rtaida to'plam hosil bo'ladi. Mantiqiy modallikkarga mulohaza, baholash va maqsadga muvofiqlik qiymatlari kiradi. Demak, modallikning grammatic o'zagi mantiqiy modalliklar ma'nolari hamda lisoniy maylning shakli bilan bog'lanishi hisoblanadi. Lingvistik modallik kontsepsiyasining **periferiyasi** matn mazmuni va hajmini aniqlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi [2]. Modallik mantiqi an'anaviy tarzda, modal operatorlarni o'z ichiga olgan fikrlash strukturasini o'rganuvchi mantiqiy tizim sifatida ta'riflanadi.

yashirib yurar ekan”, deb menga tegishmaydimi?” – deya so’radi. So’ng “pirqa kaput” bo’lgani esiga tushadi, paranjisining yirtilgan joyini tikib berish uchun keliniga uzatadi.

Habibullo pastlab uchib o’tayotgan turnalar ovozini eshitadi. Ularning barvaqt kelganini, ob-havoda bir o’zgarish bo’lib, mo’ljalidan adashganini anglab etadi. “Ana shunda Habibullo jamiyatda, ya’ni jamiyatning ob-havosidayam shunday o’zgarishlar sodir bo’lishi, shunda odamlarning ham to’g’ri yo’ldan adashib qolishlarini o’ylab, fikri ravshan tortib ketdi. – Ha , Oktyabr inqilobi... O’-o’ butun-butun xalqlarni chalg’itib yuborgan edi. Qancha azob tortdi odamlar...” [1,681]. Shu tariqa asarda “tabiat tasviri asar g’oyasini ifodalashga xizmat qildiriladi. [2, 76]

XULOSA

Sh.Xolmirzaevning “Qushlar qishlovdan qaytdi” hikoyasi sarlavhasidayoq mustaqillikka kelib, el ozod bo’lganiga ishora bor. Asarda sho’ro mafkurasiga sidqidildan xizmat qilgan, uning maqtov yorliq va orden-medallarga aldanib, umrini zoe etgan shaxslar qiyofasi ishonarli tasvirini topgan. Bundan tashqari, birgina Hosiyat opa obrazi orqali mustaqillik ostonasiga ilk qadamlarini qo’yayotgan kishilarning qalbida, dunyoqarashida ro’y berayotgan o’zgarishlarni, ba’zan iqtisodiy sharoitlarning shaxslararo va jamiyat bilan munosabatlarga ko’rsatayotgan ta’sirini, bir so’z bilan aytganda, yangilanayotgan tabiatli zamondosh, yurtdosh siymosi va sajiyasini, haqqoniy ko’rsatishga harakat qilgan.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Xolmirzayev Sh. Tanlangan asarlar – Toshkent. “Sharq” nashriyoti - matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi, 2020.
2. Sabirdinov A. Ma’naviyat va ma’rifat chashmalari –Toshkent “Akademnashr”, 2016

ILMIY AXBOROT

ayolni, yillar o'tib, hech kim yo'qlamay qo'ygan. Sakkizinch mart bayrami arafasida unga ittifoqo hokimiyatga Hokim bobo – Hurram Xursandov taklif etayotganini o'g'li Xabibullo etkazadi.

Kampir bir vaqtlar ayollarning paranji tashlash kampaniyasida faol ishtirok etgan. Halq dushmani sifatida Kimlarnnidir qamalishida ularning partiyadan o'chirish bilan, o'z "hissa"sin qo'shgan. "Oltin qidiruv" kompaniyasi davrida Idrisboyning yashirgan oltin tangalarini uning tomining orqa devoriga yopishtirgan tappilari ichidan topib bergen. Ular davlat hisobiga musodara qilingan, ya'ni markazga Rossiyaga olib ketilgan. Lekin kampir o'zining bu qilmishlarini hamon yillar o'tsa ham to'g'ri, deb biladi. Hikoya bosh qahramoni Hosiyat opa sho'ro davlati ideallariga ishonuvchi, haloligi, "ko'zi to'qligi" bilan ajralib turuvchi partiya fahriysi. Lekin shunga qaramasdan sho'ro davlatinining olib borgan siyosati jabrdiydasi. Uning turmush o'rtog'i ehtiyoitsizlik oqibatida nosini Nikita Sergeevich Xrushchov rasmi bor gazetaga o'ragani uchun qamab yuborilgan. Hosiyat opaning sho'ro davlatiga ana shunday sidqidildan xizmat qilgani uchun uning qarindoshlari o'rtanchi amakisining uyini biqinidagi o'ruga ko'mib yuborishmoqchi bo'lishadi. Shunda u revkom uyiga yarim kechasi devorma-devor yurib borib yordam so'ragan va uning yordamida omon qolgan edi. Sho'ro hukumati revkomni ham "bosmachiga yon bergen" degan ayb bilan otib tashlagan.

Hosiyat opa hokimiyatga majlisga borar ekan, lozim-ko'ylak kiygan ayollarni ko'rib hayratga tushadi. Bir vaqtlar xizmatchi ayollar uyda ham lozim kiyishga ruxsat berishmaganini yodga oladi. So'ng, Habibullo onasining mo'l-ko'l yosh to'kayotganini ko'radi. Bu hol hikoyada bosh qahramon kechinmalaridagi tug'yonni, fikrlardagi qarama-qarshi holatlar ifodasiga xizmat qilib, quyidagicha tasvirini topadi:

- He, bolam-e, ko'p azob chekkan ekanmiz-da, – dedi opa piqqilab. – Ishton bilan nima ishing bor-de... Erimmisan? Pirqa, pariya kamunis... – Hosiyat opa yana jimib-o'ylanib qolib, shosha-pisha kostyuming qo'yniga qo'l yubordi. Qip-qizil muqovasiga "KPSS" deb yozilgan biletini chiqardi.

- Haliyam asrab yuribsizmi? – dedi Xabibullo tag'in g'ijinib. – Nima, kepesingiz tiklanadimi yana?

- Gapirma! – vajohati tutib dedi Xosiyat opa – Bu bilet... bu meniki. – Kampir parinshonhol bo'lib, qizil muqovali daftarchani ko'ksiga bosdi. – O'zimddiki. Hech kim tortib, ololmaydi. Mayli, imonsizlar kuydirsa, kuydirsin... – Endi o'g'liga qarab xuddiki va'z ayta boshladi. – Enang – ikkiuzlamachi emas! Bilib qo'y! Kamunis bo'lib o'ladi enang...[1,665]

So'ng, Hosiyat opa firqa a'zosi Jonboevning eskilik sartqiti, deb uning arg'imchog'imni kesib tashlaganini esladi. "Beshik nima, beshik? Shu beshikka bola yotqizishniyam man qilishib edi nokaslar...[1,665] deya xo'rsindi.

Mustaqillik e'lon qilingandan keyin Xosiyat opa avvalgi qilgan xizmatlari uchun qamab qo'yishlaridan qo'rqli. Unga zalda Xurram Xursanovich minbarga taklif etib so'z berganida, u sho'ro davridagi balandparvoz gaplarni tilga oladi. "Xotin-qizlarga ozodlik bergen pariyaga ming rahmat! Yashasin Lenin-Stalin... him , kommunistik partiya!" – deydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

So'ng esa, borlig'ida hamisha mavjud bo'lgan "boshqa odam" ovozi bilan "Bundan menga ma'lum bo'ldiki, o'rtoqlar bu shiorlar...Xo'sh, bu hitoblarning davri o'tib ketibdi. Bizga o'xshagan miyasi suyulib qolgan qari-qartanglarning tilida qolibdi-ki, mana, chiqib ketdi..." ...[1,670-671] dedi. Uning ushbu so'zlaridan keyin suv qo'ygandek jumjilik hukm surgan zal chappaklarga to'lib ketadi. Hosiyat opa so'zlarini ushbu iqror bilan yakunladi: "Ha, shior, lozunglar, – deb yana odamlarga yuzlandi Hosiyat opa . – Shu o'rtoqlar, shu shiorlarning-ku o'zi puch edi, mag'zi yo'q edi. Lekin biz juda-a xursand bo'lardik eshitganda. Shunday turgan joyindan yana bir-ikki marta aytganingdi bilmay qolarding..." ...[1,672]

Hosiyat opaning ichida ikki odam – biri sho'ro davri illatlarini uning siyosatini qoralovchi, ikkinchisi esa uning g'oyalarini ma'qullovchi borligi hikoya voqealari davomida izchil aks ettirila boradi. Qorolovchi: "Lekin paranji kuydirish davrida ko'p yomon ishlar bo'ldi-da... He, shunday paranjilar kuyib ketdiki, qarab – tomosha qilib to'ymasdi kishi. Lang-lang yonadi... Biz ahmoq qizchalar quvonamiz. Kun chiqayotganday... Yo'q tillo topgan tentakday... Nodonlik. "Muzeyda tursin", deydigan kishi yo'q. ...[1,678] desa, oqlovchi: " U, u... qorong'ilik dunyosi edi! Paranji ming-ming yillar mobaynida o'zbek xotin-qizlarini zulmatda saqladi" ...[1,678] deydi.

Hosiyat opa sandig'iga sho'ro hukumatidan yiqqan medallari taqilgan kostyumi bilan birga onasining paranjisini ham solib saqlab qo'ygan. U o'g'lidan "Komunist xotinning paranjisi bor ekan,

BIR HIKOYA TALQINIDA BOSH QAHRAMON QIYOFASI

ИМИДЖ ГЛАВНОГО ГЕРОЯ В ИНТЕРПРЕТАЦИИ РАССКАЗА

MAIN HERO IMAGE IN THE INTERPRETATION OF THE STORY

Madazimov Xabibullo Muzaffaxon o'g'li¹

1Madazimov Xabibullo Muzaffaxon o'g'li

– Farg'ona davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy o'zbek hikoyachiligi taraqqiyotida Shukur Xolmirzaev asarlarining o'rni va ahamiyati yoritilgan. Uning "Qushlar qishlovdan qaytishdi" hikoyasidagi bosh qahramon tasviri orgali sho'ro mafkurasi allovining qurbanbi bo'lgan, o'z davri chaqiriplariga sidqididan xizmat qilgan shaxs fojasi ishonarli yoritib berilgan. Xarakterlar talqinidagi yozuvchi mahorat qirralari ko'rsatib berilgan.

Аннотация

В статье раскрывается роль и значение произведений Шукура Холмирзаева в развитии современного узбекского повествования. Через его изображение главного героя в рассказе «Птицы вернулись из деревни» убедительно объясняется трагедия человека, ставшего жертвой обмана шуринской идеологии и служившего зову своего времени. Показаны особенности писательского мастерства в трактовке персонажей.

Abstract

The article describes the role and importance of Shukur Kholmirzaev's works in the development of modern Uzbek storytelling. Through his portrayal of the main character in the story "Birds Returned from the Village", the tragedy of a person who was a victim of the deception of the Shura ideology and served the calls of his time was convincingly explained. The features of the writer's skill in the interpretation of characters are shown.

Kalit so'zlar: o'zbek hikoyalari, mahorat, davr muammolari, bosh qahramon, shaxs, harakter, talqin, yozuvchi, ijtimoiy-siyosiy hayot.

Ключевые слова: узбекские рассказы, мастерство, проблемы времени, главный герой, личность, персонаж, интерпретация, писатель, общественно-политическая жизнь.

Key words: Uzbek stories, skills, problems of the time, protagonist, person, character, interpretation, writer, socio-political life.

KIRISH

Muayyan mamlakatda yuzaga kelgan ijtimoiy-tarixiy sharoit nafaqat o'sha mamlakatning iqtisodiy, siyosiy sohalarida yaqqol ko'zga tashlanadi, balki xalqning hayot tarzida ham o'z aksini topadi. Bunday o'zgarishlar va bu davrga xos xususiyatlar adabiy asarlarda muayyan muammolar talqini fonida ifodasini ko'rsatadi. Ushbu muammolarni adabiy asarlarda qanday tasvirlanishi, badiiy ifodalanishi ijodkorning dunyoqarashi, yondashuv tarzi, mahoratiga bevosita bog'liq bo'ladi. Zamonaviy o'zbek hikoyachiligi taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan, davrning dolzarb muammolari aks etgan asarlari bilan muhim o'r'in tutgan serqirra yozuvchi Shukur Xolmirzaevdir. Uning "Qushlar qishlovdan qaytdi" (1997) hikoyasida ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'zgarishlar tez ro'y berishi, kishilar ongidagi o'zgarishlar birmuncha qiyin kechib, ikkilanishlar bilan yuz ko'rsatishi tasvirini topgandir. Hikoyada yozuvchi "Enam Oysha Omonova xotirasiga bag'ishlayman" degan so'zlarni epigraf qilib keltirgan.

Hikoyaning prolog qismi shunday tasvir bilan boshlanadi: "Jasad yotqizilgan tobutning bu boshiga duxoba, u boshiga banoras paranji yoptilar.

- Zulfiya opa tirilib qolsa, nima der edi?
- Darvoqe..."[1, 659].

Ushbu prolog o'ziga xos syujetning tuguni vazifasini bajaradi. O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor ko'plab hikoyalardagi voqealar shunday tugun bilan boshlangan. Ushbu o'rinda ulug' adibning ijodiy ta'siri ham bir qadar ko'zga tashlanadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Hikoyaning bosh qahramoni Xosiyat Qosimova – bir vaqtlar sho'ro davlatining barcha topshiriqlarini bajaruvchi kommunist sifatda xizmat qilib, raykom vazifasida faoliyat ko'rsatgan ayol. So'ng esa nafaqaga chiqib, "xonanishin"ga aylanib veteranlar safiga qo'shilgan. Keksaygan bu

ILMIY AXBOROT

11. Rustamboyev M.H. Jinoyathuquqi.Umumiylqism. Darslik.–Toshkent:Ilm-Ziyo,2005. vaboshqalar.
12. Tagansev N.S. Russkoye ugolovnoye pravo. Leksii. Chast obshaya. Tom 2. – Moskva, 1994. – S.5
13. Karpets I.I. Nakazaniye: sotsialniye, pravoviye i kriminologicheskiye problemi. – Moskva, 1973. – S.10
14. Norbutayev E.X. Problemi effektivnosti pravovix mer borbi s prestupnostyu: (teoriya i praktika).
15. Avtoref. diss.... dok.yurid. nauk. – Tashkent, 1991.– S.18
16. Abdurasulova Q. Ayollarjinoyatchiliginingjinoyathuquqiyvakriminologikmuammolari. – Toshkent: TDYUI, 2005. – 152b.
17. Muqimova M.Z. Sud-huquq islohotlari va jinoyat qonunini liberallashtirish masalalari. 18. Monografiya.– Samarcand: SamDU,2009. – B. 39.
19. Usmonaliyev M. Jinoyat huquqi. – T.: «Yangi asr avlodи», 2010. – B. 18. (-664 b.)

Oldini olish – bu huquqbazarlikning profilaktik chorasi bo'lib, faoliyatining eng dastlabki bosqichi sanaladi. Huquqbazarlikning oldini olish tizimining keyingi bosqichi esa – real holatdagi aniqlangan noqonuniy xatti-harakatlarni bartaraf qilishdan iborat, bunda huquqbazarlikning shakllangan sabablari va shartlari natijasi sifatida – jinoiy xatti-harakatlar sodir etiladi.

Shunday qilib, jinoyat – bu odamlarning befarqligi sababidan o'zlarining mavjud holatlarini o'ta og'ir sharoitlarga duchor qilish munosabatidan boshqa narsa emas. Shu sababli, yuqorida aytib o'tilgan qadimgi faylasuflarning fikrida – bevosita muhim yechim ko'rsatib ketilgan edi, ya'ni «jinoyatlarni jazolashdan ko'ra ularni oldini olish yaxshiroqdir» deb. Jinoyatlar aslida odamlarning turmush sharoiti, avvalambor, ularning iqtisodiy holati, jamiyatning ikki qatlamga – boy va kambag'allarga bo'linishi natijasida yuzaga keladi. Va shuning uchun, har qanday jazo, qanchalik og'ir bo'lmasin, deviant xulq-atvorni jilovlay olmaydi.

Ayni paytda huquqbazarliklarning oldini olish bo'yicha ko'plab jamoat tashkilotlari tashkil etila boshlangan, profilaktika va tarbiyaviy targ'ibot ishlari faol yuritilmogda. Chunki bugungi globallashuv sharoitida ayrim odamlar jamiyatga zarar yetkazadigan har qanday noto'g'ri xatti-harakatlarga ega bo'lib, ba'zi o'rnlarda o'zları bilmagan holda ham huquqbazarlikka yo'l qo'yishadi, bu insonlarning huquqiy bilimsizligi sabab sodir etiladi.

Xalqimizda bir maqol bor: «Kasallikni davolagandan ko'ra, ancha oldin chorasi ko'rilib, oldini olgan afzal», degan. Profilaktika asosida huquqbazarliklar sodir etilishi mumkin bo'lgan hudud va shaxslar oldindan aniqlanib, u yerda tashviqot ishlari olib borilsa, kelgusida bu jarayon samara berishi mumkin. Shu bilan birga, ogohlantirish – bu o'ylangan va tayyorlangan noqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish uchun bir qadam sanaladi. Hozirgi kunda eng keng tarqalgan yechimli holat – bu profilaktika, jinoyatchilikning oldini olishning ajralmas qismi hisoblanadi.

Huquqbazarliklarning oldini olish, jinoyatchilik holatini bartaraf etish, odamlarni, jamiyatni, davlatni himoya qilish bo'yicha barcha chora-tadbirlar ko'rishi, boshqacha qilib aytganda, «huquqbazarliklarning oldini olish» sub'yeqtarning huquqbazarliklar sodir etilishining sabablari va shart-sharoitlarini shakllantirishdan, ularning yakuniy «pisib yetishidan» va noqonuniy niyat amalga oshirilishidan boshlab, huquqbazarliklar sodir etilishining oldini olish bo'yicha barcha faoliyatlarini aks ettiradi.

Shu munosabat bilan «... huquqbazarliklarning» oldini olish, «to'xtatish», «bartaraf etish» tushunchalari «huquqbazarliklarga qarshi kurash» tushunchasini ham anglatadi.

Huquqbazarliklarga qarshi kurash bu noqonuniy xatti-harakatlarni aniqlash, oldini olish, bartaraf etish, fosh etish va adolatli tergov qilish vazifalaridan iborat. Huquqbazarliklarning oldini olish – yaqinlashishi mumkin bo'lgan yoki allaqachon sodir etilgan huquqbazarlik bilan bog'liq holatni bildirib, xuddi huquqbazarliklarga qarshi kurashning maxsus tadbirlar majmuuni ishlab chiqish va amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

XULOSA (ЗАКЛУЧЕНИЕ/CONCLUSION)

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, globallashuv sharoitida mamlakatimiz yosHLarinining ma'haviy qiyofasi takomillashuvining ijtimoiy-ma'haviy masalalari shu darajada dolzarbki, bugungi kunda yosHLar bilan bog'liq bo'lgan masalalar nafaqat mifik, lisey, oliy o'quv yurtlari, balki oila, mahalla, yosHLar bilan ishlaydigan jamoat tashkilotlari o'rtasida o'rnatilgan mustahkam aloqalar asosida izchillik bilan amalga oshirilib, ularning dunyoqarashlarida vatanparvarlik tuyg'usini to'liq shakllantirganimizdagina ularni buyuk xalqimizning munosib farzandlari bo'lib kamol topishiga zamin yaratgan bo'lamicha.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so'zladi. <https://uz.aуз/uz/posts>.
- 2.Ikramov R., Saparov B., Saparov A. "Avesto"da huquqiy qarashlar. Academic research in Educational sciences. Volume 2 |ISSUE 5| 2021. – B. 808. (- B. 806-814.) www.ares.uz
- 3.H.Homidly. Avestodan Shohnomaga. – T.: Sharq, 2007. – B. 106.
- 4.Ikramov R., Saparov B., Saparov A. "Avesto"da huquqiy qarashlar. Academic research in Educational sciences. Volume 2 |ISSUE 5| 2021. – B. 812. www.ares.uz
- 5.https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/Jinoyat_vajinoyatchiliktushunchasi
- 6.<https://lex.uz/docs/Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси>
- 7.Karpets I.I. Nakazaniye: sotsialniye, pravoviye i kriminologicheskiye problemy. – M.:Yurid.lit.,1973.– S.138-148.; Belyayev A. Seli nakazaniya i sredstva ix dostjeniya. –Leningrad, 1963.–S.27.; 8.ShargorodskiyM.D.Nakazaniye, yego seli i effektivnost.- Leningrad,1973.
9. Andenes I. Nakazaniye i preduprejdeniyeprestupleniy.- M.,1979.; Polubinskaya S.V. Seli ugolovnogo nakazaniya.- M.1990.
- 10.UzmanaliyevM. Jinoyathuquqi.Umumiyyqism.Darslik. –Toshkent.:Yangi asravlod, 2005

ILMIY AXBOROT

«Jazo insonga azob berish, qiyinash, o'ch va qasos olish maqsadlarida emas, aybdorning shaxsi va u tomonidan sodir etilgan jinoiy qilmishning xavflilik darajalariga qarab, uni jazolashdir». O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 42-moddasining mazmuniga ko'ra, jazoning maqsadlari yanada aniqlashtirilib, jazo mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatini davom ettirishga to'sqinlik qilish, mahkumning yangi jinoyat sodir etishining oldini olish hamda boshqa shaxslarning jinoyat sodir etishini oldini olish maqsadlarida qo'llaniladi. Shunga ko'ra, jinoyat uchun jazo tayinlashdan maqsad, avvalo, uning maqsadlariga erishishda namoyon bo'ladi.

Yuqoridagilarga ko'ra, jazoning qonunda belgilangan tushunchasidan quyidagi belgilarni ajratish mumkin:

Birinchidan: Jinoiy jazo davlatning majburlov chorasi sifatida faqat jinoyat qonunida belgilanadi. Ya'ni jinoyat qonunida ko'rsatilmagan jazolarni sud qo'llashga xaqli emas, chunki Jinoyat kodeksidagi jazolar ro'yxati qat'iy bo'lib, undan chetga chiqishga yoki unda nazarda tutilmagan jazoni qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.

Ikkinchidan: Jinoiy jazo faqat sud tomonidan davlat nomidan tayinlanadi. Sud tomonidan tayinlangan jazodan mahkumni hech bir mansabdar shaxs yoki organ ozod qila olmaydi. Faqat sud qonuniy asoslari bo'lgani holda, shaxsni jazodan ozod qilishi mumkin.

Uchinchidan: Jinoiy jazo faqat jinoyat sodir qilishda aybdor bo'lgan shaxslargagina qo'llaniladi.

To'rtinchidan: Jinoiy jazo faqat jinoyat sodir qilgan shaxsning o'zigagina qo'llaniladi, uning a'zolariga yoki oila a'zolaridan biriga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas.

Beshinchidan: Jinoiy jazoni qo'llash – aybdorning harakatini davlat tomonidan qoralashdan iborat bo'lib hisoblanadi. Jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan jazo qo'llash, uning jinoiy qilmishiga axloqiy va huquqiy jihatdan baho berishdir.

Oltinchidan: Jinoiy jazo mahkumga nisbatan uning sodir qilgan jinoyatining ijtimoiy xavflilik va ayb darajasiga qarab ma'lum darajada musibat keltiradi (sudning hukmida ko'rsatilgan muddatlarga cheklanadi, ma'naviy jafo keltiradi, moddiy zarar ko'radi.)[11].

Yuqorida qayd etilganlardan, shunday xulosa chiqarish mumkinki, demak, jinoiy jazo davlatning majburlov chorasi bo'lib, u faqat jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxslarga nisbatan, davlatning organi sud tomonidan qo'llaniladi va mahkum uchun ma'lum bir huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Jazo tizimi deganda, jinoyat qonuni bilan o'rnatilgan va sudlar uchun majburiy hisoblangan va ma'lum tartib asosida ularning yengilidan og'iriga qarab joylashtirilgan jazolar ro'yxati tushuniladi. Jazo tizimi tushunchasi o'zida bir qator belgilarni nazarda tutadi. Jumladan, jazo tizimida nazarda tutilmagan birorta majburlov chorasi jinoiy jazo sifatida tayinlanishi mumkin emas, jazolarning turlari, qo'llanish tartibi va asoslari faqat jinoyat qonunidagina belgilangan bo'lib, jazo tizimidagi jazolarning ro'yxati sudlar uchun majburiy hisoblanadi.

Jazo tizimi jinoyatchilikka qarshi kurash borasida huquqshunoslik, psixologiya, pedagogika fanlarining ilmiy yutuqlariga asoslangan holda, jinoyat sodir etgan shaxslarning axloqan tuzalishiga samarali ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, mahkumlar va boshqa shaxslar tomonidan yangi jinoyat sodir etilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Jinoyat huquqi jinoyatchilikning oldini olishni asosan ikki yo'naliishda amalda oshiradi. Birinci yo'naliish — jinoyat qonunida alohida jinoiy qilmish uchun jinoiy javobgarlikka tortilib jazolanishni belgilishning o'zi, og'ir èki o'ta og'ir jinoyatlar uchun qonun-da og'ir jazo choralarining belgilanganligi jinoyatchilikning oldini olish vazifasini bajarish bilan birga tarbiyalash (jazolash bilan qo'rqtib) funksiyasini ham bajaradi.

Ikkinci yo'naliish — jinoyat sodir etishda ayblanib, javobgarlikka tortilgan shaxsga nisbatan jazo qo'llash orqali amalga oshiriladi. Ya'ni jinoyat sodir qilgan shaxslarga nisbatan qonunda belgilangan jazoni tayinlab ularning jinoiy faoliyatini davom ettirishga to'sqinlik qilinadi.

Aslida huquqbazarliklarning «oldini olish» va «bartaraf qilish» tushunchalari bir-birlari bilan yaxlit holda bog'liq bo'lgani bilan har ikkisining faktik yechimi o'zgachadir. Agar jinoyatchilik oldi olinmasa yoki loqaydlik sabab profilaktika choralari ko'rilmasa oxir oqibat u katta muammolarga olib kelishi muqarrar va aksincha, agarda noqonuniy xatti-harakatlarning samarali profilaktikasi amalga oshirilsa, huquqbazarlikning vaqtida tezkor ravishda oldi olinsa – xavfsiz hudud konsepsiysi hayotda o'z tatbig'ini topadi.

Shu o'rinda jinoyat va jazo tushunchalariga to'xtalib o'tsak. "Jinoyat" tushunchasiga jinoyat-huquqiy ta'rif birinchi bor 1791-yilda qabul qilingan Fransiya Jinoyat kodeksida berilgan bo'lib, ushbu ta'rif formal tusga ega edi. Unda jinoyatga: "Jinoyat bu – amaldagi jinoyat qonuni bilan jazolanadigan qilmishdir", – deya ta'rif berilgan edi [9].

Jinoyat bu – ijtimoiy va huquqiy hodisa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 2-moddasida ko'rsatilgan vazifalarni amalgalashirish maqsadida jinoyat tushunchasi belgilab qo'ygan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida jinoyat tushunchasi aniq belgilangan bo'lib, 14-moddaning 1-qismiga ko'ra, Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi. Jinoyat – shaxsning jinoyat qonuni bilan taqiqlangan ma'lum bir shakldagi xatti-harakati hisoblanadi.

Jinoyat tushunchasi harakat yoki harakatsizlik shaklidagi shaxsning xulq-atvori (xatti-harakati, faoliyati)ni ifodalaydi. Shu bilan birga, jinoyat qonunida ruhiy jarayonlar, o'ylar, fikriy xulosalar qanchalik zarar keltiruvchi bo'lishiga qaramay, jinoyat hisoblanmasligi belgilab qo'yilgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)

Ma'lumki, jinoyatchilikka qarshi kurashda va uning oldini olishda qo'llaniladigan asosiy vositalardan biri, bu jinoiy jazo hisoblanadi. Yuridik adabiyotlarda jazo tushunchasi, uning maqsadlari yuzasidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Jazoning mohiyati va yuridik tabiatini ochib berish, jinoyat huquqida markaziy masalalardan biri bo'lib, usiz jazoning mazmun va maqsadi, tarbiyaviy va ogohlantiruvchi ahamiyati to'g'risida tasavvur hosil qilish mumkin emas. Jinoyat va jazo hayotdagi turli hodisalar bo'lib, o'z navbatida, ularning bir-biri bilan bog'liqligini inkor etib bo'lmaydi. Jinoyat – alohida shaxs tomonidan (guruh) qonun normalarini buzib, muayyan harakat yoki harakatsizlikni sodir etish bilan bog'liq bo'lsa, jazo – davlatning majburlov chorasi bo'lib, uning jinoyat sodir qilgan shaxsning jinoiy xulqiga nisbatan munosabatidir. Ya'ni jinoyat va jazo bir-biri bilan bog'liq va ajralmas bo'lib, bir-birisiz mavjud bo'lolmaydi, ular harakat va qarshi harakat, xavf va ushbu xavfni bartaraf etuvchi, zarar (yovuzlik) va unga qarshi kurashuvchi sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun bu borada N.S. Tagansev «jinoiy qilmish haqidagi tushunchadan, jazo ushbu qilmishni sodir etgan shaxs bilan davlat o'tasidagi alohida munosabat ekanligi kelib chiqadi», deb ta'kidlagan edi.

Demak, jazo davlat bilan jinoyat sodir etgan shaxs o'tasidagi huquqiy munosabatlar ifodasi hisoblanadi. Ushbu holat O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2-moddasida o'z aksini topgan bo'lib, unga ko'ra «Jinoyat kodeksining vazifalari shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash, shuningdek, jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni Respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Ushbu vazifalarni amalgalashirish uchun kodeks javobgarlikning asoslari va prinsiplarini, qanday ijtimoiy xavfli qilmishlar jinoyat ekanligini aniqlaydi, ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralarini belgilaydi.

Jazoning mazmuni, uning tushunchasi va belgilari bilan, o'z navbatida, u qaysi ijtimoiy-iqtisodiy formasida doirasida mavjud ekanligiga, qanday ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy qarashlar hukmron ekanligiga bog'liqdir. Chunki «jazoning turlari va tizimi u yoki bu jamiyatda jinoyatchilikka qarshi kurashda hukmron bo'lgan qarashlarni ifoda etadi. Ya'ni jazo tizimi jinoyatchilikka qarshi kurashda hukmron bo'lgan qarashlar natijasida shakllanib va takomillashib, jamiyatning rivojlanish bosqichi va natijalarini anglatadi».

Jazo to'g'risida ko'rsatib o'tilgan har bir ta'riflar, o'z navbatida, uning jinoiy jazo sifatida muayyan qirralarini ifoda etadi. Bu borada, jazoning mohiyati E.X.Norbo'tayev tomonidan to'g'ri ochib berilgan bo'lib, uning fikriga ko'ra, «jazolash–bu jazoning mohiyat mazmunidir. Jazo – bu shaxsning jinoyat sodir qilganligi uchun sud tomonidan, davlat nomidan qo'llaniladigan, mahkumni qonunda ko'zda tutilgan huquq, erkinlik va manfaatlardan mahrum qilishdir»[10].

Jinoiy jazoning maqsadi, jinoyat qonunida muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu borada huquqshunos olimlarning yagona fikri mavjud emas. Ammo, ta'kidlash kerakki, amaldagi Jinoyat qonunida birinchi marta jazodan ko'zlangan maqsad tushunchasi ishlab chiqildi, unga ko'ra jinoiy jazo mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatini davom ettirishga to'sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek, boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

ILMIY AXBOROT

Aytaylik, qadimgi davrda o'ch olish, keltirilgan zararni (kompozisiyaviy javobgarlik) qoplash, ba'zan jismonan yo'qotish bo'lsa, o'rta asrlarda keltirilgan zararni qoplash, jamiyatning boshqa a'zolarini jazo tahdidi bilan qo'rqtish va ogohlantirish, jamiyatdan ajratish bo'lgan. Yangi tarix davri jinoyat huquqiga va jazo tayinlash amaliyotiga g'arbiy Yevropaning eng mashhur huquqshunos olimlari Ch.Bekkaria, Monteskye, Russoning qarashlarini olib kirdi. Endi jazoning sodir etilgan jinoiy harakatga (proporsional) tengligi, jinoyatsiz jazoning bo'lmasligi, aybsizlik ehtimolligi (prezumsiyasi), jinoiy jazoni og'irlashtiruvchi jinoyat qonuni orqaga qaytish kuchiga ega emasligi va boshqa ilg'or qoidalar jinoyat qonunlariga kiritildi. Ana shular asosida jinoiy jazoning maqsadi belgilandi. Jazodan maqsad jinoyatchining shaxsini, qadr-qimmatini kamsitish, o'ch olish, jismonan yo'q qilish emas, keltirilgan zararni qoplash, jinoyat sodir etgan shaxsni axloqan tuzatish, kelgusida sodir etiliishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning oldini olish bo'lib qoldi [7:258-262].

Demak, jinoyatchilikka qarshi kurashish barcha davrlarda ham davlatning jiddiy va muhim masalasi hisoblanib kelingan. Inson tinch va xotirjam yashashni xohlaydi. Tinchlik bo'lgan joyda baraka va rivojlanish bo'ladi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS)

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida O'zbekistonning jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklarning oldini olish borasidagi maqsadlari aniq va ravshan bayon etildi. Jumladan, Harakatlar strategiyasida «aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan hamkorligini mustahkamlash borasida» aniq vazifalar belgilandi. O'tgan qisqa vaqt mobaynida mamlakatimizda jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklar profilaktikasi sohasida salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Mamlakatimiz o'quvchi-yoshlar o'rtasida turli xil illatlarni oldini olish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash maqsadida salmoqli ishlar qilinmoqda. Xususan, mustaqillik qo'lga kiritilganidan 3 oy o'tmasdan, ya'ni 1991-yil 20-noyabrda "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. 2016-yilga kelib "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Bundan tashqari, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi, "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi, qator xalqaro hujjatlar ratifikasiya qilindi.

Parlamentning yoshlar bilan ishslash borasidagi faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida, yaqinda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasining Yoshlar masalalari bo'yicha komissiyasi tuzildi va o'zining faoliyatini boshladi [8]. Yoshlarning, ayniqsa uyushmagan, ish bilan band bo'Imagan, tayin bir mashg'ulotga ega bo'Imagan yoshlarning kasb-hunarlarini puxta egallashi uchun munosib sharoitlar yaratishga, bandligini ta'minlashga, ishbilarmonlik ko'nikmalarini rivojlantirishga, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etishga ko'maklashish, yoshlar o'rtasida huquqbazarlik va jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlarni joriy etish bo'yicha takliflar kiritish ushbu komissiyaning asosiy vazifalaridan biri qilib belgilandi.

O'ylaymizki, ushbu komissiya ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan yoshlar, ayniqsa voyaga yetmaganlar tomonidan turli jinoyat, huquqbazarliklar sodir etilishining oldini olish, bir so'z bilan aytganda, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini ta'minlash borasida bizning oldimizga qo'yayotgan vazifalarni bajarishga o'zining hissasini qo'shami.

Huquqzarliklarning oldini olish, unga qarshi kurashish haqida gapirganda, ushbu soha vakillarining ijtimoiy himoyasiga alohida ahamiyat qaratilayotganligi ham e'tiborlidir. Xususan, 2016 yilda qabul qilingan "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonunda ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish sog'lig'ini saqlash, mehnatiga haq to'lash, uy-joy bilan ta'minlash, mol-mulkiga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash, xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida transport vositalaridan imtiyozli foydalanish, davlat pensiya ta'minoti, davlat sug'urtasi, ijtimoiy yordam ko'rsatish shakllari orqali ta'minlanishi belgilab qo'yildi. Ushbu qilinayotgan ishlar mamlakatimizda huquqbazarliklarning oldini olish bo'yicha olib borilayotgan tizimli islohotlar xalqimizning tinch va osoyishtaligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurishning zaruriy sharti — bu qonunlarning so'zsiz bajarilishidir. Qonunlarning bir xilda va so'zsiz bajarilishi bo'lajak huquqshunoslarimizning o'z vazifasiga munosabati va zimmasidagi mas'uliyatni his qilishiga bog'liqdir.

bog'-rog', rezavorga zarar yetkazmoq, suvni isrof qilmoq, betartib butazor yaratmoq, daraxt o'tqazmoq [3:118].

"Avesto"da barcha jinoyatlarga beriladigan jazolarning aniq me'yorlari belgilab qo'yilgan. Masalan, dengiz kuchugini o'ldirganga belgilangan jazo bilan cho'pon itini halok etganning jazosida ham, jarimasida ham jiddiy farq bor. Yoki hovuzdan yuvilmagan ko'zada suv olgan bilan bug'doyzorni payhon qilgan, daraxtning shohini sindirganga beriladigan jazolar ham o'zaro farq qiladi. Ko'rinish turibdiki, gunoh uchun beriladigan jazo tartiblari qat'iy nizomga, qonun tusiga kirgan bo'lgan. Muqaddas manbada qayd etilganidek, daraxtning bir shoxini sindirgan ham, noplak ko'zani hovuzga solgan ham 25 qamchi kaltaklanish bilan jazolangan. Turmushga chiqib surriyot qoldirish kerakligini unutgan balog'at yoshidagi qizlar qopga solinib 50 qamchi kaltaklangan. Balog'atga yetib, uylanmay yurgan yigitlar esa, temir kamar bog'lab yurishi shart bo'lgan [4:138-142].

"Avesto" sahifalarini ko'zdan kechirar ekansiz, unda hozirgi zamon huquqining asosiy tamoyillari va qoidalari o'z ifodasini topganiga ishonch hosil qilasiz. Chunonchi berilgan so'z, olingen majburiyat va qasamni qat'iy turib bajarish zardushtiylik e'tiqodlari bo'yicha nihoyatda qadrlangan.

Ma'lumki, jinoyat va jazo masalalari qadimgi dunyo davlatlarida ham yetakchi rol o'ynagan. Masalan, qadimgi Misrda davlat sirlarini oshkor qilish og'ir jinoyat bo'lib, bu jinoyatni sodir etgan aybdor shaxslarning tili kesib tashlangan. Shuningdek, qalbaki narsalarni yasash va tayyorlash ham jinoyat hisoblanib, aybdorlarning qo'li chopilgan. Hayratlanarli jihatni, qalbaki muhrlar, pullar yasaganlarning chap va o'ng qo'llari, soxta tosh-tarozilardan foydalangan kishining esa tana a'zolaridan biri kesilgan.

Ta'kidlash joizki, o'g'irlik jinoyati uchun og'ir jazo tayinlangan. O'g'irlik jinoyatini sodir etgan aybdor shaxsning qo'lini kesish belgilangan. Shuningdek, xotinning eriga xiyonati va bevafolik qilishi og'ir jinoyat, deb e'tirof etilgan va bu jinoyatni sodir etgan shaxsning burni kesilgan.

Qadimgi Mesopotamiya davlatida birovni odam o'ldirishda yolg'onдан ayblovchilarga va yolg'on ko'rsatma berish oqibatida biror bir kishi uchun o'limga mahkum etilish xavfini tug'dirgan shaxslarga o'lim jazosi tayinlangan. Agar shifokor ehtiyoitsizlik natijasida bemorni o'ldirib qo'ysa, uning qo'li kesilgan.

Qadimgi Hindistonda davlat va ijtimoiy tuzumga qarshi har qanday suiqasd qilgan kishi o'lim jazosiga hukm qilingan. O'z davlatini yoki qishlog'ini qattiq ovoz chiqarib so'kkani kishiga eng yuqori jarima jazosi tayinlangan. Shuningdek, Braxmanni o'ldirish eng og'ir jinoyat hisoblangan. Ammo braxman odam o'ldirish jinoyatini sodir etgan bo'lsa, unga o'lim jazosi hukm qilinmagan va u mamlakatdan quvib yuborilgan. Birinchi marta o'g'irlik qilgan kishining ikkita barmog'i, ikkinchi marta o'g'irlik qilgan kishining qo'li va oyog'i kesilgan. Uchinchi marta o'g'irlik qilgan kishi o'lim jazosiga hukm qilingan.

Qadimgi Xitoy davlatida esa, qasddan qilingan tuhmat uchun og'ir jazo qo'llanilgan. Soliq to'lashdan bo'yin tovlagan kishi og'ir jazoga hukm qilingan, ichkilikbozlik qilgan kishiga o'lim jazosi tayinlangan.

Qadimgi Yunoniston davlatida biror kishiga qasddan tan jarohati yetkazgan kishining mol-mulki musodara qilinib, u mamlakatdan haydar yuborilgan. Qasddan odam o'ldirish, davlatga xiyonat, xudosizlik kabi jinoyatlar uchun o'lim jazosi berilgan. Agar o'g'ri jinoyat sodir etgan joyida qo'liga olingan bo'lsa, u qamoq jazosiga hukm qilingan, kechasi o'g'irlik qilgan shaxsga o'lim jazosi tayinlangan.[5:112]

Xulosa o'rnida aytishmiz joizki, davlatchilik rivojlanishi jarayonida jinoyat turlari va ularga beriladigan jazolar ham shakllanib, o'zgarib borgan.

Huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini shakllantirishda qadimgi yunon faylasuflari Aflatun va Arastu o'z risolalarida «davlatning jazolash siyosatidan ko'ra, huquqbuzarliklarning oldini olish – ustuvor ahamiyatga egadir», deb e'tirof qilishgan.

Keyinchalik, S.Monteskyu o'zining «Qonuniyat ruhi» asarida huquqbuzarliklarning oldini olishda ustuvor jihatlar haqida fikr yuritib, shunday yozadi: «yxashi qonun chiqaruvchi jinoyat uchun jazo berish haqida emas, balki jinoyatchilikning oldini olish haqida o'ylashi kerak: axloqni jazolashga qadar yaxshilashga ko'proq harakat qilish muhim».[6]

Jinoiy jazo o'z tabiatiga ko'ra, jinoyat qonuni talablarini bajarmagan, uni buzgan shaxslarga nisbatan tarbiyaviy choradir. Jinoiy qilmishlarga tayinlanadigan jazolar, eng avvalo, jamiyat va davlatning tashkiliy tuzumini, tarixiy shakllanib kelgan jinoyat-huquqiy nazariyalar va ta'limotlar, udumlarga, jinoyatchilik dinamikasiga ham bog'liq holda turli davrlarda uning maqsadi turlicha bo'lib kelgan.

ILMIY AXBOROT

yoshlarga oid qabul qilingan barcha hujjatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilish va tarbiyalash masalalari «Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya»da, Parlamentimiz tomonidan qabul qilingan «Yoshlarga doir davlat siyosati asoslari to'g'risida», «Ta'lif to'g'risida», «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonunlar, «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi», Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, «Yoshlar yili davlat dasturlari»da o'z aksini topganligi fikrimizning dalilidir. Shuningdek, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida butun jahondagi 2 milliarddan ortiq yosh avlod vakillarining insoniyat taraqqiyotida muhim o'ringa ega bo'layotgani va yoshlar omilining alohida e'tiborni talab qilayotgani haqidagi fikri nihoyatda muhim ahamiyatga ega [1]. Zotan, dunyoning barcha davlatlari intilayotgan dolzarb va o'ta muhim muammolardan biri ham - bu jinoyatchilikning oldini olishdir. Huquqbuzarliklarning oldini olishning samaradorligi va zaruriyati haqida qadim zamonlardan beri ko'p mulohazalar aytildi va yozma manbalar ham bizgacha yetib kelgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ /METHODS)

“Avesto”da Yaqin va O'rta Sharq xalqlarining huquqiy qarashlari o'z ifodasini topgan. Unda huquqiy qoidalar tartibli tarzda berilmagan bo'lsa ham ma'lum ma'noda o'sha davrning huquqiy munosabatlarini aks ettiradi. Hozirgi zamon tasavvurlaridan kelib chiqqan holda, “Avesto”da jinoyat va jazo, fuqarolik, oila va nikoh, mulk, yer-suv bilan bog'liq masalalarni tartibga soluvchi huquqiy ma'lumotlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Axloqiy qoidalar singari huquqiy qoidalar ham “Avesto”da diniy ruh bilan sug'orilgan holda aks ettirilgan. Ular ham xudo tomonidan o'rnatilgan ilohiy qonunlar sifatida talqin etilib, bosh hakam sifatida xudo Ahura Mazdaning o'zi ko'rsatilgan.

Qadimgi davrlarda va o'rta asrlarda ham xuddi “Avesto”da tasvirlanganidek, sud va unda qo'llanadigan jazo usullari o'zining shafqatsizligi bilan ajralib turadi. Jazolash vositasi sifatida, o't va qizdirilgan temir va boshqalar qo'llanilgan. Aybdorlarga qamchi bilan urishdan tortib to o'lim jazosigacha bo'lgan chora-tadbirlar qo'llanilgan. Aytish mumkinki, qadimgi ajdodlarimiz hayotidan xabar beruvchi “Avesto”da atrof-muhitni (yer, suv, havo) ifloslantirishni jinoyat deb bilib, ana shunday harakatlarni sodir qilgan shaxslarni tan jazosi bilan yoki 400 qamchi bilan jazolash belgilangani aytildi. Bu esa, jamiyatning tartibga solinishida adolat hamda tabiatga bo'lgan oliyhimmatilik belgisini ifodalaydi. Biroq tan jazosi boshqa majburiyat bilan ham almashtirilishi mumkin bo'lgan. Bundan shu narsani anglash mumkinki, “Avesto” jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirishga va huquq manbasi sifatida ko'pgina ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim rol o'ynagan. Undagi tartibga solish, jazo usuli yuksak insoniy qadr-qimmat g'oyalariga asoslangan holda amalga oshirilgan. Ushbu jamiyat tabiatni, undagi yer, suvni muqaddas deb bilgan va ularga qarshi chiqqan hamda qadriga yetmagan yovuz kimsalarni jazolagan.

Ta'lif va tarbiya sohasida esa, bu jarayondagi ustoz va shogird munosabatlariga tegishli bo'lgan burch hamda ma'suliyat Nizom-qonunda belgilangan. Bunga ko'ra, ustoz Ahura Mazda o'gitlari va talablarini qanday bo'lsa, shu mazmunda o'quvchiga yetkazishi talab qilingan. O'quvchilar esa, ilohiy va dunyoviy Nizom talablarini yaxshi o'zlashtirib olishlari zarur bo'lgan. Qizlar 7 yoshdan 15 yoshgacha, o'g'il bolalar esa 7 yoshdan 17 yoshgacha ta'lif olishlari majburiy hisoblangan [2;806-814].

Bundan tashqari, ta'lif-tarbiya va huquqiy ta'lifotga talluqli masalalar ham talqin etilgan. Bu borada asarning tadqiqotchilar tomonidan o'rganib chiqilgan ijtimoiy masalalari ham diqqatga sazovordir. Professor H.Homidiy fikricha, “Vandidod”dagi huquqiy qarashlarni-jinoyatlarni shartli ravishda quyidagicha tasnif etish mumkin:

1. Dinga qarshi jinoyatlar: g'ayridin bilan nikohga kirishish, kohinni haqoratlash, mansabini suistmol qilish kabilar
2. Shaxsga qarshi jinoyatlar: hujum, tahdid solish, homilani tushirish, ayolga homiladorlik paytida shikast yetkazish.
3. Hayvonlarga, uy hayvonlariga, xususan, turli xildagi itlarga qarshi jinoyatlar.
4. Mulkiy jinoyatlar: o'g'irlilik, qaroqchilik, paymentshikonlik, talon-taroj, bosqinchilik.
5. Axloqiy jinoyatlar: fohibabozlik, zo'rslash, er-xotinlarning xiyonati, qasddan oila qurmey yurish, nikoh qoidalarini buzish, zino, xiyonat.
6. Tabiatga qarshi jinoyat: yer, suv, havo, olovni asrash qoidalarini buzish, yerning meliorativ holatiga qaramaslik, atrof-muhitni muhofaza qilish qoidasini, jamoat va shaxsiy gigiyenani buzmoq,

O'QUVCHILARDA JINOYAT VA JAZO TUSHUNCHALARIGA DOIR BILIMLARNI RIVOJLANTIRISH IJTIMOIY ZARURAT SIFATIDA

РАЗВИТИЕ ЗНАНИЙ УЧАЩИХСЯ О ПОНЯТИЯХ ПРЕСТУПЛЕНИЯ И НАКАЗАНИЯ КАК СОЦИАЛЬНОЙ НЕОБХОДИМОСТИ

DEVELOPMENT OF STUDENTS' KNOWLEDGE OF THE CONCEPTS OF CRIME AND PUNISHMENT AS A SOCIAL NECESSITY

Xusanboy Umarov Rustamovich¹

¹Xusanboy Umarov Rustamovich

– Andijon davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchisi.

Annotation

Mazkur maqolada fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish har bir demokratik davlatning ustuvor vazifasi, o'quvchi-yoshlar tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning profilaktikasi va unga qarshi kurashish bugungi kunda butun dunyoda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada yoshlar tarbiyaviy, huquqiy ongi, huquqiy bilimi hamda huquqiy madaniyatini rivojlanterish to'g'risidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Аннотация

В данной статье защита прав и свобод граждан является приоритетной задачей каждого демократического государства, а предупреждение и борьба с преступлениями, совершаемыми студентами, является одним из самых актуальных вопросов в современном мире. В связи с этим представлены мнения о развитии воспитательного, правосознания, правовых знаний и правовой культуры молодежи.

Abstract

In this article, the protection of the rights and freedoms of citizens is a priority task of every democratic state, and the prevention and fight against crimes committed by students is one of the most urgent issues in the world today. In this regard, opinions on the development of educational, legal consciousness, legal knowledge and legal culture of young people have been presented.

Kalit so'zlar: O'quvchi-yoshlar, fuqarolik jamiyati, jinoyat va jazo, ijtimoiy zarurat, huquqiy bilim, huquqiy madaniyat, inson huquqi, bozor iqtisodiyoti, Ta'lim va tarbiya, oila va nikoh.

Ключевые слова: Студенческая молодежь, Гражданское общество, преступление и наказание, социальная потребность, правовые знания, правовая культура, права человека, рыночная экономика, Воспитание и воспитание, семья и брак.

Key word: Student-youth, Civil society, crime and punishment, social need, legal knowledge, legal culture, human rights, market economy, Education and upbringing, family and marriage.

KIRISH (ВИДЕНИЕ/INTRODUCTION)

Bugungi kun jahondagi barcha davlatlar fuqarolik jamiyatini barpo qilishga bel bog'lagan. Fuqarolik jamiyati – qonun ustuvorligi va insonning huquq, erkinliklari qaror topadigan ijtimoiy tuzum hisoblanadi. Bunday muhim vazifani bajarish kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari bosqichma-bosqich o'tish orqali amalga oshiriladi. Mamlakatimizda barpo etilayotgan demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining shartlaridan biri xalqimizning farovon turmush kechirishini ta'minlashga xizmat qiluvchi qonunlarning mavjudligi hamda amalda qaror topishidir. Ularning mazmun-mohiyati bilan tanish bo'lish va qonunlarga rioya qilish fuqarolik burchimiz bo'lib, u odamlarning huquqiy ongi, huquqiy bilimi hamda huquqiy madaniyatida namoyon bo'ladi.

Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish har bir demokratik davlatning ustuvor vazifasidir. Bu borada Respublikamiz Konstitusiyasi qabul qilinishi munosabati bilan insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish maqsadi belgilanib, unda inson huquqlari va davlat suvereniteti g'oyalariga, shuningdek, demokratiya va ijtimoiy adolatga sodiqlik e'lon qilingan, xalqaro huquqning umum e'tirof etgan qoidalarining ustunligi tan olindi.

Mamlakatimizda islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirish qat'iyat bilan olib borilganligi tufayli, bozor iqtisodiyoti tizimini barpo etish, huquqiy demokratik davlatning ijtimoiy munosabatlarini shakllantirish yo'lida jiddiy yutuqlarga erishildi. Bu borada yoshlar tarbiyasi ham o'ta muhim vazifalardan biri bo'lib qolaveradi.

Ma'lumki, o'quvchi-yoshlar tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning profilaktikasi va unga qarshi kurashish bugungi kunda bu tun dunyoda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ana shunday vaziyatni inobatga olgan holda, bu borada Respublikamizda

ILMIY AXBOROT

O'quv jarayoniga yo'naltirilgan qo'shimcha matn dasturlari qo'llanilishi ingliz tili o'qitish masalasini munosib ravishda hal etishga yaxshi imkon beruvchi metodik yondashuvlarning biridir. O'qituvchi bilan talabaning o'zaro ta'siri natijasida talaba ma'lum bilimlarni shunchaki o'zlashtirib qolmay, bir vaqtning o'zida yana bilih va hatti-harakatlar qilishning yangi tamoyillarini va metodlarini o'zlashtirib oladi va rivojlanishiga zamin yaratadi.[6]

Bu kabi yondashuvda kompetentsiya bir tizimga birlashtirilgan bilimlar, malakalar va shaxsiy sifatlarni kommunikativ xatti-harakat samaradorligi va optimal rentabelligi bilan bevosita aloqadorlikda safarbar qilishga oid oliy integral qobiliyat sifatida qaraladi

Kommunikativ yondashuv maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tiliga asoslangan til darslarida ustunlik qiladi va bu esa o'z navbatida talabalar uchun o'g'zaki muloqotning muhim omil hisoblanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shunday qilib, og'zaki nutq kompetensiyasi eng ko'p amalga oshirilishi mumkin bo'lgan muhim xabar hamda ma'lumotlarni boshqalarga yetkazishning umumiyl usuli va samarali muloqot qilish qobiliyati chet tilida jiddiy qabul qilinishi kerak bo'lgan asosiy talab hisoblanadi. O'qituvchilar chet tili darslarini tashkillashtirishda mavzuga oid so'rovlar qilish, o'tgan voqealar haqida suhbatlashish, ona tilida so'zlashuvchilarni tinglash yoki tasvirlarni tasvirlash bilan o'tkazadilar. Bularning barchasi haqiqiy materiallardan foydalangan holda barcha til darajalarida mazmunli aloqa o'rnatish maqsadiga asoslanadi.

XULOSA

Shuni ta'kidlash lozimki, kommunikativ yondashuvni yangi tillarni o'rganishda eng yaxshi o'qitish usullaridan biri bo'lib, maqsadli tilda muloqot qilish qobiliyatiga ega bo'lgan talabalarni chet tilida og'zaki nutq kompetensiyasinni shakllantirish va ulani turli xil real vaziyatlarga tayyorlash muhim omili hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda. (of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 7, 2017 "Strategy of actions for further development of the Republic of Uzbekistan on" Decree No. PF-4947. Laws of the Republic of Uzbekistan collection, 2017, No. 6, Article 70.)
2. Кулневич С.В. Новая педагогика: Учебное пособие для студентов пед.вузов. – Воронеж, 1992. – 134с. (Kulnevich S.V. New Pedagogy: Textbook for students of pedagogical universities. - Voronezh, 1992. - 134 p.)
3. Leung, Constant (2005). "Convivial communication: recontextualizing communicative competence". International Journal of Applied Linguistics. 43 44.
4. Yusupalieva Sh, Sattorova S Indoneziya International journal of discoveries and innovations in applied sciences The importance of speaking in EFL classes Volume 1 Issue 4, 2021 P.63-65
5. Bygate, M. (1987). Speaking. New York: Oxford University Press, P 57-59
6. Aldohon, H. I. (2014). English for Specific Purposes (ESP) for Jordanian workplace: Needs and problems. International Education Studies, 7(11), 56-67

dunyo va inson haqidagi bilimlar tizimini keng nuqtai nazardan anglay olishi va kompyuter hamda internet vositalaridan ta'lim jarayonida foydalana olishi, hamda ularni o'gzaki nutqda keng foydalana olishi lozim.

Ko'pchilik chet tili o'qituvchilari maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tilini o'qitishda o'gzaki nutq ko'nikmalarni rivojlantirishda darslarida "talabalarning sustligi" muammosiga duch keladilar. Buning oldini olish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quv vaziyatini shunday o'zgartirishni o'qituvchi bilish jarayonida diqqatli va manfaatdor suhbatdoshga aylanadi. Kommunikativ metod ingliz tilini o'qitishning zamonaviy usullaridan biri sifatida o'qituvchining nafaqat axborot tashuvchi, balki kuzatuvchi va maslahatchi bo'lishini taminlashga yordam beradi. O'qituvchining vazifasi talabalar muloqotini osonlashtiradigan ta'limiy ikki tillilik vaziyatlarini yaratishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Talabalar og'zaki nutqini faollashtirishning eng yaxshi metodlari o'zaro ta'sir metodlari, yani interfaol metodlardan bo'lib, interfaol ta'lim bilish usulidir, u faqat talabalarning birgalikdagi faoliyati shartida amalga oshiriladi. Interfaol ta'lim talabalarning o'zaro munosabatlari va ularning psixologiyasiga asoslangan tajriba sohasi bo'lgan o'quv muhitiga asoslanadi. Bundan kelib chiqadiki, bu usullar ta'lim jarayoni subyektlarining o'zaro munosabatlarini o'z ichiga oladi, bu yerda o'qituvchi va ishtirokchi bir xil jamoaning bir qismi bo'lib, ular bir xil maqsadga erishish uchun ishlaydi. Talabalarning ta'lim olishdagi faoliyatida yetakchi soha bu o'quv jarayoni hisoblanadi. Bundan kelib chiqqan holda, kasbiy shakllanish jarayonining xarakterli xususiyati ta'limga, bilim olishga qiziqishning yuqoriligi bo'lib hisoblanadi. Aynan mana shu qiziqish kasbiy malakaviy shakllanishning o'ziga xos xarakterini ifodalaydi.

Bugungi kunda zamonaviy ta'limda ko'p madaniyatli shaxsini shakllantirishdan iborat bo'lib, bu ularning chet tili haqida ma'lum miqdordagi bilimlarni egallashini, nafaqat tushunish balki unda erkin muloqot qilish qobiliyatini shakllantirishdan iborat. O. A. Biryukova va D. V. Semenovalar ta'kidlaganidek, zamonaviy metodologiya fanida monolog va dialogik shakllarda o'z og'zaki nutqini yaratish qobiliyatini shakllantirish chet tilini o'qitishning asosiy maqsadi sifatida belgilanadi va chet tili tushunchasi orqali ifodalanadi. Ma'lumki, kommunikativ kompetensiya juda murakkab ko'p komponentli tuzilishga egadir.[2]

Shuni ta'kidlash lozimki, interfaol o'zaro ta'sirni o'rgatish ingliz tili darslarida hayotdan olinan o'quv materiallaridan foydalanishni talab qiladi, bu esa to'g'ri tashkil etilgan sharoitda o'rganilayotgan tilda tabiiy muloqotni ta'minlaydi. Shuningdek bo'lajak muhandislarni tayyorlashda ularga sohaga oid terminologiyani rasmlar, vizualitsiyatsiya hamda qo'l bilan ushlab ko'rish orqali tasvirlab nutqni rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Nutq kompetensiya tushunchasi chet tillarini o'qitishga kommunikativ yondashuv asosida yotadigan nazariyalardan biridir.[3] Ushbu tushunchani kommunikativ kompetentlik-ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, ta'lim oluvchilar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobji ta'sir ko'rsata olish. Kompetentlik (ingl. "competence"- "qobiliyat")-faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish quydagicha talqin etish mumkin[4]

Bo'lajak texnolog muhandislar kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari, muloqot qilishda uchta o'zaro bog'liq kommunikativ, interfaol va pertseptiv komponentlarning birligi o'qituvchining kasbiy kommunikativ kompetentliligi, kommunikativ o'zini o'zi rijojlantirish kabi muhim xususiyatlarni egallahdan iboratdir.

Interfaol o'zaro ta'sir vaziyatlarini yaratish uchun talabalar har qanday vaziyatda o'zlarini tasavvur qilishlari kerak bo'lgan vazifalar bilan ishlashni cheklashni istisno qilish kerak. Chet tilida munosabatlar shartlari nutq, qo'shimcha kasbiy matnlar o'rganishning ko'plab turlarini bilish davr talabi ekanligini ko'rsatib beradi.[5] Boshqa tillar mohiyatini kamsitmagan holda, ayniqsa, ingliz tilida muloqot qilishda, til nutqini tushunish, mutolaa qilish va yozish, nutqiy faoliyat amaliyotida, ixtisoslik, mutaxassisligi bo'yicha keng tarmoqli va kasbiy adabiyotlarni o'qishda ularga tushuntirish annotatsiyalar, tezislар, shuningdek, yozma axborot almashish jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati yaqqol namoyon bo'ladi va aniqlanadi. Shuningdek ushbu metod va texnologiyalar til o'rganuvchining chet tilda, jumladan, ingliz tilida fikrini erkin bayon qilish, izlanish va til ko'nikmalarini shakllantirish xorijiy adabiyotlarni mutola qilish malakalarini shakllantirishga yordam beradi

**TEXNIKA OLIY O'QUV YURTLARIDA CHET TILI DARSLARINI
TASHKILLASHTIRISHDA O'G'ZAKI NUTQ KOMPETENSIYASINI SAMARALI QO'LLASH
USULLARI**

**МЕТОДЫ ЭФФЕКТИВНОГО ПРИМЕНЕНИЯ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПРИ
ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ**

**METHODS OF EFFECTIVE USING OF SPEAKING COMPETENCE IN THE
ORGANIZATION OF TEACHING FOREIGN LANGUAGE IN TECHNICAL HIGHER
EDUCATIONAL INSTITUTIONS**

Yusupaliyeva Shaxnoza Hakimjanovna¹

¹**Yusupaliyeva Shaxnoza Hakimjanovna**

– Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti,
Katta o'qituvchi.

Annotatsiya

Ushbu maqolada chet tilini o'qitish va o'rganishga bo'lgan talabaga hamda talabalarda yangi bilim va munosabatlarni kuzatish har bir chet tili o'qituvchisi va har bir o'qituvchining vazifasi bo'lib, talabalarga chet tilini o'qitishning asosiy maqsadi nutq kompetensiyasi darajasiga mos keladigan asosiy nutq tuzilmalarini egallashdir. Kommunikativ kompetensiyani o'qitish talabalarning haqiqiy ehtiyojlari va qiziqishlariga asosiga bag'ishlangan.

Аннотация

Статья посвящена спросу на преподавание и самообразование. Мониторинг новых знаний и взаимоотношений у учащихся - задача каждого преподавателя иностранного языка и каждой учительницы. Основной целью обучения студентов иностранному языку является овладение базовыми речевыми структурами, соответствующими уровню речевой компетенции. Преподавание коммуникативной компетенции основано на темах, которые отвечают реальным потребностям и интересам учащихся.

Abstract

The article is devoted to the demand for teaching and learning. Monitoring new knowledge and relationships in students is the task of every foreign language teacher and every teacher. The main goal of teaching a foreign language to students is to acquire basic speech structures corresponding to the level of speech competence. Teaching communicative competence is based on topics that meet the real needs and interests of students.

Kalit so'zlar: talab, o'qitish, o'sish, mas'uliyat, munosabat, vakolat, ehtiyojlar, maqsad, muloqot, rivojlanish, faoliyat.

Ключевые слова: спрос, обучение, рост, ответственность, отношение, авторитет, потребности, цель, общение, развитие, активность

Key words: demand, teaching, growing, responsibility, attitude, competence, needs, goal, communicate, development, activity

KIRISH

Talabalarga chet tilini o'rgatishning asosiy maqsadi CEFR kompetensiyasi darajasiga mos keladigan asosiy nutq tuzilmalarini egallashdir. Nutqqa o'rgatish talabalarning real ehtiyojlari va qiziqishlariga javob beradigan mavzularga asoslanadi.[1] Talabalarda o'g'zaki muloqotni yengillashtirish uchun motivatsiya, maqsadga muvofiqlik, faoliyat, shaxsning shaxsiyati va aqliy faoliyati bilan bog'liqligi, evristika, mustaqillik, sur'at va vaziyat kabi ushu turdag'i nutq faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Agar muloqotning maqsad- vazifalari mavjud bo'lsa, muloqot ishtirokchilarining xarakterli xususiyatlari, ularning yoshi, rivojlanish darajasi hisobga olinsa, har qanday nutqiy vaziyat doirasida muloqot harakati, albatta, amalgalashadi.

Ma'lumki, tafakkurning ifodasi, xalqlar o'tasidagi aloqa, ma'naviy va boshqa muloqotlar til orqali namoyon bo'ladi. O'qituvchi darsni tashkillashtirishda va ta'llim samaradorligini oshirishda o'quv materiali hususiyatlariga, ta'llim usullariga va va o'quv imkoniyatlariga e'tibor qaratishi lozim. Bu esa o'z navbatida dars davomida turli xil rolli o'yinlar va pedagogik texnologiyalarni ta'llim tizimiga keng joriy qilishni taqozo qiladi va chet tili o'qituvchisining pedagogik faoliyatida o'z aksini topishi chet tili o'qitish saviyasini o'stiradi.

Har bir chet tili o'qituvchisi yuqoridaqilardan kelib chiqqan holda, ta'llim-tarbiya jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarini shakllantirish hislatlariga ega bo'lishi kerak. U o'z faoliyatida chet tilini chuqr bilishi, iqtidorli , zamonaviy , ilmiy va madaniy taraqqiyotning chuqr tushuna bilishi ,

stereotiplarning amalda namoyon bo'lishi, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi faoliik va mas'uliyatni ifodalaydi. Ijtimoiy birliklarning mavjudlik xususiyatlariiga mos ravishda ekologik preventiv nazoratning turli uslub va vositalardan foydalanuvchi bevosita yoki bilvosita shakllari mavjud bo'lib, ekologik normalar, tamoyillar, tartib-qoidalar majburan tatbiq etilmasdan, balki ekologik onglilik, o'z-o'zini nazorat qilish – faoliik va mas'uliyatning zaruriy shartiga aylanadi. Ma'lum ma'noda, ma'muriy va huquqiy nazorat vositalari hamda uslublari antiekologik faoliyatni chegaralasa-da, lekin ekologik faoliik va mas'uliyat hissini kuchaytirishga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bunday xatti-harakatlarni, shart-sharoitlarini bartaraf etishda faoliik va mas'uliyatni oshiradigan omillarning rolini kuchaytirish kerak bo'ladi.

XULOSA

Ekologik faoliik va mas'uliyatni kuchaytirishning huquqiy omillari, o'zicha, shu xislatlarning "inson sifatiga" aylanishini bildirmaydi. Buning uchun, ekologik faoliik va mas'uliyatni tarbiyalash muammosiga davlat miqyosida majmuaviy-tizimli tarzda yondashib, uni umummilliy mafkura ishining markaziga ko'chirilishi muhimdir. Ayniqsa, ekologik faoliik va mas'uliyat, hozircha, ommaviy tus olmagan vaziyatda, bevosita shu sohada ishlayotgan kishilarning kasbiy faolligini va mas'uliyatini oshirish birinchi navbatdagi vazifadir. Chunki, birinchidan, kasbiy darajada ekologik faoliik va mas'uliyatni oshirish, shu xislatlarni keng xalq ommasiga transformatsiya qilish vositasi hisoblanadi; ikkinchidan, hozircha jamiyatda uning barcha a'zolarining ekologik faolligini va mas'uliyatini oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy, texnikaviy, tashkiliy imkoniyatlar chegaralangan; uchinchidan, kasbiy ekologik faoliik va mas'uliyat, o'z «sifatiga» ko'ra, boshqa ijtimoiy qatlamlar uchun andoza rolini bajaradi.

Xulosa qilganda, talabalar ongiga, turmush tarziga tabiatni muhofaza qilishning ahamiyatini singdirish kerak. Bu faoliyat tabiatni muhofaza qilishning tarixiy meroslarini, qadriyatlarini, vorislik tamoyillariga ko'ra, konkret ekologik vaziyat xususiyatlardan kelib chiqib, ijodiy rivojlantirishga asoslanadi. Uning samaradorligini ko'tarish uchun ta'limg-tarbiyaning hamma bo'g'inlarini, bosqichlarini ekologiyalashtirish orqali ekologik tafakkurni rivojlantirish, ommaning ekologik siyosiy faolligini oshirish zarur bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 may 434-sonli «O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limg rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.05.2019 y., 09/19/434/3189-son).
2. Абдуллаев З. Экологические отношения и экологическое сознание. Ташкент: Зиё. – 2004.
3. Банба-Церера В.Р. Становление экологической этики. Москва: СК Сфера. – 1992.
4. Монсеев Н.Н. Экология и образование. М.: ЮНИСАМ. – 1996.
5. Nigmatov A. Ekologiya nima. Toshkent: TDYUI nashriyoti. – 2002.
6. Nigmatov A. Ekologiyaning nazariy asoslari. Toshkent. – 2013.
7. Nigmatov A., Abdunazarov L., Muxamedov Sh. Kasbiy ekologik ta'limg va tarbiya. Toshkent: Iqtisodiyot-moliya. – 2016.
8. Nigmatov A.N. Milliy kasbiy ta'limgda uzuksiz ekologik ta'limgning asosiy muammolari va istiqbollari / Milliy kasbiy ta'limgda uzuksiz ekologik ta'limg tizimining ilmiy asoslari: muammolari va istiqbollari. Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Toshkent: O'zMU nashriyoti. – 2012.
9. Nigmatov A.N., Abdunazarov L.M. Ekologik ta'limgning metodologik asoslari // Geografiya jamiyatni ilmiy jurnalni. Toshkent. – 2016. №49.
10. Nigmatov A.N., Abdunazarov L.M., Tobirov O.Q. Ekologik ta'limg va tarbiyada xorijiy tajriba / Farg'ona vodiysi resurs salohiyatidan foydalanishning geoekologik asoslari. Respublika ilmiy-amaliy anjumanasi. Farg'ona. – 2017.
11. Nigmatov A.N., Abdunazarov L.M., Muxamedov Sh.N. Kasbiy ekologik ta'limg va tarbiya. – Toshkent: Iqtisod-Moliya. – 2016.
12. Хошимова И. Диалектика глобального, регионального и локального в экологии: Автореф. дисс. ... докт. филос. наук. – Ташкент. – 1992.
13. Abdunazarov L.M. Ekologik ta'limg intellektuallashtirish zaruriyati va yo'llari / Geografiya XXI asrda: muammolar, rivojlanish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiysi. Samarqand. – 2017.
14. www.econews.uz - O'zbekistonning ekologik sayti.
15. Сперанский В.И. Социальная ответственность личности: судность и особенности формирования.- Москва.: Наука. 2006.- С.148.

ILMIY AXBOROT

qonuniyatlarini tahlil qilish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Talabalarda ekoetik kompetentlikni rivojlantirishda ulardagi ekologik huquqiy mas'uliyatni shakllantirish talab etiladi. Ekologik huquqiy mas'uliyat funksiyalaridan biri – talabaning tabiatni muhofaza qilish faoliyatini, amaliy xatti-harakatlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonini regulyatsiya qilishdan iborat. Ijtimoiy mas'uliyat muammosining tadqiqotchilaridan biri V.I.Speranskiy fikriga ko'ra, mas'uliyat hissining shakllanishi bilan insonning shaxsga aylanishi, uning ijtimoiy faolligi boshlanadi”[15;148-b]. Bunda muallif, mas'uliyatni shaxs shakllanishining asosi deb bilgan va uning sifatini belgilaydigan mezon darajasiga ko'targan. Vaholanki, mas'uliyat hissining har qanday darajasi yoki shakli «inson sifatini» belgilashga da'vogarlik qila olmaydi. Ekologik mas'uliyat ham ekologik tartib-qoidalarning qattiqligi, jazoning muqarrarligi bilan emas, unga ichki hurmatning mavjudligi bilan belgilanadi. Shu bois, talabalarda ekologik axloqiy mas'uliyatni shakllantirish va ularning tabiatga cheksiz hurmatini shakllantirish muhim ijtimoiy-pedagogik vazifalardandir.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ekologik huquqiy normalar nisbatan turg'un, buning mazmunini esa uning doimiy rivojlanib borishi bilan izohlash kerak, lekin amaliyotda hamma vaqt shunday bo'lavermaydi. Ekologik huquqiy normalarning o'ziga xos muhim xususiyati: *birinchidan*, ekologik munosabat subyektlarining faoliyklarini maqsadga muvofiq yo'naltirilishi bilan xarakterlanadi, ya'ni u ekologik faoliyatning doirasini, tartibini, tashkiliy bog'lanishlarini belgilab turadi. *Ikkinchidan*, boshqa ijtimoiy munosabatlarni reglamentlashtirishda ichki e'tiqod, jamoatchilik fikri ustuvor xarakterga ega bo'lsa, ekologik huquqiy normalar, asosan, davlatning “majburlash”, ta'qilash kuchlariga tayanadi. Aynan shunda, uning samaradorligi ham, ojizliklari ham namoyon bo'ladi. Xususan, bugungi kunda ekologik huquqiy normalarning, aklarning nisbatan turg'unligi ekologik vaziyatning dinamik rivojlanish talablaridan orqada qolishiga olib kelmoqda. Buning ustiga, ekologik huquqiy normalar antiekologik xatti-harakatlarni baholashda aniq mezonlar majmuasiga ega emas. Shuning uchun ham talabalarda ekologik axloqiy normalarga hurmat va munosabatni shakllantirish, majburlash emas, g'amxo'rlikka asoslangan munosabatni shakllantirish talab etiladi.

Shuningdek, talabalarda ekoetik kompetentlikni rivojlantirishda ularning jamiyatning bir a'zosi sifatidagi ekologik nazorat mas'uliyatini ham shakllantirish talab etiladi. Ekologik monitoring muayyan uslublar yordamida ekologik vaziyatni, uning rivojlanish tendensiyasini aniqlab, «sof» texnik-texnologik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat bo'lsa, “ijtimoiy-ekologik nazorat” – inson va jamiyatning tabiatga ta'sir faoliyatini, “sof” subyektiv omillarning munosabatlarini nazorat qilish, uni takomillashtirish yo'nalishlarini ko'rsatish funksiyalarini bajaradi.

Jamiyat rivojlanib borishi bilan rasmiy ekologik nazorat funksiyalari takomillashuvi, insoniyatning, biosfera muvozanatini saqlab qolishdan iborat, ekologik ehtiyojlar darajasiga mos keladi. Shu bilan birgalikda, norasmiy ijtimoiy-ekologik nazorat ham umuminsoniy axloqiy tamoyillar va qonunlarda mustahkamlanib, u o'z funksional faoliyat doirasini kengaytirib boradi, ya'ni ekologik mas'uliyatni anglashda insonning ichki ma'naviyati bilan bog'liq: «uyat», «burch», «vijdon», «e'tiqod» kabi motivlarning roli kuchayadi.

Respublikamizda ekologik vaziyatni nazorat qilishning zamonaviy texnik vositalariga ega bo'lgan mukammal tizimini yaratib, uning tashkiliy jihatlarini kuchaytirish dolzarb muammo bo'lib turibdi. Jahon miqyosida, rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llanilayotgan ekologik kosmik nazorat tizimiga a'zo bo'lish imkoniyatlarini qidirib topish lozim. Bundan tashqari, umumiylar ekologik vaziyat haqida axborot markazi – ekologik axborotlar, ma'lumotlar bankini tashkil qilish kun tartibida turibdi.

Talabalarning ekologik vaziyatni keskinlashtiruvchi antropogen ta'sir haqidagi haqqoniy axborotlarga ega bo'lishi norasmiy nazorat ko'lами, yo'nalishini belgilaydi va uning natijalariga ta'sir ko'rsatadi. Talabalarda ekologik vaziyat haqida to'liq, obyektiv axborotlarning yetishmasligi, “informatsiya qashshoqligi” tabiatni huquqiy muhofaza qilish vazifasining tashkiliy qiyinchiliklarini keltirib chiqaradi, ya'ni oshkora ma'lumotlarning mavjudligi jamiyatning “tabiiy muhitga munosabatini belgalashi va inson sog'lig'ini saqlashi uchun zarur”[15]. Ta'kidlash kerakki, hamma sohada bo'lgani kabi, tabiatni huquqiy muhofaza qilishda ham yetarli, obyektiv informatsiya bo'lmasa, dezinformatsiya vujudga keladi. Shu bois, talabalarda ekologik vaziyat to'g'risida aniq ma'lumotlar bo'lishi ularda axloqiy munosabatning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, talabalarda ekologik axloqiy kompetentlikni rivojlantirishda ulardagi ekologik stereotiplarni o'rganish, ijobiy jihatlarini takomillashtirish va ta'lim tizimida foydalanish, salbiy ekologik mas'uliyatsizlikni, xudbinlikni keltirib chiqaruvchi, ekologik muammolarni yuzaga keltiruvchi, loqaydlikni oshiruvchi stereotiplarni bartaraf etish talab etiladi. Ekologik stereotiplar nisbatan turg'un bo'lib, oldingi avlod tajribalarini umumlashtirish jarayonida, mavjud ekologik hayot tarzining mazmuniga aylanadi. Ekologik stereotiplar retrospektiv planda, yuzaki qaraganda, ekologik vaziyatlarga mos keladigan faoliyk va mas'uliyatni huquq vositasida chegaralaydigan hodisa bo'lib ko'rinadi, lekin aynan shu ekologik

E.V.Girusov, V.D.Komarov, A.Z.Pankratovlarning ishlarida; tabiatni muhofaza qilish strategiyasi va taktikasi hamda bu jarayonlarning turli mamlakatlardagi o'ziga xos xususiy jihatlari, shuningdek, umumiylit qonuniyatları V.V.Motilev, Z.N.Navruzov, Y.V.Oleynikov, K.N.Smirnovlarning tadqiqotlarida; ekologik mas'uliyat genezisining retrospektiv xususiyatlari S.S.Batenin, V.N.Ivanov, V.K.Raxlin, P.A.Sorokin, A.Xukumovlarning asarlarida, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi ekologik mas'uliyatning ahamiyati V.F.Baratov, M.Y.Lemeshev, Y.Mikolash, P.G.Oldak, V.I.Saxarevlarning ilmiy tadqiqotlarida, ekologik ijtimoiy-siyosiy faoliyat va fuqarolik mas'uliyatining jamiyat demografik, etnografik xususiyatlari V.A.Anuchin, S.Ziyoyev, S.K.Kamolov, L.Levi, V.M.Fedorovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Ekologik xavfsizlik muammoi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiylit muammoisiga aylandi[1;3;4;14]. Ayniqsa, Markaziy Osiyo davlatlarida tabiatni muhofaza qilishga oid qonunchilik rivojlanmoqda va takomillashmoqda[1]. Ayni vaqtda, yurtimizda ekologik etika muammolariga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar ham olib borilmoqda. O'zbek olimlaridan Z.Abdullayev, A.Nigmatov, L.Abdunazarov, Sh.Muhamedov, I.Hoshimovalar tomonidan ekologik mas'uliyat, ekologik axloqiy qadriyat, ekologik ta'lif-tarbiya metodikasiga doir bir qator tadqiqotlar olib borilgan[2;5;6;7;8;9;10;11;12;13].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o'rganish, nazariy va qiyosiy tahlil, ijtimoiy so'rov (anketa, suhbat, intervyu, tashxis), pedagogik kuzatish, modellashtirish, baholash, umumlashtirish va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro standartlarga monand ravishda ekologik axloqiy ta'linda atrof-muhit haqida, atrof-muhit yordamida va atrof-muhit uchun ta'limgari mavjud. Bu uch komponent ekologik axloqiy ta'lif va tarbiyaning bo'laklangan masalalarini bir butun yechimini ta'minlaydi.

O'zbekistonda ekologik axloqiy ta'limga ayrim ko'rinishlari umumiylit o'rta ta'linda biologiya, geografiya, tarix, tabiatshunoslik kabi fanlarga integratsiya qilingan va ekolog-pedagoglar tomonidan olib borilmaydi. Ekologik vaziyatlar, atrof-muhitni asrab-avaylash to'g'risida ma'lumotlar berilsa-da, ekologiyaga axloqiy munosabatni shakllantirish to'g'risidagi bilim va ko'nkmalar shakllantirilmaydi. Mazkur fanlar aksariyat holda turdosh fan o'qituvchilarini tomonidan olib boriladi.

Xuddi shunday holat olyi ta'linda ham aynan namoyon bo'ladi. Integratsion ta'limga ommalashuvi bilan, asta-sekin tabiatshunoslik fanlari hamda ijtimoiy-gumanitar fanlar integratsiyasi yuzaga kelmoqda va bu olyi ta'linda ekologik axloqqa doir ekoetika fanlarini yuzaga keltirmoqda. Dunyo tajribasidan foydalanish va bunday noekologik ta'lifni bartaraf qilish maqsadida rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish, ularning ahamiyatlari jihatlarini milliy ta'lif tizimiga olib kirish muhim pedagogik vazifalardandir.

Ekologlar kasbiy kompetensiyalarining shakllanish modeli – ekologik ta'limga tarkibiy qismalarining o'zaro bog'liqligi. Bu ekolog mutaxassislar kasbiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy talab bilan bog'liq. Masalan, texnik-ekologlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish uchun yaratilgan modelning asosiy xususiyati – mazkur tarkibiy qismalarning integratsiyalashdan iborat bo'lib, u ta'lif jarayonini kompleks yo'naltirilganligidan mutaxassislarni shakllantirishni kuchaytiradi. Natijada: *Birinchidan*, ekologik ta'lif jamiyat rivojining asosiy omillaridan biri ekanligini bildiradi. Ekologik ta'lif insonlarni tabiatga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga qaratilgan fikrlashuvga, xulq va atvor stereotiplarining shakllanishiga, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga, har bir davlat va inson tomonidan kasbiy etikaning yangi tamoyillarini qabul qilishga, madaniyat va adolatga, ba'zi bir cheklovlarining o'rnatilishiga, ekosfera qonunlarining rivojiga qaratilgandir. *Ikkinchidan*, bu holat ekologning kasbiy kompetensiyasi uchun pedagogik sharoitni shakllantirishni aniqlashtiradi. *Uchinchidan*, ekologik ta'lif modelining tuzilishi texnologik algoritmi kelajakda ekologik ta'lifni joriy etishni tashkil etadi. *To'rtinchidan*, ekologik ta'lif jahon standartlariga javob berishga yo'naltiradi va ekologlarda shu jarayonni ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruva va axborot-analitik faoliyatlarini bilan bog'lashni sinflashtiradi. *Beshinchidan*, yangi axborot texnologiyalarini joriy etish ekologik ta'limga tez moslashuvchanligini ko'rsatadi. *Oltinchidan*, ilm-fan bilan birga ekologik madaniyatni ham rivojlanadir. Bular, o'z navbatida, hayotiy tajribalardan kelib chiqadi va axloqiy prinsiplarga yondashadi. Demak, xorijiy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, ekologik ta'lif nafaqat ixtisoslikka tomon yo'naltirilgan, balki u yuksak ekologik ma'naviyatlari shaxs tarbiyasiga ham qaratilgandir. Xorijiy mamlakatlarda ekologik ta'lif va tarbiya milliy mentalitet va regional xususiyatdan kelib chiqqan tarzda olib borilmoqda. Shuning uchun ham ekologik ta'lif va tarbiya har bir davlat va mahalliy sharoitdan kelib chiqqan uning normativ asoslari yaratiladi.

Oliy ta'linda ekologik ta'lif tabiat muhofazasi masalalarining ilmiy asoslarini chuqur va har tomonloma o'rganish, inson faoliyatini natijasida biosferada ro'y berayotgan hodisalarining sabab va

TALABALARDA EKOLOGIK AXLOQIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI

ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ НРАВСТВЕННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

OPPORTUNITIES FOR FORMING ENVIRONMENTAL AND ETHICAL COMPETENCE OF STUDENTS

Hamraqulov Jahongir Baxtiyorovich¹

¹Hamraqulov Jahongir Baxtiyorovich

– Farg'ona davlat, universiteti texnologik ta'lim kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarda ekologik axloqiy kompetentlikni shakllantirishning xorij tajribasi va milliy ta'lim imkoniyatlari, ularda ekologik axloqiy mas'uliyatni shakllantirish va ularning tabiatga hurmatini shakllantirish bilan bog'liq ijtimoiy-pedagogik vazifalar haqida fikr yuritiladi, ekologik faoliik va mas'uliyatni tarbiyalash muammolari bayon etiladi.

Аннотация

В данной статье отражены зарубежный опыт и отечественные образовательные возможности формирования экологической нравственной компетентности учащихся, социально-педагогические задачи, связанные с формированием у них экологической нравственной ответственности и бережного отношения к природе, проблемы воспитания экологической активности и ответственности.

Abstract

This article presents the foreign experience and national educational opportunities for the formation of environmental moral competence of students, social and pedagogical tasks associated with the development of their environmental moral responsibility and respect for nature, the issues of educating environmental activity and responsibility.

Kalit so'zlar: ekologiya, etika, kompetentlik, ekologik etika, ekologik ong, ekologik huquqiy norma, ekologik axloqiy munosabat, ekologik axloqiy kompetentlik, ekologik stereotip, ekologik faoliik.

Ключевые слова: экология, этика, компетентность, экологическая этика, экологическое сознание, эколого-правовая норма, эколого-этическая установка, эколого-этическая компетентность, экологический стереотип, экологическая деятельность.

Key words: ecology, ethics, competence, ecological ethics, ecological consciousness, ecological legal norm, ecological and ethical attitude, ecological and ethical competence, ecological stereotype, ecological activity.

KIRISH

Jahon mamlakatlarida ekologik axloqiy bilim va ko'nikmalarni yoshlarga tizimli singdirib borish amaliyoti O'zbekistonda nisbatan barvaqt boshlangan. Shimoliy Yevropa va Amerika mamlakatlarida atrof-muhitni muhofaza qilish strategiyasidan uning holatini hamma bosqichda nazorat qilishga tomon qaratildi. Mazkur davlatlarning ichki va tashqi siyosatlarining barcha sohalarida atrof-muhit muhofazasi masalalari kiritilganligi nazoratga olinib, insoniyatning atrof-muhitdagi barcha faoliyati barqaror rivojlanish tamoyillarida to'liq mos kelishiga xalqaro hamjamiyat e'tibori kuchaytirildi. Yangicha yondashuvning diqqatga sazovor tomonlaridan biri jamoatchilikga turli xil ekologik axborotlarni erkin olish va tarqatishlariga keng huquqlar berilganligidadir. Shuningdek, ekologik axloqiy munosabatni shakllantirishni hukumat darajasidagi ish sifatida ko'rish, katta-yu kichikni tabiatga g'amxo'rtlik qilishga yo'naltirish dolzarb vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR TAHЛИI

Hozirgi kunda ekologik etika turli fan sohalarining bevosita yoki bilvosita tadqiqot obyektiga aylandi, uning tarkibidan bir qator yo'nalishlar ajralib chiqib, alohida fan sifatida shakllanmoqda. G'arb mamlakatlari tadqiqotchilaridan A.D.Ursul, F.I.Girenok ishlarida ekologik mas'uliyatni shakllantirish muammolari, M.M.Budiko, J.Dorst, G.Uayt, G.Xefling, G.S.Xozin asarlarida ekologik faoliik va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash masalalari tadqiq etilgan.

MDH mamlakatlarida ham ekologik etika va uning zamonaviy muammolarini tadqiq etish masalalari o'tgan asrning boshlarida maydonga kela boshlagan va bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmay kelayotgan yo'nalish hisoblanadi. Ekologik etikaning falsafiy jihatlarini tizimli ravishda kompleks o'rganish, mavjud empirik, statistik, sotsiologik axborotlarni umumlashtirish, ularning universallahsgan, nazariy-metodologik asoslarini yaratish zaruriyat V.S.Arefeva, B.A.Voronovich,

- Ta'lim standartlariga muvofiqlik yo'nalishi ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan kadrlarning minimum talablarga javob berishini taminlaydi;
 - Mijozni qanoatlantiruvchi ta'limning sifatini ta'minlash ustuvor masalalardan hisoblanadi;
 - Iste'molchi sifatni belgilaydi va uning har qanday talabi bo'yicha mutaxassisni tanlab oladi. Bu yo'nalish oliy ta'lim muassasalarining tijorat faoliyatini jonlantiradi;
 - Oliy ta'lim muassasasi jamiyatga, o'zi joylashgan mintaqaga foyda keltiradi. Shu sababli, oliy ta'lim muassasalarini joylashtirishda iste'molchi ehtiyojlari hisobga olinishi va kadrlar tayyorlashni mehnat bozori talablariga yo'naltirish lozim.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION)

Bugungi kunda ta'lim sifatini baholashda kadrlarning salohiyati, ularning jamiyat hayotida faol ishtiroki, kuchli mutaxassislarining ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning shakllantira olishi bilan baholanadi. Umuman olganda, qulay muhit va rag'batlantiruvchi bilim olish imkoniyati sifatli ta'limni ta'minlaydi, yaxshi sharoit va moddiy-texnik baza bu imkoniyatni yanada oshiradi. Davlat uchun sifatli ta'lim bu – davlat ta'lim standartini to'liq bajarilishi va o'quv dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, xalqaro standartlarga javob beradigan raqobatbardosh kadrlar, yuqori malaka va ko'nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlash tushunildi. Mazkur talablarga javob berishi uchun ta'lim sifati ichki va tashqi nazorat orqali tekshirib boriladi.

Shu bilan birga ta'lim muassasalarida ishning qay darajada to'g'ri tashkillanganligi, ta'lim sifatini doimiy nazoratga olib turish samara beradi. Bu esa ta'lim tashkilotlarida o'z o'zini baholash ya'ni ichki baholash hamda davlat tomonidan tahlil etiladigan qatiy belgilangan qonun qoidalar, standartlar asosida tashkil etiladigan tashqi baholash orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek "bugungi kunda jahon oliy ta'lim tizimida 10 dan ortiq ta'lim sifati menejmenti modellari qo'llanilib kelinmoqda va bu modellar oliy ta'lim muassasalarining sifat bo'yicha talab qilingan natijalariga erishishiga qaratilgan faoliyat jarayonlari va jihatlariga nisbatan belgilangan talablar va ko'rsatkichlar, tamoyillar, metodlar hamda ushbu jarayonlarning takomillashuv darajasini belgilab beruvchi mezonlar, ularni baholash yo'llari yig'indisi deb tushuniladi" [4].

Xususan, "Fransuz" modeli ta'lim muassasalarining jamiyat va davlat oldidagi mas'uliyatini attestatsiya, akkreditatsiya va nazorat qilish vositasida tashqi baholashga asoslangan bo'lib, bunda ta'lim muassasasi tomonidan o'zini-o'zi baholashga yuzaki qaraladi, chunki asosiy e'tibor tashqi baholashni samarali o'tkazishga qaratiladi. Yana bir ta'lim sifatini baholash modellaridan biri bo'lgan "Ingliz" modeli asosini ta'lim muassasasi tomonidan ichki baholash tashkil qiladi. Sifatni baholashga asoslangan modellar tizimli ravishda o'z-o'zini baholash, SWOT –tahlili vostasida OTM faoliyatining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash va kamchiliklarni bartaraf etishni nazarda tutadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Полонский, В.М. Словарь терминов и понятий по законодательству РФ об образовании / В.М. Полонский. – М., 1995.
2. М.М.Поташника Управление качеством образования –М 2000-С33
3. С.Е Шишов, В.А .Кальней, Мониторинг качества образования в школе –М 1999
4. Toshtemirova S.A., Muhammadiyev L.G'. Ta'lim sifati boshqaruvi va bu yo'nalishdagi xalqaro modellarning o'ziga xos xususiyatlari. // Academic research in educational sciences. Volume 2: Issue 3: 2021. –P. 771. (www.ares.uz)
5. Matkarimov J.Sh., Sharofaddinov Sh.A. Ta'lim jarayonida boshqaruv faoliyati samaradorligini baholashga oid nazariy qarashlar. Zamonaviy ta'lim jurnali. 2015. №3. –B. 12.

ILMIY AXBOROT

- ta'lif tashkilotlarini attestatsiyadan o'tkazish va uning natijalarini tahlil qilish;
- attestatsiya natijalariga ko'ra ta'lif tashkilotlarini akkreditatsiyadan o'tkazish bo'yicha qaror qabul qilish;
- attestatsiyadan o'tkazish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash;
- attestatsiya natijalari bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar ijrosini nazorat qilish.

Attestatsiya orqali o'rganish, nazorat qilish va boshqaruvga ta'sir ko'rsatish tartibi yil sayin takomillashtirib boriladi va xalqaro standartlarga moslashtirib boriladi. Ta'lif muassasalarida bunday ishlar ichki nazorat-boshqaruv bo'limlarini adolatlari va qonuniy ishlashga, pedagoglarni o'z ustida ko'proq ishlashga, bo'shliqlarni aniqlashga, kamchiliklarni bartaraf etishga undaydi.

Ta'lif sifatini nazorat-boshqaruv tuzilmasini takomillashtirishda Ta'lif sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining o'rni va ahamiyati yuqori hisoblanib kelgan. Ta'lif sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan ta'lif muassasalari va ularning hamkorlik aloqalari, kadrlar tayyorlash tizimi takomillashtirish vazifalari o'rganib borilgan bo'lib, ma'lum muddat asosida akkreditatsiyadan o'tkazish orqali baho berilgan. Mazkur jarayon 2019-yil 7-iyundagi Vazirlar Mahkamasining «Davlat ta'lif muassasalari hamda nodavlat ta'lif tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida» gi №470-sonli qarori asosida olib boriladi va ta'lif muassasasining faoliyati, ta'lif sifati va uni rivojlantirish borasidagi boshqaruv faoliyati tahlil qilinadi.

Ta'lif muassasasi faoliyatini akkreditatsiyadan o'tkazish davlatning nazorat mexanizmi hisoblanib, ta'lif tashkilotlarida kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatining davlat ta'lif standartlari hamda davlat talablariga muvofiqligini aniqlash vazifalarini amalga oshiradi. Davlat tegishli ta'lif vazirliklari orqali uzlusiz ta'lif tizimining nazorat-boshqaruv faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi.

Xorijiy mamlakatlar ta'lif tizimiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, rivojlangan davlatlarda ham ta'lif sifatini nazorat qilishni davlat zimmasiga oladi va uzlusiz ta'lifni barcha bo'g'lnlari va ta'lif jarayonlari davlat belgilab bergan standartlar asosida izchil va tizimlashtirilgan tarzda boshqariladi.

Jahonda ta'lif sifati uchun yagona talablar bankini yaratish, umumtalablar bo'yicha nazoratni ta'minlash va bu orqali sifatli ta'limga qo'yildigan nazorat mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarblik kasb eta boshladi. YuNESKO tomonidan ta'lifni butun dunyo uchun yagona talablar asosida tashkil etish, yagona hujjalalar asosida nazorat-boshqaruvni olib borish, ta'lifni tamomlaganlik uchun beriladigan hujjalarni ham bir hillashtirish yoki tan olish, legallashtirish, nostrifikatsiya qilish bo'yicha sezilarli ishlar olib borilmoxda hamda xalqaro konvensiyalar qabul qilinishiga erishilgan. Umuman olganda, bu boradagi ishlar sezilarli oldinga siljigan va butun dunyo bu jarayonni qo'llab-quvvatlamoqda.

O'zbekistonda ham so'ngi yillarda olib borilgan islohotlar jarayonida ta'lif tizimini ham zamonaviylashtirish, xalqaro talablar asosida nazorat-boshqaruv tartiblarini joriy etish, uzlusiz ta'lifda o'zaro hamkorlik mexanizmlarini yaratish borasida ham sezilarli huquqiy asoslar yaratildi.

Ta'lif sifatini nazorat qilish orqali o'quvchilar, talabalar va tinglovchilar bilimini nazorat qilish orqali davlat ta'lif standartiga, malaka talabalariga muvofiqligini o'rganish, tahlil qilish orqali ta'lif muassasaalrining reytingini ham aniqlash mumkin bo'ladi. Biroq bu muammoni bartaraf etish uchun emas, vaziyatni to'g'rilash uchun sharoitdir, yo'ldir. Shuning uchun ta'lif sifatini oshirishda, uzlusiz ta'lifni modernizatsiya qilishda, undagi muammolarni bartaraf etishda nazorat ishlarini olib borish bilan birga boshqaruv tamoyillarini, mezonlari va yondashuvlarni ham o'zgartirish kerak bo'ladi.

Shu bois O'zbekistonda ham ilg'or xorijiy tajribadan foydalanish, ta'lif sifatini oshirishga hizmat qiluvchi rivojlangan davlatlar metodologiyasini o'zlashtirish, ta'lif sifatini nazorat-boshqaruv tartibini ham erkinlashtirish, markazlashgan boshqaruvdan xalos etish, byurokratik to'siqlarni olib tashlash, sodda va xolis tizimni yaratish vazifalari ustuvorlik kasb etmoqda. Misol uchun, ilm-fan, ta'lif-tarbiya sohasini rivojlanishini baholab borish va nazorat qilish usullarini yangilash orqali ta'lif sifati va dars samaradorligini oshirishga qaratilgan xorij tajribasi tatbiq qilinmoqda.

Xalqaro amaliyotda ta'lif sifatining besh asosiy yo'nalishi alohida ajratib ko'rsatiladi:

- Ta'lifning sifatini ta'minlash oliy ta'lif muassasasining nufuzini oshirishga xizmat qiladi. Chunki bunda oliy ta'lif muassasasining bitiruvchisi mehnat bozorida raqobatchilarga nisbatan qulayroq mavqega ega bo'ladi;

baholanadi. Shuningdek, "ta'lim dasturini amalga oshirish samaradorligi ta'lim berish metodi, o'qitish sifatini baholash mexanizmining mavjudligi va samaradorligi kabi ko'rsatkichlar orqali baholanadi.

Ta'limni boshqarish kontsepsiyasiga ko'ra baho ikki tarkibiy qismdan, ya'ni ichki (o'zini-o'zi baholash) va tashqi baholashdan iborat. Sifatni tashqi baholash tizimi ko'proq standartlar va iqtisodiy samaradorlik bilan, ichki baholash tizimi esa raqobatbardoshlik va rivojlanishga yo'naltirilgan takomillashtirishlar bilan aloqadorlikda tushuniladi.

Ta'lim dasturlarini ichki baholash natijasida ta'lim muassasasi tomonidan o'qitishning an'anaviy va interfaol shakllari, ularning o'zaro nisbati, ta'lim oluvchilarining yakuniy natijalari, o'qitish metodlari va ularning qabul qilinishi haqidagi ma'lumotlar shakllantiriladi. Mazkur ma'lumotlarni e'tiborga olgan holda ta'lim dasturini o'qitish metodlari, talabalar bilimini baholash mexanizmlarining mavjudligi va samaradorligi hamda o'qitish sifati nazorati mexanizmlari kabi ko'rsatkichlar asosida tashqi baholash amalga oshiriladi" [5].

Ta'limda nazorat-boshqaruv tizimi professional, ochiq, shaffof va adolatli tashkil etilishi bilan birga mantiqiy izchillik asosida olib borilishi ham juda muhim ijtimoiy talablardandir. Shunday ekan, ta'lim muassasalarida ishlar to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, boshqaruv modelini to'g'ri tanlanganligi, ta'lim sifatini nazorat qilish adolatli tashkillanganligi ham ta'lim samaradorligiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birda davlat ta'lim tizimini nazorat qilishni tashqi mexanizmlarini ishlab chiqqan bo'lib, bu orqali ta'lim muassasalari attestatsiyadan o'tkaziladi va shu orqali nazorat qilib boriladi. Attestatsiya orqali o'rganish, nazorat qilish va boshqaruvga ta'sir ko'rsatish tartibi yil sayin takomillashtirib boriladi va xalqaro standartlarga moslashtirib boriladi. Ta'lim muassasalarida bunday ishlar ichki nazorat-boshqaruv bo'limlarini adolatli va qonuniy ishlashga, pedagoglarni o'z ustida ko'proq ishlashga, bo'shiqlarni aniqlashga, kamchiliklarni bartaraf etishga undaydi.

Ta'lim tashkilotlari attestatsiyasi va akkreditatsiyasi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida hamda Davlat ta'lim muassasalari hamda nodavlat ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomda belgilangan talablar asosida o'tkaziladi. Davlat Ta'lim muassasalari hamda nodavlat Ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 470-sonli qaroriga ilova bilan tasdiqlangan.

Ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va akkreditatsiyadan o'tkazish 6 bosqichda amalga oshiriladi.

Ta'lim sifatini tashqi baholash - ta'lim sifatiga davlat tomonidan davlat attestatsiya va akkreditatsiya komissiyalari, jamiyat, kasbiy muhit va boshqalar tomonidan beriladigan baho bo'lib, jamiyat tomonidan bitiruvchining mehnat bozorida raqobatbardoshligini aniqlash, uni moslashtirish jarayoni hisoblanadi. Ta'lim muassasalarining ta'lim sifatini baholashda o'rta muktab bitiruvchilarining ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshligi, asosiy muktab bitiruvchilarining o'qishni davom ettirish qobiliyati, bitiruvchilarining moslashuv darajasi va boshqa shu kabi ko'rsatkichlar qo'llaniladi.

Attestatsiya ta'lim tashkilotining faoliyatini baholashda davlat nazoratining asosiy shakli hisoblanadi va ta'lim tashkilotlarida kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatining davlat ta'lim standartlari hamda davlat ta'lim talablariga hamda o'quv dasturlariga muvofiqligini aniqlashdan iborat. Attestatsiyaning asosiy prinsiplari quyidagilar hisoblanadi:

- mustaqillik;
- xolislik;
- oshkorlik;
- shaffoflik;
- odillik;
- davriylik.

Akkreditatsiya ta'lim tashkilotlari faoliyatining davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablariga hamda o'quv dasturlariga muvofiqligining davlat tomonidan e'tirof etilishi hamda ularning bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni topshirish huquqini berishdan iborat. Ta'lim tashkilotlarini akkreditatsiyadan o'tkazish quyidagi bosqichlardan iborat:

- attestatsiyadan o'tkazish jarayoniga tayyorgarlik ko'rish;

ILMIY AXBOROT

Mustaqil davlatlar hamdo'stligida M.M.Potashnik, B.M. Полонский, С.Е Шишов, B.A.Кальней, V.P.Simonov, P.I.Tretyakov, T.I.Shamovala, M.K.Meldaxanova, B.S.Lazarevlar ta'limda sifat tushunchasi, ta'lim sifatini boshqaruv va nazorat tuzilmasini takomillashtirish masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS)

O'zbekistonda ta'lim tizimining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri ta'lim sifati masalasi hisoblanadi. Umumta'lim bitiruvchilarining keyingi ta'limi yuqori sifatlari, mustahkam maktab ta'limiga, shu jumladan shaxsning barqarorligi, birligida ishlash (jamoa bo'lib ishlash) kabi qobiliyati, o'rganishga tayyorlik va o'z-o'zini boshqarish kabi xususiyatlarga asoslanishi kerak. Shundan kelib chiqib bugungi kundagi zamonaviy iqtisodiy munosabatlar, demokratik-huquqiy davlatga o'tish, ta'lim xizmatlari bozorining rivojlanishi bitiruvchilar oldiga sifat jihatidan yangi talabarni qo'ymoqda.

Ta'lim oldingi davrda ham hozirgi davrda ham insoniyatning asosiy qadriyati hisoblanadi. Ta'lim haqida turlicha tushuncha mavjud bo'lib, shunga muvofiq uning ijtimoiy taraqqiyotdagi roli turlicha baholanadi. Ta'lim deganda ko'pincha xalq xo'jaligi, iqtisodiyot va ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan mutaxassislarini tayyorlash tizimi tushuniladi. Ta'limning mazmuni va mohiyati jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Sifatli ta'lim esa iqtisodiyot va jamiyatning yangi sifatini shakllantirishning eng muhim omilidir. Har bir sohada ishlab chiqaruvchi (yetkazib beruvchi) hamda iste'molchi bo'lganidek, ta'lim sohasida ham yetkazib beruvchi hamda iste'molchi mavjud ammo ta'limning boshqa sohalardan farqi shundaki, bunda iste'molchi oladigan mahsulot kelajak va jamiyatning yangi avlodidir. Shuning uchun ham bugungi kunda ta'limga e'tibor, kelajak avlodni sifatli ta'lim olishini ta'minlash va shu kabi masalalar dolzarbdir.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)

"Ta'lim sifati" tushunchasi ko'p qirralidir. Ta'lim sifati haqida so'z yuritishdan avval "sifat" tushunchasiga, alohida to'xtalib o'tsak. Ho'sh sifat o'zi nima?

Sifat tushunchasi obyektning muhim belgilarini ifodalaydigan falsafiy tushuncha hisoblanadi. Sifat obyekt tarkibiy qismlarining o'zaro turg'un munosabatlarini aks ettiradi, bu munosabatlar bir obyektni ikkinchi obyektdan ajratib turadigan o'ziga xos tomonlarini anglatadi. Shu bilan birga Sifat bir turdag'i obyektlarga xos umumiylikni ham ifodalaydi.

Sifat bu-mahsulot yoki jarayonlarning maqsadli foydalanishga yaroqlilik darajasini belgilovchi xossalari va xususiyatlari to'plamidir.[1]

Umumiy ma'noda "sifat" muayyan maqsadga muvofiqlik, mahsulot yoki xizmatning xarakteristikalari to'plami obyektning mehnat natijasida ma'lum belgilangan standartlarga muvofiqligi sifatida talqin etiladi. Bunday holatda ta'lim sifati ta'lim jarayonida "maqsad va natijaning nisbati, maqsadlarga erishish o'chovi sifatida" talqin etiladi [2;33]

Ta'lim tizimida sifat tushunchasi ta'lim ishtirokchilari tomonidan turlicha tushuniladi. Masalan, ota-onalar ta'lim sifatini farzandlarining ta'limdagi erishgan muvaffaqiyatlari deb hisoblab, uning rivojlanishini individuallik bilan bog'lashadi. O'qituvchilar uchun sifat deganda sifatli o'quv dasturiga ega bo'lish, o'quv materiallari va qo'llanmalar bilan ta'minlash hamda normal ish muhitiga ega bo'lish tushunilsa, talabalar ko'pincha sifatni ta'lim muassasasidagi qulay muhit bilan bog'lashadi. Ish beruvchilar esa ta'lim sifatini yetuk kadrlar bilan ularning bilim, ko'nikma qobiliyatlarini salohiyatlari bilan o'chashadi.

Shu sababli, ta'lim sifatiga turlicha ta'riflar mavjud bo'lib, ba'zi mualliflar ta'lim sifatiga "ta'lim jarayonining turli ishtirokchilarining ta'lim muassasasi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlardan qoniqishlari" boshqalari esa "ta'limda qo'yilgan maqsad va vazifalarga erishish darajasi [3]deb ta'rif bergen.

Zamonaviy ta'lim muassasasi uchun "ta'lim sifati" tushunchasi birinchi navbatda uning ta'lim xizmatlari bozoridagi raqobatbardoshligi bilan bog'liq. Shu bilan birga, u shaxsni rivojlantirish uchun ichki ehtiyojlarni qondirishni ta'minlaydigan ta'lim xizmatining iste'mol xususiyatlari majmuasi sifatida qaraladi.

O'zbekistonning yangi rivojlanish bosqichida ta'lim sifati oldindan rejalashtirilgan natijalarda erishishga qaratilgan nazorat jarayoni bo'lib, ta'lim ishtirokchilarini samarali mehnatga qiziqtirish, ta'lim muassasasi faoliyatining barcha yo'nalishlarini o'zini-o'zi baholash asosida doimiy takomillashtirib borish tizimidir.

Bugungi kunda ta'lim sifatini baholashda kadrlarning salohiyati, ularning jamiyat hayotida faol ishtiroki, kuchli mutaxassislarning ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni shakllantira olishi bilan

TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASH MEXANIZMLARI

МЕХАНИЗМЫ КОНТРОЛЯ И ОЦЕНКИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

MECHANISMS OF CONTROL AND ASSESSMENT OF THE QUALITY OF EDUCATION IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Saidova Xilolaxon Rashidjon qizi¹

¹Saidova Xilolaxon Rashidjon qizi

– Qo'qon davlat pedagogika instituti, maktab menejmenti kafedrasi o'qituvchisi.

Annotatsiya

Mazkur maqolada ta'lrim tizimida sifat tushunchasi, ta'lrim sifati muammosi, unga bo'lgan yondashuvlar, sifatni nazorat qilish mexanizmlari. Xususan ta'lrim muassasalari faoliyatini baholash attestatsiya hamda akreditatsiya, shuningdek baholashga doir bir qancha modellar tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье понятие качества в системе образования, подходы к проблеме качества образования, механизмы контроля качества. В частности, проанализирован ряд моделей оценки деятельности образовательных учреждений, аттестации и аккредитации, а также оценивания.

Abstract

In this article, the concept of quality in the educational system, approaches to the problem of educational quality, mechanisms of quality control. In particular, a number of models for the evaluation of the activity of educational institutions, attestation and accreditation, as well as evaluation have been analyzed.

Kalit so'zlar: ta'lrim sifati, mexanizm, samaradorlik, ta'limga mazmuni va mohiyati, attestatsiya, akreditatsiya, baholash, standart, iste'molchi, mijoz, talab, nazorat.

Ключевые слова: качество образования, механизм, эффективность, содержание и сущность образования, аттестация, аккредитация, оценка, стандарт, потребитель, клиент, спрос, контроль.

Key words: quality of education, mechanism, effectiveness, content and essence of education, attestation, accreditation, assessment, standard, consumer, client, demand, control.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION)


Ta'lrim sifati muammosi bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib, ta'limi ni boshqarish va nazorat qilish tuzilmasini takomillashtirish – ta'lrim sifati va samaradorlikning muhim omili sifatida baholanmoqda shu boisdan ham ta'limi rivojlantirishda yangi yondashuvlarga talab kuchaymoqda. Buning natijasida bugungi kundagi maktab o'quvchilarini tayyorlash sifatiga qo'yiladigan talablar ham o'zgarmoqda. Mazkur jarayonda rivojlangan davlatlar tomonidan ishlab chiqilgan nazorat-boshqaruv modeli o'zining samaradorligini ko'rsatib, boshqa davlatlar tomonidan tan olinib, ta'lrim tizimiga joriy etilmoqda.

Biroq universallik xususiyatiga ega bo'lmagan bunday boshqaruv tizimlarini har bir mamlakat o'zining milliy ta'lim dasturiga moslash va shu asosda takomillashtirish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Bu esa ta'lrim sifatini nazorat-boshqaruv tizimini rivojlantirish hamda zamonaviy menejment strategiyasini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Dunyoning rivojlangan ilmiy tadqiqot markazlari va institutlarida ta'lrim sifatini baholash, attestatsiyadan o'tkazish, nazorat qilish va boshqarish hamda uzuksiz ta'lrim tizimi uzviyligida, bir-birini to'ldirishi va o'zaro hamkorlikda ishlashi strategiyasini ishlab chiqishga doir ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLLILI VA METODOLOGIYASI (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ/METHODS)

O'zbekistonda ta'lrim sifati va samaradorligiga doir ilmiy-tadqiqot ishlari falsafiy, psixologik-pedagogik va metodik yo'naliishlarda amalga oshirilmoqda. O'zbek olimlaridan Toshtemirova S.A., Muhammadiyev L.G', Sh.A.Sharofiddinov ta'limi boshqarish samaradorligi, boshqaruv usullari va tamoyillarini, ta'lrim sifati va boshqaruvini baholash bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan.



Rasm.2 Gazlarning tebranma-ilgarilanma energiya almashinish ehtimolligining tempuraturaga bog'lanish grafigi.

XULOSA

Xulosa qilish mumkinki, azot gazi uchun ham tebranma-ilgarilanma energiya almashinish ehtimolligi LnP_{10} ning $T^{-\frac{1}{3}}$ ga bog'lanishi to'g'ri chiziqdan iboratligini ifodalaydi va bu natija Landau- Teller tomonidan olingan natijani tasdiqlaydi.


Qaralayotgan temperatura intervalida olingan natijalar gazlarda tebranma relaksatsiya vaqtining ham $T^{-\frac{1}{3}}$ ga bog'lanishining to'g'ri hisoblanganligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Ландау Л.Д., Лифшиц Е.М. Статистическая физика, М.Наука,1986.
- Гордиец Б. Ф.Осипов А.И., Шелепин Л.А. Кинетические процессы в газах и молекулярные лазеры.- М.Наука, 1980 г.
- Ступченко Е.Е., Лосев С.А., Осипов А.И., Релаксационные процессы в ударных волнах, - М.Наука,1965.
- Никитин Е.Е. Теория элементарных атомно - молекулярных процессов в газах. – Химия,1990г.
- Никитин Е.Е., Осипов А.И. Колебательная релаксация в газах. - М. ВИНИТИ, 1987г..
- Семиохин И.А., Страхов Б.В, Осипов А.И. Кинетика химических реакций .- М. МГУ,1995, 351 с.,
- Воскобойников Ю.Е., Задорожный А.Ф., Литвинов Л.А., Черный Ю.Г., Основы вычислений и программирования,Новосибирск,2012, 218 с.
- Осипов А.И., Саматов Г.Б. О механизме колебательной релаксации в жидкостях.- Ж.физ.химия,1991,т.55,№5,1186-1189,

$$P_{10} = 8P_0 P_C V_{10}^2 \left(\frac{\pi}{3} \right)^{\frac{1}{2}} \left[\frac{2\pi\mu\omega}{\alpha^2\hbar} \right]^2 \chi^{\frac{1}{2}} \exp \left[- \left(3\chi - \frac{\hbar\omega}{2rT} - \frac{\varepsilon}{kT} \right) \right] \quad (21)$$

(21) formula asosida VT- ilgarilanma – tebranma energiya almashinish ehtimolligini hisoblaymiz. Natijada ilgarilanma – tebranma energiya almashinish ehtimolligining temperaturaga bog'lanish grafigini azot gazi uchun chizish mumkin. (Rasm.1).



Rasm 1. Gazlarning ilgarilanma-tebranma energiya almashinish ehtimolligining temperaturaga bog'lanish grafigi.

Ko'rinish turibdiki, bog'lanish grafigi egri chiziqdan iborat. Ma'lumki temperaturaviy bog'lanishning ko'rinishi asosan (21) formuladagi $\exp(-3\chi)$ bilan aniqlanadi.[2,3,6-8]

$$\chi = \left(\frac{\pi^2 \mu \omega^2}{2\alpha^2 \kappa T} \right)^{\frac{1}{3}} \quad (22)$$

Agar $\ln P_{10}$ ning $T^{-\frac{1}{3}}$ bog'lanish grafigini chizsak bog'lanish to'g'ri chiziqdan iborat bo'ladi. (Rasm.2).

ILMIY AXBOROT

$$\Delta E_V = \frac{m}{2} (\dot{y}^2 + \omega^2 y^2) |t \Rightarrow \infty \quad (12)$$

(12) ifoda umumiy holda ham integrallanishi mumkin buning uchun (12.) ni quyidagi ko'rinishda qayta yozamiz.

$$\frac{d}{dt} (\dot{y} + i\omega y) - i\omega (\dot{y} + i\omega y) = \frac{1}{m} F(t) \quad (13)$$

(13) ning yechimini aniqlab, ΔE_V uchun quyidagi ifodani olamiz

$$\Delta E_V = \frac{m}{2} (\xi^2) |t \Rightarrow \infty \quad \text{yoki} \quad \Delta E_V = \frac{1}{2m} \left| \int_{-\infty}^{\infty} F(t) e^{-i\omega t} dt \right|^2 \quad (14)$$

Shunday qilib berilgan energiya $F(t)$ kuchning chastotasi sistemaning xususiy chatotasiga teng bo'lgan Fure komponentasi kvadratining moduli bilan aniqlanar ekan. Boshqacha qilib aytganda, chastotasi sistemaning xususiy chatotasiga teng bo'lgan, Fure komponentagini tebranma erkinlik darajalarini g'alayonlantirish (uyg'otish) uchun samarali bo'lar ekan. ΔE_V ni xisoblash uchun $F(t)$ kuchning aniq ko'rinishini aniqlovchi molekulalararo o'zaro ta'sir potensialining ko'rinishini konkretlashtirish zarur.

Hisoblashlar natijasida $\Delta E_V \approx \exp\{-2\omega\tau_{CT}\}$ (15) ko'rinishda aniqlanadi.

$\omega\tau_{CT} \gg 1$ (16) $\omega\tau_{CT}$ kattalik adiabatik faktor bilan mos keladi. Demak molekulalarning tebranma erkinlik darajalarining g'alayonlanish (uyg'onish) jarayoni ko'pchilik molekulalar uchun adiabatik to'qnashishlarda bo'ladi. Bu holda tebranma erkinlik darajalariga beriladigan energiya umumiy nazariyaga asosan eksponensial kichik natija bo'ladi. ΔE_V ni molekulalar aro o'zaro ta'sir uchun aniq hisoblashlar $V = C \exp(-ar_{AB})$ (17)

Bu yerda $r_{AB} = R - \lambda Y$ - A va B atomlarning massa markazlari orasidagi masofa. Bu holda:

$$F(t) = -a \frac{\mu v^2}{2} \frac{m_C}{m_B + m_C} Sch^2 \frac{avt}{2}, \quad (18)$$

ΔE_V uchun esa quyidagi ifoda olinadi

$$\Delta E_V = \frac{a^2 \mu^2 v^4}{(m_B + m_C)^2 8m} \left(\frac{4\pi\omega}{a^2 v^2} \frac{1}{sh \frac{\pi\omega}{av}} \right)^2 \quad (19)$$

$$\text{ifoda } \frac{\pi\omega}{av} \gg 1 \text{ shart bajarilganda } \Delta E_V = \frac{8\pi^2 \omega^2 \mu^2 m_C^2}{(m_B + m_C)^2 a^2 m} \exp\left\{-\frac{2\pi\omega}{av}\right\} \quad (20) \text{ ifodaga}$$

o'tadi. [1-5].

Gazlarda tebranma relaksatsiyaning, VT-almashinish ehtimolligini hisoblash formulasi umumiy ko'rinishda quyidagicha yoziladi.

$$\text{Bu yerda } dZ(v) = N_A d_{AB}^2 (2\pi)^{\frac{1}{2}} \left(\frac{\mu}{kT}\right)^{\frac{3}{2}} \exp\left\{-\frac{\mu v^2}{2kT}\right\} v^3 dv - \text{ birlik vaqtida BC}$$

molekulalarning A atom bilan massa markazlari nisbiy tezligining $v, v + dv$ intervalidagi to'qnashishlar sonini ifodalaydi [1-2].

O'zaro to'qnashayotgan molekulalarning molekulalarning keltirilgan massasi

$$\mu = \frac{m_A(m_B + m_C)}{(m_A + m_B + m_C)} \text{ ga teng.}$$

$\Delta E_V - v$ nisbiy tezlik bilan harakatlanayotgan A atom bilan tebranma erkinlik darajalari uyg'onmagan BC molekulaga bitta to'qnashishda uzatilayotgan energiya. (4) ifodani quyidagicha ifodalash qulay. [12-15].

$$\left. \frac{dE_V}{dt} \right|_{E_V=0} = N_{BC} \int \Delta E_V dZ(v) \quad (5)$$

Bu yerda Z - BC molekulaning birlik vaqtidagi to'la to'qnashishlar soni.

$$\Delta E_V = Z^{-1} \int \Delta E_V dZ(v), \quad (6)$$

$E_V = 0$ relaksatsiya vaqt uchun (2 - 6) larni hisobga olib quyidagi ifodani olamiz

$$\tau_{VT} = \left[Z \overline{\Delta E_V} \left(\exp \frac{\hbar\omega}{kT} - 1 \right) \right]^{-1} \quad (7)$$

$$\overline{\Delta E_V} = \hbar\omega P_{01} \quad (8)$$

To'g'ri P_{01} va teskari o'tish P_{10} ehtimolliklari detal muvozanat prinsipi bilan quyidagicha bog'langan.

$$P_{01} = P_{10} \exp\left\{-\frac{\hbar\omega}{kT}\right\} \quad (9)$$

ni e'tiborga olib tebranma redaksasiya vaqt uchun quyidagi ifodani olamiz.

$$\tau_{VT} = \left[Z P_{10} \left(1 - \exp \left\{-\frac{\hbar\omega}{kT}\right\} \right) \right]^{-1} \quad (10)$$

$\overline{\Delta E_V}$ - yoki P_{0n} ni aniqlash uchun atomning ossillyator bilan to'qnashishi to'g'risidagi dinamik masala yechilishi kerak va $\Delta E_V(v)$ topiladi. Soddalashtirish maqsadida, tebranma harakat energiyasini uzatish uchun eng qulay bo'lgan to'qnashish konfigurasiyasini qarab chiqamiz. A atomning BC molekula bilan to'qnashishini birinchi yaqinlashishda ossilyatorga $F(t)$ g'alayonlantiruvchi kuchning ta'siri sifatida qaraymiz [1,2,4,8].

Ossillyatorning, massa markazi sanoq sistemasiga nisbatan, majburlovchi $F(t)$ kuch ta'siridagi harakatini ifodalovchi harakat tenglamasini quyidagicha yozamiz:

$$\ddot{y} + \omega^2 y = \frac{1}{m} F(t) \quad (11)$$

Uzatilgan (berilgan) ΔE_V energiyaning qiymati quyidagi ifodadan aniqlanadi.

ILMIY AXBOROT

Ikkinchidan, o'rtacha erkin yugirish vaqt masshtabida tebranma relaksatsiya-juda sekin jarayon hisoblanadi. Ta'kidlash kerakki, ba'zi hollarda tebranma relaksatsiyani kimyoviy reaksiyalarga nisbatan tez o'tadigan jarayon deb qarash mumkin. Xulosa qilib aytish mumkinki, birinchi yaqinlashishda tebranma relaksatsiyani yakkalangan holda qarash mumkin. Bu vaqt ichida aylanma va ilgarilanma erkinlik darajalari bo'yicha muvozanat holat o'rnatilgan, ya'ni ilgarilanma va aylanma relaksatsiya jarayonlari tugagan kimyoviy reaksiyalar esa hali boshlanmagan bo'ladi.

O'LCHASH METODLARI VA OLINGAN NATIJALAR MUHOKAMASI

Yuqoridagilarni e'tiborga olib, ushbu maqolada ikki atomli gazlarda tebranma-ilgarilanma energiya almashinish ehtimolligini ko'rib chiqamiz.

Tebranma relaksatsiyani taqqoslanarli darajada sekin jarayon ekanligi uning molekulyar kinetikada uning yuqori darajadagi rolini belgilab beradi. Tebranma relaksatsiya Gersfeld va Rays g'oyalari keyinchalik Knezer, Ziner, Landau va Teller tomonidan o'rganilib rivojlantirilgan.

Endi tebranma relaksatsiya vaqtini hisoblash masalasiga o'tamiz. Tebranma relaksatsiya vaqtini baholash maqsadida quyidagi sistemani qaraymiz. A – inert gaz atomlaridan iborat sistema (inert gaz atomi massasi m_A zarrachalar soni zichligi N_A) gaz tarkibiga relaksatsiyalanuvchi N_{BC} molekulalar aralashtirilgan. (Molekula massasi $m_B + m_C$, zarrachalar soni zichligi N_{BC} $N_{BC} << N_A$) Hamma zarrachalarning massa markazlarining ilgarilanma harakati tezliklari T - temperaturali Maksvell taqsimotiga ega. Molekulalarning tebranma harakat energiyalarining boshlang'ich taqsimoti ixtiyoriy. Faraz qilamiz, bu sistemada tebranma harakat yenergiyasi \mathcal{E}_V sodda relaksasion tenglama bilan ifodalanadi.

$$\frac{d\mathcal{E}_V}{dt} = -\frac{\mathcal{E}_V - \mathcal{E}_V^0}{\tau_{VT}} \quad (1)$$

Bu yerda \mathcal{E}_V -tebranma harakat energiyasining muvozanat holatdagi qiymati.

Energiyaning \mathcal{E}_V va \mathcal{E}_V^0 qiymatlari birlik hajm uchun hisoblanadi. (1) tenglama tebranma relaksatsiya vaqtini τ_{VT} ni aniqlaydi.

$$\tau_{VT} = \frac{\mathcal{E}_V^0}{\frac{d\mathcal{E}_V}{dt}} \mid \mathcal{E}_V = 0 \quad (2)$$

Garmonik ossillyator modeli uchun

$$\mathcal{E}_V^0 = \hbar\omega N_{BC} \left[\exp\left(\frac{\hbar\omega}{kT}\right) - 1 \right]^{-1} \quad (3)$$

$\frac{d\mathcal{E}_V}{dt} \Bigg|_{\mathcal{E}_V=0}$ kattalik quyidagi ifodadan topiladi.

$$\frac{d\mathcal{E}_V}{dt} \Bigg|_{\mathcal{E}_V=0} = N_{BC} \int \Delta E_V dZ(v) \quad (4)$$

**IKKI ATOMLI GAZLARDA TEBRANMA-ILGARILANMA ENERGIYA ALMASHINISH
EHTIMOLLIGINI HISOBBLASH**

**РАСЧЕТ ВЕРОЯТНОСТИ КОЛЕБАТЕЛЬНО-ПОБУДИТЕЛЬНОГО ОБМЕНА
ЭНЕРГИЕЙ В ДВУХАТОМНЫХ ГАЗАХ**

**CALCULATION OF THE PROBABILITY OF VIBRATIONAL-PROMOTIONAL ENERGY
EXCHANGE IN DIATOMIC GASES**

Samatov G'ulom Bozorboyevich¹, Mo'minjonov Sodiq²

¹**Samatov G'ulom Bozorboyevich**

– Guliston davlat universiteti, Fizika-matematika fanlari nomzodi

²**Mo'minjonov Sodiq**

– Guliston davlat universiteti, Fizika yo'nalishi magistranti

Annotasiya

Maqolada ikki atomli gazlarda tebranma relaksatsiya nazariyasi qaralgan. Tebranma-ilgarilanma energiya almashinish ehtimolligini hisoblashda, yakkalangan binar to'qnashuvlar mexanizmiga asoslanilgan. Ushbu mexanizmga tayangan holda azot gazida tebranma-ilgarilanma relaksatsiya jarayoni o'rganilgan va azot gazi uchun almashinish ehtimolligi ma'lum temperatura intervalida hisoblangan hamda energiya almashinish ehtimolligining temperaturaga bog'lanishi o'rganilgan.

Аннотация

В статье рассмотрены теории колебательной релаксации в двухатомных газах. При вычислении вероятности колебательно-поступательного энергия обмена основывались на механизму бинарных столкновений. На основе механизма бинарных столкновений изучены процессы колебательно-поступательной релаксации и вычислены вероятности энерго-обмена, а также зависимость вероятности обмена от температуры.

Abstract

The article considers theories of vibrational relaxation in diatomic gases. When calculating the probability of vibrational-translational energy exchange, we based on the mechanism of binary collisions. On the basis of the mechanism of binary collisions, the processes of vibrational-translational relaxation were studied and the probabilities of energy exchange were calculated, as well as the dependences of the probability of exchange from temperature.

Kalit so'zlar. Relaksatsiya, erkinlik darajasi, ilgarilanma harakat, tebranma harakat, tebranma relaksatsiya, ikki atomli gazlar, tebranma-ilgarilanma relaksatsiya, binar to'qnashuvlar, Maksvell taqsimoti, Energetik sig'im.

Ключевые слова. Релаксация, степень свободы, поступательное движение, колебательное движение, колебательная релаксация, двухатомные газы, колебательная-поступательная релаксация, бинарные столкновения, распределения Максвелла, Энергетический емкость.

Key words. Relaxation, degree of freedom, translational motion, vibrational motion, vibrational relaxation, diatomic gases, vibrational-translational relaxation, binary collisions, Maxwell distributions, Energy capacity.

KIRISH

Gazlarda molekulalarning o'zaro to'qnashish jarayonida energiya almashinish jarayonlarini qaraymiz. Molekulalarning o'zaro to'qnashishlarida ularning tebranma va aylanma holatlari o'zgaradi. Bu o'zgarishlarda ichki energiyaning ortishi (aktivatsiya) yoki ichki energiyaning kamayishi (dezaktivatsiya) sodir bo'ladi. Ilgarilanma harakat energiyasining kamayishi yuz beradi va ilgarilanma harakat teskariga o'zgarishi (VRT-jarayonlar). Agar tebranma o'tishlarda molekulalarning aylanma holati yetarlicha kichik o'zgarsa, bu jarayonlar tebranma va ilgarilanma energiyalarning almashinish jarayonlari VT-jarayonlar deyiladi [1,3]. VRT va VT-jarayonlar ikki atomli molekulaning bir atomli molekula bilan to'qnashish jarayonida sodir bo'ladi.

Gazlarda molekulalarning tebranma harakat erkinlik darajalari bo'yicha energiyaning muvozanatli (yoki stasionar) taqsimotining o'rnatilishiga tebranma relaksatsiya deb ataladi.

Tebranma relaksatsiyaning ilgarilanma va aylanma relaksatsiyadan ajratib turuvchi ikkita muhim hususiyatini ta'kidlaymiz.

Birinchidan, tebranma harakat erkinlik darajalarining energetik sig'imi ilgarilanma va aylanma harakat erkinlik darajalarining energetik sig'imiiga nisbatan katta [2].

ILMIY AXBOROT

3. Mavlonov O. Biologiya (Zoologiya). Umumiy o'rta ta'lim maktabalarining 7-sinfi uchun darslik. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2017. – 208 b.
4. Pratov O., To'xtayev A., Azimova F., Tillayeva. Z. Biologiya. 5-sinfi uchun darslik. T.: "O'zbekiston", 2020. – 94 b.
4. Turdiyev. N.Sh. Fizika. Umumiy o'rta ta'lim maktabalarining 6-sinfi uchun darslik. Qayta ishlangan uchinchi nashr. T.: "Niso Poligraf", 2013. – 174 b.
5. Bahromov A., Sharipov Sh., Nabiyeva M. Tabiatshunoslik. Umumiy o'rta ta'lim maktabalarining 4-sinfi uchun darslik. – T.: "Sharq", 2017. – 115 b.
6. Bahromov A., Sharipov Sh., Nabiyeva M. Tabiatshunoslik. Umumiy o'rta ta'lim maktabalarining 3-sinfi uchun darslik. – T.: "Cho'lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyl", 2019. – 121 b.
7. Asqarov I. R., To'xtaboyev N.X., G'opirov K. G'. Kimyo. Umumiy o'rta ta'lim maktabalarining 7-sinfi uchun darslik. – T.: "Sharq", 2017. – 158 b.
8. Pratov. O., To'xtayev A.S., Azimova. F.O., Saparboyev I.Z., Umaraliyeva M.T. Biologiya. Umumiy o'rta ta'lim maktabalarining 6-sinfi uchun darslik. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 144 b.
9. Zikiryayev A., To'xtayev A., Azimov I., Sonin N. Biologiya (Sitobiologiya va genetika asoslari) Umumiy o'rta ta'lim maktabalarining 9-sinfi uchun darslik. – T.: "Yangiyul Poligraph Service", 2019. – 192 b.
10. Tursunov I.Q., Uzoqova G.S. Tabiiy fanlar integrasiyasining ilmiy dunyoqarashni tarkib toptirishga ta'siri // Fanlarni integrasiyalab o'qitishning pedagogik shart-sharoitlari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.– Toshkent: O'zPFTI, 2007. – B.56-57.
10. Azimov I.T. Biologiya fani bo'yicha O'zbekiston Respublikasi uzlusiz ta'lim milliy o'quv dasturlari. Toshkent – 2021 b. 43-52.
11. Jumanov A.M. "Kimyo" kursini integrativ takomillashtirish asosida bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish (Oliy ta'lim muassasalari misolida).: Diss. p.f.f.d. - Farg'onha, 2022. - 183 s.

Mashg'ulot natijasiga ko'ra refleksiya

Bakteriyalarning tuzilishi va ahamiyati	Bakteriyalarni tuzilishini mikroskop ostida kuzatib oson tushundim.	Mavzuni tushinishda qiznaldim.
Xlorella va xlamidomonada	Xlorella va xlamidomonadani rasmlar asosida taqqoslash orqali tushinib oldim.	Dars zerikarli bo'ldi, chunki biologiya faniga qiziqmayman.
Bir hujayrali hayvonlar harakati	Hayvonlarning harakatini video orqali va fizika darsligidagi mexanik harakat tushunchalarini takrorlash orqalli oson tushinib oldim.	Fizika darsligidagi mavzular mening esimda yo'q.
Darsda	Charchamadim.	Zerikarli bo'ldi.

- IV. Uyga vazifa berish:** a) mavzuni o'zlashtirib kelish;
b) darslikdagi mavzuga oid rasmlarni chizib kelish.

Biologiya fani tushunchalari	kimyo	fizika	tabiatshunoslik
MAVZU: BAKTERIYALAR. PROTISTALAR. ZAMBURUG'LAR			
Bakteriyalarning bijg'ish jarayonidagi ahamiyati	Bijgish jarayonini		
Chirish jarayoni	Kislorod		
Suv			Suv havzalari
Foraminiferalar chig'anoqlari			Ohaktosh konlari
Hayvonlarning harakatlanshi		Mexanik harakat	
Lishayniklarni indikatorlik xususiyati	Indikator		

XULOSALAR

Demak, dars mashg'ulotlarini yuqori saviyada tashkil etish uchun o'qituvchi bilimli, izlanuvchi, madaniyatli va tashkilotchi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Hozirgi fan va texnika rivojlangan davrda har bir fan o'qituvchisi darsni tashkillashtirishda fanlararo integratsiyadan foydalanishi zarurdir.

Yuqoridagi mavzuni tushuntirishda fizika, kimyo, tabiatshunoslik va boshqa tabiiy fanlar ma'lumotlarini bog'lab o'tish dars samaradorligini oshiradi. Masalan:

Bijgish va chirish jarayonlarini 7-sinf kimyo darsligidagi "Kislotalar haqida dastlabki tushunchalar" mavzusiga bog'lab tushuntirish ijobjiy natija beradi.

Foraminiferalar chig'anoqlarining qoldig'i hozirgi ohaktosh konlarini hosil qilishi haqida ma'lumot berish davomida tabiatshunoslik darsligiga bog'lagan holda tushuntirish o'quvchilarda tabiiy boyliklarni asrab-avaylash tuyg'ularini shakkantiradi.

O'quvchilar o'simlik va hayvonlarni suvda yashashlari haqidagi ma'lumotlarni o'rjanib, suvning ifloslanishi va ularni tozalashdagi suvo'tlarning ahamiyati bo'yicha turli eksperimentlar o'tkazishadi, ma'lumot to'plashadi hamda laboratoriya hisobotini tayyorlashadi. Natijada o'quvchilarda nazariy bilimlar bilan birlgilikda amaliy bilimlar kompetensiyalar hosil bo'ladi.

Bizga ma'lumki, tabiiy fanlar o'zaro bog'liq bo'lib, bu bog'liqlikni o'quvchilarga tushuntirib borish lozimdir. Shunda o'quvchilar bitta fanni o'rganish davomida fanlarni o'zaro bog'laydilar va boshqa tabiiy fanlar haqidagi bilimlarga ham ega bo'lib boradilar. Demak, ta'limda fanlararo bog'lanishlarni kuchaytirish barcha fan asoslari bilan qurollangan bilimli yoshlar yetishtirib chiqaradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Зверева Н.М. Практическая дидактика для учителя. Учеб. пособие. М.: Педагогическое общество России, 2001. — 256 с.
- Усова А. В. Естественнонаучное образование в средней школе // Педагогика. 2001. № 9. С. 40–45.
- Максимова Н.В., Груздева Н.В. Межпредметные связи в обучении биологии. – М.: Просвещение, 1987. – 192 с.
- Сараров К.А., Азимов И., Умаралиева М., Тилляева З., Абдурахманова И., Рахматов У., Хайтбайева С., Боронбояева М. Биология. Umumiyo o'rta ta'l'm maktablarining 7-sinfi uchun darslik. – T.: "Pieliable Print", 2022. – 174 b.

ILMIY AXBOROT

8. Spora – (yunoncha spora — sochish, sepish, ekish, urug') zamburug'lar va o'simliklarda ko'payish uchun xizmat qiladigan maxsus hujayra.

9. Zoospora – (zoo – hayvon va yunoncha spora — urug') — ko'pchilik [suv](#) o'tlari va tuban zamburug'larning jinssiz ko'payishi va tarqalishi vazifasini bajaruvchi harakatchan hujayrasi.

10. Izogameta – (yunoncha izo – o'xhash, gameta — xotin, gametes — er) hayvon va o'simliklarning jinsiy hujayralari.

11. Kokk – sharsimon bakteriya.

12. Batsilla – silindrsimon bakteriya.

13. Spirilla – spiralsimon bakteriya.

14. Vibrion – vergulsimon bakteriya.

15. Sianobakteriya – (*ing. Cyanobacteria*) fotosintetik bakteriyalardir.

16. Sil – turli a'zolar, asosan, o'pkada o'ziga xos yallig'li o'zgarishlar ro'y berishi bilan tavsiflanadigan yuqumli surunkali kasallik.

17. Vabo – (cholera) — ingichka ichakning zararlanishi, intoksikatsiya, umumi ahvolning og'irlashuvi va organizmning suvsizlanishi bilan davom etadigan o'tkir infektion kasallik; o'ta xavfli ichak kasalliklaridan.

18. O'lat – toun — odam va hayvonlarning o'tkir yuqumli karantin kasalligi. Odamda umumi ahvolning og'irlashishi, intoksikatsiya, tana haroratining ko'tarilishi, limfa bezlari, o'pka va boshqalar a'zolarda yallig'lanish, sepsis rivojlanishi bilan kechadi.

19. Dizenteriya, ichburug' – (diz... va yun. enteron — ichak), ichburug' — yo'g'on ichakning zararlanishi (bot-bot ich ketishi va qorinning burab og'rishi) va organizmning zaharlanishi (bo'shashish, holdan toyish, bosh og'rig'i, harorat ko'tarilishi, ko'ngil aynishi, ba'zan qayt qilish) bilan kechadigan o'tkir infektion kasallik.

20. Qoqshol – o'tkir infektion kasallik; nerv sistemasining qoqshol bakteriyalari toksinidan zararlanishi natijasida organizmdagi turli muskul guruhlarining tortishishi bilan kechadi.

21. Epidemiya – (epi... va yun. yelo — xalq) — infektion kasalliklar ma'lum hududda, odatdagidan ko'p tarqalishi.

22. Gifa – (yun. hyphe — to'qima) — zamburug'larning vegetativ tanasi — mitseliysini tashkil etuvchi, har tomonga tarqalgan mikroskopik ipchalar.

23. Tallom – (yun. thallos — novda, o'simta), tanacha — tuban o'simliklar (suvo'tlar, zamburug'lar, miksomitsetlar, lishayniklar, ayrim jigarsimon yo'sinlar) ning novda va barglarga bo'linmagan yaxlit tanasi.

24. Pigment – (lot. Pigmentum — bo'yoq) — (biologiyada) organizmlar to'qimalari tarkibiga kiradigan bo'yoq birikmalar.

25. Fagositoz – ([yunoncha](#): phagos — yeyish, oziqlanish va cytos — [hujayra](#)) — [bir hujayrali organizmlar](#) yoki ko'p hujayralilarning ayrim hujayralari tomonidan begona mikroskopik tirik organizmlar ([bakteriyalar](#), hujayra parchalari), qattiq zarrachalarning faol qamrab olinishi va utilishi

Topshiriqlar:

1. Yashil evglena va tufelka infuzoriyasining o'xhashligi va farqini "Venn diagrammasi" da ifoda eting.

2. Quyidagi masalani ishlang:

Ulotriksning jinsiy va jinssiz ko'payishi natijasida jami 144 ta ulotriks ipi hosil bo'ladi. Jinssiz ko'payishdagi zoosporalar jinsiy ko'payishdagi zigotalardan 2 barobar kam. Jinsiy ko'payishdan hosil bo'lgan ulotriks iplari sonini toping.

3. Quyidagi jadvalni to'ldiring:

No	Organizm nomi	Hujayrasining tuzilishi	Oziqlanishi
1	Xlorella		
2	Ulotriks		
3	Laminariya		
4	Bakteriya		
5	Qalpoqchali zamburug'		
6	Lishaynik		
7	Oddiy amyoba		

mevatanasi esa yer yuzasiga o'sib chiqadi. Mevatana oyoqcha va qalpoqchadan iborat. Qalpoqchasida sporalar hosil bo'ladi. Qalpoqchali zamburug'lar saprofit organizmlar bo'lib, tuproqdag'i o'simlik qoldiqlarini parchalab tuproqni minerallarga boyitadi. Qo'zqorin, qo'zidumba, oqqayin zamburug'lari iste'mol qilinadi. [6; 31-b].

Zamburug'lar tuproqda bakteriyalar, aktinomitsetlar va mikroorganizmlar bilan birligida organik moddalarni parchalab, sanitarlik vazifasini bajaradi va tabiatda moddalar aylanishida ishtirok etadi.



10-rasm. Lishaynik turlari.

Lishayniklar (*lotincha: Lichenes*) zamburug'lar va suvo'tlari va yoki sianobakteriyalarning simbiotik munosabatidagi organizmlardir. Biroq lishayniklar morfoloyiyasi, fiziologiyasi va biokimyosi zamburug' va suvo'tlarnikidan farq qiladi. Lishayniklar tarqalish areali nihoyatda xilma-xil bo'lib, ularni barcha mintaqada jumladan,sovutq, nam iqlimda ham, issiq, cho'l sharoitida ham uchratish mumkin. Ular atrof-muhit o'zgarishini sezaladilar. Lishayniklardan bo'yoq, atir-upa ishlab chiqarishda hamda tabobatda foydalaniladi.

Lishayniklarning 26 000 ga yaqin turi fanga ma'lum. Lishayniklarning tanasi, rangi va shakli har xil. Lishayniklar sporalar yordami bilan shuningdek, vegetativ yo'l bilan ko'payadigan avtotrof organizmlardir. Lishayniklar tashqi ko'rinishiga ko'ra uchta turga bo'linadi. 1. Yopishqoq; 2. Bargsimon; 3. Butasimon [12; 23-b].

Toza havoni talab etuvchi lishayniklardan atmosfera havosining ifloslanganlik darajasini aniqlashda indikator sifatida foydalanish mumkin [12; 24-b].

Lishayniklarni indikatorlik xususiyatini tushuntirish davomida 7-sinf kimyo darsligidagi "Kislotalar haqida dastlabki tushunchalar" mavzusiga integratsiya qilish orgali tushuncha beriladi.

Moddalarning maxsus xossalari bilan bog'liq ravishda rangini o'zgartiruvchi sinov moddalari indikatorlar deb ataladi [10; 69-b].

Lishayniklarning kishilar hayotidagi ahamiyati katta. Lishayniklardan ajratib olingen ekstraktlar atir-upa mahsulotlariga, kosmetika mahsulotlariga o'ziga xos hid berish uchun foydalaniladi. Cho'llarda uchraydigan lishaynik manna iste'mol qilinadi. Lishaynik cho'llarda, qoya toshlarda paydo bo'lib, tog' jinslarining yemirilishiga yordam beradi. Yemirilgan tog' jinslaridan yupqa tuproq qatlami hosil bo'ladi [12; 24-b].

Asosiy tushunchalar:


1. **Bakteriya** – (yunoncha so'zdan olingen bolib. bakterion — tayoqcha degan ma'noni bildiradi) — bir hujayrali mikroorganizmlarning katta guruhi.
2. **Protista** – (proutist) har qanday eukariot organizm.
3. **Zamburug'** – (Fungi yoki Mycetes) eukariot organizmlar dunyosi (bo'limi).
4. **Lishaynik** – (*lotincha: Lichenes*) zamburug'lar va suvo'tlari va yoki sianobakteriyalarning simbiotik majmualari bo'lmish organizmlardir.
5. **Mikroorganizm** – (*grekcha: mikros* — kichik, *bios* — hayot) — asosan, bir hujayrali mikroskopik tirik mavjudotlarning katta guruhi.
6. **Rizoid** – yunoncha ildizga o'xshash degan ma'noni anglatadi
7. **Mikroskop** – (mikro — kichik va yunoncha skopeo — qarayman) — mikrozarralarni, ko'zga ko'rinxaymaydigan juda mayda narsalarni kattalashtirib ko'rsatadigan optik asbob.

ILMIY AXBOROT

yashayotgan joyidan siljishi mexanik harakat ekanligini tushuntiradi. Har qanday mexanik harakat natijasida turli jonivorlar, odamlar ma'lum vaqt o'tishi mobaynida turgan joyidan boshqa tomonlarga harakatlanishi-mexanik harakat ekanligini uqtiradi [7;31-b].

Jismlar harakatlanganda fazoda iz qoldiradi. Bu iz trayektoriya deyiladi. Bosib o'tgan yo'l deb jismning harakat trayektoriyasining uzunligiga aytildi [7; 31-b].


Tripanosoma, leyshmaniya odamlarda parazitlik qilib, turli kasallikkarni keltirib chiqaradi. Parazit xivchinilar geterotrof organizmlardir [4; 14-b].



8-rasm. Yashil evglena.

1-sitoplazma; 2-xivchin; 3-qizil ko'zcha; 4-hujayra qobig'i; 5-yadro; 6-zaxira oziq qoldiqlari; 7-qisqaruvchi vakuola.

Infuzoriyalar tipi, kiprikli infuzoriyalar sinfiga mansub **tufelka infuzoriyası** chuchuk suv hafzalarida uchraydi. Tana shakli poyabzalning ostki qismiga o'xshaydi. Infuzoriyaning tanasi kipriklar bilan qoplangan bo'lib, kipriklarning tebranishi tufayli tufelka to'mtoq tomoni bilan oldinga harakatlanadi. Infuzoriyalar geterotrof usulda oziqlanadi [4; 14-b].



9-rasm. Yashil evglena.

1-kipriklar; 2-katta yadro; 3-hazm qiluvchi vakuol; 4-qisqaruvchi vakuol; 5-hujayra membrana; 6-chiqarish teshigi; 7-endoplazma; 8-og'iz bo'shlig'i; 9-kichik yadro; 10-ektoplazma.

Zamburug'larning - (Fungi yoki Mycetes) — eukariot organizmlar dunyosi (bo'limi). Tayyor organik moddalar hisobiga yashaydi, ya'ni geterotrof organizm hisoblanadi. Odatda o'simliklarda, tuproqda, suvda, hayvonlarda yoki ularning qoldiqlarida hayot kechiradi. Oziqlanish usuliga qarab parazit va saprofitga bo'linadi. Zamburug'larni mikrobiologiya fani o'rGANADI. Zamburug'lar yashashi uchun ozuqa, harorat va namlik yetarli bo'lishi kerak, yorug'lik bo'lishi shart emas.

Zamburug' turlari: 1) achitqi zamburug'i - ovalsimon, bir hujayrali bo'lib, ulardan non yopishda foydalaniladi. 2) Achitqi zamburug'lar vino, non, pivo tayyorlashda ishlataladi. Mog'or zamburug'i nonning sifatini buzadi, undan ajralgan toksinlar odamning zaharlanishiga olib kelishi mumkin. Lekin ayrim mog'or zamburug'i turlaridan bakteriyalarga qarshi dori - antibiotik olish mumkin [6; 31-b].

3) Qalpoqchali zamburug'lar ko'p hujayrali bo'lib, organik qoldiq moddalarga boy nam tuproqlarda ko'p uchraydi. Ularning vegetativ tanasi tuproq ostida joylashgan. Zich gifalardan iborat

Dengizlarda soxta oyoqlilardan ohak chig'anoqli foraminiferalar va kremniy skeletli narsimonlar uchraydi. Million yillar davomida nobud bo'lgan foraminifera chig'anoqlari qoldig'idan ohaktosh konlari hosil bo'lgan [4; 14-b].

Foraminiferalar chig'anoqlarining qoldig'i hozirgi ohaktosh konlarini hosil qilishi haqida tushuncha berish jarayonida 3-sinf tabiatshunoslik darsligidagi "Qurilishda foydalaniladigan qazilma boyliklar" mavzusini eslatilgan holda tushuncha berilib, o'quvchilarda tabiiy boyliklarni asrash to'g'risida ko'nikma hosil qilinadi.

Ohak ham tosh kabi qattiq bo'ladi. Shuning uchun uni ohaktosh deyiladi. Ohaktosh maydalaniib, oq mayda shag'alga aylantiriladi. Oq shag'alga turli ranglar qo'shib, bino va xonalarning devori rang-barang qilib bezatiladi. "Yoshlar ijod saroyi" ning devorlarini bezashda ohaktoshdan foydalanilgan [9; 39-b].

Misr piramidalarini qurilishida ham bir hujayrali hayvonlarni ahamiyati haqida o'qituvchi o'quvchilarga ma'lumotlar beradi. Bir hujayrali hayvonlar vakili hisoblangan foraminiferalar chig'anoqlarining qoldig'idan ohaktosh konlari hosil bo'lgan. Bu ohaktoshlardan piramidalarni qurilishida foydalanishgan [9; 39-b].

Odam va sutemizuvchilar ichagida yashaydigan ichburug' amyobasi ichburug' kasalligiga sabab bo'ladi. Amyobiaz ya'ni qonli ichburug' kasalligining belgilari qorin og'rishi, ishtahaning yo'qolishi, yiring va qon aralash ich ketishi kabi belgilari yuzaga keladi. Kasallikni oldini olish choralariga ovqat iste'mol qilishdan oldin qo'lni yaxshilab yuvish, xomligicha yeyiladigan sabzavot va boshqa masalliqlami yaxshilab yuvib yeyish, pishirilgan ovqat va ichiladigan suvni yopiq idishlarda saqlash, pashshalarni yo'qotish (chunki ular dizenteriya amyobasining sistalarini mexanik ravishda tashiydi) kabi sanitariya-gigiyena qoidalariiga rioya qilish kabilar kiradi.

Evglena yashil rangda bo'lishi va fotosintez qilishi bilan o'simliklarga o'xshaydi, xivchinlari yordamida hayvonlarga o'xshab erkin harakatlanadi.

Hayvonlarning harakatlanishini tushuntirish jarayonida 6-sinf fizika darsligidagi "Jismarning mexanik harakati. Trayektoriya" mavzusiga bog'lagan holda, jismlar harakati to'g'risidagi bilimlarni esga tushirib olinadi. Buning uchun o'quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1-savol. Harakat nima, misollar keltiring.

2-savol. Qanday harakatni ilgarilama harakat deymiz, misollar keltiring.

3-savol. Tebranma harakatni izohlang, misollar keltiring.

O'qituvchi o'quvchilarning berilgan savollarga javoblarini tinglab, kamchiliklarini to'ldirgan holda tabiatdagi barcha narsalar harakatda ekanligi, sayyoralar, yer harakati, transport vositalari, tirik organizmlarning barchasi harakatda ekanligi, harakatlar ilgarilama va tebranma kabi ikki xil bo'lishini ta'kidlab, ularga bir qator misollar keltiradi. So'ngra u jismlar harakati mexanik harakat deyilishi, har bir narsa ma'lum davr mobayida ayrim joyda turishi, biroq shu jism vaqt o'tishi bilan turgan joyidan ma'lum tomonga siljishini mexanik harakat deyilishini, tabiatdagi juda ko'p narsalar mexanik harakatda, ular o'rganadigan hayvonot dunyosi vakilari ham o'z turgan joylaridan boshqa tomonlarga ko'chib doimo harakatda bo'lishini, bugun o'rganiladigan bir hujayrali hayvon-amyoba, evglena, infuzoriyalar ham hayotini mo'tadil o'tishi uchun doimo suvda harakatlanib yurishini tushuntiradi.

Bugun o'rganilishi kerak bo'lgan amyoba ham suvda yashar ekan ozuqa topish, suvdagi noqulay sharoitlardan himoyalanish uchun harakatda bo'lishi, bu hayvonlar harakatlanishida hujayrasida paydo bo'ladigan yolg'on oyoqlaridan foydalanishini amyoba to'g'risidagi videolavhadan uning harakatlanishini namoyish qiladi. Amyoba hujayrasi sirtida qalin qattiq qobiq bo'lmaganligidan sitoplazmasi qaysi tomonga oqib o'tsa, tanasining o'sha tomoni bo'rtib chiqib, "soxta oyoqlar" deb ataladigan muvaqqat o'simtalar hosil qiladi. Amyobaning harakatini bir tomchi suvning oqishiga o'xshatish mumkin. Soxta oyoqlar to'xtovsiz hosil bo'lib va yo'qolib turganidan amyobaning tana shakli ham o'zgarib turadi. So'ngra o'qituvchi suvda yashovchi bir hujayrali hayvonlarning boshqa vakillari yolg'on oyoq bilan bir qatorda hujayrasida bo'lgan xivchin va kipriklaridan foydalanishlariga to'xtaladi.

"Jismarning bosib o'tgan yo'lli haqida nimalarni bilasiz?" kabi savollarni berish orqali 6-sinf fizika darsligidagi "Jismarning mexanik harakati. Trayektoriya" mavzusi yodga olinadi va barcha o'quvchilardan harakat tushunchasini eslab olishlari so'raladi. So'ngra o'qituvchi o'quvchilarga mexanik harakat haqida ma'lumot beradi.

Mexanik harakat deb, jismarning vaqt o'tishi bilan fazoda joylashgan o'rning boshqa jismlarga nisbatan o'zgarishiga aytilishi, binobarin, bir hujayrali hayvonlarni ham suvda

ILMIY AXBOROT

Laminariya - ko'p hujayrali qo'ng'ir suvo'ti bo'lib, asosan, dengizda uchraydi. Suvo'tning tanasi tasmasimon, rizoidi bilan suv tubiga birikib turadi. Tarkibida yod moddasi ko'p uchraydi. Iste'mol qilingani uchun "dengiz karami" deb ham ataladi [6; 42-b].

Suvo'tlar fotosintez qilishi tufayli suvni kislorod bilan ta'minlaydi, suv jonivorlari uchun ozuqa hisoblanadi. **Laminariya**, **nemalion** va **ulva** kabi dengiz suvo'tlari iste'mol qilinadi. Ayrim dengiz suvo'tlaridan yod, brom olinadi. Xlorella va xlamidomonadadan suv havzalarini tozalashda foydalilaniladi [4; 14-b, 6; 41-b].




6-rasm. Dengiz suvo'tlari. 1-porfira; 2-laminariya.

Sarkomastigoforalar soxta oyoqlilar va xivchinlilar sinflariga bo'linadi. Soxta oyoqlilar sinfiga mansub oddiy amyoba ko'lma suvlar tubida hayot kechiradi [4; 14-b].

Amyobaning yashash muhiti suv ekanligini tushuntirish uchun 4-sinf tabiatshunoslik darsligidagi "Suv havzalari" mavzusi bilan integratsiya qilish orqali tushuntiriladi.


Tanasi 0,2–0,5 mm, shaffof. Sitoplazmaning harakati tufayli soxta oyoqlar uzluksiz hosil bo'ladi va yo'qolib turadi, shuning uchun amyobaning tana shakli doimiy emas. Amyoba geterotrof organizm bo'lib, suv o'ti, bakteriya va organik qoldiqlar bilan oziqlanadi. Oziqqa duch kelgan amyoba soxta oyoqlari yordamida fagositoz usulida oziqni qamrab oladi [4; 14-b].



7-rasm. Oddiy amyoba.

1-hazm qiluvchi vakuola; 2-sitoplazma; 3-yadro; 4-qisqaruvchchi vakuola; 5- soxta oyoqlar; 6-membrana.

Daryo va soylarda ko'p uchraydigan belbog'li ulotriks suv ostidagi tosh va boshqa narsalarga rizoidi yordamida yopishib o'sadi. Rizoid - yunoncha ildizga o'xshash degan ma'noni anglatadi, tuzilishi bo'yicha ildiz tukchalariga o'xshaydi. Ulotriks - xromatofori belbog' shaklida joylashgan ko'p hujayrali yashil ipsimon suvo't. Tallomi shoxlanmaydi [6; 41-b].




4-rasm. Ulotriks hujayrasini tuzilishi va ko'payishi.

1- hujayra qobig'i; 2- sitoplazma; 3- yadro; 4- belbog'li xromatofori; 5-izogameta; 6- gametalarni qo'shilishi; 7- zigota; 8- xivchinsiz sporalar; 9- jinsiy ko'payishdan hosil bo'lgan ulotriks ipi; 10- zoospora; 11- jinssiz ko'payishdan hosil bo'lgan ulotriks ipi.

Ulotriks qulay sharoitda jinssiz, noqulay sharoitda jinsiy ko'payadi. Jinssiz ko'payganda to'rt xivchinli zoospora hosil qiladi. Zoosporalar xivchinlari yordamida suzib, uzoqroqqa borib o'rashadi. Undan yangi ulotriks ipi o'sib chiqadi. Jinsiy ko'payishi ikki xivchinli izogametalar orqali amalga oshadi. Izogametalar bir-biriga o'xshaydi. Ikkita izogameta qo'shilib zigota hosil qiladi. Zigota qalin po'st bilan o'ralib tinim davrini o'taydi. Qulay sharoitda to'rtta hujayraga bo'linadi. Har bir hujayradan yangi ulotriks ipi rivojlanadi [6; 41-b].

Spirogira - rizoidsiz ko'p hujayrali suvo't. Chuchuk suv hafzalari yuzasida boshqa suvo'tlar bilan birga "baqa to'nlnarni" hosil qiladi. Tallomi och yashil rangda, shilimshiq bilan o'ralgan. Xromatofori spiralsimon buralgan. Spirogira baliq va baqalarning harakati, suv oqimi ta'sirida tallomining bo'laklarga bo'linishi natijasida ko'payadi [6; 41-b].



5-rasm. Spirogira.

1-hujayra qobig'i; 2-vakuol; 3-sitoplazma; 4-xromatofor; 5-oqsil; 6-yadro.

Porfira - qizil suvo't bo'lib, tallomi bir qavat hujayralardan iborat. Keng, chetlari kungurador qattananing uzunligi bir metrdan oshadi. Rizoidi yordamida suv ostiga birikib o'sadi. Dengizda uchraydi. Xromatoforida xlorofill pigmentidan tashqari qizil rang beruvchi antotsian pigmenti ham bo'ladi. Iste'mol qilinganligi sababli "dengiz salati" deb ataladi [6; 42-b].

ILMIY AXBOROT

tadbirlariga amal qilishi lozim. Ayrim o'simliklar bakteriyalarga qarshi fitonsid modda ajratadi. Masalan, archa, terak o'zidan ajratgan fitonsid modda bilan havoni zararli bakteriyalardan tozalaydi. Bakteriyalar tabiatda katta ahamiyatga ega. Insonlar foydali bakteriyalardan amaliyotda foydalanadi, zararlilariga qarshi kurashadi [6; 29-b].


Protistalar dunyosiga bir va ko'p hujayrali sodda organizmlar: Sarkomastigoforalari, Infuzoriyalar, Sporalilar tiplari hamda Yashil suvo'tlar, Qizil suvo'tlar, Qo'ng'ir suvo'tlar bo'limlari kiradi [4; 13-b].

Hozirgi vaqtida suvo'tlaming fanga ma'lum bo'lgan turlari 30 000 ga yaqin. Suvo'tlar bo'limini algologiya fani o'rganadi. Suvo'tlar tanasi bir va ko'p hujayradan tuzilgan bo'lib, to'qima va organlarga bo'linmagan tana tallom deyiladi. Barcha suvo'tlar avtotrof organizmlardir. Barcha suvo'tlar xromatoforga ega. Xromatoforda pigment joylashgan bo'ladi. Suvo'tlar tarkibidagi pigment (rang beruvchi modda) turiga ko'ra qizil, yashil, qo'ng'ir suvo'tlarga bo'linadi. Bir hujayrali suvo'tlarga xlorella va xlamidomonada; ko'p hujayrali suvo'tlarga ulotriks, spirogira, porfira, laminariya misol bo'ladi [11; 94-95 b].

Oddiy xlorella hujayrasi yupqa va mustahkam qobiq bilan o'ralsan. Hujayrada sitoplazma va yadrodan tashqari fotosintez funksiyasini bajaruvchi xloroplastlar ham joylashgan. Xlorella suv hamda unda erigan karbonat angidrid va minerallarni ham po'sti orqali shimb oladi. Yorug'lik ta'sirida xromatoforda organik moddalarni sintezlab avtotrof oziganadi. Suvni kislorodga boyitadi. Oqsilga boy bo'lganligi sababli chorva mollari uchun ozuqa sifatida ishlataladi [11; 95-b].


Xlorella juda tez ko'payadi. Bir kecha-kunduz yashagan har bir yosh hujayra bo'linishni boshlaydi. Bitta xlorella avlodni bir oy ichida ko'payib, bir necha millionga yetishi mumkin. Kuz kelishi bilan xlorella qalin, zinch qobiqqa o'ralib, sporaga aylanadi va shu holda qishlaydi. Bahor kelib, qulay sharoit tug'ilgach, spora shaklida qishlagan hujayraning oddiy bo'linishi natijasida bir necha xlorella hosil bo'ladi. Ular hujayra qobig'ini yorib chiqadi va mustaqil hayot kechira boshlaydi [11; 96-b].

Xlamidomonadadoshlar oilasiga mansub bir hujayrali suvo't – azotli birikmalarga boy suv havzalarida uchraydi. Xlamidomonada - yadro va qisqaruvchi vakuolga ega yashil suvo't. Qizil ko'zchasi yorug'likni sezadi. Xivchinlari yordamida yorug'likka qarab harakatlanadi. Kosachasimon xromatoforda yashil xlorofill pigmenti bo'lishi bilan xlorellaga o'xshaydi. Ortiqcha ozuqani hujayrasida to 'playdi. Xlamidomonadanı akvarium devorida ham uchratish mumkin. Bu suvo'tdan ifloslangan suv havzalarini tozalashda foydalaniladi [11; 96-b].




2-rasm. Xlorella.

1- sitoplazma; 2 - xromatofor; 3 - yadro; 4 - hujayra qobig'i.



3-rasm. Xlamidomonada.

1- xivchin; 2 - qizil ko'zcha; 3 - yadrocha; 4 -yadro; 5 - hujayra qobig'i; 6 - oqsil; 7 - kraxmal donalari; 8 - xromatofor; 9- sitoplazma; 10- qisqaruvchi vakuol;



1-rasm. Kokk – sharsimon, Batsilla – silindrsimon, Spirilla – spiralsimon, Vibron – vergulsimon

Bakteriyalar ancha sodda tuzilgan. Ularning yadrosi bo'lmaydi, shunga ko'ra prokariot organizm deyiladi. Qulay sharoitda, ya'ni oziqa va harorat yetarli bo'lganda bakteriyalar har 20-30 daqiqada bo'linib ko'payadi. Bakteriyalar noqulay sharoitda zichlashib, qalin qobiq bilan o'ralib spora hosil qiladi. Bakteriya sporasi +140°C -253 °C ga bardosh bera oladi. Bakteriya spora holida uzoq yillar saqlanib qolishi, qulay sharoit kelishi bilan hayotini davom ettirishi mumkin [6; 27-b].

Bakteriya turlari. Bakteriyalarning foydali va zararli turlari mavjud. Foydali bakteriyalarga sianobakteriya, achituvchi bakteriyalar, tugunak bakteriyalar va chirituvchi bakteriyalar kiradi [6; 27-b].

Sianobakteriyalar avtotrof organizmlar, chirituvchi, achituvchi, tugunak, parazit bakteriyalar tayyor organik moddalar bilan oziqlanuvchi geterotrof organizmlardir [4; 13-b].

Achituvchi bakteriyalardan sut mahsulotlari: qatiq, pishloq, yogurt tayyorlashda foydalilanadi. Masalan, qatiq tayyorlashda sutga tomizg'i solinadi. Tomizg'i - bu sut tarkibidagi uglevodlarni parchalab, sut kislotaga aylantiruvchi bakteriyalar yig'indisi hisoblanadi. Tuzlama tayyorlashda sabzavotlar solingan idishga tuzli suv quyiladi. Sabzavotlar sirtida mavjud bo'lgan achituvchi bakteriyalar sho'r muhitda ko'payib, glyukozani sut kislotaga aylantiradi va sabzavotlar chirishining oldini oladi. Bu jarayon bijg'ish deb ham ataladi [6; 27-28 - b].

Bijgish jarayonini 7-sinf kimyo darsligidagi "Kislotalar haqida dastlabki tushunchalar" mavzusiga bog'lab tushuntirish ijobjiy natija beradi.

Tabiatda turli xildagi kislotalar uchraydi. Sitrus mevalarda (limon, apelsin, mandarin) limon kislotasi, ho'1 mevalarda (olma, behi, anor) olma kislotasi, otqulop yoki shovul barglarida shovul kislotasi, chumolilarning qorin qopchiqlarida (asalari zahari va qichitqi o't ignachalarida ham) chumoli kislotasi bo'ladi. Ba'zida ovqatga sirka kislotasi qo'shib iste'mol qilinadi. Sirka kislotasi uzum yoki olmani bijg'itib olinadi [10; 69-b].

Chirituvchi bakteriyalar. Chirituvchi bakteriyalar Yer yuzidagi nobud bo'lgan organizm qoldiqlarini mineral moddalgargacha parchalab, tabiatda tuproq hosil bo'lishida ishtirok etadi. Chirituvchi bakteriyalar faoliyat natijasida hosil bo'lgan mineral moddalar o'simliklar tomonidan o'zlashtiriladi. Ba'zan chirituvchi bakteriyalar oziq-ovqatlarni, san'at asarlarini chiritib, yaroqsiz holatga keltirishi bilan zarar keltiradi [4; 13-b].

Chirish jarayoni uchun kislorod zarurligini bilishlari uchun biz 7-sinf kimyo darsligidagi "Kislorodning kimyoviy xossalari. Biologik ahamiyati va ishlatalishi" mavzusini o'quvchilarning yodiga solishimiz kerak.

O'lgan organizmlarni yemirilishi va chirishida ham kislorod muhim ahamiyatga ega [10; 59-b].

Tugunak bakteriyalar dukkakdoshlar oilasiga kiruvchi o'simliklar ildizida simbioz (hamkorlikda) yashaydi. Ular atmosferadagi erkin azotni o'zlashtirib, o'simliklarga yetkazib beradi, o'simliklar esa bakteriyalarni oziq moddalar bilan ta'minlaydi. Ularning hamkorligi har ikkala organizmga ham foyda keltiradi. Tuproqni azotga boyitishda bedadan keng foydalilanadi [6; 28-b].

Parazit bakteriyalar tirik organizm hisobiga yashab hayot kechiradi. Parazit bakteriyalar odamda sil, vabo, o'lat, ichburug', qoqshol kabi kasalliklarni keltirib chiqaradi. Yuqumli kasalliklarning yoppasiga tarqalishi epidemiya deyiladi. Epidemiyaning oldini olish uchun karantin e'lon qilinadi, ya'ni odamlarning to'planishi, bemor oldiga ko'pchilikning kirib-chiqishi taqilanganadi. Bemorning idishtovoqlari, sochig'i alohida tutiladi va bakteriyalardan tozalovchi moddalar yordamida yuviladi. Kasal bo'lmashlik uchun gigiyena qoidalariga rioxva qilish, ovqatlanishdan oldin doimo qo'lni sovunlab yuvish zarur. Har bir o'quvchi parazit bakteriyalardan saqlanish chor-

ILMIY AXBOROT

I. Q. Tursunov, G. S. Uzoqovalar Tabiiy fanlar integrasiyasini – fizika, kimyo, biologiya, geografiya, astronomiya fanlari o'rganadigan tabiatga oid g'oya, tushuncha, qonun, hodisalarni bir butun (yaxlit) holatga keltirib, o'quvchi va talabalarga umumlashgan yagona (bir butun) ta'lif berish jarayoni ekanligi to'g'risida ishlari mayjud [4; 19-b.].

Odatda integratsiya darslari o'qitiladigan fanlarning barcha mavzularida foydalanish dars samaradorligini oshirishga hizmat qiladi. Hozirgi kunda Tabiiy fanlarni o'qitishda fanlararo integratsiya masalalari biologiya, fizika va kimyo fanlarining mazmuni ochib berishda katta ahamiyatga ega. Biologiya fizika va kimyo fanlari bilan solishtirganda atrof-muhit haqidagi bilimlarni ko'proq qabul qilish imkonini beradi. Integratsiyani biologiya darslarida qo'llash uchun quyidagi dars ishlanmani o'qituvchilar qo'llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

MAVZU: BAKTERIYALAR. PROTISTALAR. ZAMBURUG'LAR

Darsning ta'limi maqsadi: o'quvchilarga bakteriya, protista, zamburug', lishayniklarning xilma-xilligi, yashash muhiti, tashqi tuzilishi, ahamiyatini kimyo, fizika va geografiya fanlari mushtarakligida tushinrish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: bakteriya, protista, zamburug', lishayniklarni tabiatdagi ahamiyati haqida tushunchalar berish orqali tabiatni asrab-avaylash tuyg'ularini shakllantirish. Sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilish ruhida tarbiyalash.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: darsliklar, qo'shimcha adabiyotlar va internet ma'lumotlaridan mustaqil foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Dars jihozlari: bakteriya, protista, zamburug', lishayniklarni rasmlar yoki jadvallar, mavzuga oid slaydlar, tarqatma materiallar, kompyuter, mavzuga oid videolar 4-sinf tabiatshunoslik, 3-sinf tabiatshunoslik, 6-sinf fizika va 7-sinf kimyo darsliklari.

Darsda foydalaniladigan texnologiyalar: suhbat, ko'rgazmali, klaster va venn diagrammasi.

Asosiy tushunchalar: bakteriya, protista, zamburug', lishaynik, mikroorganizm, rizoid, mikroskop, spora, zoospora, izogameta, kokk, batsilla, spirilla, vibrion, sianobakteriya, sil, vabo, o'lat, ichburug', qoqshol, epidemiya, sarkomastigofora, gifa, tallom, pigment, vegetativ, fagositoz, mevatana.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- salomlashish;
- davomatni aniqlanish;
- o'quvchilar va xonaning darsga tayyorligini tekshirish.

II. O'tilgan mavzuni takrorlash:

O'quvchilarni quyidagi savollar asosida o'tilgan mavzuni qanchalik o'zlashtira olganligini sinab ko'ramiz:

- Kislород manbai suv ekanligini qaysi tajriba orqali bilishimiz mumkin.
- Geterotrof va avtotrof oziqlanish nima, unga misol keltiring?
- Prokariot organizmlarga xos xususiyatlarni sanab bering.
- Sistematika qanday fan?

III. Yangi mavzu bayoni:

Bakteriyalar hamma joyda yashaydi. Ularni bir tomchi suvda, tuproqda, suv hafzalarida, havoda, o'simlik, hayvon va odam tanasida, oziq-ovqat mahsulotlarida, hatto abadiy muzliklarda ham uchratish mumkin. Ochiq havoda bakteriyalar kam, odamlar gavjum joylarda, masalan, kinoteatr, vokzal, sind xonalarida juda ko'p bo'ladi. Shuning uchun binolarni tez-tez shamollatish zarur. Bakteriyalar ko'zga ko'rinas, bir hujayrali, kichik organizmlar bo'lib, ular **mikroorganizmlar** yoki **mikroblar** deb ataladi (yunoncha “**mikros**” so'zidan olingan bo'lib “**kichik**” degan ma'noni bildiradi). Ularni mikroskop yordamida kuzatish mumkin. Mikroblarni mikroskop ostida birinchi marta gollandiylilik olim **A. Levenguk** ko'rgan. Bakteriyalarni mikrobiologiya fani o'rganadi [4;12-b].

Tashqi tuzilishiga ko'ra bakteriyalar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

**МАКТАБ 7-СИНФ БИОЛОГИЯДАРSLIGIDAGI“BAKTERIYALAR. PROTISTALAR.
ZAMBURUG‘LAR” MAVZUSIDA TABIIY FANLAR INTEGRATSIYASINI TA’LIMDAGI
AHAMIYATI**

**ЗНАЧЕНИЕ ИНТЕГРАЦИИ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК В ОБРАЗОВАНИИ ПО ТЕМЕ
«ГРИБЫ» И «БАКТЕРИИ» В 7 КЛАССЕ НА УРОКАХ БИОЛОГИИ**

**THE SIGNIFICANCE OF INTEGRATION OF NATURAL SCIENCES IN EDUCATION ON
THE TOPIC "FUNGUS" AND "BACTERIA" IN THE 7th GRADE IN BIOLOGY LESSONS**

B.B.Nizomova¹, O.T.Sobirov², G.G.Xomidova³

¹B.B. Nizomova

– Andijon davlat universiteti doktoranti

²O.T. Sobirov

– Andijon davlat universiteti v.b. dots. (PhD)

³G.G.Xomidova

– Andijon davlat pedagogika institut biologiya yo‘nalishi talabasi.

Annatotsiya

Ushbu maqolada umumta’lim tizimidagi fanlararo integratsiya muammosi o‘rganilgan. Fanlararo integratsiya o‘quvchilarning mustaqil fikrashi, dunyoqarashi va bilim olish qobiliyatlarini oshirish va shakllantirish, pirovardida butun ta’lim jarayonini takomillashtirish vositasi sifatida ko‘rsatilishi yoritilgan.

Аннотация

В данной статье исследуется проблема междисциплинарной интеграции в системе общего образования. Освещается представление о междисциплинарной интеграции как о средстве повышения и формирования у учащихся навыков самостоятельного мышления, мировоззрения, приобретения знаний, и в конечном счете, совершенствования всего образовательного процесса.

Abstract

This article investigates the issue of interdisciplinary integration in the general education system. The concept of interdisciplinary integration is highlighted as a means of boosting and expanding students' skills in independent thinking, perspective, knowledge acquisition, and, eventually, improving the entire educational process.

Kalit so‘zlar: integratsiya, biologiya, tabiatshunoslik, kimyo, fizika, geografiya.

Ключевые слова: интеграция, биология, природоведение, химия, физика, география.

Key words: integration, biology, natural history, chemistry, physics, geography.

KIRISH

Zamonaviy o‘qituvchi – kelajak avlod tayanchi, yangi nazariya va innovatsiyalar yaratuvchisi, amaliy tadqiqotchi hamda bilimlar targ‘ibotchisidir.

Ma’lumki, maktabdagi ta’lim-tarbiya jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchilarnig o‘zaro birgalikdagi faoliyatları natijasida amalga oshiriladi. O‘qituvchilarning o‘quvchilarga ta’lim berish jarayonidagi tanlangan yo‘li - o‘qitish uslubi deyiladi. O‘qitish ulublaridan biri bu ta’limda integratsiyadan foydalanish hisoblanadi.

“Integratsiya” so‘zi-lotincha “integratio” “tiklanish”, “to‘ldirish”, “birlashish” – qismlarni birlashtirish degan ma’nolarni anglatadi [15; 183-b].

Adabiyotlarda integratsiya darslarining ta’limdagi ahamiyati, tashkiliy jihatlari to‘g’risida ko‘plab ma’lumotlarni ko‘rish mumkin. Jumladan, N.M.Zverevning fanlararo integratsiyaga bo‘lgan talqini – bu uzviylikni bog‘lash, yaxlitlikni yaratish jarayonidir. Ta’lim berishda turli o‘quv predmetlarining elementlarini uyg‘unlashtirishiga ko‘ra kursning yakunlovchi jarayoni deb hisoblash mumkin deb ta’rif keltiradi [1; 38-b.].

A.V.Usovaning yozishicha, fanlararo integratsiyaning maktab o‘quvchilari tarbiyasiga ta’siri o‘qitishdagi usullar va metodikaning ichki mantiqiy tuzilmasini qayta ko‘rib chiqish va uni takomillashtirish orqali amalga oshiriladi [2; 40-45-b.].

Fanlararo bog‘lanishlar haqidagi ma’lumotlar V.N.Maksimova va N.V.Gruzdevalarning (1978) “Межпредметные связи в обучении биологии” kitobida mualliflar fanlararo integratsiya masalasini turli tomonlarini tahlil etib, botanika, zoologiya, odam va uning salomatligi va umumiy biologiya darslarida tabiatshunoslik, kimyo, fizika, geografiya, matematika kabi fanlar bilan bog‘lanish haqidagi ma’lumotlar keltirilgan [3].

ILMIY AXBOROT

aytsak, jamiyatimizda o'tmishdagi xatolar qaytadan takrorlanmasligi uchun, xalqimizning tarixiy xotirasidan kelib chiqib, milliy g'oyasi va estetik madaniyatini yangi g'oyalar bilan boyitib borish va uni yoshlarimizning ongi va qalbiga jo etish dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Biz vatanimiz tarixining faqat ayrim jihatlariga uch yo'sinda yondoshdik. Moziyda bo'lib o'tgan voqealardan biz uchun kerak bo'lgan xulosalar chiqardik va hozirgi davrimizning muammolari bilan bog'lashga harakat qildik.

Umuman olganda, jamiyatda yoshlarning estetik madaniyatini rivojlantirish borish uchun avvalo davlatimiz, qolaversa barchamiz o'zimizning mas'ulligimizni utunmasligimiz darkor.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'llimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – Toshkent.: O'zbekiston, 2018. –B.132-133 (Mirziyoyev Sh.M. We will resolutely continue our path of national development and raise it to a new level. Volume 1. -Tashkent.: Uzbekistan, 2018. –pp.132-133).
2. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Izohli ko'rgazmali vositalar to'plami. –Toshkent.: «Yangi asr avlodи», 2001. –B.49 (The idea of national independence: basic concepts and principles. A set of explanatory visual aids. -Tashkent.: "Generation of the New Century", 2001.-pp49).
3. Narzulla Jo'raev. Tarix falsafasi: tushuncha, mohiyat va siyosat. –Toshkent.: Ma'nnaviyat, 1999. –B.10 (Narzulla Joraev. Philosophy of History: Concept, Essence, and Politics. -Tashkent.: "Spirituality", 1999.-pp.10.)
4. Karimov I. A. Yuksak ma'nnaviyat – engilmas kuch. –Toshkent.: «Ma'nnaviyat», 2008. –B.52 (Karimov I. A. High spirituality is an irresistible force. -Tashkent.: "Spirituality", 2008.- pp.52).
5. Hamid Ziyoev. Tarix – o'tmish va kelajak ko'zgusi: tarixning dolzarb masalalari. –Toshkent.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. –B.7 (Hamid Ziyoev. History is a mirror of the past and the future: current issues of history. -Tashkent.: Publishing house of literature and art named after G. Ghulam, 2000.- pp.7).
6. Abdurayim Erkaev. Milliy g'oya va ma'nnaviyat. –Toshkent.: «Ma'nnaviyat», 2002. –B. 128-129 (Abdurayim Erkaev. National idea and spirituality. -Tashkent.: "Spirituality", 2002. – pp. 128-129).
7. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent.: O'zbekiston, 2-jild, 2018. –B.37 (Mirziyoyev Sh.M. The approval of our people is the highest evaluation given to our activities. -Tashkent.: Uzbekistan, Volume 2, 2018. – pp37).
8. Otamurotov S. Milliy rivojlanish falsafasi. –Toshkent.: «Akademiya», 2005. –B.8-9 (Otamurotov S. Philosophy of national development. -Tashkent.: "Academy", 2005. – pp. 8-9).
9. Alikulov X., Haqqulov N. Q. Spiritual maturity and philosophical thinking dependence of development //ISJ Theoretical & Applied Science. – 2020. – T. 4. – №. 84. – С. 164-167.
10. Saфаров А. И., Haakkulov Н. К. Свойственные качества совершенному человеку в суфизме //Современная наука как социально-политический фактор развития государства. – 2019. – С. 48-50 (Safarov A. I., Xakkulov N. K. Characteristic qualities of a perfect person in Sufism // Modern science as a socio-political factor in the development of the state. - 2019. - pp.48-50).

turgan edilar. Bu ikki tarixiy davrlarda bo'lib o'tgan voqealarni qiyoslasak, unda ularning er bilan osmoncha farqini bilib olamiz. Mug'ullar vatanimizda hukmronlik qilgan davrda bitta ham ko'zga ko'rindigan imorat qurilgan emas. Ma'lumki, Temur va temuriylar davri vatanimiz rivojlanishining ikkinchi Uyg'onish «oltin» davri deb baholanadi. Bordiyu, vatanimizda mug'ullar hukmronlik qilgan yillarda ham shunday rivojlanish bo'lganda edi, uning samarali ta'sirini bugungi hayotimizda sezgan bo'lar edik.

Bu xalqimiz, vatanimiz tarixida bo'lib o'tgan ikki yirik voqealarni bir-biri bilan taqqoslash natijasida, milliy g'oyaga taalluqli bo'lgan muhim xulosalar chiqarish mumkin bo'ladi. Vatanimiz mug'ullar hukmronligi davrida, milliy g'oyaning jamiyatdagi roli deyarli yo'q bo'lib ketgan edi va xalqimizni bosqinchilarga qarshi birlashtirish va safarbar etishda ham, uning ahamiyati sezilarli darajada bo'lмаган. Xalqimiz o'ta qiyin hayot kechirishi bilan birga, uning ma'naviy dunyosi ham ancha zaiflashib qolgan edi. Shunga qaramasdan yillar o'tishi bilan xalqimizning bosqinchilarga nisbatan nafrati va ozodlikka bo'lgan intilishi kuchayib borgan. Boshqacha aytganda, o'sha yillarda milliy g'oyaning jamiyatdagi ahamiyati tobora oshib borishi kuzatilgan. Shuning natijasi o'laroq Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Mahmud Tarobiy, sarbadorlar, Amir Temur va boshqa ko'plab milliy qahramonlar etishib chiqqan. Biz bu fikrlardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, hozir bizning xalqimiz, uning hayot-mamoti va kelajagini hal qiladigan o'ta murakkab davrni boshdan kechirmoqda. Vatanimizda mug'ullardek yovuz kuchlar bo'lmasada, biroq unda sobiq sovetlar davridan qolgan ko'plab illatlar, bizni ko'rolmaydigan ichki va tashqi kuchlar mavjuddir. Ularni bartaraf etishda, jamiyatimizda milliy g'oyaning roli va ahamiyati beqiyosdir. Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik va Amir Temur kabilar o'z vaqtida mug'ul bosqinchilari bilan qay darajada kurashgan bo'lsa, vatanimizning etakchi taraqqiyarvar kuchlari ham milliy g'oyani xalqimizning ongi va qalbiga singdirishda katta shijoat ko'rsatishi lozim.

3. Endi tariximizda bo'lib o'tgan voqealarga uchinchi bir usul asosida yondashamiz va milliy g'oya va estetik madaniyatga taalluqli bo'lgan kerakli xulosalar chiqaramiz.

Ma'lumki, Amir Temur va temuriylar hamda Alisher Navoiy zamonasida jahon tamaddudinining markaziga aylangan buyuk davlat, XVI asrdan boshlab inirozga yuz tuta boshladi va uning madaniy-ma'naviy taraqqiyoti susayib XVII asrda to'xtab qoldi va ortga ketdi [6;128-129]. Bu inqirozning asosiy sabablaridan biri, balki eng asosiy sababi, ayni shu asrlarda xalqimizning milliy ongi, estetik qadriyatlari, ayniqsa uning milliy g'oyasi so'nib borganidir. Davlat miqyosida va joylardagi hokimiyat boshliqlari, beklar, diniy arboblar, turli darajadagi boy va zadagonlar o'zlarining shaxsiy manfaatlarini umummiliy manfaatlarga nisbatan yuqori qo'ydilar va milliy g'oyaga zid bo'lgan ish tutdilar. Yurtimizda hukm surayotgan milliy boshboshdoqlikni qo'shni davlatlarning boshliqlari tezda ilg'ab oldilar va buning natijasida xalqimiz XIX asrning o'rtalarida yana bir bor o'z erkini qo'ldan boy berib qo'ydi.

Hozirgi kunda esa "biz barchamiz – fuqarolar ham, jamiyat ham, davlat ham Vatanimiz ravnaqi uchun, mamlakatimizda tinchlik - barqarorlikni mustahkamlash uchun, tarixiy, ma'naviy va madaniy merosimizni saqlash, boyitish va kelgusi avlodlarga bezavol etkazish uchun birdek mas'ulmiz. Yurtimizda yashayotgan turli millat va elat vakillari o'rtasidagi do'stlik, totuvlik, o'zar hurmat, hamjihatlikni asrash va mustahkamlash maqsadida olib borayotgan ishlarmizni yanada kuchaytirishimiz lozim"[7;37]. Bugun ortimizda xalqimizning milliy o'zligi, unutilayotgan estetik madaniyati tiklanmoqda va uning milliy g'oya va mafkuraga bo'lgan munosabati jiddiy sinovdan o'tmoqda.

Mustaqilligimizning mustahkamligi oshib borishi bilan, tashqi va ichki dushmanlarimizning bu jarayonga bo'lgan qarshiligi ham kuchayib bormoqda. Shuni ham alohida qayd etish joizki, keyingi yillarda jahon miqyosida turli-muman ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan «vabo»lar vujudga kelmoqda, odamlar bir-biriga nisbatan yovuzlashib bormoqda, milliy manfaatlarning to'qnashuvi avj olmoqda, ajnabiylar davlatlarning xalqimizning ongi va qalbiga bo'lgan mafkuraviy ta'siri ham kuchayib bormoqda va hokazolar[8;8-9].

XULOSA

Jamiyatimizdagi mavjud qiyinchiliklar va kamchiliklar, sobiq sovetlar davridan qolgan ma'naviy-axloqiy qusurlar, yoshlarimizning ongidagi mavjud mafkuraviy noaniqliklar, turmush tarziga yod estetik madaniyatlarni olib kirib va boshqa iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy omillar bilan birga, yuqorida keltirilgan umumjahon miqyosidagi global muammolar jamiyatimizning rivojiga salbiy ta'sirini o'tkazmoqda. Hozir xalqimiz XIV-XVII asrlarda bo'lib o'tgan tarixiy voqealardan to'g'ri saboqlar chiqarishi va mustaqillikning qadriga etishi o'ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ochiqroq

ILMIY AXBOROT

tarixni to'g'ri va teran bilib olishi asosida xalqimizning milliy va estetik hissiyoti jonlanadi, milliy g'urur va iftixori oshadi, iymon-e'tiqodi, didi mustahkamlanadi, milliy g'oya va estetik madaniyatning yangi g'oyalar bilan boyishi kuzatiladi va shular tufayli ularni xalqimizning ongi va qalbiga singdirish uchun qulay zamin yaratiladi.

Shunga alohida e'tibor berish kerakki, yoshlarimizning ongidagi mafkuraviy bilimlar uning qalbidagi iymon-e'tiqodiga va yuragidagi estetik hissiyotiga aylanishi uchun, u o'z tarixidagi turli voqeа va hodisalarning asl mohiyatini chuqr tushunib etishilar zarur bo'ladi. Bunday holatga jamiyat a'zolari, o'z tarixini yaxshi bilishi, uni sevishi, uning shaydosi bo'lib qolishi asosida erishishi mumkin bo'ladi. Shu tufayli xalqimizning o'tmishdagi milliy ruhiyati uning bugungi kundagi estetik hissiyoti va e'tiqodiga aylanadi. Endi bunday insonlarning ongi va qalbida o'tmish bilan ularning bugungi kuni boshlanadi. Bu to'g'risida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov shunday fikr bildiradi: «Insoniyatning ko'p asrlik tarixi shundan dalolat beradiki, bu dunyoda o'zining milliy davlatini qurishga azmu qaror qilgan har qaysi xalq yuksak vazifalarni amalga oshirish, shu yo'lda odamlarni birlashtirish va safarbar qilish, ularning qalbida ishonch uyg'otish, eski ijtimoiy tuzumdan mutlaqo yangi tuzumga o'tishda o'ziga qo'shimcha kuch-quvvat va madad topishda umumiyl, yagona maqsad va orzu-intilish ifodasi bo'lgan milliy g'oyani tayanch va suyanch deb biladi»[4;52].

Tarixdan milliy g'oya va estetik madaniyatimiz uchun zarur bo'lgan xulosalar chiqarish va kerakli natijalarga erishishda, unga to'g'ri yo'sin va yondashuvlardan foydalanishga to'g'ri keladi. Bular:

1. Bitta yoki ikkita tarixiy voqeа-hodisani teran va atroficha bilib olish, uni tahlil qilish va baholash asosida qo'yilgan maqsadga birmuncha erishish mumkin bo'ladi. Buning uchun biz Shiroq va Jaloliddin Manguberdi ko'rsatgan qahramonliklarini misol qilib olamiz. Birinchidan, bu misollarni obdan tahlil qilish, ularni o'sha zamonlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, estetik va madaniy-ma'naviy muhit va jarayonlari bilan bog'lash talab qilinadi. Ikkinchidan, bu voqealarga biroz bo'lsa-da badiiy tus berish, Shiroq va Manguberdining shaxsiy hayotlarining ayrim jihatlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Xususan, Shiroq to'g'risida quydagicha fikr yuritish zarur, ya'ni Shiroq oddiy bir cho'pon bo'lishiga qaramasdan, qanday bo'lmasin o'z xalqining ozodligini saqlab qolish maqsadida ochiqdan-ochiq har qanday qiynoqlar va o'llimdan qo'rmasdan, oldindan juda puxta ish tutib, bir necha ming bosqinchilarni o'limga mahkum etdi. Bir daqqa bo'lsada, biz o'zimizni Shiroqning o'rniga qo'yib ko'rishimiz kerak. U g'azabi oshgan, quturgan it kabi dushmanlardan hayiqmasdan, butun vujudi bilan: «Men Vatanim ozodligi» uchun siz yovuzlarni suvsizlikka va ochlikka mutballo qildim» [5;7] deb, hayqirib jon beradi.

Shu oddiygina bir cho'pon o'sha davrda Vatan ozodligini shu qadar e'zozlagan bo'lsa, hozir biz shunday qahramonlarimiz va o'tmishda vatanimiz uchun jon bergan qanchadan-qancha jabr diydalarimizning ruhi oldida qanday bo'lishimiz kerak degan o'y, bizning butun vujudimiz va aqlu-qalbimizni cho'lg'ab olmog'i lozim. Shundagina biz birmuncha Shiroqning qahramonlik qilishdagi ruhiy holatini o'zimizda his qilishimiz mumkin bo'ladi.

Biz o'z Vatanining ozodligi uchun, Shiroq ko'rsatgan qahramonlikdan ham kattaroq qahramonlikni amalga oshirilganligiga duch kelamiz. Vatanining ozodligi uchun o'z onasi va barcha farzandlarining jonini ham ayamaganligini tasavvur qilish, uni tushunish qiyin, biroz bu voqeani biroz bo'lsada his etishga urunib ko'rishimiz ayni muddao bo'ladi.

Biz bu tarixiy voqealar ustida qisqa va ancha yuzaki mulohaza yuritdik. SHunga qaramasdan, fikrlarimizni anglagan har bir fuqaromiz, ularidan biroz bo'lsada milliy g'oya va estetik madaniyatimizning, «Vatan ozodligi» g'oyasining bugun biz uchun bo'lgan ahamiyatini teranroq bilib olishga erishadi.

2. Qo'yilgan muammolarni tarixga boshqa yondashuv asosida ham hal qilish mumkin. Vatanimiz tarixida shunday voqeа va hodisalar bo'lganki, ular ko'p yillar davomida yurtimizning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy, estetik hayotini belgilab turgan va xalqimiz ulardan ko'pdan-ko'p aziyat chekkan. Tariximzda bunday jarayon va voqealar bisyor bo'lgan. Chunki keyingi uch ming yil davomida xalqimiz faqat uch yil istiqlol davrida yashagan. Bunday tarixiy voqealar asosan vatanimizni bochqinchilar tomonidan istilo qilgan davrlari bilan bog'liqdir. Ma'lumki, mug'ul bosqinchilari vatanimizda taxminan 140 yil davomida o'z hukmronligini o'tkazib kelgan. Shu davrda ular tomonidan xalqimizga etkazilgan moddiy va ma'naviy zarar beqiyosdir. Shunisi e'tiborga loyiqliki Temur va temuriylar ham taxminan 150 yil davomida vatanimizning hayot-mamotini hal qilib

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bugungi globallashuv davrida yangi O'zbekiston yoshlarining estetik ongi va madaniyatini turli xurujlardan himoyalashning mezonlari hamda tamoyillarini aniqlashni samarali yo'llarini topishni voqelik taqozo etmoqda. O'zbek falsafasining pragmatik jihatlarini rivojlantirib, estetik madaniyatda yoshlarning faol pozitsiyalarini milliylik bilan bog'lagan holda M.Abdullayev, N.Abdullayeva, H.Aliqulov, H.Karimov, T.Maxmudov, O.Nishonova, A.Samadov, Z.Sobirova, D.Toshboyeva, N.G'oyibov, A.Choriyev, X.Shayxova, S.Shermuhamedov, A.Erkayev, E.Yusupov, U.Qoraboyev. O.G'aybullayev singari faylasuflarning badiiy-estetik asarlarida mantiqiy tadqiq etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Har qanday milliy g'oya yo bir kishi, yoxud allomaning o'ylarida etishgan fikrlar va faqat sof aql mahsuli bo'lmay, balki jamiyat a'zolarining moddiy va ma'naviy, estetik madaniyati va hayotining mahsulidir. Milliy g'oya, estetik madaniyat tabiat va jamiyat qonunlari kabi olimlar tomonidan kashf etilmaydi, balki xalqning ongi, turmush tarziga asta-sekinlik bilan singib borib, ularning ma'naviy dunyosini muhim jihatlari sifatida shakllanib boradi. Shuning uchun ham har bir milliy g'oya o'ziga xos va o'ziga mos tarixiy-estetik mazmunga ega bo'ladi. Bu tarixiylik tamoyili har qanday milliy g'oyaning bir xususiyati bo'lib, uning muhim rivojlanish qonuniyatidir. Ushbu qonuniyat bo'yicha, xalqning moddiy va madaniy-ma'naviy hayotidagi muhim o'zgarishlar albatta yangi-yangi milliy g'oya hamda madaniyatlarni vujudga keltiradi.

Boshqa ijtimoiy g'oyalar kabi milliy g'oya va estetik madaniyat ham o'zining taqdiri va umriga egadir. Ayrim milliy g'oyalar va estetik madaniyat xalq ongida unutilib borilsa, boshqalari esa yangi-yangi mazmunlarga ega bo'lib borib, xalqning ongida saqlanib qoladi. Bunday milliy g'oyalar va estetik madaniyat « ... asrlar mobaynida yillar sinoviga dosh berib, sayqallanib, takomillashib kelgan»[2;49]. Shuningdek, sohibqiron Amir Temurning «Kuch adalotdadir» degan shiori, milliy g'oyaning tarkibiy qismiga aylanib ketgan [2;49].

Xalqimiz keyingi uch ming yillik tarixinining qaysi bir davrida istiqlolga erishgan bo'lmasin, albatta shu davrga mos bo'lgan milliy g'oyasi va estetik madaniyati ham mavjud bo'lgan. Agarda biz milliy g'oyaning tarixiylik tamoyilidan kelib chiqib fikr yuritadigan bo'lsak, unda shuni aytishimiz mumkinki, hozir xalqimizning milliy g'oyaning o'tmishdagi eng ta'sirchan g'oyalarini o'zida mujassamlashtirgan.

Har bir xalqning milliy g'oya va estetik madaniyati o'zining kelib chiqishi va shakllanib borishi bo'yicha turli va ko'p yillik tarixiy jarayonlar bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Agarda biz bugun, milliy g'oyamizning mazmun-mohiyatini yanada aniqroq va to'laroq yoshlarga o'rgatishni istasak, unda tariximizni teranroq o'rganishimiz, xalqimizning og'zaki ijodi, udum va urf-odatlari, an'analar, rasm-rusumlari, maqol va matallari, rivoyat va ertaklari, hikoyayu-dostonlari, siyosiy, falsafiy, diniy, huquqiy, axloqiy va san'atga doir qarashlar hamda ta'llimotlari, boshqa madaniy-ma'naviy boyliklarini atroflicha bilib olishimiz kerak bo'ladi. Yoshlarimiz o'zligini qancha teranroq anglashsa va bunga erishsak, shuncha shunga muvofiq milliy g'oya va estetik madaniyatimizni ham to'g'riroq anglashga erishamiz.

Milliy g'oya va estetik madaniyatning qaysi bir tarixiy ildizini ko'rib chiqmaylik, unda biz nafaqat bularning ma'no-mazmunini teranroq tushunishga erishamiz, va shu bilan birga uni yangi fikrlar bilan boyitishga muvaffaq bo'lamiz. Umuman olganda, qancha milliy g'oya va estetik madaniyatning tarixiy ildizlari to'g'ri aniqlansa va baholansa, shuncha uning haqiqatligi, demak hayotyiligi va ta'sirchanligi oshadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, tariximiz doimo bizning o'qituvchimiz bo'lib qolaveradi. Biz uni bugun qancha teran va atroflicha bilib olishga erishmaylik baribir u ma'naviy hayotimizning bitmas-tuganmas manbai sifatida o'z qadr-qimmatini yo'qotmaydi. Tariximizdan chiqarilgan saboqlar, hozir jamiyatimizning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy-axloqiy, estetik va boshqa jabha va sohalarida vujudga kelayotgan mummolarni to'g'ri hal qilish uchun zarur bo'ladi. Shu bilan birga mamlakatimiz milliy rivojlanishining yo'llarini aniq belgilab berishga yordam beradi. Bu to'g'rsida Narzulla Jo'raev shunday fikr bildiradi, ya'ni «... o'tmishni anglash, uni to'g'ri tushunish orqali kishilar ruhiyatida jiddiy o'zgarishlar yasashga, bu orqali hayotni isloh qilishga erishiladi»[3;10].

Biz uchun eng asosiysi shundan iboratki, tarixni bilmasdan turib, milliy o'zligimizni, estetik madaniyatimizni to'g'ri anglay olmaymiz, boshqacha aytganda, bugungi kunimizning mazmun-mohiyatini, bugun bizga qanday mafkuraviy g'oyalar va estetik madaniyatlar rahnamo bo'lishini va umuman olganda milliy g'oyani teran va etarli darajada bilib olishga erisha olmaymiz. Yoshlarimiz

YOSHLARDA ESTETIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING TARIXIY ZARURIYATI VA MAFKURAVIY ASOSLARI

ИСТОРИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ И ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В МОЛОДЕЖИ

HISTORICAL NEED AND IDEOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT OF AESTHETIC CULTURE IN YOUTH

Yaxyayeva Sojida Abduraximovna¹

¹**Yaxyayeva Sojida Abduraximovna**

– Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali o'qituvchisi, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Maqolada yoshlarning estetik madaniyati rivojlanishida tarixiy zaruriyatning o'mi va uning mafkuraviy jihatlari falsafiy tadqiq etilgan. Unda tarixiy rivojlanish jarayoni O'zbekistonning milliy g'oyasi shakllanishiga asos bo'lganligi ko'rsatilgan. Shu bilan birga milliy g'oya va mafkuraning yoshlar estetik madaniyatiga ta'siri masalalari ifodalangan.

Аннотация

В статье философски исследуется роль истории в развитии эстетической культуры молодежи и ее идеологические аспекты. Это свидетельствует о том, что процесс исторического развития послужил основой для формирования национальной идеи Узбекистана. В то же время выражается влияние национальных идей и идеологии на эстетическую культуру молодежи.

Abstract

The article philosophically explores the role of history in the development of aesthetic culture of young people and its ideological aspects. It shows that the process of historical development was the basis for the formation of the national idea of Uzbekistan. At the same time, the impact of national ideas and ideology on the aesthetic culture of young people is expressed.

Kalit so'zlar: estetik madaniyat, yoshlar, milliy qadriyatlar, falsafiy tafakkur, tarix, mafkura, estetik ong, dunyoqarash, milliy g'oya, axloq.

Ключевые слова: эстетическая культура, молодежь, национальные ценности, философское мышление, история, идеология, эстетическое сознание, мировоззрение, национальная идея, этика.

Key words: aesthetic culture, youth, national values, philosophical thinking, history, ideology, aesthetic consciousness, worldview, national idea, ethics.

KIRISH

Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida har bir davlat o'zining tarixiy rivojlanishi pallasida milliy g'oyasini takomillashtirib boradi. Shu boisdan O'zbekiston ham mustaqillikni qo'lga kiritgach tarixiy meros asosida kelajak g'oyasini yaratishga kirishdi. Bu jarayon milliy g'oyaning vujudga kelishi uchun asarlar davomida bir hududda yashagan millatlar va elatning tarixiy taqdiri, ularning ming-ming yillar davomida boshdan kechirgan yaxshi va yomon kunlari, jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotida bo'lib o'tgan tub o'zgarishlar va shu bilan birga unda mavjud bo'lgan siyosiy, falsafiy, diniy, huquqiy, axloqiy, estetik va boshqa qarashlar hamda ta'lomitlar bilan bevosita bog'liqdir. Shu boisdan "har bir suveren davlat o'zining betakror tarixi va madaniyatiga egadir. Bu tarix, bu madaniyatning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi esa haqli ravishda shu mamlakat xalqi hisoblanadi. O'zbek xalqining necha ming yillik tarixida qanday murakkab davrlar, og'ir sinovlar bo'lganini barchamiz yaxshi bilamiz. O'zbekistonning eng yangi tarixi va biz erishgan olamshumul yutuqlar mard va matonatli xalqimiz har qanday qiyinchilik, to'siq va sinovlarni o'z kuchi va irodasi bilan engib o'tishga qodir, deb baralla aytishga to'la asos beradi. Biz ajdodlarimizning yorqin xotirasini asrab-avaylab, qalbimizda, yuragimizda abadiy saqlaymiz»[1;132-133]. Mana shu buyuk tarix yurtimizning milliy g'oyasi vujudga kelishi uchun tarixiy asos vazifasini bajarishini barchamiz chuqr anglashimiz lozim.

Ko'pchilik nazariyotchilar tomonidan qabul qilingan kompetentsiyalar tasnifiga ko'ra, ular umumiy va professionalga bo'lindi. O'smirlikda instrumental kompetensiyalar shakllanadi. Asosiyları kognitivdir. Fikrlash, tushunish qobiliyati sifatida g'oyalar va bilimlardan foydalanish. Til qobiliyatları muloqot jarayonida, xususan, bolalarda tezroq shakllanadi. Maktabgacha yoshdagagi bolalarning birinchi qobiliyatları kommunikativdir. Farzandlari savollari javobsiz qolmasligi uchun nafaqat o'qituvchilar, balki ota-onalar ham g'amxo'rlik qiladi.

Oilada ehtiyyotkorlik, tejamkorlik kabi amaliy fazilatlar tarbiyalanadi. Iqtisodiy ta'llim vositalari

Bu hikoyalar, o'yinlar, adabiyotlarni o'qish, rasmlarni sharhlash, multfilmlarni tomosha qilish, maqollar. Oilada iqtisodiy tarbiyaning noan'anaviy usullari ham mavjud. Masalan, yetti yoshli o'g'il bola "ish topdi".

Unga tugmalar tayyorlagani uchun pul to'landi. O'smir yoshdagagi o'g'il bola ish oson emasligini, pul qimmat ekanini tushundi. O'nlab yillar o'tdi, lekin o'sha paytda boshlangan matonat, mehnatsevarlik, sabr-toqat unga butun umri davomida hamroh bo'ldi. Bolalarni iqtisodiy tarbiyalashda eng muhim narsa hurmatli munosabatdir

Iqtisodiyotda asosiy mezon o'smir bolani tarbiyalash oila a'zolarining shaxsiy namunasidir. Bolalar boradigan yo'lda muhim suhbatlar, shaxsiy makonni tashkil qilish bolaning stoli, xonasi, o'yin burchagi, bolaning xatolariga munosabatini tanlash va ularga reaksiyalar. Hatto bolaning o'zi bilan musobaqasini tashkil qilish mumkin. O'smir yoshdagagi og'il bolalarda familistik kompetentsiyani shakllantirishda otalarning o'rni katta boladi. Sababi xohlasmizmi yo'qmi qush inida ko'rganini qiladi. Og'il bola uchun oilada ota namuna hisoblanadi. Shuning uchun ham ota-onalar oilada farzandlarining yonida o'zlarining xatti harakatlariga e'tibor qaratishlari lozim. O'smirlik davri qarama-qarshiliklarga boy davrdir. Uni ba'zi olimlar «tanazzullar» «krizislardan» davri ham deb ataydilar. Sababi o'smir ruhiyatida shunday inqiroziy holatlar ro'y beradiki, u bu inqirozni bir tomondan o'zi hal qilgisi keladi, ikkinchi tomondan, o'zi hal qilishga imkoniyati, kuchi va aqli yetmaydi.

XULOSA

Xulosa qilib ta'kidlash mumkinki, Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi o'smir yoshdagagi o'g'il bolalarda familistik kompetensiyaning shakllantirishning xuquqiy asosi bo'lib ushbu konsepsiyada ta'llim va tarbiya jarayoni bolaning ota-onalar, katta yoshdagagi qarindoshlari, bolalar, ularning do'stlari o'smir o'sadigan axborot maydonini yaratadilar. O'smir yoshdagagi o'g'il bolalarda ta'llim va tarbiya jarayoni bolaning eng yaqin muhitida, ya`ni oilada amalga oshiriladi, ota-onalar, katta yoshdagagi qarindoshlari, bolalar, ularning do'stlari o'smir o'sadigan axborot maydonini yaratadilar. Bu orqali u jamiyatga kiradi. Bolalarga hurmat va insoniy munosabatda bo'lgan talabchanlikdan mohirona foydalanish tamoyili. Asosiysi, oilada bolalarning hayoti va xatti-harakatlarining oqilona tartibini, ularning boshqa oila a'zolari bilan munosabatlarining oqilona shakllarini o'rnatish. . Oilada bag'rikenglik munosabatlarini shakllantirishning navbatdagi muhim mezoni - mehnat muhitini yaratish va bolalarda mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish **ko'rsatildi**.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'llim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni [PF-5847 08.10.2019](#). Manba: www.gov.uz
- 2.Abdusamatova Sh.S. Burxanova M.B. (2020). Ko'p farzandli ota-onalarni oiladagi munosabatlarining xususiyatlari. Oriental Art and Culture
3. Hayitov O.E. Iqtisodiy psixologiya: O'quv qo'llanma.-T.:TDIU, 2009. – 230 b.
4. G'oziev E., Mamedov K. Kasbiy psixologiya -T.:TDAU – 2008.
5. Karimova V.M., Hayitov O.E., Djalalova S.M. Boshqaruv psixologiyasi. O'quv qo'llanma. -T.:«Fan vatexnologiya» nashriyoti, 2008. – 208 b.
6. Ismoilov, S. D. (2022). OILA VA QADRIYAT. Academic research in educational sciences, 3(1), 998-1003. 5. Dilshodovich, I. S. (2022). UMUM O'RTA TA'LIM MAKTABALARIDA O'G'IL BOLALARNI OILAGA TAYORLASHNING PSIXOLOGIK ILMUY ASOSLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSİYALAR VA ILMUY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 775-779.

ILMIY AXBOROT

Oilada mehnat jamoasining turiga qarab tashkil etilishi kerak, unda o'smir o'g'il bolalar moddiy farovonlikni yaratishga o'z hissalarini qoshadilar va o'z ehtiyojlarini moddiy boylik bilan o'lchay oladilar. Bolalarni oilada mehnatga rag'batlantirishning eng yaxshi vositasi, bu ota-onalarning mehnat vazifalarini belgilash, mehnat topshiriqlarini berish, shuningdek, rejalashtirilgan ishlarni birqalikda bajarish qobiliyatini ko'rib chiqdi. Shu bilan birga, ota-onalar bolalarni mehnatga majburlamaslik uchun xalq doimo rozi bo'lishga intilganligini unutmasliklari kerak. Ba'zi ota-onalarning amaliy masalalarda bolalar kuchlarini qollash sohasini kengaytira olmasliklari, ular mehnatni qadrlashni o'rganmasliklariga hamda o'zlarida qaram kayfiyatni shakllantirishlariga olib keladi. Bolalarni yoshlikdan mehnatga o'rgatish ularda mehnatsevarlikni shakllantiradi, bu esa yaxshi oila boshlig'inining muhim fazilatlaridan biridir.

Shaxsning rivojlanishida oila katta ahamiyatga ega. O'ziga yaqin odamlardan iborat kichik guruh hayotida bevosita va doimiy ishtirok etish imkoniyatidan mahrum bo'lgan bolalar ko'p narsani yo'qtadilar. Bu ayniqsa oiladan tashqarida - mehribonlik uylari va boshqa turdag'i muassasalarda yashovchi yosh bolalarda seziladi. Bunday bolalarning shaxsiyatining rivojlanishi ko'pincha oilada tarbiyalangan bolalarga qaraganda boshqacha tarzda davom etadi. Bu bolalarning aqliy va ijtimoiy rivojlanishi ba'zan kechikib, hissiy rivojlanishi sekinlashadi. Xuddi shu narsa kattalar bilan sodir bo'lishi mumkin.

Ma'lumki, ko'p odamlarning xatti-harakatlariga boshqa odamlarning mavjudligi ta'sir qiladi. Ko'p odamlar yolg'iz qolgandan ko'ra, boshqa odamlar oldida o'zlarini boshqacha tutishadi. Bundan tashqari, agar biror kishi hozir bo'lganlarning mehribon, munosabatini his qilsa, u ko'pincha bunday harakatlar uchun ma'lum bir rag'batga ega bo'lib, bu uning atrofidagi odamlarning roziligini keltirib chiqaradi va unga eng yaxshi nurda ko'rinishiga yordam beradi. Agar biror kishi do'stona munosabatni his qilsa, unda u turli yo'llar bilan namoyon bo'ladi qarshilikka ega. Yaxshi tarbiyalangan odam bu norozilikni ongli harakat bilan yengadi.

Do'stona munosabatlar hukmronlik qiladigan kichik guruhda jamaa shaxsga juda kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu ayniqsa, ma'naviy qadriyatlar, xulq-atvor me'yor va namunalari, kishilar o'ttasidagi munosabatlar uslubining shakllanishida yaqqol namoyon bo'ladi. O'zining xususiyatlariga ko'ra, oila kichik guruh sifatida o'z a'zolari uchun hissiy ehtiyojlar uchun sharoit yaratadi, bu esa odamga o'zining jamiyatga tegishlilagini his qilishiga yordam beradi, xavfsizlik va tinchlik tuyg'usini oshiradi, boshqa odamlarga yordam berish va qo'llab-quvvatlash istagini uyg'otadi.

Oila jamiyat hayoti va faoliyatida ulkan rol o'ynaydi. Oilaning funksiyalarini jamiyat maqsadlarini amalga oshirish nuqtai nazaridan ham, jamiyat oldidagi majburiyatlarini bajarish nuqtai nazaridan ham ko'rib chiqish mumkin. Oila mikrotuzilma sifatida muhim ijtimoiy ehtiyojlarini qondiradi va muhim ijtimoiy funksiyalarini bajaradi.

Oila o'zining reproduktiv funksiyasi tufayli inson hayotining davomi manbai hisoblanadi. Bu dastlab insonning shaxsiyatini shakllantiradigan ijtimoiy guruhdir. Oila jamiyatning ijodiy va ishlab chiqarish kuchlarini oshirishga yordam beradi. Oila o'zining yangi a'zolarini jamiyatga tanishtiradi, ularga til, urf-odat va urf-odatlarni, ushbu jamiyatda majburiy bo'lgan asosiy xulq-atvor namunalarini o'tkazadi, insonni jamiyatning ma'naviy qadriyatları olamiga kiritadi, uning xatti-harakatlarini nazorat qiladi. Oilaning ijtimoiy funksiyalarini nafaqat bolalarga, balki turmush o'rtoqlarga nisbatan ham namoyon bo'ladi, chunki nikoh jamiyat hayotida katta rol o'ynaydigan jarayondir. Oilaning asosiy vazifalaridan biri uning barcha a'zolarining shaxsiyatini rivojlantirish uchun sharoit yaratishdir. Oila shaxsning turli ehtiyojlarini qondiradi. Bolalarning tug'ilishi nafaqat o'z turini davom ettirish ongidan quvonch keltiradi, balki kelajakka ishonch bilan qarashga imkon beradi. Oilada odamlar bir-biriga g'amxo'rlik qilishadi. Shuningdek, oila insonning turli ehtiyojlarini qondiradi. Insonning oilaviy hayotida sevgi va o'zaro tushunish, tan olish, hurmat va xavfsizlik hissi eng aniq namoyon bo'ladi. Biroq, ularning ehtiyojlarini qondirish oilaning muayyan funksiyalarini bajarish bilan bog'liq. Afsuski, oila har doim ham o'z vazifalarini bajarmaydi. Bunday hollarda oilaning ijtimoiy roli muammosi paydo bo'ladi. O'z a'zolarini xavfsizlik, zarur yashash sharoitlari va o'zaro yordam bilan ta'minlashga qodir bo'lмагan oilalar, agar oilada ma'lum qadriyatlar noto'g'ri taqdim etilgan bo'lsa, o'z vazifalarini bajarmaydi. Oilaning har bir inson hayotidagi o'rnini hisobga olgan holda, uning psixologik vazifasini ham qayd etish lozim, chunki shaxsning jamiyat uchun qadrli bo'lgan barcha fazilatlari oilada shakllanadi.

A.S. Makarenko oilada bolalar mehnatining 20 dan ortiq turlarini sanab o'tdi. Ular quyidagilardan iborat.

Bolalar to'shaklarini yig'ishlari, stol va ish joylarini tartibli saqlashlari, poyabzal va kiyimlarni tozalashlari, gullarga g'amxo'rlik qilishlari, jurnallar va gazetani ma'lum joyga qo'yishlari, opa-singil va aka-ukalarga qarashlari, ota-onalarga kvartirani tozalashda, ovqat pishirishda yordam berishlari, va hakozo.

- axloqiy, siyosiy dunyoqarash va diniy e'tiqodning shakllanishi;
- mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy kompetensiya va fazilatlarning odatlarga aylanishi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekistonda o'smir yoshlagi o'quvchilarda ma'lum bir ko'nikmalarni rivojlantirish masalalari S.Bazarova, U.Sh.Begimqulov, Sh.Q.Mardonov, A.Maxmudov, D.Mamatov, N.Ortiqov, M.Ochilov, B.X.Rahimov kabi olimlarning hissasi kattadir. Shuning uchun o'smirlarni tarbiyalashda ota-onaning o'rni muhim sanaladi. O'smirlilik asosan 11-12 yoshdan, 14-15 yoshni o'z ichiga olib ayrim bolalarda ushbu davrga o'tish, asosan, 5-sinfdan boshlanishi mumkin. O'smirlilik davri o'zining taqlidchanligi, muhim nuqtai nazarning shakillanmagani, jasurligi, erkaliqi, tantiligi, hissiyotga beriluvchanligi bilan farqlanadi. Hayotdagi turli narsalar o'smirni qiziqtira boshlaydi. Yangilikka intilishi ortadi. Ichki dunyosi boyiydi, xarakteri shakillanadi, qarama-qarshiliklar vujudga keladi. Shu sababli u ba'zi cheklovlargacha boshqacha nazar bilan qaraydi. Bola kamolotining ushbu davrini ko'pincha «murakkab», «muhim» «qiyin» davr deyiladi.

Ota-onalar hamda hali tarbiyaviy ish sohasida yetarli tajribaga, shuningdek o'smirlilik yoshidagi bolalarning yosh va individual xususiyatlari haqida kerakli bilimlarga ega bo'lмаган yosh o'qituvchilar, odatda o'smirlarni tarbiyalash juda murakkab deb o'ylaydilar. Lekin hozirgi kunda o'smirlarni tarbiyalashni o'ziga xos qonuniyatlar, xususiyatlari, imkoniyatlari, xatti-harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari fanga ma'lumdir. Bu o'smirlarga xos xususiyatdir. Shu sababli o'smir o'g'il-qizlarga yaxshilab e'tibor berish zarur va ushbu davrda bolalarda o'zgarishlar ro'y beradi. Bular fiziologik, biologik, hamda psixologikdir. O'smirlilik yoshidagi o'g'il bolalarda familistik kompetentsiyani shakllantirish uchun avvalo o'qituvchilarda ushbu kompetentsiyani shakllantirish zarur sababi, o'smir yoshidagi o'g'il bolalar kunning asosiy qismini umum ta'lim maktablarda o'qituvchilar bilan birga o'tkazadi. Maktab o'quvchilarining oilaviy qadriyatlarga munosabatini shakllantirish bilan shug'ullanadigan o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida oilaviy kompetentsiya o'qituvchining mahoratini oshirishda kasbiy-pedagogik kompetentsiya muhim jihatiga ega.

O'qituvchilarda oilaviy kompetentsiyani shakllantirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- oilaviy hayotningko'p funktsionalli va ko'p qirraligini tushunish;
- o'qituvchining oila, oilaviy hayotning umuminsoniy qadriyati va shaxsiy ahamiyatini anglashi;
- kichik yoshdagilari o'quvchilarni oilaviy qadriyatlardan bilan bog'liq holda tarbiyalash uchun axloqiy me'yordarga (ota-onalarning tuyg'ularini hurmat qilish odob-axloq va boshqalar) va kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lish.

- o'z oilaviy hayotini qurish va har xil turdag'i oilalar bilan ishlash texnologiyalari asosida o'quvchilarning oilalari bilan konstruktiv hamkorlikni tashkil qilish uchun zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlarga ega bo'lish;

- oilaviy munosabatlar uy-ro'zg'or ko'nikmalari, madaniyati, qarindoshlar va yaqin odamlar bilan muloqot qilish ko'nikmalariiga ega bo'lish;

- Oilaning faoliyati, yaratilishi, bolalarning oilaviy tarbiyasini amalga oshirish, uning rivojlanishi jarayonida o'quvchining oilasi bilan konstruktiv o'zaro munosabatlar yo'llari haqidagi bilimlar tizimi;

- O'smirlilik yoshidagi o'g'il bolalarda familistik kompetentsiyani shakllantirish uchun o'qituvchilardan quyidagilar talab qilinadi:

-Oilaviy hayot muammolarini samarali hal qilish, maktab o'quvchilarini oilaviy hayotga tayyorlash va ota-onalarning psixologik-pedagogik ta'limi bo'yicha modellarni ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha sub'yektiv-shaxsiy tajriba;

-Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish uchun oila fazilatlarini doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirishga tayyorlik, oilaviy munosabatlarni o'z-o'zini takomillashtirish, o'quvchilarning ota-onalari bilan ijtimoiy sheriklik sohasida o'z-o'zini tarbiyalash.

O'smir yoshdagilari o'g'il bolalarda ta'lim va tarbiya jarayoni bolaning eng yaqin muhitida, ya'ni oilada amalga oshiriladi, ota-onalar, katta yoshdagilari qarindoshlari, bolalar, ularning do'stlari o'smir o'sadigan axborot maydonini yaratadilar. Bu orqali u jamiyatga kiradi. Bolalarga hurmat va insoniy munosabatda bo'lgan talabchanlikdan mohirona foydalanish tamoyili. Asosiysi, oilada bolalarning hayoti va xatti-harakatlarining oqilona tartibini, ularning boshqa oila a'zolari bilan munosabatlarining oqilona shakllarini o'rnatish.

Jarayon ta'lim - odatlar, ko'nikmalar, xarakter xususiyatlarini shakllantirish - bilimlarni uzatish orqali o'tadi. Bolalarni kun tartibiga, shu jumladan mehnatga, dam olish bilan birgalikda o'qishga, ularning buyumlari va ish joyini qanday tartibda saqlash kerakligi, ijobiy xulq-atvorning tegishli odatlarini shakllantirish. Oilada bag'rikenglik munosabatlarini shakllantirishning navbatdagi muhim mezoni - mehnat muhitini yaratish va bolalarda mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishdir.

**O'SMIR YOSHDAGI O'G'IL BOLALARINI XAYOTGA TAYYORLASH
KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING TAMOYILLARI**

ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПОДРОСТКОВ

PRINCIPLES OF FORMING THE COMPETENCE OF PREPARING ADOLESCENT BOYS

Ismoilov Sherzodbek Dilshodovich¹

¹Ismoilov Sherzodbek Dilshodovich

– Jismoniy madaniyat nazariyasini va uslubiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'smir yoshdagagi o'g'il bolalarni familistik kompetensiyasini shakllantirishga, o'z xalqining va boshqa xalqlarning an'analari, qadriyatlariga qiziqishning namoyon bo'lismiga, o'smirlarning hayot tarzini yaxshilash, pedagogik, psixologik xususiyatlari xaqida fikr berilgan.

Аннотация

В данной статье дается мнение о формировании семейной компетентности мальчиков-подростков, проявлении интереса к традициям и ценностям своего народа и других народов, совершенствовании образа жизни подростков, педагогических и психологических особенностях.

Abstract

In this article, an opinion is given on the formation of familial competence of teenage boys, the manifestation of interest in the traditions and values of their own people and other peoples, the improvement of the lifestyle of teenagers, pedagogical and psychological characteristics.

Kalit so'zlar: Familistik, jismoniy, psixologik, oilaviy, fidoyilik, halollik, rostgo'ylik, hojatbarorlik, vijdonlilik, ornomus, yetuklik.

Ключевые слова: Семейное, физическое, психологическое, семейное, самопожертвование, честность, правдивость, нуждаемость, добросовестность, честь, зрелость.

Key words: Familial, physical, psychological, family, self-sacrifice, honesty, truthfulness, neediness, conscientiousness, honor, maturity.

KIRISH

O'zbekistonni yuksalish davridagi ta'limgardagi masalalari davlat taraqiyyotining asosiy yo'nalishlariga aylanganini takidlamoqchimiz. Xalq ta'liming hozirgi kundagi dolzarb masalalaridan biri o'smirlik davrida o'g'il bolalarning tarbiyasi juda muhim sanaladi, shuning uchun farzand tarbiyasida odatda ota o'g'il bolalar tarbiyasi bilan ko'proq shug'ullanadi. Albatta, bolaning darajasini hisobga olish muhimdir. Shuning uchun o'g'il bolalarda ona Vatanga muhabbat, milliy g'oyaga sadoqat, mardlik, jasorat, fidoyilik, halollik, rostgo'ylik, hojatbarorlik, vijdonlilik, vazminlik, yigitlik g'ururi, or-nomus, mehr-oqibatilik kabi fazilatlar, tadbirdorlik va oilaparvarlik malakalarini shakllantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur.

Bu borada uzlusiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasida quydagi tamoyillar orqali pedagogik yechimini topish imkoniyatlari bor.

"Tarbiya" fani orqali o'quvchilarda ma'naviy tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalarni ta'lum mazmuniga keng singdirish;

muvaqqafiyatga erishishga intilish motivining shaxs ustuvor xususiyati sifatida mustahkamlanishi;

bolaning o'z xulq va faoliyatini ongli nazorat qilishini kuchaytirish;

o'zining va atrofdagilarning xulqi, xatti-harakatlariga munosabat bildirish, mehnatsevarlikka o'rnatish;

kattalar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilishga ijtimoiy motivlarning paydo bo'lishi;

bilimlarning kengayishi, chuqurlashuvi, ma'naviy-axloqiy ko'nikma va malakalarning rivojlanishi;

o'z xalqining va boshqa xalqlarning an'analari, qadriyatlariga qiziqishining namoyon bo'lishi;

xavfsiz hayot ko'nikmalarini mustahkamlash;

kasblar to'g'risida tasavvurlarni kengaytirish, kasbga va mehnatga qiziqtirish;

vijdonan mehnat qilish ko'nikmalarini o'rnatish, mehnatning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ko'rsatish;

– tengdoshlari bilan ma'naviy-axloqiy munosabatlar tajribasini boyitish;

$$r_{yx} = \frac{\sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})(y_i - \bar{y})}{\sqrt{\sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})^2} \sqrt{\sum_{i=1}^n (y_i - \bar{y})^2}}$$

Bu erda, $\bar{x} = \frac{\sum_{i=1}^n x_i}{n}$ va $\bar{y} = \frac{\sum_{i=1}^n y_i}{n}$ o'rtacha qiymatlarni xisoblasak, $\bar{x} = 24,8$; $\bar{y} = 22$ kelib chiqadi.

Yuqoridagi ifodalar va Excel dasturi yordamida xisoblashlar bajarib quyidagi jadvalni hosil qilamiz.

2-jadval

Parametrlarini xisoblash natijalari

Y_i	X_i	$Y - \bar{y}$	$X - \bar{x}$	$(X - \bar{x})(Y - \bar{y})$	$(X - \bar{x})^2$	$(Y - \bar{y})^2$	X^2	Y^2	$Y \cdot X$
25	23	0,2	1	0,2	1	0,04	529	625	575
24	22	-0,8	0	0	0	0,64	484	576	528
25	22	0,2	0	0	0	0,04	484	625	550
24	20	-0,8	-2	1,6	4	0,64	400	576	480
25	22	0,2	0	0	0	0,04	484	625	550
25	22	0,2	0	0	0	0,04	484	625	550
25	22	0,2	0	0	0	0,04	484	625	550
25	22	0,2	0	0	0	0,04	484	625	550
25	22	0,2	0	0	0	0,04	484	625	550
25	23	0,2	1	0,2	1	0,04	529	625	575
248	220			2	6	1,6	4846	6152	5458

2-jadvaldagi parametrlarni xisoblash natijalaridan foydalanib, korrelyatsiya koeffitsientini xisoblaymiz.

$$r_{yx} = \frac{2}{\sqrt{6 * 1,6}} = 0,6454$$

XULOSA

Ushbu xisoblangan korrelyatsiya koeffitsientining qiymatiga asosan matematik savodxonlik bilan tanqidiy fikrlash o'rtaida jips bog'liqlik mavjudligini bildiradi. Endi, ushbu korrelyatsiya koeffitsientining ahamiyatliligini Studentning t-me'zoni bo'yicha quyidagicha tekshiramiz.

$$t_{xisob} = r_{yx} * \sqrt{\frac{n-k-1}{1-r_{yx}^2}} = 2,3905$$

Studentning t-me'zonining jadvaldagи qiymati 0,95 ishonchlilik ehtimoli va erkinlik darajalarining soni $Y=8$ bo'lganida $t_{kri}=2,306$ ga teng ekanligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur holatda $t_{xisob} > t_{kri}$ bo'lganligi bois, ushbu juft korrelyatsiya koeffitsientining qiymati ahamiyatlid deb ayta olamiz. Bundan esa, o'quvchilarning matematik savodxonligi uchun ularning tanqiyid fikrlash darajasini rivojlantinish muhim faktor(omil) degan xulosani qilishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida» 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-soni Farmoni.
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2018-yil 8-dekabrdagi 997-soni Qarori.
- PISA-2021 Mathematics Framework (second draft), 46th meeting of the PISA Governing Board, 5-7 November 2018 Prague, Czech Republic.
- PISA Mathematics in 2021, An analysis of the center for curriculum redesign (CCR), 2016.
- Implementing the Proposed Mathematics Framework: Recommendations for PISA-2021, Peggy G. Carr, Ph.D., Vice Chair, PISA Governing Board Associate Commissioner, National Center for Education Statistics (NCES) May 25, 2018.
- В.Е.Гмурман Руководство к решению задач по теории вероятностей и математической статистике, М.: „Высшая школа“ 1979 г., 400 стр.

ILMIY AXBOROT

belgilangan mezonlar, ma'lum bir belgilangan yoshdagi o'quvchilarning matematik va tabiiy fanlardan olgan nazariy bilim va ko'nikmalarini real hayotda qo'llash samaradorligini aniqlashga qaratilgan[3,4].

PISA tadqiqotlari doirasida bevosa matematik savodxonlikni aniqlash me'zonlarida asosiy faktor(omil)lar sifatida: tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va kreativlik, mantiqiy mulohaza yuritish, tadqiqot va tahlil qilish va tizimli fikrlash ko'nikmalarini tanlab olishgan[3,4,5].

Matematik savodxonlik - Shaxsning kundalik hayotiy faoliyatlarida uchraydigan muammolarni matematik mulohaza yuritish, matematik modelllashtirish va qo'yilgan muammoni matematik qonuniyatlar asosida mustaqil yecha olish qobiliyatini shakllanganligidir.

Tanqidiy fikrlash – bu o'quvchilarning ma'lumotlarni mustaqil tahlil qilish asosida qaror qabul qilish va o'z fikrini mustaqil bayon qilish ko'nikmasini shakllantirishdir.

Maqolamizda, o'quvchilarning matematik savodxonligini aniqlashda keltirilgan asosiy faktor(omil)lardan “**tanqidiy fikrlash**” faktori(omil)ning qanday darajada ahamiyatliligini matematik asoslab bermoqchimiz.

Faktor(omil)lar o'rtaqidagi korrelyatsion bog'liqlikni ko'rib chiqamiz.

Bizga matematika kursidan ma'lum-ki, **korelyatsion bog'liqlik deganda** x argumentning har bir qiymatiga u erksiz o'zgaruvchining muayyan matematik kutilmasi mos keladigan bog'lanish haqida gapiriladi.

Korrelyatsion bog'liqlik – faktor(omil)larning turlichaligi, ularning o'rtaqidagi bog'liqlik va u o'zgaruvchining ko'p variantlarda o'zgarishini keltirib chiqaradi[7].

Modelga kiritilgan omillarning soniga qarab korrelyatsion bog'liqliklar bir omilli va ko'p omilli bog'liqliklarga bo'linadi.

Bir omilli (juft) korrelyatsion bog'liqliklar bir belgi-omil bilan natijaviy omil o'rtaqidagi bog'liqlik (boshqa omillarning ta'siri mavhumlashganda) hisoblanadi[6].

Korrelyatsion tahlil – matematik statistikaning tasodifiy kattaliklar o'rtaqidagi o'zaro bog'liqliklarini o'rganishga bag'ishlangan bo'limi[6].

Korrelyatsion tahlil ikkita omil o'rtaqidagi (juft bog'liqlikda) hamda natijaviy omillar bilan boshqa ko'p omillar o'rtaqidagi (ko'p omilli bog'liqlikda) bog'liqlikning zichligini miqdoriy jihatini aniqlashdan iborat.

Bog'liqlikning zichligini miqdoriy jihatdan korrelyatsiya koeffitsientlari qiymati bilan ifodalananadi.

Bizning maqolamizda, korrelyatsion tahlil qilish uchun

X_i- “Tanqidiy fikrlash” faktori

Y_i- “Matematik savodxonlik”

NATIJALAR VA TAHLIL**O'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmasiga egaligi bo'yicha tajriba-sinov natijalari
1-jadval**

Nº	Matematik savodxonlik(o'quvchilar soni) Y_i	Tanqidiy fikrlash ko'nikmasiga ega o'quvchilar soni X_i
1	25	23
2	24	22
3	25	22
4	24	20
5	25	22
6	25	22
7	25	22
8	25	22
9	25	22
10	25	23

1-jadvaldagagi ma'lumotlar asosida “Y_i-matematik savodxonlik”, “X_i- tanqidiy fikrlash” omillar o'rtaqidagi regression bog'liqlikning jipsligini quyidagi formular yordamida tekshiramiz.

**O'QUVCHILARNING MATEMATIK SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA TANQIDIY
FIKRLASH KO'NIKMASINI AHAMIYATLILIK DARAJASI**

**УРОВЕНЬ ЗНАЧИМОСТИ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В
ПОВЫШЕНИИ МАТЕМАТИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ СТУДЕНТОВ**

**THE LEVEL OF IMPORTANCE OF CRITICAL THINKING SKILLS IN IMPROVING
STUDENTS' MATHEMATICAL LITERACY**

Turdiboev Dilshod Hamidovich¹

¹Turdiboev Dilshod Hamidovich

– Guliston davlat universiteti dotsenti, Pedagogika
fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'quvchilarning matematik savodxonligini aniqlashda keltirilgan asosiy faktor(omil)lardan "tanqidiy fikrlash" faktori(omil)ning qanday darajada ahamiyatlilikini matematik asoslab berildi. "Tanqidiy fikrlash" faktori(omil)ning o'quvchilarning matematik savodxonligini oshirishda qay darajada ahamiyatlilikini matematik asosini keltirishda, juft omilli korrelyatsion bog'liqlik darajasi tahlil qilindi va shu asosida regression bog'liqlik(korrelyatsiya koefitsienti) darajasi tekshirildi.

Аннотация

В данной статье математически обосновано значение фактора (факторов) «критического мышления» из основных факторов в определении математической грамотности учащихся. Для нахождения математического обоснования значимости фактора «критическое мышление» в повышении математической грамотности учащихся был проанализирован уровень корреляции между двумя факторами и на его основе проверен уровень регрессионной зависимости (коэффициент корреляции).

Abstract

In this article, the value of the factor (factors) of "critical thinking" from the main factors in determining the mathematical literacy of students is mathematically substantiated. To find a mathematical justification for the significance of the "critical thinking" factor in improving the mathematical literacy of students, the level of correlation between the two factors was analyzed and, on its basis, the level of regression dependence (correlation coefficient) was tested.

Kalit so'zlar: Matematik savodxonlik, tanqidiy fikrlash, faktor, juft korrelyatsiya, korrelyatsiya, regressiya, OECD, PISA, korelyatsion bog'liqlik, korrelyatsion tahlil.

Ключевые слова: математическая грамотность, критическое мышление, фактор, парная корреляция, корреляция, регрессия, OECD, PISA, корреляционная зависимость, корреляционный анализ.

Key words: mathematical literacy, critical thinking, factor, pair correlation, correlation, regression, OECD, PISA, correlation dependence, correlation analysis.

KIRISH

Hozirgi kunda, butun dunyoda matematik savodxonlik darajasini belgilashda asosiy ko'nikmalar ro'yxatini takomillashtirish borasida izlanishlar olib borilmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ham ushbu sohada 30 ga yaqin mamalakatning olimlari ishtirokida "Kelajak ta'limga ko'nikmalari -2030" deb nomlangan 2030-yilgacha loyihani e'lon qilgan va molyalashtirgan[1].

Bizga ma'lumki, hozirgi kunda maldagi DTSda tayanch va fanga oid umumiy kompetentsiyalar belgilab berilgan bo'lib, shu kompetentsiyalardan asosiy kompetentsiyalaridan biri "**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi**"dir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" № PF 5712 sonli Farmonining 3 bob, 8 bandida Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish maqsadida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan PISA (The Programme for International Student Assessment) umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berildi[2].

ADABIYOTLAR TAHLILI

PISA (The Programme for International Student Assessment) – matematik va tabiiy fanlardan olgan bilimlarini baholashga yo'naltirilgan xalqaro baholash tizimi bo'lib, ushbu tizimda

ILMIY AXBOROT

kuchining pasayishi, psixik o'zgarishlar, ovoz apparatining zo'riqishi deb hisoblagan. A.Mitrinovich-Modjeevka esa hiqildoqning anatomik tuzilishida kamchiligi bo'lgan bermchlarda fonosteniyaning rivojlanishini kuzatgan.

Gipotonus disfoniya- ovoz boyamlari muskullari tonusining pasayishi natijasida ovozning buzilishidir. Sabablari kasallik paytida ovozga yuklama tushishi, o'tkir respirator-infeksiyon kasalliklar, organizmda vitamin yetishmovchiligi. Bemorlar ovozning tezda charchashidan,xirillashidan shikoyat qiladilar. Ovoz boyamlari harakatchan, tonusi pasaygan holatda bo'ladi.

Gipertonus disfoniya- bu ovoz boyamlarining muskul tonusining oshishi bilan ovozning buzilishidir. Bu ko'proq shovlinli joyda ovozga zo'r berib gapirganda, baqirib gapirganda kelib chiqadi. Bemorlar bo'yin hiqildoqdagi og'riq noqulaylikni his qilish ovozning tez charchashi xirillashidan shikoyat qiladilar.[4]

Funksional ovoz buzilishini ko'pincha to'liq bartaraf etish mumkin. Biroq,bu masalada ovoz buzilishidan aziyat chekadigon odamning o'ziga xos xususiyatlari,maqsadga erishishda o'zining uyushqoqligi va qat'iyatliligi muhim ro'l o'ynaydi.Bu ovoz buzilishlarni tiklashda ovozning oldini olish va gigeyena alohida o'rinn tutadi. Ovoz buzilishlarining shaxsiy profilaktikasi muayyan hayot sharoitlarini,oilani,dam olishni va bolaning hayot tarzini yaratishdan iboratdir.Ovoz buzilishlari ba'zan turli kasalliklarning simptoni sifatida ham namoyon no'lishi mumkin.Shu sababli ovoz buzilishidan shikoyat qilgan bermrlarga har tomonlama tekshirish va reabilitatsiya ishlarini o'z vaqtida o'tkazish lozim. Yana bir jihat ovozning shakllanishi uchun eshitish yahshi rivojlangan bo'lishi kerak.

Bolalik yoshidan ovozning xirillashi, asosan,ovozning haddan tashqari zo'riqishidan kelib chiqadi. Maktabgacha tarbiya va maktab yoshidagi bolalarning ko'pchiligidagi ovozning xirillashi kuzatiladi. Buning sababi esa nutqda va ashula aytishda ovozdan noto'g'ri foydalanishdir. Qo'shiq aytish estetik his-tuyg'u va jamoa aloqalarini rivojlantiradi. Qo'shiq aytish salomatlik uchun ham foydalidir:chunki qo'shiq aytish vaqtida nafas olish intensiv bo'ladi,nafas muskulaturasi mustahkamlanadi,yurak faoliyati va moddalar almashinuv yahshilanadi.Agar qo'shiq aytish bola uchun jismoniy jihatidan qiyin bo'lsa uni o'z vaqtida shifokorga ko'rsatish lozim.Chunki bu turli kasalliklarning natijasi bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham bolaning ovoziga e'tiborli bo'lish lozim. Ayniqsa mutatsiya davrida ota-onalar va o'qituvchilarni bolalarga to'g'ri munosabatda bo'lishlarini talab qilinadi. Ya'na bir muhim jihat ovoz buzilishiga noto'g'ri nafas olish ham sabab bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki: yosh avlodning salomatligi asosan atrof muhit bilan bog'liq bo'lgan holatlarga,uning immun,asab va endokrin tizimlari ta'siriga bog'liq. Har bir ovoz buzilishining oldini olish uchun ovozni erta bolalikdan himoya qilish va tarbiyalash juda muhimdir. Har bir o'qituvchi ovozning rivojlanishini kuchsizligini va ovozni majburlash tuzatib bo'lmaydigon zarar yetkazish mumkinligini bilishi kerak.Bolalar yoshligidan yumshoq va ohangdor ovozlarni aniq va ifodali intonatsiyalar bilan eshitishlari kerak. Katta taqlidga ega bo'lsa,ular intonatsiyani va atrofdagi kattalarning ovozlariga taqdimot usulini osongina o'zlashtiradilar.

XULOSA

Shunday qilib, birinchi qoida -baqirmslik!

Boladan har bir narsani talab qilib cheklow bilan gapirishni o'rgatish, tashqarida sovuqda gaplashmaslik, shovqinli joyda esa hech qachon baqirishga urinmaslik lozim.

Ovozga ziravorlar, juda ko'p tuz va sirka o'z ichiga olgan tirnash xususiyatini beruvchi oziq-ovqat ham ta'sir qiladi. Ovozni himoya qilish uchun ovozli nutq kasb egalari chekish, spirlti ichimliklarni iste'mol qilish issiq va qattiq sovutilgan ovqatlarni suiste'mol qilish mumkin emasligini unutmasliklari kerak,chunki bu tomoq va halqum shilliq qavatini bezovta qiladi.

Shuningdek ovozi buzilgan bermchlarni tekshirish har tomonlama tibbiy-pedagogik xususiyatga ega. Bunda otoringolog, nevropatolog, logoped va psixolog ishtirok etish shart.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. V.V.Shelenkova, I.B.Korelna. Bolalar o'smirlar va kattalardagi nutq va ovozning buzilishi.(V.V. Shelenkova, I.B. Korelna. Speech and voice disorders in children, adolescents and adults)
2. E.S.Almazova. Logopedik ish bolalarda ovozni tiklash. 2005-yil. (E.S. Almazova. Logopedic work on voice restoration in children. 2005)
3. V.V.Shelenkova, I.B.Korelna. Bolalar o'smirlar va kattalardagi nutq va ovozning buzilishi 2005-yil (V. V. Shelenkova. I. B. Korelna. Speech and voice disorders in children, adolescents and adults 2005)
4. M.Y.Ayupova.Logopediya Toshkent 2007-yil (M.Y. Ayupova. Logopedia Tashkent 2007)
5. K.P.Bekker,M.Sovak.Logopediya.1981-yil(K.P. Becker, M. Sovak Logopedia 1981)

hosil bo'lishining asosiy sababi traxeya va kekirdakning ichki muskullariga havoni ko'rsatadigon bosimadir.Fonatsiyada esa ovoz boylamlari havo bosimiga to'la bog'liq bo'lmaydi,aksincha,markaziy nerv tizimi boshqaruvi ostida nafas organlarining muskullari tonusini faol boshqarib turadi.Bu jarayon murakkab reflektor usuli orqali eshitish analizatori ishtiroki boshqariladi.[2]

Shuningdek ovoz buzilishlarini ko'p olimlar o'rganib chiqishgan.Ulardan biri L.Van der Hovel ovoz buzilishlari va qalqonsimon bez faoliyatining buzilishi o'tasidagi bog'liqlikni birinchi bo'lib o'rgangan.Bu kasallik bilan og'rigan nutqiy kasb egalarida ovozning tez charchashi,kuchsizlanishi, xirillash yuqori tovushlarning yo'qolishi natijasida ovoz diapozonlarining pasayishi kuzatilgan. Ma'lumki ovoz hosil bo'lishida qovurg'alar, ko'krak qafasining pastki kengayuvchi qismi hamda diafragma katta ro'l o'ynaydi. Ovozning normal ishlashi nafas olish va chiqarish muskullarining o'zaro moslikda ishlashiga bog'liqidir.

Ovoz buzilishlari kelib chiqishiga ko'ra markaziy va perifirik qismlarga bo'linadi.Ular ikkalasi ham organik va funksional bo'ladi.Organik ovoz buzilishlari asosan ovoz apparatida anatomik o'zgarishlar yoki surunkali shamollash natijasida paydo bo'ladi. Periferik xarakterdag'i organik ovoz buzilishlari asosida ovoz apparati kasalliklari un psychalardagi tugunchalar bo'g'iz va un psychalarining papilomotzlari, bo'g'iz stenozi, jarohatlanishlar, kuyishlar yotadi. Bular perifirik harakterdag'i organik ovoz buzilishlarini keltirib chiqaradi. Organik ovoz buzilishlari ko'pincha o'smalar va ularni olib tashlangandan keyingi holatlar sabab bo'lishi mumkin. Organik ovoz buzilishlari surunkali laringit, kasbiy traxeit, alergik laringit kabilar kiradi.

Surunkali laringit bilan og'rigan bemorlarda ovoz diapozonining qisqarganligi, monoton intonatsiya, ovoz kuchi kamligi kuzatiladi. Ular hiqildoqning nohush sezgilaridan shikoyat qiladilar. Laringitning og'ir turlarida xirillash doimiy bo'ladi ba'zan afoniya vujudga keladi.

Kasbiy traxeitlar nutqiy kasb egalarida, kuylashda ovoz boylam osti bosimining o'zgarishi natijasida yuzaga keladi. Bemorlar asosan ovozning tez charchashi, traxeyadagi noqulaylik, namlik yoki quruqlik, yo'taldan shikoyat qiladilar. Agar hiqildoq ostida shishlar bo'lsa, bunda hiqildoqda noqulay sezgilar vujudga keladi, ovoz boylamlarida shish bo'lsa, fonatsiyaning buzilishi ko'rsatiladi.

Alergik laringit- bu odamning ekzogen va endogen ta'sirlovchilarga nisbatan sezgilarning ortishidir. Alergik larengitda hiqildoqning nasliy o'tkir shishlariga moyillik ham aniqlangan.[3]

Ovoz buzilishlari qonunga ko'ra nutq tizimi shakllanishiga ta'sir ko'rsatmaydi. Faqtgina ilk davr patalogiyasigina nutq rivojlanishiga qadar kasallikka chalingan bolalarda kuzatilishi mumkin. Ko'plab o'tkazilgan operatsiyalar ovoz yo'qligida tabiiy yo'llar orqali nafas olishning buzilishi bolaning somatik zaifligini keltirib chiqaradi,hamda psixik va nutqiy rivojlanish sustlashishi,hishayajonli iroda doirasidan nuqsonlarga sabab bo'lish mumkin. Bolalar o'zlarining nuqsonlarini sezib muloqotga tez kirisha olmaydigan qaysar,o'zini tuta olmaydigan bo'lib qoladilar.Ular to'g'ri tovush talaffuzini qiyinchiliklar bilan o'zlashtiradilar. Ovoz buzilishlarining nisbatan yengil holatlarida bolalar o'z kamchiliklariga xotirjam munosabatda bo'ladilar. Ba'zilari esa o'z kamchiliklariga tanqidiy munosabatda bo'ladilar,hamda uni bartaraf etishga intiladilar.Shu paytlarda ota-onalar ham bolalariga yordam berishlari ayniqsa,hatti harakatlariga katta e'tibor berishlari lozim.

Funksional ovoz buzilishlari,nisbatan keng tarqalgan va turli tumandir. Ular hiqildoq yallig'ilanishi u yoki bu anatomik o'zgarishlar bilan kechmaydi. Pedagogik adabiyotlarda mutahasislar uchun organik buzilishlar etiologiyasini va patogenizing murakkabligi bilan bog'liq ravishda ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqqorganligi sababli funksional buzilishlarni bartaraf etish nisbatan yengil ekanligi haqidagi fikrlar o'rinni hisoblanadi.Funksional ovoz buzilishlarining sabablari turlicha bo'lishi mumkin:ovozning charchashi,ovozni yomon qo'yilishi,infektion kasalliklar hamda psixik omillarning ta'siri .Funksional ovoz buzilishlariiga fonosteniya,gipertonus va gepotonus disfoniya kabilar kiradi.

Fonosteniya- bu ovozning funksional buzilishi bo'lib,nafas fonatsiya,artikulyatsiya o'tasidagi koordinatsiyaning buzilishi bilan xarakterlanadi. Nafas yo'llarining o'tkir shamollashi,ovozga katta yuklama berish,bosh miya po'stlog'ida tormozlanish fonosteniyani paydo bo'lishiga sabab bo'ladi va ovoz apparati mushagini harakat funksiyasi buzilishi kuzatiladi. Bunda bemorlarning shikoyatlari turlicha bo'ladi: tez jahl chiqish,sahnaga chiqishdan oldin qo'rquv, uyquning buzilishi, ovozning tez charchashi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

L.D.Rabotnov fikriga ko'ra, fonosteniyaning rivojlanishi uchun ta'sir qiladigon faktorlar quyidagilar: turli xil somatik kasalliklar, organizmdagi gormonal tenglikning o'zgarishi, himoya

OVOZ BUZILISHLARI: OVOZ BUZILISHLARINI TURLARI VA KELIB CHIQISH SABABLARI

ГОЛОСОВЫЕ НАРУШЕНИЯ ВИДЫ ГОЛОСОВЫХ НАРУШЕНИЙ И ПРИЧИНЫ

VOICE DISORDERS TYPES OF VOICE DISORDERS AND CAUSES

Xalimova Ozoda Ma'murjon qizi¹, Xusanov Azamjon Axmadjanovich²

¹Xalimova Ozoda Ma'murjon qizi

– Namangan Davlat Universiteti, Pedagogika-psixologiya fakulteti Defektalogiya (Logopediya) yo'nalishi talabasi.

²Xusanov Azamjon Axmadjanovich

– Namangan davlat universiteti Pedagogika-psixologiya fakulteti Ta'lif menejmenti kafedrasи katta o'qituvchisi.

Annotansiya

Ushbu maqolada ovoz buzilishlarini kelib chiqish sabablari, ularning turlari, bolalar va kattalarda ovoz o'zgarishlari, Ferron olib borgan nazariya-fonatsiya, mioelastik nazariyalar, ovoz buzilishini oldini olish, ovoz bo'yicha olib boriladigon psixologik-pedagogik korreksion ishlari ochib berilgan. Hozirgi kunda ovoz buzilishlari juda keng tarqalmoqda ularni ertaroq aniqlab korreksiya ishlari olib borishlari zaruriyati hamda oldini olish bo'yicha ham bir necha fikr mulohazalar yuritilgan.

Аннотация

В статье раскрыты причины нарушений голоса их виды изменения голоса у детей и взрослых теория Феррона фонация миоэластические теории профилактика нарушений голоса психолого-педагогическая коррекционная работа с голосом. В настоящее время нарушения голоса имеют очень широкое распространение, необходимость раннего их выявления и проведения коррекционной работы, обсуждаются несколько мнений о профилактике.

Abstract

In this article, the causes of voice disorders, their types, voice changes in children and adults, Ferron's theory of phonation, myoelastic theories prevention of voice disorders, psychological and pedagogical correctional works on voice are disclosed. Currently, voice disorders are spreading very widely, there are several opinions on the need to identify them early and carry out corrective work, as well as on prevention.

Kalitso'zlar: bola, ovoz, funksional, organik, buzilish, logoped, markaziy, perifirik, fonatsiya, melioelastik, disfoniya, fonostoniya.

Ключевые слова: Ребенок, голос, функциональный, органический, деструктивный, логопед, центральный, перефический, фонасия, миоеластическая, дисфония, фоностония.

Key words: Child, voice, functional, organic, destroying, speech, therapist, central, perifirect, fational, melioelastic, dysphonia, phonostinia.

KIRISH

Ma'lumki davlatimiz kelajagi bugungi kun yoshlaridadir. Ayniqsa, yurtimiz mustaqilikkа erishgandan so'ng barcha e'tibor yoshlarga qaratilmoqda. Hozirgi kunga kelib esa yordamga muhtoj insonlarga yordam berish, nuqsonli bo'lgan bolalarni esa nuqsonini bartaraf etishga intilmoqdalar va bu borada turli yo'nalihsdagи ishlarni ham olib bormoqdalar. Shu bilan birgalikda azob chekayotgan bolalar bilan, ularning muammolarini tuzatish va tarbiyaviy ishlarga katta e'tibor bermoqdalar. Shuningdek bu muammolardan biriga ovoz buzilishlari kiradi. Ovoz buzilishi bu jiddiy buzilishlardan biridir. Shuning uchun ham ovoz buzlishi dolzarb hisoblanadi.

Ovoz- bu insonning ovoz apparati hosil qiluvchi turli tovushlar yig'indisidir. Ovoz nutqning ishlab chiqarilishining muhim tarkibiy qismidir, chunki u nutqning eshituvchanligini ta'minlaydi.

Ovoz buzilishlari ko'pincha ovozdan notog'ri foydalanish natijasida va ko'p hollarda ko'p ovoz yuklamasi bilan bog'liq kasb kishilarida hamda qo'shiq aytuvchilarda uchraydi. Shuning uchun ovozdan doimiy foydalanuvchilarda ovozdan foydalanishda oddiy ko'nikmalarni egallagan bo'lishlari lozim. Ovoz buzilishlari nafaqat bolalarda hatto kattalarda ham uchraydi. Bolaning ovozi kattalarnikidan barcha asosiy xususiyatlар bilan, ya'ni kuchi, balandligi va tembrida farq qiladi. [1]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ovoz hosil bo'lish mexanizmi juda murakkab bo'lganligi sababli juda kam o'rganilgan. Lekin XIX asr o'rtalariga kelib, fiziologik va akustik o'rganish metodlari yuzaga kelgach, ovoz hosil bo'lish mexanizmini ilmiy jihatdan tushuntirishga imkon tug'ildi. Bu davrga kelib fonatsiya va mioelastik nazariyalar vujudga keldi, uning asoschisi Ferron hisoblanadi. Meoelastik nazariyaga ko'ra ovoz

nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek proyektiv metodikalar shaxsning xususiyatlari va intellektini o'lchashga yo'naltirilgan bo'lib, natijalarni qayta ishlash va sharhlash xususiyatiga ko'ra farq qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. <https://aim.uz/referaty/59-psikhologiya/77137-proyektiv-metodikalar.html>
2. https://fikr.uz/blog/toshkent_islom_universiteti/shaxs-diagnostikasida-proyektiv-metodikalar.html
3. G.I.Niyazmetova. Shaxs psixodiagnostikasining proyektiv metodikalari. Psixologlar uchun qo'llanma. Toshkent – 2015. 67 b (Niyazmetova G.I. Projective methods of personality psychodiagnostics. Handbook for psychologists. Tashkent – 2015. 67.p)
4. Психодиагностика: теория и практика/Пер с нем.-М. Прогресс, 1986.-207 . (Psychodiagnostics: theory and practice / Translated from German-M. Progress, 1986.-207.p)
5. F.A.Akramova. N.A. Israilova. T.V.Xurvaliyeva. "Ijtimoiy-psixologik trening va mashqlar to'plami". Sinf rahbarlari va amaliyotchi psixologlar uchun. Toshkent. "Iqtisodiyot" 2014 y.75.b. (Akramova F.A. ON THE. Israilov. T. V. Khurvalieva. "A complex of socio-psychological trainings and exercises". For class teachers and practicing psychologists. Tashkent. "Economy" 2014 y.75.p.)

ILMIY AXBOROT

L.Frank tomonidan ishlab chiqilgan proyektiv metodlar klassifikatsiyasi:

Konstitutiv tekshiriluvchi unga taqdim etilgan qandaydir amorf, tartibsiz, tizimlashtirilma- gan materialga sub'yekтив mazmun bag'ishlashi kerak bo'ladi. Masalan, Rorshaxning "Siyoh do'g'lari metodikasi", Vartegning "Doirachalar" metodikalarini kiritish mumkin	Konstruktiv tajriba davomida tekshiriluv- chiga tavsiya etilgan alohida qismlardan (shakllar, kubiklar) foydanib muayyan mazmunga ega yaxlit bir butun ob'ekt hosil qilishi va uni sharhlashi lozim;	Ekspressiv tekshiriluvchi tasviriy faoliyat orqali yashirin, bosim ostida turgan motiv va munosabatlarini ifodalab beradi Mazkur metodlar yordamida shaxsn Ning yashirin motivlarini tekshiriluvchi tomonidan matn yoki xatga kiritilgan o'zgarishlar asosida aniqlanadi. (“Mavjud bo'Imagan hayvon”, “Uy, daraxt, odam”, “Odam rasmimi chizish”, “Oilaning kinetik rasmi”)	Impressiv metodikalarda tekshiriluvchi o'ziga tavsiya etilgan qo'zg'atuvchilar-dan yoqimli va yoqimsizlarini tanlashi kerak bo'ladi. Masalan, Lyusher testida tekshiriluvchi unga tavsiya etilgan 8 ta rangli kvadratlarni yoqish darajasiga ko'ra, tartib bilan joylashtirishi zarur bo'ladi. (“Zondi testi”)	Addettiv bir butun predmet yoki xususiyatning hajmiga xos jihat bo'lib, u kichik tarkibiy qismlarga bo'linsa ham mazkur sifat yoki xususiyat unga tegishli bo'lib qolaveradi. Bu metodikalar Shaxs hayotidagi o'zgarishlardan tortib xulq-atvor motivlari hamda yoshlarning jinsiy tarbiyaga munosabatigacha o'rganishi mumkin. ("Tugallanmagan gaplar",
--	---	--	---	--

Psixodiagnostarning tan olishlaricha, proyektiv metodikalar so'rovnomalarga nisbatan sinaluvchilar tomonidan falsifikatsiya (noto'g'ri talqin) qilinmaydi, shu sababli shaxsni diagnostika qilishda yaroqliroq sanaladi. Proyektiv metodikalarning ustunligi shu bilan bog'liqliki, ularning maqsadi odatda yashiringan bo'ladi. Sinaluvchi shaxs olingan diagnostik ko'rsatkichlarni interpretatsiya qilish yo'llarini bilmaydi va ularni o'zining shaxs xususiyatlari bilan bog'lay olmaydi. Proyektiv metodikalar sinaluvchilar bilan, ayniqsa, yosh bolalar bilan ishlashda ular bilan aloqa (kontakt) o'rnatishda samarali hisoblanadi. Odatda ushbu metodikalar sinaluvchilarda qiziqish uyg'otadi va ular topshiriqlarni bajarishga tezda kirishib ketadilar. Demak, proyektiv metodikalarni qo'llashda boshqa metodlarga nisbatan sinaluvchilarda diagnostika jarayoniga alohida motivatsiya yaratish zaruriyati mavjud emas. Quyida proyektiv metodlarining afzalliklari va kamchiliklarini keltirib o'tamiz.

Proyektiv metodikalarning afzalliklari:

- 1.Informativligi yuqori;
- 2.Shaxsni global baholash (uning yashirin, anglanilmaydigan jihatlarini aniqlash) imkoniyati;
- 3.Ularning maqsadi sinaluvchi uchun noaniq bo'lib, diagnostik ko'rsatkichlarni tavsiflab, ularni o'zining shaxs xususiyatlari bilan bog'lay olmasligi;
- 4.Sinaluvchilar bilan, ayniqsa, yosh bolalar bilan ishlashda samarali bo'lib, ularda topshiriqni bajarishga qiziqish uyg'otishi.

Proyektiv metodikalarning kamchiliklari:

- 1.Natijalarni tavsiflashdagи sub'yektivlik.
- 2.Psixometrik talablarga to'liq javob bermasligi, ya'ni ularning yetarlicha ob'yektiv emasligi.
3. Retest ishonchlik koeffitsentining yuqori darajada emasligi, validizatsiya (lot. validus - sog'lom) qilishning murakkabligi.
- 4.Natijalarni tavsiflash murakkab bo'lib, bunda psixologik tayyorgarlik, ya'ni psixologik bilimlarga ega bo'lishlik va metodikani qo'llash bo'yicha tajriba talab qilinishi. [4]

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, hozirda psixologlar tomonidan ko'pchilik proyektiv metodikalarni psixometrik kvalifikatsiyasi ustida ish olib borilmoqda, ya'ni normativ ko'rsatkichlarni umumlashtirish, metodikani o'tkazish jarayoni va natijalarni qayta ishlash usullarini modifikasiya qilish amalga oshirilmoqda. Amalga oshirilayotgan ishlar kelajakda proyektiv metodikalar, diagnostlar va tadqiqotchilar tomonidan yanada kengroq qo'llanishi uchun imkon yaratadi. Shuni ta'kidlash lozimki, proyektiv metodikalar bilan ishlashda mutaxassis muammodan qochishi kerak emas, balki uning ichida yurishi kerakligi ta'kidlanadi, chunki uslub jihatdan bu metodlar shaxsni diagnostika qilishda o'ta samarali, mazmunli, ishonchli hisoblanadi. Yuqorida biz e'tibor qaratgan masala nafaqat proyektiv metodikalarning shaxsni tadqiq etishdag'i o'ziga xosliklari haqidagi ma'lumotlarni boyitibgina qolmasdan, boshqa shaxs testlaridan ustunlik nuqtai

3. Nihoyat qidirayotgan toshingizni topdingiz. Bu qanday tosh? Uning kattaligi, ogirligi va qimmatbaholigini tasvirlab bering.

4. Endi tog'dan tushish va uyga qaytish vaqtি keldi. Siz toqqa qanday vidolashuv so'zlarini aytgan bo'lardingiz va uning javobi qanday bo'ladi?

Test kaliti:	
<i>Sizning ko'z oldingizda tasvirlangan tog'</i> -	Bu sizning otangiz yoki otangizni sizning hayotingizda tutgan o'rnini tasvirlaydi. Psixologiya tilida - bu «aqli qariya»ning arxetipi namoyon bo'lishidir.
<i>Siz qidirayotgan tosh</i> -	Bu sizning kelajakdagи mustaqilligингizga sayohatingiz vaqtida o'zingiz kashf etishingiz kerak bo'lgan qobiliyat va kuchingiz ramzidir.
<i>Sizning tog' haqida taassurotlaringiz</i> -	Bu otangiz to'grisidagi tasavvuringizni ifodalaydi. Toqqa chiqish qanday bo'ldi, mashaqqatli va qiyin bo'ldimi? Balki u osongina bosib o'tilgandir? Balki ideallashgan yuksak cho'qqi obrazи paydo bo'lib, u sizni chaqirgan va ruhlantirgandir.
<i>Sizning toshni qidirishingiz</i> -	Bu tosh sizdagi ochilmagan talant hamda kuchni anglatadi. Sizning bu savolga javobingiz esa siz hali o'zingizdagи hozircha foydalanilmagan ichki imkoniyatlaringizni qachondir qo'llay olasizmi yo'qmi shuni namoyon qiladi.
<i>Nima bo'lganda ham bu toshni topishga harakat qilardim, - deb aytganlar</i>	Odatda hayotda ham xuddi shunday tirishqoqlik va intiluvchanlikni namoyon qiladilar, ular agar harakatlari samarasizdek tuyulsa ham, hech qachon orqaga qaytmaydilar.
<i>Vaqtinchalik qidiruvni to'xtatib, lekin keyinroq davom ettirishini aytganlar</i>	O'z urinishlarini uzoq vaqtga mo'ljallaydigan va ish vaqtlarini o'zlar belgilaydigan odamlar tipiga kiradilar. Bu turdagи insonlar qobiliyatları juda kech namoyon bo'ladi
<i>O'zining qidiruv ishlarini to'xtatib, uyiga qaytmoqchi bo'lgan, ya'ni yengilgan odamlar</i>	O'zlarining imkoniyatini hech qachon ishlata olmaydilar. Bunday insonlar irodasini mustahkamlash va qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha o'z ustida ishlashlari lozim
<i>Toshni qanday tasvirlab, baholashingiz</i>	O'z o'zingizga ahamiyatliligingizni his qilishingizni ifodalaydi. Tosh qanchalik katta va qimmatbaho bo'lsa, siz o'zingizni shunchalik qadrlaysiz.
<i>Tog' bilan vidolashuv so'zlariningiz</i>	Sizning o'z otangizga aytmoqchi bo'lgan, lekin ayta olmagan so'zlariningizdir. Tog'ning javobi esa otangizning sizga bo'lgan munosabatidir. Agar savol-javob mulozamatli, shirin, yoqimli, toza bo'lsa, o'zaro munosabatlarining yaxshi. Agar vidolashuv so'zlar qo'pol va og'ir bo'lsa, u holda o'tirib otangiz bilan o'zaro munosabatlar haqida ochiqchasiga gaplashib olish vaqtı etganini ko'rsatadi

Fransialik psixolog Lourens Frank esa 1939-1948-yillarda proyektiv psixologiyaning asosiy prinsiplarini ishlab chiqqan.[2] Aynan u proyeksiya terminini bir qator proyektiv metodlarning guruhini anglatuvchi termin sifatida qo'llagan va shu metodlarning klassifikatsiyasini ishlab chiqqan. L.Frankning tadqiqotlari shaxsni o'rganishning "Xolestik" nazariyasiga katta ta'sir ko'rsatdi. O'z tadqiqotlarida Frank shaxsning ichki olamini o'rganishni maqsad qilib qo'ydi va bunda muhim omil sifatida insonning hatti-harakatlari emas balki uning nimani his qilayotgani va nima haqida o'ylayotgani deb bildi.[5] L.Frank (1939,1948) birinchilardan bo'lib proyektiv metodlarni quyidagicha tasniflagan:

ILMIY AXBOROT

mumkin. Hozirda proyektiv metodikalar keng qo'llaniladigan, ko'p tarqalgan metodikalar sirasiga kiradi. Psixologiya fani va amaliyotdan shaxs ruhiy holatini o'rganishda proyektiv metodikalar alohida ahamiyatga ega. Bu kabi metodikalarning yuzaga kelishi va rivojlanishida shaxs, uning ichki dunyosini bilish, o'rganish imkoniyati haqidagi g'oyalarga bo'lgan psixologik qarashlar evolyutsiyasi aks etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA PROYEKTIV METODLAR

Proyektiv metodikalarning ahamiyatlari tomonlari shundaki, yarim asrlik rivojlanish tarixiga ega proyektiv psixologiya bugungi kunda shaxs haqidagi psixologik bilim sohalaridan biri bo'lib, uni o'zlashtirmay shaxs haqidagi yaxlit tasavvurlarni shakllantirish mumkin emas. Shu o'rinda proyektiv metodika tushunchasini yoritib o'tishiniz lozim. «Proyeksiya» tushunchasi dastlab Z. Freyd tomonidan sub'yektning ongli va ongsiz tarzda ko'chirilgan shaxsiy xususiyatlari, tashqi ob'yeqtarga nisbatan holatlarning mazmunini ifodalash uchun qo'llanilgan. Proyeksiya lotincha «proektio» so'zidan olingan bo'lib, oldinga irg'itish, tashlash ma'nosini bildiradi. Shaxsni o'rganishning proyektiv metodi eksperiment natijalariga asosan proyeksiyalarni aniqlash va so'ngra ularni tahlil qilishni ko'zda tutadi. Proyektiv metodlar tekshiriluvchini shunday holatga qo'yadiki, bunda uning shaxsiy ehtiyojlari, uning o'ziga xos idroki, tavsiflari va ko'pgina xarakter xislatlari namoyon bo'ladi. Proyeksiya so'zli assotsiatsiyalar, tugallanmagan jumlalar, rasm va dog'lar, tekshiriluvchining chizgan rasmlari kabi verbal hamda rasmi metodlarning barchasini qo'llaganda kuzatiladi. Proyektiv metodikalar tarixi 1904-1905 yillarda K.Yung tomonidan yaratilgan so'zli assotsiatsiyalar testiga borib taqaladi. Bu metodikani yaratish bilan K.Yung shaxsning ongsizlik holatidagi kechinmalarini assotsiativ diagnostika qilish mumkinligini ko'rsatib berdi. Proyektiv diagnostikaning kelib chiqishi 1921-yilda G.Rorshax tomonidan, nemis tilida «Psixodiagnostika» asarining nashr qilinishi bilan bog'langan. [1]

Proyektiv metodikalarga xos eng muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ❖ nisbatan aniq tuzilishga ega bo'lmagan va turli-tuman javob berishga yo'l qo'yuvchi topshiriqlardan tashkil topgan;
- ❖ bir xil mazmunga ega bo'lmagan, tarqoq, tartiblashtirilmagan qo'zg'atuvchilar shaxs xususiyatlari, holati va muammolari uchun "ekran" vazifasini o'taydi;
- ❖ shaxsning yashirin, anglanmagan tomonlarini aniqlash va baholashga yondashuvning keng tarmoqliligi.

Proyektiv metodikalar shaxsning xususiyatlari va intellektini o'lchashga yo'naltirilgan bo'lib, standartlashtirilgan metodlardan qo'zg'atuvchi materialning tabiatiga, respondent, ya'ni so'ralayotganlarning oldiga qo'yilgan vazifasiga va natijalarni qayta ushslash va sharplash (interpretatsiya qilish) xususiyatiga ko'ra farq qiladi. Qisqa qilib aytganda, proyektiv metodlar test usullarining bir ko'rinishi bo'lib, ularda tekshiriluvchi uchun aniq ko'rinishga ega bo'lmagan noaniq narsalar tavsiya etiladi va ularni sharplash topshirig'i beriladi. Masalan, tekshiriluvchiga turlicha talqin qilish mumkin bo'lgan rasmlar, tugallanmagan hikoyalar, biror aniq ko'rinishi mavjud bo'lmagan buyumlar berilishi va ularni tekshiriluvchi o'zining qiziqishlari, dunyoqarashi nuqtai nazaridan baholashi kutiladi. Quyida ana shunday shaxs xususiyatlari va qiziqishlarini aniqlashga yordam beruvchi proyektiv metodikalardan birini o'tkazilish tartiblari bilan tanishtiramiz.

Baland tog'lar proyektiv metodining insonga hayotidagi muhim insonlaridan biri bo'lgan otasi bilan munosabatini, mustaqil hayot yo'lidagi kashf etishi mumkin bo'lgan qobiliyat va kuchini, ichki imkoniyatlarini aniqlab olish imkonini beradi.[3]

Psixolog trenerning so'zi: Tog'lar va daryolar - tabiat bizni o'ziga tortuvchi ulkan kuchga ega. Texnologiya qanday mo'jizalarni yaratishiga qaramasdan, orqaga tabiatga qaytish haqiqatdan borligimizni va tirikligimizni his etishimizga yordam beradi. Meditsina fanlari ilgarilab boraveradi, lekin tabiatning davolovchi sheri kuchi shifobaxshligicha qolaveradi.

Navbatdagi sayohatingiz sizni ana shu yashil dunyoga qaytaradi, inson o'zining haqiqiy «Meni»ni qaytadan ochishi uchun bundan yaxshi muhit topib bo'ladimi?

1. Siz tog' etagida turib, toqqa ko'tarilishni rejalashtirayapsiz. Siz tog'dan ertaklarda qidirganda kamyon toshni izlab topish istagidasiz. **To' etagida turganingizda tog' sizda qanday taassurotlarni hosil qiladi?**

2. Siz toqqa chiqqanidan keyin uzoq va qiyinchiliklar bilan toshni qidirdingiz, lekin hech narsa topa olmadingiz.

Siz qidirguningizgacha quyosh ham botishga ulgurdi. **U yog'iga endi nima qilgan bo'lardingiz?**

**SHAXSNI O'RGANISHDA PROYEKTIV METODIKALARING
AFZALLIKLARI TAHLILI**

**ПРОЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ В ИЗУЧЕНИИ ЛИЧНОСТИ
АНАЛИЗ ПРЕИМУЩЕСТВ**

**PROJECTIVE METHODS IN PERSONAL STUDY
ANALYSIS OF ADVANTAGES**

Yadgarova Ozoda Ibragimovna¹

1Yadgarova Ozoda Ibragimovna

– Samarqand davlat chet tillar instituti, katta o'qituvchi,
p.f.f.d (PhD)

Annotation

Ushbu maqolada shaxsn o'rganishda proyektiv metodikalarining diagnostik imkoniyatlari, afzallikkari va kamchiliklari bayon etilgan. Shuningdek, shaxs xususiyatlari va qiziqishlarini aniqlashga yordam beruvchi proyektiv metodikalaridan birini o'tkazilish tartiblari tahlil etilgan. Proyektiv metodikalar shaxsn o'rganishdagi muhim xususiyatlari shundaki, bu metodikalar shaxsning xususiyatlari va intellektini o'chashga yo'naltirilgan bo'lib, respondent, ya'ni so'ralayotganlarning oldiga qo'yilgan vazifasiga va natijalarni qayta ushlash va sharplash xususiyatiga ko'ra farq qiladi. Qisqa qilib aytganda, proyektiv metodlar test usullarining bir ko'rinishi bo'lib, ularda tekshiriluvchi uchun aniq ko'rinishga ega bo'limgan noaniq narsalar tavsiya etiladi va ularni sharplash topshirig'i beriladi. Bu metodika shaxsning yashirin, anglanmagan tomonlarini aniqlash va baholashga yordam beradi

Аннотация

В этой статье описаны диагностические возможности, преимущества и недостатки проективных методов в исследовании личности. Также анализируются процедуры проведения одного из проективных методов, которые помогают определить особенности и интересы человека. Важными особенностями проективных методов в исследовании человека является то, что эти методы направлены на измерение характеристик и интеллекта человека в зависимости от поставленной перед респондентом задачи, то есть тех, кого спрашивают, и характера отглашивания и интерпретации результатов. Проще говоря, проективные методы - это тип метода тестирования, при котором испытуемому предлагаются неоднозначные элементы, которые не видны четко для испытуемого, и предлагается их интерпретировать. Этот метод помогает выявить и оценить скрытые, нереализованные стороны человека.

Abstract

This article describes the diagnostic possibilities, advantages and disadvantages of projective methods in the study of personality. The procedures for conducting one of the projective methods are also analyzed, which help to determine the characteristics and interests of a person. Important features of projective methods in human research are that these methods are aimed at measuring the characteristics and intelligence of a person, depending on the task assigned to the respondent, that is, those who are asked, and the nature of catching and interpreting the results. In a word, projective methods are a type of testing method in which the test-taker is presented with ambiguous items that are not clearly visible to the test-taker and is asked to interpret them. This method helps to identify and evaluate the hidden, unrealized sides of a person.

Kalit so'zlar: proyeksiya, proyektiv, psixodiagnostika, interpretatsiya, konstitutiv, konstruktiv, ekspressiv, impressive, intellekt, respondent.

Ключевые слова: проекционный, проективный, психодиагностический, интерпретационный, конститтивный, конструктивный, экспрессивный, впечатляющий, интеллект, респондент

Key words: projection, projective, psychodiagnostics, interpretative, constitutive, constructive, expressive, impressive, adjective, intelligence, respondent.

KIRISH

Bugungi kunda shaxs xususiyatlari va ularning kamolotini diagnostika qilish imkonini beruvchi talaygina psixodiagnostik metodlar mavjud bo'lib, ular orasida proyektiv metodikalar alohida o'rinni egallaydi. Proyektiv metodikalar xayol va fantaziya mahsullarini tahlil qilishga asoslangan bo'lib, shaxsning ichki dunyosi, uning sub'yektiv kechinmalari, fikr, ustanonokalarini ochishga qaratilgan. Proyektiv metodikalar shaxs diagnostikasi uchun mo'ljallangan metodikalar guruhi bo'lib, ular uchun shaxsning alohida, ayrim xususiyatlarini emas, uni umumlashgan holda (global tarzda) baholash xosdir. Proyektiv metodikalarning eng muhim belgisi ularda noaniq stimullarning qo'llanilishi bo'lib, sinaluvchining o'zi ularni to'ldirishi, tavsiflashi, izohlab berishi

ILMIY AXBOROT

dosh berolmagan avvalo kattalar, jamiyat, muhit aybdor. Hech bir go'dak tirik yetim bo'lib qolmasin. Lison mana shunday grammatik qurilish, semik va pragmatik tomonlarga ega murakkab hodisadir.

Poetik matnlardagi so'zlovchining o'ta xursandlik yoki o'ta xafalik holatlarini yoki qahramonning his-hayajonini, voqeа-hodisaga emotsiyonal munosabatini ifodalovchi gaplar emotsiyonal gaplar hisoblanadi. Ularda ifodasida muallifning voqelikka bo'lgan munosabati namoyon bo'ladi:

Hech qachon Osmonga tupurma! Osmon qahrli. Tupuging yuzingga qaytib tushadi!

Hech qachon yerga tupurma! Yer mehrli: tupuging yuzingga sachramaydi. Ammo shu Yer seni ko'ksida ko'tarib yuradi.

(O'tkir Hoshimov)

Ushbu matndagi emotsiyonal gaplar zamiriga asrlar qaridagi haqiqat yashiringan. Darhaqiqat, yerdan unib chiqqan har bir tirik jonzot Yerning taftini his etadi, ko'kka bo'y cho'zganda ham uning zahmatini unutmasligi lozim. Matnda ifodalangan undov gaplar muallif nutqning ekspressivligini ta'minlash bilan birga kitobxonga muallifning pragmatik murojaati, buyrug'idir. Bunday ifodalar tilshunos olim K.Byuller ta'kidlaganidek[1,87], tilning appelyativ funksiyasi bo'lib, uni tilshunoslikning pragmatika sohasi o'rGANADI.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, olamning lisoniy manzarasi poetik matnlarda leksik birliklar, sintaktik-stilistik figuralar orqali namoyon bo'ladi. Bunday til birliklari matnning estetik-emotsionalligini kuchaytirish, mazmun-mohiyatini ochish uchun xizmat qiladi. Borliqdagi axborotlarning muallif ongida qayta ishlanib, poetik tafakkur sinteziga aylanishi, kognitiv bilimlar hosilasi sifatida namoyon bo'lishi va ularning antroposentrik tamoyil asosida pragmatik jihatdan tadqiq etilishi bugungi kun tilshunosligining matn lingvistikasi hamda pragmatika sohasi rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Бюллер К. Теория языка. Репрезентативная функция языка. -Москва,1993. (Buhler K. The theory is written. Representative function language. -Moscow, 1993.)
2. Каменская О.П. Текст и коммуникация. -М., 1990. (Kamenskaya O.P. Text and communication. - M., 1990.)
3. Филиппов К.А. Лингвистика текста. Курс лекций. – Петербург, 2003. (Filippov K.A. Linguistics is a text. The course is a lecture. - Petersburg, 2003.)
4. Схернявская В.Е. Лингвистика текста: поликодовость, интертекстуальность, интердискурсивность. –М.: LIBROKOM, 2009. (Chernyavskaya V.E. Linguistics of text: polycoding, intertextuality, interdiscursiveness. - M.: LIBROKOM, 2009.)
5. Галперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. М.: Наука,1982. (Galperin I.R. Text kak obekt lingvisticheskogo issledovaniya. M.: Nauka, 1982.)
- 6.Рубайло Л.Т. Художественные средства языка. М., 1961. –С.54.(Rubailo L.T. Khudojestvennye sredstva zyzyka. M., 1961.S.54.)
7. Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси.Тошкент.1990. (Mamajonov A. Stylistics of the compound sentence. Tashkent. 1990.)
8. Ҳакимов М., Газиева М. Прагмалингвистика асослари. -Тошкент: Poligraf Seper Servis, 2020. (Hakimov M., Gazieva M. Fundamentals of pragmalinguistics. -Tashkent: Polygraph Seper Servis, 2020.)
9. Nosirova.U. Poetik matnlarning pragmatik xususiyatlari. Monografiya. – Farg'ona: "Classic", 2020. (Nosirova.U. Pragmatic features of poetic texts. Monograph. - Fergana: "Classic", 2020.)
10. Hoshimov.O'. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – T.: "Sharq", 2006. (Hoshimov. O'. Inscriptions on the border of the notebook. - T.: "Sharq", 2006.)

Internet saytlari:

1. www.ac./semiotic/lkf_met.html
2. www.semantica-y-lexicologiyia-de-la-lengua-espanola

Allohdan yolvorib so'raydigan ne'matlarini qayd etib, biroq bularni his etish uchun eng asosiysi bo'lgan aqlni odamzod unutib qo'yishini inkor etib bo'lmaydi. Yozuvchi matnda *anafora*, *infora*, *epiforalardan* mohirona foydalanganki, ular zamirida insonga ta'sir kuchini o'tkazuvchi pragmatik ma'no yashiringan, ya'ni bizga shuncha ne'mat ato etilgan-u, uni anglash uchun ong zarur ekanligi alohida ta'kidlanadi. Shuningdek, mazkur matnda gap bo'laklarining bir xil holatda joylashganligi sintaktik parallelizmni tashkil etadi. Yonma-yon gaplar, sintagmalarning bir xil sintaktik qurilishga ega bo'lishi. Parallel birliklarning asosiy vazifasi fikrga izoh berish, asoslash va eng muhim, unga tinglovchini ishontirishdan iborat. Ular uslubiy vositalardan biri bo'lib, nasriy matnda ko'p qo'llanadigan, eng mahsuldor va ta'sirchan sintaktik birlik hisoblanadi. Bir xil shakllangan gaplar badiiy nutq ta'sirchanligini boyitish bilan birga fikrni batafsil - atroficha ifodalanishiga, tasvir obyekti bilan bog'liq ma'lumotlarning kengayib borishiga xizmat qiladi.

Voqeа-hodisalar mohiyatidagi ziddiyatni ochish uchun asosan, nasriy matnda zid ma'noli qo'shimchalar, zidlovchi bog'lovchilar, so'z va iboralardan ma'lum bir maqsadda foydalaniladi:

Ayol qalbi teskari magnitga o'xshaydi: yaqinlashsang – uzoqlashadi, uzoqlashsang – yaqinlashadi.

(O'tkir Hoshimov. "Ayol qalbi")

Ushbu matndagi *yaqinlashsang – uzoqlashadi, uzoqlashsang – yaqinlashadi* kabi sintaktik qurilmada mantiqiy jihatdan qiyoslanuvchi fikr keltirilgan bo'lib, antiteza orqali qarama-qarshi ma'no yuzaga chiqqan. Badiiy matnni lisoniy jihatdan tahlil qilishda antitezadan yozuvchining ko'zda tutgan maqsadi nima ekanligini aniqlash talab qilinadi. Uning pragmatik xususiyati shundan iboratki, ayolga nisbatan mo'tadil, bir maromda munosabatda bo'lish, shuningdek uning o'zgaruvchan fe'l-atvor egasi ekanligi ifoda etilgan. Nasriy matnda antitezaning keng qo'llanishi esa uning pragmatik ma'no qirralarining ifodalashi bilan izohlanadi.

Odam o'z farzandlarining yil sayin o'sib, kamol sari ketayotganini biladi-yu, o'z ota-onasining yil sayin cho'kib zavol sari ketayotganini bilmaydi...

(O'tkir Hoshimov. "Kamol va zavol")

Matnda qo'llanilgan *kamol-zavol* antonimlari zamiriga butun boshli inson umri yashiringan. Uning ma'no attenkasida farzandlar kamoli bizni suyuntirsa, uning ortida

ota-onal umri o'tib borayotganligi, qarib, kuchdan qolayotganligi ifoda etilgan. Matnda ifodalangan antonim so'zlar orqali *mehr pastga qarab oqadi*, degan pragmatik ma'no anglashiladi.

Nutq parchalaridan biri ikkinchisining ma'nosini kuchaytirib borishdan iborat uslubiy jarayon bo'lgan gradatsiyaning nasriy matnda qo'llanilishi ham lison tadqiqida alohida o'rinnegallaydi.

Do'stni xo'rash – gunoh . Umr yo'ldoshini xo'rash – yuz hissa gunoh. Ota-onani xo'rash – ming hissa gunoh. Go'dakni xo'rash – cheksiz gunoh...

(O'tkir Hoshimov. "Gunohi azim")

Muallif ushbu matnda gradatsiyan qo'llash orqali inson ruhiyatiga ta'sir etgan. Har bir so'zni, dastlab, qarindoshlikni ifodalovchi otlarni ketma-ket qo'llab: *do'st, umr yo'ldosh, ota-onal*; son so'z turkumini *yuz-ming-cheksiz* darajasini oshirib boorish bilan pragmatik maqsadiga erishgan, ya'ni muqaddas kitobimizda yozilganidek gunohi azimlardan bizlarni qaytargan, insonni ulug'lashni o'rgatgan.

Gradatsiya xususiyatlariga ko'ra turlicha tasnif qilinadi: mohiyatiga ko'ra: ko'tariluvchi gradatsiya va pasayuvshi gradatsiya; ifoda usuliga ko'ra: mantiqiy, emotsiyal va miqdoriy gradatsiya; ifoda materialiga ko'ra: leksik gradatsiya va sintaktik gradatsiya. Mazkur matnda esa mantiqiy, emotsiyal, leksik va sintaktik gradatsiyadan foydalaniilgan.

Poetik matnlarda inversiya va ritorik so'roq gaplar ham pragmatik xususiyatga ega.

Yaxshiyamki Xudo oftobni bag'rikeng qilib yaratgan. Bo'lmasa yer yuzidagi odamlarning illatlarini har kuni ko'raverib, allaqachon so 'nib qolgan bo'larmidi...

(O'tkir Hoshimov. "Oftob")

Ushbu matnda yozuvchi gap bo'laklarining o'rnini odatdag'i tartibda emas, o'zgargan tartibda qo'llab, tag ma'noni yuzaga chiqargan. Inson ruhiyati, ular orasidagi munosabatlar, dilxiraliklar, umuman olganda, muallifning ijtimoiy hayotga bergan bahosi o'z ifodasini topgan.

Turmush sinovlariga biz – kattalar dosh berolmasak, bolada nima gunoh? Nega bizning aybimiz uchun go'daklar yetim qolib, aziyat chekishi kerak?

(O'tkir Hoshimov. "Bosh aybdor")

Avvalo, matn nomlanishining o'zida ham tag ma'no, presuppozitsiya mavjud. Farzand ota-onanining aybi uchun aybdor emas. So'roqlarning o'zida ham javob mujassam. Turmush sinovlariga

ILMIY AXBOROT

A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Mamajonov, Z.Tohirov, D.Lutfullayeva, Sh.Iskandarova, S.Mo'minov, Sh.Safarov, M.Hakimov, M.Saidxonov, S.Boymirzaeva, S.Maksumova, A.Ko'chiboev, M.Qurbanova, A.Pardayev, M.Abdupattoyev, E.Ibragimova, S.Qurbanova, M.Gaziyeva, U.Nosirova, N.Qazaqova va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida pragmatika va uning tadqiqot predmeti, undagi asosiy tushuncha va tamoyillar bilan bir qatorda muloqot jarayonining stilistik, sotsiolingvistik, psixolingvistik va metodik jihatlari tadqiq etildi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan tadqiqotlarning barchasi o'zbek tilshunosligida pragmalingvistika haqidagi nazariyaning shakllanishiga xizmat qilib, shu sohada amalga oshirilgan ishlar uchun ilmiy-nazariy manba vazifasini bajarib kelmoqda. Matn va uning sintaktik-stilistik xususiyatlari A.Mamajonov ilmiy izlanishlarida keng tadqiq etilgan bo'lsa, ilmiy matnning pragmatik xususiyatlari tilshunos olim M.Hakimov, poetik matnlarning lingvopragmatik xususiyatlari U.Nosirova tomonidan yoritilgan. Ayni paytda, sintaktik birliklarning pragmatik xususiyatlari amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning asosini tashkil qilgan bo'lsa-da, pragmalingvistika matn tilshunosligi bazasida shakllanib, unda matnning pragmatik jihatlari o'rganilgani holda, matn lingvistikasi yo'nalishida yangi sohalarning paydo bo'lishiga yo'l ochdi. Bu esa poetik matnlarda ifodalangan leksik birliklar va ularning sintaktik-stilistik xususiyatlarini yoritish imkonini yaratdi. Shu bois bugungi kun tilshunosligida poetik matn va unda ifodalangan sintaktik-stilistik figuralarning pragmatik mohiyatini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Poetik matnda muallif o'z oldiga qo'ygan maqsadini yoritishda voqelik va nutq sharoitiga qarab til vositalarini tanlab ishlataldi. Jumladan, ma'lum bir soha vakili bo'lgan olim o'z ilmiy nutqida shu sohaga xos atamalarni tanlab ishlatsa, shoir yoki yozuvchi badiiy estetik ma'noli so'zlarni topib ishlatalishga harakat qiladi, ya'ni bir voqelik mazmuni turlicha shakllarda ifoda etiladi. Bu jarayonda voqelikni ifodalash uchun muallif turli xil sintaktik-stilistik figuralardan foydalananadi, ular asar mazmunini yoritish uchun xizmat qiladi.

Badiiy adabiyotda ifodali nutq vositasi sifatida muhim rol o'ynaydigan, mazmunan stabillashgan nutq oborotlari sintaktik-stilistik figuralar deyiladi.[6,54] Sintaktik-sintaktik figuralaming quyidagi asosiy ko'rinishlari mavjud: *anafora, epifora, takror, antiteza, gradatsiya, ellipsis, alliteratsiya, ritorik so'roq* kabilalar. Bu uslubiy vositalar mavzuga aloqador bo'lgan barcha adabiyotlarda uchratishimiz mumkin.

Sintaktik-stilistik figuralar badiiy tasvirda ifodalilik hosil qiluvchi va ma'lum bir stilistik funksiya bajaruvchi intonatsion-sintaktik vositalar, usullardir. Bu vositalar adabiyotshunoslikda poetik sintaksis yoki ritorik figuralar deb yuritiladi. Sintaktik stilistik figuralar nutqning emotsiyonalligini oshirishga yordam beradigan maxsus sintaktik oborotlardan iborat bo'lib, ularga parallelizm, takror va uning turlari, antiteza, inversiya, ellipsis, sanash usullari, gradatsiya kabilalar kiradi.[7,16] Mazkur maqolada O'.Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asarida qo'llanilgan sintaktik figuralarning pragmatik xususiyatlarini ko'rib o'tamiz.

Sintaktik-stilistik figuralar tilning ifodali vositalari qatoriga kiradi. Bu vositalar dastlab badiiy nutqqa xos vosita sifatida qaralgan bo'lsa, tilshunoslikka oid adabiyotlarda esa prozaik nutq hodisasi deya e'tirof etiladi. Sintaktik figuralar nutqni jozibali ifodalash bilan birgalikda pragmatik xususiyatlarni ham o'zida mujassam etadi.

Anafora – sintaktik figuralarning keng qo'llanilgan turi bo'lib, unda sintaktik konstruksiyani hosil qiluvchi komponentlarning bir xil so'z yoki so'z birikmasi bilan boshlanishidir. Takrorning predikativ birlikning qaysi o'rinda qo'llanilishiga qarab anafora, infora, epifora va aralash holatdag'i turlari mavjud.

Xudodan, umr ber, deb so'raganlarni ko'rdir.

Xudodan, baxt ber, deb so'raganlarni ko'rdir.

Xudodan, farzand ber, deb so'raganlarni ko'rdir.

Xudodan, davlat ber, deb so'raganlarni ko'rdir.

Xudodan, omad ber, deb so'raganlarni ko'rdir.

Faqat...Xudodan, ey, yaratgan Egam, men – nodonga bir chimdim aql ber, deb so'ragan bandasini ko'rganim yo'q.

(O'tkir Hoshimov. "Munojot")

Mazkur nasriy matnda sintaktik figuralar muallifning teran fikrlari orqali pragmatik ma'no ifodalagan. Anofora, ya'ni har bir misra avvalida ta'kid yuklangan takror yozuvchining bandalar

NASRIY MATNLARDAGI SINTAKTIK-STILISTIK FIGURALARNING PRAGMATIK JIHATLARI

ПРАГМАТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СИНТАКТИЧЕСКО-СТИЛИСТИЧЕСКИХ ФОРМ В ПРОЗАИЧЕСКИХ ТЕКСТАХ

PRAGMATIC ASPECTS OF SYNTACTIC-STYLISTIC FIGURES IN PROSE TEXTS

Nosirova Umidaxon Ikromovna¹, Ernazarova Laylo Abdusaitovna²

¹Nosirova Umidaxon Ikromovna

– Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

²Ernazarova Laylo Abdusaitovna

– Farg'ona davlat universiteti, lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi magistr

Annotation

Ushbu maqolada til ijtimoiy hodisa ekanligi, tilshunoslik sohalari: semantika, sintaktika, stilistika va pragmatikaning o'zaro uyg'un holda rivojanish masalalari, matn lingvistikasi va pragmalingvistikani shakllanishi, bu sohada tilshunos olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar, matn va uni yuzaga chiqaruvchi lisoniy va leksik birliklar, ularning sintaktik, stilistik, pragmatik xususiyatlari, poetik matnlarning pragmatik xususiyatlarini namoyon bo'lishida sintaktik-stilistik figuralarning o'rni, poetik nutqning emotsiyal-ekspressivligini oshirishga yordam beradigan maxsus sintaktik oborotlar: parallelizm, takror va uning turlari, anafora, infora, epifora, antiteza, gradatsiya, inversiya, ritorik so'roq gaplar kabilarning poetik matnning mazmun-mohiyatini ochishdagi ahamiyati yoritilgan.

Annotation

В данной статье рассматривается том факт, что язык является социальным явлением, вопросы гармоничного развития областей языковедения: семантики, синтаксиса, стилистики и pragmatiki, становления лингвистики текста и pragmalingvistikи, научные исследования, проводимые лингвистами в этой поле, текст и образующие его языково-лексические единицы. Подчеркивается значение антитезы, градации, инверсии, риторических вопросительных предложений в раскрытии сущности поэтического текста.

Abstract

In this article, the fact that language is a social phenomenon, the issues of harmonious development of the fields of linguistics: semantics, syntax, stylistics and pragmatics, the formation of text linguistics and pragmalinguistics, the scientific research carried out by linguists in this field, the text and the linguistic and lexical units that create it. The importance of antithesis, gradation, inversion, rhetorical interrogative sentences in revealing the essence of the poetic text is explained.

Kalit so'zlar: pragmalingvistik, stilistika, sintaktik-stilistik figuralar, antiteza, anafora, alliteratsiya, ellipsis, emotsiya, gradatsiya, inversiya, paralellizm, ritorik so'roq gaplar.

Ключевые слова: pragmalingvistik, stilistika, sintaksiko-stiliisticheskie figury, antitеза, анафора, аллитерация, эллипсис, эмоция, градация, инверсия, параллелизм, риторические вопросительные предложения.

Key words: pragmalinguistics, stylistics, syntactic-stylistic figures, antithesis, anaphora, alliteration, ellipsis, emotion, gradation, inversion, parallelism, rhetorical interrogative sentences.

KIRISH

Dunyo yaralibdiki, undagi har bir narsa doimiy harakatda va rivojanishdadir. Bu jarayon o'zbek tili taraqqiyotida ham o'z aksini topgan bo'lib, uni tilimizning qadimiylari va boy tarixi yoritilgan manbalarda ko'rishimiz mumkin. Tilimiz tarixiga nazar tashlasak, undagi mushtarak yozma yodgorliklar miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Tilshunos olimlar: M.Qoshg'ariy, Zamaxshariy, A.Navoiy kabilar tilimiz rivojiga munosib hissa qo'shganlar. Jamiatda har bir jabha oddiyidan murakkabga qarab rivojanib boradi. Shuningdek, til ham ijtimoiy hodisa bo'lib, doimo harakatdadir. Shu bois tilga oid muammolar har bir davrning o'z nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda tadqiq etiladi. Bugungi kunga qadar tilimiz turli yo'nalishda o'rganildi, tahlil qilindi. Tilshunoslar tomonidan qayd etgan qonuniyatlar tilimizda, badiiy adabiyotimizda o'z ifodasini topdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbek tilshunosligida 1980-1990-yillarda nutq vaziyati va matn lingvistikasi tadqiqida semantika, sintaktika, stilistika va pragmatika sohalarini uyg'un holda o'rganishga e'tibor kuchaydi. Matn va uni yuzaga chiqaruvchi lisoniy vositalar tadqiqi yuzasidan qator doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilinib, monografiyalar, qo'llanmalar yaratildi. Tilshunos olimlar

ILMIY AXBOROT

